

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq
ta'limi vazirligi

1918-yil dekabrdan chiqa boshlagan

Jurnal O'zMAA tomonidan
2013-yil 4-martda qaytadan
ro'yxatga olinib, 0104-raqamli
guvohnoma berilgan.

Bosh muharrir:

Sarvar MAHMUDOV

Bosh muharrir o'rinbosari v.v.b:

Muhayyo UMARALIYEVA

Mas'ul kotib:

Nurbek TASHXANOV

Tahrir hay'ati:

Ulug'bek INOYATOV
Dilshod KENJAEV
Risboy JO'RAYEV
Hikmatilla RASHIDOV
G'ayrat SHOUMAROV
Sharifjon ERGASHEV
Fayzulla AHMEDOV
Shavkat SHARIPOV
Maqsudjon YULDASHEV
Islom ZOKIROV
Alisher ZOKIROV
Hikmatilla DAMINOV

Jamoatchilik kengashi:

Baxtiyor DONIYOROV
Ulug'bek ABRUYEV
Erkin ISKANDAROV
Bahodir SHAMSIYEV
Norbek TAYLAQOV
Abdusamat RAHIMOV
Muhammadjon QURONOV

© "Xalq ta'limi" jurnali, 2015.

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

6-son (noyabr-dekabr)

2015

**Badiiy muharrir:**

Akbarali MAMASOLIYEV

Sahifalovchi: Muqaddas XAFIZOVA

Tahririyat manzili: 100159. Toshkent shahri, Mustaqillik maydoni, 5-uy.

E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 239-27-14, Faks: 239-27-11

Jurnalga kelgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e'lon qilingan
maqolalardan olingan parchalar "Xalq ta'limi" jurnalidan olindi, deb ko'rsatilishi
shart. Maqolalarda keltirilgan ma'lumot va annotatsiyalarning to'g'riligiga
mualliflar javobgardir.

Jurnal tahririyatning kompyuter bo'limida terilib, sahifalandi.

"PRINT LINE GROUP" xususiy korxonasi bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor shoh ko'chasi, 44-uy.

Bosishga ruxsat etildi: 23.11.2015-y. Qog'oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma
usuli. Shartli b.t. 12,0. Adadi 18 213 nusxa. - buyurtma.

TAHRIRIYAT

Yoshlarga oid davlat siyosati – ta'lim-tarbiya rivojining muhim omili	4
---	---

TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

A'zam XOLIQOV. O'qituvchilarning pedagogik mahoratini shakllantirishning o'ziga xos jihatlari	7
Haqnazar HAMZAYEV. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijtimoiy faollikni shakllantirishning mohiyati va funksiyalari.....	11

TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

Saodat QAMBAROVA. Mustaqil mutolaa bilan bog'liq adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganishning samarali yo'llari	16
Eshpo'lat VALIYEV, Abdumalik NURMAMATOV. O'quvchilarning tarixiy tafakkurini shakllantirishda mustaqil ishlardan foydalanish texnologiyasi.....	21
Muqaddas RAXMANOVA. Kasbiy ta'limi yonalishidagi talabalarni ijtimoiy moslashtirish omillari	29
Ziroat XOLMATOVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida dialogik munosabatlar madaniyatini shakllantirishda o'qituvchi mavqeining ahamiyati	35
Gulbaxor IZETAYEVA. Matematika fanini o'qitishda interfaol usullardan foydalanishning ahamiyati	40
Rustam ASTANOV. Hamkorlikdagi ta'lim – o'quvchi o'zlashtirishini muhim omili sifatida	46
Arman ALLANIYOZOV. O'quvchilarda qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirishning ayrim masalalari	50

TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT

Farxod RO'ZIYEV. Ta'lim samaradorligini ta'minlovchi mezonlar	55
--	----

ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

G'ayratjon TAJIBAYEV. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tili bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishda ro'li o'yin texnologiyalaridan foydalanish.....	59
---	----

TA'LIMDA MENEJMENT

Sobitxon TURG'UNOV, Nasibaxon AHMEDOVA. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirishning o'ziga xos xususiyatlari	64
---	----

JISMONIY TARBIYA VA SPORT

Matluba DAVURBAYEVA. Jismoniy tarbiya darslarini samaradorligini oshirishning asosiy tamoyillari	69
---	----

MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH

A'zam ALIMOV. O'qituvchilarining innovatsion faoliyatini shakllantirish usullari.....	74
--	----

MUSIQA VA SAN'AT

Sunatulla ABDIRASILOV, Nilufar YO'LDOSHEVA. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at o'qituvchilarining san'atshunoslik madaniyatini rivojlantirish	79
--	----

Nargiza HASANOVA. Tasviriy san'at darslarida badiiy ta'lim uslubidan foydalanish xususiyatlari.....	87
--	----

MAKTABGACHA TA'LIM

Hilola TOJIBOYEVA, Go'zal NAZIROVA. Maktabgacha ta'lim muassasalarida uzviylik tamoyili asosida sifat va samaradorlikni ta'minlash modeli	91
--	----

EKOLOGIK TA'LIM

Naima ABDULLAYEVA. O'quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirishda tarbiyaviy tadbirlardan foydalanish usullari	97
---	----

TA'LIMDA INNOVATSIYALAR

Dilobar SAIDOVA. Innovatsion yondashuv asosida mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy moslashtirish yo'llari	103
--	-----

TA'LIMDA AXBOROT RESURSLARI

Feruza QO'CHQAROVA. Darsliklarda o'quv ma'lumotlarini tarkibiy qisimlarga ajratishning o'ziga xos jihatlari	109
--	-----

PSIXOLOGIYA

Sevaraxon OTAXONOVA. Kichik guruhlarda ishlash usulining pedagogik-psixologik xususiyatlari.....	113
---	-----

AXBOROT XAVFSIZLIGI

Muxiddin TESHABOYEV. Globallashuv sharoitida axborot xuruji va uning yoshlar tarbiyasiga ta'siri	117
---	-----

MUSTAQILLIK YILLARI PEDAGOGIKASI

Nigora KENJABOYEVA. Yoshlar ongida mafkuraviy tarbiyani shakllantirish masalalari	123
--	-----

ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

Рисбой ДЖУРАЕВ, Иброхим ИСМАТОВ Развитие научного потенциала у детей общеобразовательной школы.....	128
--	-----

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ИНТЕГРАЦИЯ

Азамат АКБАРОВ. Традиционные и современные Методы преподавания: преимущества и недостатки	133
--	-----

ОРГАНИЗАЦИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Фарид КУЧУКБАЕВ, Муяссар ДИВАНОВА. Формирование у учащейся молодежи информационной и нравственной культуры в условиях интенсивного развития сети Интернет.....	139
---	-----

YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI – TA'LIM-TARBIYA RIVOJINING MUHIM OMILI

Tinchlik – u shunday buyuk ne'matki, jamiki ezguliklar undan boshlanadi. Usiz hayot daryosi quriydi, insonlar taqdiri uqubatga, ranju baloga giriftor bo'ladi. Tili, dini, millati, irqi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar, barchaga tinchlik va omonlik kerak. Tinch joydagina taraqqiyot bo'y ko'rsatadi.

Jonajon Vatanimizda hukm surayotgan tinchlik farovon va ma'mur hayotimizning asosi ekanini barcha yaxshi anglaydi. Yurtdoshlarimiz ko'nglidagi tinchlik istagi millatlararo va dinlararo bag'rikenglikning ham asosidir. Biroq ana shunday umuminsoniy tamoyillarga tap tortmay xiyonat qilayotgan, yer yuzida to's-to'polonlarni keltirib chiqarish natijasida o'z siyosiy manfaatlarini qondirishga urinayotgan kuchlar ham borki, bu hol diniy ekstremizm va terrorizmning har qanday ko'rinishiga qarshi murosasiz bo'lishni va kurashishni, farzandlar qalbi va ongini yot g'oyalardan himoyalashni, bir so'z bilan aytganda, ogohlikni talab etadi.

Davlatimiz rahbarining 2014-yil 6-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, faolligini oshirish, ijodiy va intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish, mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetini mustahkamlash, bandligini ta'minlash borasidagi ishlarni yanada kuchaytirdi.

Taraqqiyot hech qachon bir joyda to'xtab turmaydi. Hayotga munosabat yondashuvlar o'zgaradi, rivojlanishga intilish kuchayadi. Texnika inqilobi ro'y bergan, axborot almashinuvi shiddatli tus olgan bugungi globallashuv zamonida erishilgan yutuq va marralar bilan chegaralanib, xotirjamlik va beparvolik kayfiyatiga berilgan borki, taraqqiyotdan ortda qoladi.

Yurtboshimiz rahnamoligida yoshlarning hayotiy muhim masalalarini hal etishga qaratilgan davlat siyosati izchil amalga oshirilayotgani samarasida yoshlarimiz barcha sohalarida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritmoqda. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi navqiron avlodning zamonaviy standartlar asosida ta'lim-tarbiya olishi, o'z iqtidor va salohiyatini yuzaga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Prezidentimiz Islom Karimov "Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir" asarida: "Hozirgi vaqtda dunyoning uzoq-yaqin turli hududlarida yuz berayotgan tashvishli voqealar, jumladan, bizning mintaqamizda, yon-atrofimizda kuchayib borayotgan xavf-xatarlar, qonli to'qnashuvlar, siyosiy va iqtisodiy qarama-qarshiliklar, terrorizm, radikalizm, narkotrafikning tobora avj olayotgani tinchlik

va barqarorlikka qanday katta tahdid tug'dirayotgani haqida, o'ylaymanki, ortiqcha gapirib o'tirishning hojati yo'q", deya ta'kidlaydi.

Darhaqiqat, Yaqin Sharqda bo'layotgan voqealar, din niqobi ostida turli xun-rezliklarni amalga oshirayotgan terrorchi guruhlarining asl maqsadi ma'naviy targ'ibot tadbirlari orqali keng aholi ommasiga yetkazilayotgani ham yurtdoshlarimizni sergak torttirib, ularda Vatanga daxldorlik hissini kuchaytirmoqda.

"Ommaviy madaniyat" bugun kiyinish madaniyatimizga, tarbiya va axloqimizga, qadriyatlarimizga, o'zligimizga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu "gibrid madaniyat", ayniqsa, yoshlarimizga jiddiy xavf solyapti. Mamlakatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Tabiiyki, "ommaviy madaniyat" degan niqob ostida axloqiy buzuqlik va zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi".

Globallashuv jarayonlarida dunyoning bir qator mamlakatlarida kuzatilayotgan turli salbiy jihatlar, to'polonlar, tartibsizliklar negiziga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularda davlatning o'sib-unib kelayotgan yoshlarga, ularning jamiyatdagi qiziqishlari, huquqlariga, manfaatlariga e'tiborsizligi, ulardagi yoshlarga oid siyosatning hozirgi zamonning yangi tahdidlariga javob bermasligi oqibati ekanligi alohida ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, hozirda qator jamiyatlar, hattoki rivojlangan jamiyatlarda ham muammo bo'lib kelayotgan yoshlar tarbiyasi, ularni milliy xususiyatlarni hurmat qilishga undash, ish bilan band qilish, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va o'rgatish o'ziga xos tarzda amalga oshirib kelinayotganligi, qaysi birlarida esa umuman uddasidan chiqmayotganligi achinarli hol ekanini alohida ta'kidlashimiz kerak. Ushbu jamiyatlarda jamiyat va yoshlar o'rtasida mutanosiblik, hattoki, uzilishlar paydo bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Bu kabi muammolar zamirida jamiyat uchun muhim hisoblangan bir kasb-hunarga ega bo'lmaslik, ishsizlik, bekorchilik yotadi. Bugungi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlangan asrda kimlardir bu texnologiyalarni bunyodkorlik, ilm-fan, taraqqiyot yo'lida foydalanayotgan bo'lsalar, qaysi bir yoshlar ijtimoiy tarmoqlar orqali, o'zining mustaqil fikriga, nuqtayi nazariga ega bo'lmagan yoshlarni to'rga tushirish va o'zining salbiy niyatlarini, maqsadlarini amalga oshirish yo'lida foydalanmoqdalar. Xususan, birgini "odnoklassniki.ru" saytiga kuniga respublikamizdan 1 mln.ga yaqin kishi kirmoqda. Ularning aksariyati esa yoshlarimiz. Bunday o'xshash tarmoqlarning asosiy maqsadi esa – o'quvchi-yoshlarimiz ongini, qalbini egallash, ma'lum bir mamlakat yoki mintaqadagi millat yoki xalqning ongiga, uning sezgi-tuyg'ulariga ta'sir o'tkazish, uni o'z dunyoqarashiga bo'ysundirish, ma'naviy jihatdan zaif va tobe qilish desak mubolag'a bo'lmaydi. Fikr qaramligi, tafakkur qulligi esa har qanday iqtisodiy yoki siyosiy qaramlikdan ko'ra dahshatli ekanligini alohida ta'kidlashimiz kerak.

Bugun dunyodagi ayrim kimsalarning ma'naviy qiyofasiga nazar tashlasak, axloqsizlikni madaniyat, ma'naviyatsizlikni erkinlik deb bilish, milliy urf-odatlar va qadriyatlarni mensimay, ularni eskilik sarqiti deb qarash ustuvorligini ko'rish mumkin.

"Ommaviy madaniyat" yetakchilarining maqsadi – avvalo, iqtisodiy boylik orttirish, odamlarni o'zaro qarama-qarshi qo'yib, bir-birini va ayni paytda o'zini o'zi o'ldirishigacha olib borish. Oxir-oqibat dunyo va undagi boyliklarga yagona hukmron bo'lib qolish.

Ular shaxsning didini o'ldirib, millionlab odamlarni mustaqil fikrdan, shaxsiy munosabatdan, demak, o'zligidan judo qiladi. Bundan tashqari, axloqsizlikni targ'ib qiladi va uni odamlarga madaniyat deb o'rgatadi. Hozirgi G'arb dunyosida mutlaq erkinlikka erishgan yoshlar hech qanday to'siqsiz bani basharga yot ishlarni hayotiy ehtiyojga aylantirib olishgan. Keksalarga qarashni o'ziga ep bilmaydiganlar ota-onasidan voz kechishmoqda, odamovilikni yoqtiradiganlar jamiyatdan uzilib, haqiqiy hayotni ijtimoiy tarmoqlardan izlashmoqda, boshboshdoqlik yo'lini tanlaganlar ko'cha bekorchilariga aylanib qolishmoqda. Odob-axloqni eskilik sarqiti deb bilganlar esa behayolikda "namuna" bo'lishyapti, ularning behayoligi shu darajaga yetyaptiki, ayrim yigit-qizlar yarim-yalang'och ko'rinishi bilan ota-onasidan, aka-ukasidan, umuman, boshqalardan uyalmaydigan darajaga keldi.

Afsuski, bugungi yoshlarning aksariyati bo'sh vaqtini internetda, turli ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazishadi. Buning jiddiy zarari bor. Chunki odam bo'sh vaqtida kitob, gazeta-jurnal o'qisa, tafakkuri, fantaziyasi boyiydi, jismoniy mehnat yoki mashqlar bilan shug'ullansa, turli keraksiz fikrlardan, illatlardan xalos bo'ladi. Internetda-chi? Bu "o'rgimchak to'rida" inson na fikrlay va na o'ylay oladi. Bir joyda qotib o'tirib, faqat boshqalarni kuzatadi, o'z hayoti qolib, o'zgalar hayoti bilan yashay boshlaydi.

Yoshlar ijtimoiy tarmoqlarda axloqsizlik, behayolik, giyohvandlik kabi illatlarni ko'rib, kuzatib, bu illatlarning domiga qanday tushib qolganini o'zlari ham bilmay qolishadi. Darsga bormay, vahshiylik, shafqatsizlik targ'ib qilinadigan o'yinlarni o'ynab, behayo mavzudagi saytlarni tomosha qilishga berilib ketgan yoshlar yurt kelajagi, ertangi taqdirimizga daxldor ekanini o'ylasak, bu muammoning naqadar dolzarb va ayni vaqtda ayanchli ekanini bilish qiyin emas.

Agar tarbiyaning har bir bo'g'inida mas'uliyat bilan harakat qilsak, yoshlarimizga zamonaviy bilimlar berib, ularni milliy odat va an'analarimizga sodiqlik ruhida tarbiyalasak, atrofda kechayotgan voqealarga ongli munosabatni shakllantirsak, ertaga ularning o'zi nima yaxshiyu nima yomonligini, kimga ergashib, kimdan qochish kerakligini anglab yetadi. Mustaqil fikr va qat'iy e'tiqodga ega bo'ladi. Oq va qorani bir-biridan o'zi ajratib oladi. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, tobora kuchayib borayotgan bunday xatarlarga qarshi doimo sergak, ogoh va hushyor bo'lib yashashimiz zarur. Bunday tahdidlarga qarshi har tomonlama chuqur o'ylangan, puxta ilmiy asosda tashkil etilgan, muntazam va uzluksiz ravishda olib boriladigan ma'naviy tarbiya bilan javob berish mumkin.

A'zam XOLIQOV,

Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi, p.f.n.

O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI SHAKLLANTIRISHING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'qituvchi pedagogik mahoratining asosiy mezonlaridan biri bo'lgan pedagogik taktni shakllantirish, uning o'qituvchi kasbiy faoliyatida hamda shaxsiy xususiyatlarida namoyon bo'lishiga erishish haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Pedagogik takt, muomala me'yori, axloqiy estetik qoidalar, hissiy qutb, psixologik iqlim.

В статье изложены основные критерии формирования педагогического такта, его проявления в личных качествах учителя, которые являются мерой профессионального поведения учителя.

Ключевые слова. Педагогический такт, этические нормы, правила этики, положительная эмоция, психологическая устойчивость.

In this article are stated thoughts about formation of pedagogical tact, achievement of its development in personal qualities of teacher, which are measure of his professional behavior, acts and deeds.

Key words. Rpedagogical tact, measures of correct communication, moral requirement, positive emotion, psychological balance.

O'qituvchining o'z tarbiyalanuvchilari bilan dars va darsdan tashqari muloqotida namoyon bo'ladigan estetik fazilatlari spektri nihoyatda keng qamrovli va xilma-xildir. Ushbu muammo bo'yicha pedagogika sohasida olib borilayotgan maxsus tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim muassasalarida yuqori sinf o'quvchilari o'z o'qituvchilari xarakterida mavjud bo'lgan samimiyligni, xushmuomalalikni, mehribonlikni, adolatparvarlikni, o'quvchilarning o'rganilayotgan fani bilan bog'liq bo'lgan ba'zi muammolarini tushunishga ko'maklashishini, dars jarayonida berilgan materialni tushunishda yordam berish istagini, dildashlikni, halollikni, mehnatkashlikni, vazmin va bosiqlikni, o'quvchining bilish qobiliyati va qiziquvchanligini e'tirof etishini, sabr-bardoshni, talabchanlikni va boshqa yana bir qator pedagogik kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlari qadrlashadi. Biroq asosan, o'quvchilar o'qituvchi bilan munosabatlaridagi samimiyligni, sofdillikni, sidqidillikni ko'proq qadrlaydilar. E'tirof etilayotgan o'qituvchining ushbu fazilatlari pedagogikada umumiy nom bilan "pedagogik takt" deb ataladi. Tilshunos olim S.I.Ojegovning "Rus tili lug'ati"da *takt* so'zi inson o'zini munosib ravishda "xushxulq, odobli tutish me'yorlarini bilish tuyg'usi" sifatida ta'riflangan.

Pedagog olim B.M.Bim-Bad tahriridagi “Pedagogik qomusiy lug‘at”da *pedagogik takt*: o‘qituvchining o‘quvchilar bilan o‘zaro muloqoti jarayonida rioya qilishi lozim bo‘lgan meyoriy tamoyil sifatida talqin etiladi; o‘qituvchining pedagogik mahorati va tajribasi, uning madaniy va shaxsiy insoniy fazilatlarining yuksak darajasi bilan belgilanadi; o‘quvchilarning insoniy huquqlarini, g‘ururini poymol qilmasdan va tarbiyaviy jarayonga qarshilik qilishni keltirib chiqarmasdan istalgan vaziyatlarda (shu jumladan, ta’lim va tarbiya jarayonida kutilmaganda sodir bo‘ladigan ziddiyatli vaziyatlarda ham) eng maqbul tarbiyaviy ta’sir me’yorlarini topish ko‘nikmalari orqali ifodalanadi.

Shunday qilib, pedagogik taktning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u o‘qituvchining kasbiy faoliyatida o‘zini tutishi, xatti-harakatlari, muomalalarining me’yori hisoblanadi. bu o‘qituvchi va tarbiyalanuvchilar, o‘qituvchi va ota-onalar, o‘qituvchi va pedagogik jamoa o‘rtasidagi o‘zaro ijobiy munosabatlarni tashkil etishning muhim sharti; tarbiyaviy ta’sir va o‘zaro bir-biriga ta’sir qilishning turli metodlarini, shakllarini, vositalarini tanlash va qo‘llash me’yoridir.

Pedagogik takt muloqot qiluvchi a’zolarining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishni, o‘qituvchining kasbiy faoliyatiga taalluqli axloqiy-estetik qoidalariga rioya qilishni taqozo qiladi.

Pedagogik takt – o‘qituvchi kasbiy mahoratining asosi bo‘lib, o‘quvchilarga barcha demokratik talablar asosida pedagogik ta’sir o‘tkazish, muloqotni insonparvarlik tuyg‘ulari asosida o‘rnatish o‘lchovi, o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritishni hamda ongli intizomni tarkib toptirish ko‘nikmalarini hosil qilish shaklidir. Pedagogikada o‘qituvchining o‘quvchilar bilan munosabati ularning yosh xususiyatlariga qarab belgilanishi va bu qonuniyatga amal qilinishi qat’iy talab qilinadi. Shunday ekan, o‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonida hali to‘liq shakllanmagan, ta’sirlarga va ruhiy kechinmalarga tez beriluvchi, ota-onasining sevimli farzandi bo‘lgan murg‘ak qalb egalari bilan muloqot qilayotganligini aslo unutmasligi kerak.

O‘quvchilar bilan muloqotda pedagogik taktga qarama-qarshi bo‘lgan qo‘pollik, adolatsizlik, qo‘rqitish, haqorat, mensimaslik hamda pedagogik qonuniyatlarda va tarbiyalash usullarida belgilanmagan jazolash metodlarini qo‘llash, ular shaxsiga salbiy ta’sir qiladigan turli jargon so‘zlar ishlatish o‘quvchilar qalbini umuman tuzalmaydigan darajada jarohatlab qo‘yishi, yoki o‘qituvchining obro’siga putur yetkazishi mumkin. O‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi bunday qarama-qarshiliklar hamda ziddiyatlar ko‘pincha dars va darsdan tashqari jarayonlarda sodir bo‘ladi. Bunda, ayniqsa, yosh o‘qituvchilarning pedagogik takt sirlarini bilmasligi, tajribasizligi pand beradi.

Ta’kidlash joizki, o‘qituvchi va o‘quvchi muloqoti jarayonida uning ikkita hissiy qutbi shakllanadi. Tarbiyaning samaradorligi hamda o‘qituvchining ijobiy tuyg‘ularga asoslangan o‘zaro munosabatlarni mukammal tashkil qilish qobiliyatini bera oladi. Tarbiyaviy jarayonda o‘qituvchi tashqi hodisalar ta’sirida salbiy hissiy holatlar girdobiga ham tushib qolishi mumkin, lekin bu ta’sir etishning oxirgi maqsadi sifatida emas, balki ijobiy hissiy samaradorlikka erishish uchun bartaraf qilinadigan ziddiyatli vaziyat vositasi sifatida paydo bo‘lishi mumkin.

Ilmiy-pedagogik tajribalar, aynan pedagogik taktning mavjudligi o‘qituvchiga o‘quvchilar bilan bo‘ladigan muloqotni ijobiy tuyg‘ular asosida tashkil etishga, ular

bilan qizg'in hissiy aloqalar o'rnatib, o'zaro munosabat olib borishga imkoniyat berishini ko'rsatadi.

Pedagogik takt mohiyatini ochishning murakkabligi shundaki, ushbu pedagogik hodisa umumiy qabul qilingan "takt" tushunchasi bilan qiyoslanganda o'ziga xosligi bilan alohida izohlanadi.

Takt so'zi qiyosiy tarjima qilinganda "taalluqli, daxldor" ma'nosini ifodalaydi. Bu insonlarning bir-birlariga daxldor bo'lgan o'zaro munosabatlarini yaxshilashga yordam beradigan axloqiy kategoriyadir. Insonparvarlik tamoyillariga asoslangan holda taktik xulq va odob eng murakkab va ziddiyatli vaziyatlarda ham insonga nisbatan hurmat-ehtiromning saqlanishini talab qiladi. Odobli bo'lish – har bir insonga, ayniqsa, rivojlanayotgan barkamol shaxs bilan muloqotda bo'ladigan o'qituvchiga xos bo'lgan axloqiy talabdir.

Pedagogik takt – o'qituvchi kasbiy fazilati va kasbiy mahoratining muhim qismidir. Pedagogik takt inson fazilatiga xos bo'lgan "takt" so'zining umumiy tushunchasidan shu bilan farq qiladiki, u nafaqat o'qituvchining shaxsiy xususiyatlarini, balki o'quvchilarga nisbatan axloq-odob doirasida insonparvarlarcha yondashish ko'nikmasi hamdir, ya'ni bu o'quvchilarga sezilarli darajada insoniy fazilatlarini boyituvchi tarbiyaviy ta'sir qilish vositasidir.

Taniqli pedagog olim I.V.Straxovning ta'kidlashicha, ta'lim muassasalarida olib borilayotgan ta'lim-tarbiyaviy faoliyatning muvaffaqiyati, avvalo, pedagogik mahorat zahirida mujassamlashgan pedagogik taktga bog'liq. Mazkur sohada olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining tahlili natijasida biz pedagogik taktning quyidagi asosiy yo'nalishlarini e'tirof etishimiz mumkin:

- rasmiyatchiliksiz, tabiiy, odatiy tarzda muomala;
- muloqotda qalbakilik va jiddiylikdan yiroq bo'lgan ohang;
- o'quvchi shaxsiga nisbatan beparvo bo'lmasdan ishonch bildirish;
- o'quvchiga ortiqcha iltifot qilmasdan iltimos qilish;
- majburlovchi so'zlar ishlatib, asabiga tegmasdan maslahat va tavsiyalar berish;
- o'quvchining mustaqilligini poymol qilmasdan talablar qo'yish va ta'sir qilish;
- o'zaro munosabatlarda keskin masofa saqlashga yo'l qo'yilmaydigan jiddiy ohang;
- o'rni kelganda o'quvchi shaxsini kinoyali so'zlar bilan kamsitmasdan hazil qilish;
- o'quvchini turli arzimas voqealar uchun asossiz ayblamaslik, unga nisbatan talabchan bo'lish;
- o'zaro munosabatlarda serjahllik, beparvo va sovuqqonlikni ishchan faoliyat bilan yengish;
- qo'yilgan talablarni asossiz ravishda bekor qilmasdan tarbiyaviy ta'sirni bevosita amalga oshirish uchun qat'iylik va izchillik;
- o'quvchilarga ortiqcha iltifot ko'rsatmasdan, ularning erkin fikrlashini va mustaqilligini rivojlantirish;
- shoshilmasdan va ko'r-ko'rona qarorlar qabul qilmasdan tarbiyaviy ta'sirning tezligi va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash;
- nazoratga jiddiy urg'u bermasdan o'quvchilarga nisbatan e'tibor, o'zaro

muloqotda beparvolik, tez ta'sirlanishdan yiroq bo'lgan bosiqlik va vazminlikni namoyon etish;

- o'quvchilarga nasihatgo'ylik bilan doimo aqlli bo'lishni o'rgatmasdan aniq rejalashtirilgan biror mavzu asosida tarbiyaviy suhbatlar olib borish.

Pedagogik taktning asosiy belgisi – o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro muloqoti asosida sinf jamoasida mukammal psixologik iqlimni yaratish uchun ma'lum bir me'yorni topa bilish.

Xulosa qilib ta'kidlash joizki, pedagogik takt o'qituvchi xulqidagi eng olijanob insoniy fazilatlarida, uning vazminligida namoyon bo'ladi. A.S.Makarenko ta'kidlaganidek, u o'quvchiga bo'lgan ishonchni, pedagogik faoliyat jarayonida hatto xatolikka yo'l qo'yish xavfi paydo bo'lganda ham, “optimistik faraz” bilan yondashishni taqozo qiladi. O'quvchilarning imkoniyatlariga past nazar bilan qarab baholaydigan va buni doimo o'ziga odat qilib olgan o'qituvchi, yomon o'qituvchidir. O'qituvchining ishonch bilan yondashuvi o'quvchilar ishida rag'batlantiruvchi asos bo'lishi lozim. O'quvchi o'z imkoniyatlaridan, tirishqoqligidan quvonch hosil qilishi uchun uning muvaffaqiyatlarini ongli tarzda bo'rttirib ko'rsatish usuliga murojaat qilish ham mumkin. Ishonch – bu o'qituvchi harakatlariga beparvolik emas, agar u sidqidildan va aniq ishlar bilan tasdiqlangan bo'lsa, nazorat tarbiyalanuvchiga nisbatan hushyorlik bilan birga olib borilsa, ta'sir qiladi. Biroq nazorat ham rasmiyatchilik tarzida bo'lib, o'quvchini turli shubhalar bilan uning irodasini ezib tashlamasligi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Роботова А. С., Леонтьева Т.В., Шапошникова И.Г. и др. Введение в педагогическую специальность: учеб. пособие / под ред. А.С.Роботовой.
2. Ожегов С. И. Словарь русского языка / под ред. Н. Ю. Шведовой. – 19-е изд., испр. – М., 1987. С.684.
3. Безруких М.М., Болотов В.А., Глебова Л.С. и др. Педагогический энциклопедический словарь / гл. ред. Б. М.Бим-Бад; ред. кол.: – М., 2002.
4. Страхов И. В. Психология педагогического такта. “Саратов”, 1996.

Haqnazar HAMZAYEV,
O'zPFITI katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFLARIDA O'QITUVCHILARIDA IJTIMOIIY FAOLLIKNI SHAKLLANTIRISHNING MOHIYATI VA FUNKSIYALARI

Annotatsiya

Maqolada pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini, o'quvchilarda ijtimoiy faollikni shakllantirishga tayyorlashning mohiyati va funksiyalari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif o'quvchilarda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha o'z tavsiyalarini berib o'tgan.

Kalit so'zlar. Ijtimoiy faollik, mohiyat, funksiya, zaruriyat, dolzarb, o'yin, muammo, funksiya, ko'nikma.

В статье охарактеризованы сущность и функции подготовки будущих учителей начальных классов в системе высшего педагогического образования, выделен аспект формирования у будущих педагогов готовности к социальной деятельности.

Ключевые слова. Социальная активность, сущность, смысловое значение, функция, игра, проблема.

This article summarized the basics and functions of preparing social activities of students in the process of pedagogical education of the future primary school teachers.

Key words. Social activity, semantic value, function, game, problem, process of pedagogical education.

Mamlakatimiz ta'lim tizimining hozirgi bosqichida yuksak malakali, ijtimoiy axloqli va faol pedagog kadrlarni tayyorlash asosiy vazifalardan hisoblanadi. Jamiyatimiz rivoji mukammal ta'lim-tarbiya olgan yosh avlodni voyaga yetkazishni taqozo etmoqda. Shu ma'noda oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida (talabalarni) ijtimoiy faollikni shakllantirish va bu ishni oqilona amalga oshirish dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. Bu masala bir necha zaruriyatlar bilan belgilanadi:

birinchidan, shaxsda ijtimoiy faollikni yoshlikdan shakllantirish;

ikkinchidan, bu ishni boshlang'ich sinflarda (6-11 yoshli o'quvchilarda) dastlabki bosqichda maqsadli amalga oshirish samarali hisoblanishi;

uchinchidan, buning uchun boshlang'ich sinf o'qituvchisi muayyan malaka, ko'nikma va mahoratga ega bo'lishi kerak.

Milliy va jahon pedagogikasi tajribasiga ko'ra, shaxsda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirishda oila va maktabgacha ta'lim muassasalari muhim o'rin tutishi nazariy va amaliy jihatdan isbotlangan. Ayni paytda, oila va maktabgacha ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan vazifa ijtimoiylashtirish xarakterida bo'lishini ta'kidlash joiz. Qiziqtiradigan muammo esa, bolada ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirish ijtimoiy va pedagogik ahamiyatga ega. Bugungi boshlang'ich sinf o'quvchilari kompyuter, mobil aloqa vositasi kabi texnik imkoniyatlardan faol foydalanmoqda. Bu texnik vositalarda 6-11 yoshli o'quvchilarning ongini chalg'ituvchi, hatto mayib qiluvchi axborotlarning ko'pligi natijasida yosh avlodning bilimli, dono, aqlli va maqsad-muddaoli bo'lib voyaga yetishi ehtiyoji tug'ilmoqda. Bu omillar boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi vositasida ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirishni taqozo etadi. Shu jihatdan ijtimoiy faollik ijtimoiylashtirishdan keyingi bosqich bo'lib, u muayyan bilim va ko'nikma hosilasidir.

Mazkur yondoshuvimizga ko'ra, shaxsning ijtimoiy faollik ko'nikmasi poydevorini boshlang'ich ta'limda qo'yish va keyingi ta'lim bosqichlarida uni rivojlantirib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ijtimoiy faollik keng qamrovli tushuncha bo'lib, uning negizini hayotiy bilim, dunyoqarash va axloqqa ega bo'lish hamda faoliyat va hayotga tayyorlanishni tashkil qiladi. Bunda hayotiy bilim – dunyoqarash va mustaqil fikrning shakllanishiga asos bo'luvchi bilimlar majmuini, dunyoqarash – olam, borliq va odam haqida ilmiy tushunchaga ega bo'lishni, axloq – fazilatlar va sifatlarni, faoliyat – jamiyat madaniy darajasiga mos harakatni va hayotga tayyorlik esa mazmunli umr kechirish asoslaridan xabardorlikni ifodalaydi. Har bir jamiyat shaxsning ijtimoiy faolligiga tayanadi. Ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar, jamiyatimiz talablari va ilmiy-pedagogik tadqiqotlarda bayon qilingan nazariy fikr-mulohazalardan kelib chiqib, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy faollik ko'nikmalarni shakllantirish mohiyatini shunday belgilash mumkin: 6-11 yoshli o'quvchilarning ijtimoiy tushunchasi, ongi, fikri va axloqini shakllantirish ijtimoiy faollik asosidir. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari davlat ta'lim standartlariga muvofiq ijtimoiy hayot to'g'risida talab darajasida tushunchaga ega bo'lishi, ongi ijtimoiylashishi, mustaqil fikrlay olishi va jamiyat talablariga mos axloq egasi bo'lishi kerak. Bunday yondashuv milliy va jahon pedagogikasi talablariga mos keladi. Bugungi boshlang'ich ta'lim jarayonida mazkur yondashuv muayyan darajada amalga oshirilmoqda. Buning uchun quyidagi tashkiliy-pedagogik ishlar amalga oshirilishi kerak:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik va metodologik asoslarini ishlab chiqish;

- ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirishning mezonlari, metodlari, vositalari va texnologiyalarini belgilab olish;

- shakllari va mexanizmlarini aniqlab olish va h.k.

Bundan tashqari ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirishda quyidagi jihatlarga ham e'tibor berishimiz zarur:

- ilmiy;
- pedagogik;
- amaliy.

Bu masalaning ilmiy ahamiyati boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy ongi, dunyoqarashi va axloqini kutilgan darajada davlat ta'lim standartlariga mos ravishda shakllantirish bilan belgilanadi. Buning uchun jamiyat ehtiyojlari, zamon talablari va hayotiy qoidalarga asoslanish kerak bo'ladi. Chunki bugungi kunda o'quvchilarning ijtimoiy ongi, dunyoqarashi va axloqiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi hodisalar, ma'lumotlar va motivatsion materiallar kompyuter, mobil aloqa vositalari, dasturlari va Internet orqali

keng tarqatilmoqda. Buning tanijasida 6-11 yoshli o'quvchilarda turli ijtimoiy illatlarning paydo bo'layotgani sir emas.

Mazkur masalaning pedagogik ahamiyati shundaki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy layoqati rivojlantiriladi, ularning qiziqish va intilishlari yo'naltiriladi. Ta'lim va tarbiya samaradorligi ortida, o'quvchilarning ijtimoiy muloqot va munosabati shakllanadi.

Masalaning amaliy ahamiyati 6-11 yoshli o'quvchilarning ijtimoiy faollashuvini tezlashtirish, ularning ijtimoiy layoqatlarini ro'yobga chiqarish va qo'llab-quvvatlash, ta'lim-tarbiyaning yangi imkoniyatlaridan oqilona foydalanishdan iborat.

Bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy ko'nikmalarini ularning dastlabki bosqichdagi ijtimoiy bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishini tashkil qiladi. Ijtimoiy bilim – bu boshlang'ich sinf o'quvchilarining hayotiy tushuncha, yoshiga mos mustaqil fikr va yondoshuvlarga ega bo'lishi, ijtimoiy ko'nikma ularning faoliyat, muloqot va munosabat asoslarini o'zlashtirish hamda ijtimoiy malaka esa hayot va faoliyatga tayyorgarligidir. Bunga erishish uchun oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tegishli nazariy bilim, amaliy malaka va metodologik asoslar bilan qurollantirish kerak bo'ladi.

Ma'lum bo'ladiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy faollik ko'nikmalarini kutilgan darajada shakllantirish uchun oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini bu ishga tayyorlash kerak bo'ladi. Bu borada ham bugungi kunda muayyan ishlar amalga oshirilmoqda, biroq ular maqsadli va tizimli asosda emas. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'quvchilarda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirishga maqsadli tayyorlash va bu ishni oqilona tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda quyidagi asosiy funksiyalarni belgilash mumkin:

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarning ijtimoiy bilimi, ko'nikmasi va axloqini shakllantirish asoslari bilan qurollantirish;
- mazkur ishning metodologiyasi, metodlari va texnologiyalari bilan tanishtirish;
- o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha talabalarning yetarli ko'nikma, bilim va malakalarini shakllantirish;
- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik ijodkorlik va mustaqil faoliyat yuritish mahoratlarini hosil qilish;
- bu ishni kutilgan darajada amalga oshirish uchun ijtimoiy fanlarni chuqurlashtirilgan holda o'qitish, maxsus kurslar, klublar, to'garaklar va mustaqil ta'lim kabi shakllardan oqilona foydalanish.

Bu ishlarni amalga oshirish uchun o'ziga xos modelni shakllantirib olish lozim. O'qituvchilarni o'quvchilarda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirishga tayyorlashga oid jahon pedagogikasi tajribasini kuzatish shunday xulosaga olib keladiki, har bir mamlakat real imkoniyatlardan kelib chiqib model tanlagan. Jumladan, Amerika Qo'shma Shtatlarida "faoliyat maktabi" modelidan (D.Dyun asoslagan) foydalaniлади. Unga ko'ra, ta'lim hayotga tayyorlashga va bolalarning layoqatini tabiiy rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bunda bahoni ijtimoiy konstruktiv (foydani), ijodiy va o'zini anglash fazilatlarini shakllantirishga alohida e'tibor beriladi. O'quvchilarning sinfdan tashqari muloqotga kirishishiga diqqat qilinadi. Shu tariqa mazkur modelning quyidagi yo'nalishlari paydo bo'lgan:

- "laboratoriya maktabi" (D.Dyun asoslagan);
- "o'yin maktabi" (K.Pratt asoslagan);

– “bolalar maktabi” (M.Naumberg asoslagan);

– “tabiiy maktab” (M.Janson asoslagan).

Bu yoʻnalishlar quyidagi umumiy xususiyatlardan iborat:

a) oʻquvchilarni yangi yondashuvlar asosida ijtimoiy koʻnikmalarini shakllantirish;

b) xohish-istaklari va intilishlariga diqqat qilish;

v) shaxsiy layoqat va qobiliyatlarini izchil oʻrganib borish.

Jamiyatimizda birday amaliyot sinovidan oʻtgan pedagogik tajribalarni hisobga olish imkoniyati bor. Shu maʼnoda oliy pedagogik taʼlim jarayonida boʻljak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarini oʻquvchilarda ijtimoiy faollik koʻnikmalarini shakllantirishning milliy modelini asoslash mumkin. Bunda boʻljak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarini quyidagilar boʻyicha malakasini shakllantirish lozim:

a) oʻquvchilarning individual layoqati, xohish-istagi va qiziqishlarini aniqlab olish;

b) taʼlim va tarbiyani hayot va ijtimoiy faoliyat bilan bogʻliq holda olib borish;

v) oʻquvchilar bilan individual va umumiy tarzda ishlash;

g) nisbatan amaliy mashgʻulotlarga eʼtibor berish;

d) taʼlim jarayoni ishtirokchilari (ota-onalar, jamoatchilik va mutaxassislar) koʻpligidan unumli foydalanish;

e) oʻquvchilar ijtimoiy koʻnikmalarining shakllanish jarayonini monitoring qilib borish va h.k.

Bu masalalar aynan oliy pedagogik taʼlim jarayonida maqsadli shakllantirilishi lozim.

Shaxs faolligi fan-texnika va ijtimoiy taraqqiyot asosida yotadi. Faollik – bu tushunishga, esda saqlashga va bilimlarni takrorlashga intilish bilan aloqador boʻlib, oʻrganilayotgan narsaning mohiyatiga yetishni, jarayonlar va hodisalar oʻrtasida aloqa oʻrnatishni, oʻzgartirilgan sharoitlarda olingan bilimlarni qoʻllash usullarini egalashi bilan bogʻliq. Ijodiy faollik bilimlarni nazariy tahlil qilishga intilish bilan bir qatorda muammoni hal etishni, mustaqil izlashni, bilish ehtiyojlarini qondirishni koʻzda tutadi.

Faol shaxsning mohiyati shundaki, unda maqsadga intiluvchanlik, qatʼiyatlilik, harakat qilishga xohish, ishchanlik va tashabbuskorlik bilan izohlanadigan ehtiyojlari va manfaatlaridan kelib chiqadigan mustaqil faoliyatga intilishda namoyon boʻladi.

Ijtimoiy faollik shaxsning har tomonlama rivojlanish, maqsad va vositalari sifatida talqin qilinadi. Shaxs farovonligiga uygʻun boʻlgan ijtimoiy farovonlikni koʻpaytirishga yordam beradigan faoliyat sifatida namoyon boʻladi. Ijtimoiy ideallarga erishish uchun mehnat qilishga, ongli qaror qabul qilish, shaxsning oʻzini ifodalash va oʻzini koʻrsatish sifatida faoliyat yuritadi.

Ijtimoiy faollik jamoa, guruh, neformal uyushma sharoitlarida muloqot qilish va faoliyat koʻrsatish, atrofdagilar bilan sermahsul hamkorlik qilish, tengdoshlar, kattalar va kichiklar oldida maʼlum majburiyatlarni ijodiy bajarish, tadbirkorlik koʻrsatish, ijtimoiy hayotni demokratlashtirish jarayonlarida, fuqarolik faoliyatida va boshqalarda faol ishtirok etish mahoratini oʻz ichiga oladi. Faollikning yuqori darajasi insonning shaxsiy takomillashishga, yaʼni shaxsning shaxsiy rivojlanishi, takomillashishiga yoʻnalgan ongli va sistematik faoliyati oʻz oʻzini tarbiya qilishga intilishdir.

Uning funksiyalaridan biri shaxsning irodali boʻlishi hisoblanadi. Chunki iroda inson psixik faoliyatini faollashtirish va yoʻlga qoʻyish funksiyasini bajaradi. Maqsadga intiluvchanlikning mavjudligi esa shaxsni oʻz hayotining subyekti sifatida qarashga imkon beradi. Maqsadga intiluvchanlik shaxs fazilati sifatida nafaqat harakatdan oldin sodir boʻladigan, hatto harakat davomida yuz beradigan maqsad qoʻyish – maqsadni shakl-

lantirish jarayonining rivojlanish darajasiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi. O'smirlik yoshida yangi maqsad yaratishga qobiliyat yaqqol ifodalanadi. Lekin uni o'qituvchi yordamisiz amalga oshirishga tayyorgarlik yetishmaydi. Ushbu jarayon irodaviy kuchni talab qiladi.

Tashabbuskorlik ham ijtimoiy faollikning funksiyalaridan hisoblanadi. Tashabbuskorlik deganda insonning ijtimoiy hayotning turli sohalarida ixtiyoriy qatnashishga tayyorligi tushuniladi. Unda qandaydir topshiriqlarni mustaqil bajarishni o'ziga olib, faol hayotga tatbiq qiladi. Tashqi ta'sirlardan kelib chiqqan holda faollik ko'rsatadi. Tashabbuskor insonni o'z harakati va g'oyalariga javobgarlik, zarur bo'lganda ularni himoya qilishga tayyorlik xarakterlaydi. Ijtimoiy tashabbus psixologik hodisa sifatida umumiy tashabbusdan farq qilib, maqsadi ijtimoiy ahamiyati qimmatga ega bo'lgan hayot faoliyatining turli sohalarida namoyon bo'ladi.

Tashabbus berilgan topshiriqlarni qo'yilgan talablarga hamda ijtimoiy qoidalar va me'yorlarga muvofiq yuqori darajada bajarish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Shaxs fazilati sifatida tashabbuskorlik asosan o'smirlik va yoshlik davrida shakllanishini bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari yaxshi bilishlari kerak. Bu davrda mustaqil fikrlash va mustaqil harakat qilish qobiliyatlari tarkib topadi.

Mustaqillik ham ijtimoiy faollik funksiyalaridan biri hisoblanadi. Unda maqsad qo'yish, o'z kuchi bilan ularni bajarishga erishish, unda mas'uliyat bilan, ongli va tashabbus bilan harakat qilish mahoratida ifodalanadi. Tanish sharoitlarda qanday harakat qilinsa, nostandart qarorlar qabul qilishni talab qiladigan yangi sharoitlarda ham shunday faoliyat ko'rsatish kerak.

Mustaqillik tashqi ta'sirlardan, majburiyliklardan erkinlikni bildiradi. Biroq mustaqil harakat qilishga intilish, ayniqsa, o'smirlik davrida tashqaridan yordam olish imkoniyatini rad (inkor) qilmaydi, chunki talabalarga ushbu fazilatning rivojlanishiga yordam berish lozim. Bu yordam bevosita, ham bilvosita bo'lishi kerak.

Shaxs fazilati sifatida ijtimoiy mas'uliyat ijtimoiy ahamiyatli faoliyat davomida shakllanadi. Shuning uchun psixologlar va pedagoglar ijtimoiy mas'uliyat mohiyatini bir-biri bilan bog'liq uchta yondashuv birligi sifatida qaraydilar. Ya'ni kognitiv (ijtimoiy qadriyatlar haqidagi bilimlar), motivatsion (qadriyatlarga munosabat, ongli boshqarish) va xulqiy (ularni faoliyatda amalga oshirishga tayyorlik). Shunday qilib talabalar shaxsiy rivojlanishidagi ijtimoiy mas'uliyatning namoyon bo'lishi ichki boshqariladigan o'zini tutishga (xulq-atvorga) tayyorlik va boshqa munosabatlar o'rnatishda ko'rinadi. Uning ko'rsatkichi bo'lib, shaxsning uning bu sifatlarini atrof muhit bilan ko'p qirrali munosabatini, ularning jonli xarakterini izohlaydigan pozitsiyasi maydonga chiqadi.

Zero, oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirishga tayyorlash dolzarb va ijtimoiy muammolardan bo'lib turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.* – T.: "Ma'naviyat", 2008.
2. *Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati.* – T., 2009.
3. *Oliy ta'lim. Me'yoriy – huquqiy hujjatlar to'plami.* 2 jildli. – T., 2014.
4. Hasanboyev J. va boshq. *Pedagogika fanidan izohli lug'at.* – T., 2009.

Saodat QAMBAROVA,
Yangiyo'l tumanidagi 44-umumiy o'rta ta'lim
maktabi o'qituvchisi

MUSTAQIL MUTOLAA BILAN BOG'LIQ ADABIY- NAZARIY TUSHUNCHALARNI O'RGANISHNING SAMARALI YO'LLARI

Annotatsiya

Maqolada mustaqil o'qish asosida egallangan nazariy bilimlarni tizimlashtirish, o'rganilgan ma'lumotlar bilan bog'lash, tarkibiy ko'rib chiqish va shu orqali o'quvchilarning adabiy-nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim o'rin tutuvchi "Insert" grafik organayzerining samarali yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar. Adabiy-nazariy tushunchalar, asar, syujet, kompozitsiya, xarakter, metafora, "Insert" grafik organayzeri.

В статье освещается систематизация приобретённых теоретических знаний самостоятельного чтения, связь изученных сведений, структурный обзор, имеющие важное значение в формировании у учеников литературно-речевой компетенции посредством органайзера "Инсерт" графика.

Ключевые слова. Литературно-теоретические понятия, произведение, сюжет, композиция, характер, метафора, графические органайзеры, органайзер "Инсерт" графика.

Systematization theoretical knowledge of independent reading, communication of the studied data, the compound review and the effective party taking important place in formation at pupils of literature-speech competence by means of an organizer "Insert" of the schedule are highlighted in this article.

Key words. Literary, concepts, work, plot, composition, character, metaphor, graphic organizers, organizer "Insert" of the schedule.

Adabiy-nazariy tushunchalar adabiyot fanining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular o'quvchilarda matn ustida ishlash, kuzatish va izlanishlar asosida muayyan mezonlar hamda turli adabiy hodisalarni solishtirish natijasida vujudga keladigan davriy aloqalar tizimini ishlab chiqishga yordam beradi.

Adabiy ta'limning boshlang'ichi va 5–9-sinf davlat ta'lim standartida o'quvchilarda muayyan nazariy tushunchalarni asarning janr xususiyatiga ko'ra o'rganish masalasi ko'zda tutiladi.

O'quvchilarga adabiy-nazariy bilimlarni o'rgatish usullari haqida professor Q.Yo'ldoshevning quyidagi fikrlari e'tiborga molik: "Endilikda adabiyot nazariyasi bo'yicha beriladigan bilimlar ham o'quvchilar tafakkurini sinash va qiynash vositasi emas, balki badiiy asarni o'qish va tahlil etishga ko'mak beradigan ma'lumotlar tarzida qaratilgan bo'ldi. Aslida, adabiyot tarixiga daxldor biror faktni sharhlab aytib bera oladigan, ammo ma'naviyatida ezgu fazilatlar bo'lmagan o'quvchidan ko'ra, ay-

rim adabiy faktlarning xronologiyasini bilmasa ham, badiiy asarlarning qahramonlariga xos insoniy fazilatlarni o'z tabiatiga singdirib ola bilgan o'quvchilar jamiyatimiz uchun ko'proq zarurdir".

Adabiy-nazariy tushunchalarni shakllantirish asosida har qanday o'quv jarayoni uchun zarur bo'lgan ma'lumdan noma'lumga, tushunarlikdan notanishga o'tib borishdan iborat didaktik prinsip turadi. Odatda, o'quvchilar adabiyot fanidan umumiy va xususiy tushunchalar bilan tanishtiriladi. Umumiy va xususiy tushunchalarni uzviy bog'liqlikda o'rganish bilimning mustahkamligini ta'minlaydi.

O'zlashtirishning birinchi bosqichida ularning muhim tomonlarini aniq ko'rsatuvchi misollar tanlanishi lozim. Masalan, metafora haqidagi ma'lumotlarni egallash u yoki bu hayotiy hodisani tasvirlashdagi ahamiyatini belgilash bilan bog'liq.

Metafora o'quvchidan u yaratayotgan obrazli emotsional samarani tushunish va his qilishni talab etadi. Nazm va nasrda metafora nafaqat leksik ifodaviy vosita, balki obrazlarni tuzish usuli ham hisoblanadi. "Zero, metafora narsa-hodisani shunchaki atabgina qo'ymaydi, balki uni boshqa narsa-hodisaga qiyosan tavsiflaydi, ongimizda atalayotgan narsa haqida jonli tasavvur – obraz yaratadi".

Adabiyot nazariyasini o'rgatishda pedagogik texnologiyalar ta'lim vositalari (texnik, yordamchi va o'quv-uslubiy materiallar) bilan uyg'unlikda qo'llanilsagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Jumladan, diaproyektor, grafoproyektor, doska-bloknot, doska-stend, filpchart, yozuv taxtasi, kompyuter, kinofilm, mulyaj, grafika, diagramma, chizma, sxema, plakat, xarita, rasm, tarqatmalar kabi texnik va yordamchi vositalar o'quv materialini ko'rgazmali taqdim etish hamda ma'lum ketma-ketlikda yetkazib berishga xizmat qiladi.

Nazariy bilimlarni o'zlashtirish hamda o'quvchilar faoliyati samaradorligini oshirishda o'quv-uslubiy qo'llanmalar muhim manbaa vazifasini o'taydi. Xususan, asarning janr xususiyati, badiiy tasvir vositalarini aniqlash, albatta, darslikka qo'shimcha tarzda "Adabiyotshunoslikka kirish", "Adabiyot nazariyasi" kabi qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish zaruriyatini taqozo etadi.

Nomoddiy (savol-javob, suhbat, hikoya qilish, yod olish kabi so'z orqali esga tushiriladigan manbalar) va moddiy (tasvirlanadigan, eshitaladigan, audiovizual) vositalar adabiy-nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Masalan, qog'oz, doskaga chizilgan yoki kompyuterda tayyorlangan slaydlar, chizmalar, diagrammalar, jadvallarni taqdim etish, yozuvchi nutqi, muayyan asardan o'qilgan parchalarning magnit tasmalari, kompakt disklardan eshittirish, mavzuga oid filmlar, spektakllarni AKT vositasida namoyish etish orqali o'quvchilarning ko'rish, tinglash, qabul qilish, xotirada saqlash kabi bilish jarayonlari rivojlantiriladi.

Uzluksiz adabiy ta'lim tizimida adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganishga doir metod va usullar badiiy asarning murakkablik darajasiga qarab tanlanadi. Jumladan, grafik organayzerlar yuqoridagi talablarni o'zida mujassam etishi bilan samarali hisoblanadi.

Grafik organayzerlar – ta'lim-tarbiya jarayonida bayon qilinayotgan fikrlarni ko'rgazmali taqdim etish, o'rganilayotgan tushunchalar o'rtasidagi aloqalarni yo'lga qo'yish vositasidir. Ammo vizual (ko'rgazmali) va audiovizual (eshitish va ko'rish) vositalarini qo'llashda me'yorning ortib ketishi o'quvchini dars mavzusi maqsadidan chalg'itishi mumkin. Shu bois, ulardan o'quvchi yosh xususiyati va sezgi a'zolariga ta'sirini ko'zlab foydalanish tavsiya etiladi.

Adabiy-nazariy tushunchalar kompyuterning “MS Word”, “MS Power Point”, “Paint”, “MS Excel” dasturlari imkoniyatlari doirasida hosil qilingan grafik organayzerlar bilan uyg'unlikda yetkazilsa, o'quvchilarning axborotlarni qabul qilish, xotirada tiklash, tahlil qilish faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

“Insert” grafik organayzeri materialni samarali o'rganish va mantiqiy fikrlash uchun matnda belgilashning interfaol tizimi bo'lib, mustaqil o'qish vaqtida olingan bilimlarni tizimlashtirishga, ehtiyoj sezilganda g'oya va fikrlarga izoh berish, qo'shimchalar kiritish zaruriyatini taqozo etadi.

“Insert” – o'zlashtirishning kompleks vazifalarini hal qilish va mavzuni mustahkamlash, kitob bilan mustaqil ishlash malakasini rivojlantirishga qaratilgan o'qitish usulidir.

7-sinfda mustaqil o'qishga tavsiya etish mumkin bo'lgan yapon yozuvchisi Sin'iti Yukining “Xazon qoplagan bog” hikoyasi syujeti yoki kompozitsion xususiyatlari “Insert” usuli asosida ko'rib chiqilishi o'quvchilarning masalaga individual tarzda yondashishi qatori axloqiy muammolar, umumbashariy qadriyatlar yuzasidan mulohaza yuritish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Zero, “adabiy-nazariy hodisalar mohiyatini to'g'ri ilg'ash va ularga bog'liq tushuncha va bilimlarni o'rganilayotgan asarga tatbiq etish” davlat ta'lim standartida alohida belgilanishi kitobxonlik amaliyotida ijobiy samara berishi, shubhasiz.

Hayotning real qiyofasi, turfa xarakterlar, voqealiklar, murakkab insoniy munosabatlar, ijtimoiy ziddiyatlar, his-tuyg'ular tasvirida asar tili, syujetning tarkibiy qismlari, kompozitsion vositalar, adabiy tur va janrlar kabi vositalar katta ahamiyatga ega.

“Syujet hayotning obyektiv oqimini, tarixini oddiy tasvirlash (chunki san'atkor, nusxa ko'chiruvchi shaxs emas) bilan yuzaga kelmaydi, balki yozuvchi tomonidan eng xarakterlilari tanlangan, ishlov berilgan, mohiyatini ochib beradigan, g'oyaga muvofiqlashtirilgan voqealardir”.

Ma'lumki, syujet (fransuzcha “syujet – “narsa”, “mavzu”, “mazmun”) kompozitsiya talablariga mos holda namoyon bo'ladi. Bu tushuncha haqida so'z yuritganda, dastlab asar markaziga qo'yilgan muammoga qanday nuqtayi nazardan yondashilganiga hamda ekspozitsiya, tugun, voqea rivoji, kulminatsiya, yechim, prolog va epilog kabi o'zaro bog'liq qismlar orasidagi mantiqiy izchillikka munosabat bildirilishi maqsadga muvofiq. Binobarin, syujet qismlari barcha asarlarda ham to'liq uchrayvermaydi.

Kompozitsiya atamasi lotinchadan o'zbekchaga tarjimada qilinganda “compositio” – “tuzib chiqish, “tartibga solish” ma'nosini bildiradi. Adabiyotshunos E.Xudoyberdiyev ta'rificha, “Adabiy asarning barcha qismlarini o'zaro birlashtiruvchi, muayyan hayotni yaxlitlikda va muallif nuqtayi nazariga mos holda obrazli aks ettirishga yordam beruvchi qurilishi kompozitsiya deb ataladi”.

Kompozitsion markaz, asar qismlarining o'zaro joylashuvi, ularning yozuvchi g'oyaviy maqsadiga mosligi, obrazlarning yagona tizimga birlashtirilishi, tasvirdagi me'yor tahlilda alohida so'z yuritishini talab etadigan tamoyillar tarkibiga kiradi.

“Xazon qoplagan bog” hikoyasi insonning yashashdan maqsadi, yoshlarning davlat, jamiyat oldidagi burch va mas'uliyati qalamga olinishi bilan kitobxonni faol ruhiy tahlilga tayyorlaydi.

Asar syujetida bosh qahramon Kayama umrining so'nggi davriga tayaniladi. Tabiat hodisalari qahramon taqdiri in'ikosi sifatida bo'y ko'rsatib, mavsumiy o'zgarishlar, fasllar almashinishi, marhumlar yodi, daraxtlar va toshlar tarixi ichki dunyosiga bog'liq holda talqin qilinadi.

Syujet xarakter tarixi ekanligi nazarda tutilsa, muayyan obraz faoliyatiga tayanib fikr yuritish o'ta muhimdir. Chunki asar mazmunidan kelib chiqadigan asosiy g'oya personajlarning shakllanib, takomillashib boruvchi fe'l-atvori, xatti-harakatlari orqali yanada oydinlashadi.

Kayamaning ezgu maqsadiga bog'bon Sudo, toshfurush va uning o'g'li kamarbastalik qiladi. Yaqin kishilarining sa'y-harakatlari bilan bog' boshqa yerlardan ko'chirib keltirilgan anvoyi daraxtlar, antiqa qadimiy toshlar bilan bezatilib, yanada ulug'vor va ko'rkam qiyofa kasb etadi.

Aytish mumkinki, asar nafaqat inson ruhiyati chizgilari, balki yapon xalqining bog' yaratish san'ati xususida ham muayyan tasavvur uyg'otadi. O'zbek va yapon millati qadriyatlari o'rtasidagi mushtarak jihatlarni namoyon qiladi.

"Xazon qoplagan bog'" hikoyasi qismlarini tiriklik va o'lim, xotira va yod etish, yaratuvchanlikka ruhlantrish haqidagi yetakchi g'oyalar birlashtiradi. Asar nomi, lirik chekinish (Kayamaning bog' yaratishga kirishgunga qadar o'tgan kunlari haqidagi tanishtiruv), qahramonlar portreti, detal (qora siyohga botirilgan mo'yqalam, kumushrang zog'orabaliq), peyzaj kabi kompozitsion vositalarning asar mazmuni va yaxlitligini ta'minlashda o'z o'rni mavjud. Jumladan, savdogar toshfurushning yo'l-yo'lakay tilga olingan "qizil yuzi, qiyiq ko'zlari, oppoq tishlari, qo'ng'iz mo'ylovi" voqealar davomida uning xarakter xususiyatlari, ichki dunyosini to'laqonli yoritish vositasiga aylangan, deyish mumkin.

Tahlil yakunida asarning badiiy xususiyatlari yoki kompozitsiya tamoyillari "Insert" tizimi asosida belgilanishi va rag'batlantirilishi maqsadga muvofiq. Masalan:

"V" – Buni bilaman.

"+" – Yangi axborot.

"–" – Bilganlarimga zid.

"?" – Meni o'ylantirib qo'ydi. Bu masala bo'yicha qo'shimcha axborot kerak.

No	Ma'lumotlar	"V"	"+"	"–"	"?"
1	Yaponlar tabiat go'zalliklarini asl holicha saqlash tarafdori. Shuning uchun manzara yaratishda ikebana san'atidan foydalanishadi.		+		
2	Keksa ota-onasini qarovsiz qoldirish farzand uchun kechirilmas gunoh.	V			
3	Toshlardan tog' daryolarining shovullagan ovozi eshitilgandek tuyulishidan qariya ularga tirik mavjudot sifatida qaraydi.			–	
4	Xazon qoplagan bog' – yolg'izlikka chulg'angan umr.				?

Jadvaldan ko'rinadiki, "V" belgisi o'quvchi bilim darajasini belgilasa, "+" qiziqish va imkoniyatlarini namoyon etadi.

Munozara talab "–" belgisi bahslashishni taqozo etadi, chunki har bir o'quvchining ko'rilayotgan masala yuzasidan shaxsiy qarashlari mavjud.

"?" belgisi esa ehtiyojlarini aniqlaydi, adabiyotlar bilan mustaqil ishlash, qo'shimcha ma'lumotlar izlab topish, yangi g'oyalar taqdim etish va xulosalarini asoslashga sharoit yaratadi.

Demak, adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganishda grafik organeyzerlardan foydalanish samarasi quyidagilarda aks etadi:

– ko‘rilganlar eshitilganga nisbatan bir necha marta tez o‘zlashtirilib, uzoq vaqt xotirada saqlanib qoladi;

– ko‘rgazmali vositalarni belgilangan tartibda qo‘llash muammoli vaziyatlarni tashkillashtirish, o‘rganilayotgan narsa va tushunchalar haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi;

– bilim o‘quvchilar tafakkuriga faqat asos, dalil, timsol va qiyofalar orqali singdiriladi.

Xulosa shuki, nazariy bilimlarni amalda qo‘llashga o‘rgatish orqali o‘quvchilarda badiiy asarni o‘qish, tushunish, tushuntirish va tahlil (analiz-sintez) kabi xususiy kompetensiyalar qatori umumiy (tayanch) kompetentlikning kommunikativ, kreativlik, axborotlar bilan ishlash, o‘z-o‘zini shaxsiy taraqqiy ettirish, mustahkam e‘tiqodga ega bo‘lish hamda umummadaniy kompetensiyalar rivojlantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev Q. *Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta‘lim maktablarida adabiyot o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari*. Ped. fan. dokt... diss.. – T., 1997.

2. Karimov O. *Metafora – poetik tafakkur asosi*. //Jahon adabiyoti. – T., 2014, №8. – 188-bet.

3. *Uzviylashtirilgan Davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturi*. Ona tili. Adabiyot. O‘zbek tili. (5-9-sinflar). – T.: “Yangiyo‘l poligraf service”, 2010.

4. Umurov H. *Adabiyot nazariyasi*. – T.: “Sharq”, 2012. – 129-bet.

5. Xudoyberdiyev E. *Adabiyotshunoslikka kirish*. – T.: “Sharq”, 2008. – 86-bet.

6. Sin‘iti Yuki. *Xazon qoplagan bog‘*. Rus tilidan O.Otaxon tarjimai. //Jahon adabiyoti. – T., 2014, №11. – 143-bet.

Eshpo'lat VALIYEV,
Abdumalik NURMAMATOV,
Surxondaryo viloyati XTXQTMOI katta o'qituvchilari

O'QUVCHILARNING TARIXIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHDA MUSTAQIL ISHLARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'quvchilarning tarixiy tafakkurini shakllantirishda mustaqil ishlardan foydalanish texnologiyalarining ahamiyati, yuqori sinf o'quvchilarining tafakkurini o'stirishdagi o'rni, psixolog va pedagog olimlar ta'limotlari, ilmiy tadqiqot ishlari, tajribalar yoritilgan.

Kalit so'zlar. Tarixiy tafakkur, ta'lim-tarbiya, o'quvchilar tafakkuri, mustaqil ish, ped-texnologiya, psixologiya, ko'nikma va malaka.

В данной статье освещается значимость использования самостоятельных работ в формировании исторического мышления школьников, его роль в развитии мышления старшеклассников и подростков, анализируются учения психологов и ученых педагогов, а также научно-исследовательские работы в данной сфере.

Ключевые слова. Историческое мышление, образование, воспитание, мышление школьников, самостоятельная работа, педтехнологии, психологические умения и навыки.

Proceeding from several years experience this article highlights the importance of the use of independent work in the formation of historical thinking of pupils, its role in the development of thinking schoolboys and adolescents, the teachings of psychologists and scientists teachers, as well as scientific researches in this area.

Key words. Historical thinking, education, pupils' thinking, the formation of pupils' thinking, independent work of pupils, pedagogical technology, developing skills and experience of the pupils.

Mustaqil davlatimizni rivojlantirish uchun chuqur zamonaviy bilimga, yuksak ong va tafakkurga ega bo'lgan insonlar zarur. Shu munosabat bilan Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy maqsad va vazifalariga e'tibor beradigan bo'lsak: "ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir".

Prezidentimiz Islom Karimov, – "O'zingiz o'ylab ko'ringlar, aziz do'stlar, mustabid tuzum, mustamlakachilik davrida biz kim edik?",

– Taqdirimiz, erkimiz kimlarning qo'lida edi?

– Ka'ba deb qayerga sig'inar edik? Har tong "Assalom!.." degan madhiya ohanglari ostida kimlarga qulluq qilib uyg'onardik?

– Tilimiz, dinimiz qay ahvolda edi?" – deb e'tirof etib o'tgan edilar. Bu savollarga javob topish uchun ham, albatta, yoshlarning fikri, dunyoqarashi va zamonaviy tafakkurini bugungi kun talabi darajasida shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

O'ylab ko'raylik. Haqiqatdan, biz kim edik? Biz – yuqoridan berilgan topshiriqlarni, ko'rsatmalarni hech o'zgarishsiz, o'ylab, fikrlab o'tirmasdan, to'g'ridan-to'g'ri qabul qilib bajaruvchi, ijrochi edik. Mustaqil fikr yuritishga va mushohada qilishga hojat yo'q edi. Ona tilimiz ikkinchi darajaga qo'yildi. Dinimiz "afyun" deb e'lon qilindi. "Ulug' xalq", "Ulug' millat" qo'shig'ini aytib, sajda qildik. Natijada yoshlar orasida shu g'oyaga berilib, "ulug' xalq"ning madaniyati va turmush tarziga havas qiluvchilar paydo bo'la boshladi.

Millatimizdan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlar, sarkardalar, vatanparvarlar to'g'risida ma'lumotlar kam o'qitilib, ba'zan soxtalashtirildi. Oqibatda yoshlar o'z millatiga mansub qahramonlardan ko'ra Yevropaning tarixiy shaxslari to'g'risida ko'proq bilim va ma'lumotlarga ega bo'ldi, ularga havas qilish, hatto taqlid qilish holatlari paydo bo'la boshladi. Bu holat xalqimiz va millatimiz, uning tarixiy qadriyatlari uchun fojea edi.

Xalqimizning dunyoviy, zamonaviy bilim olish imkoniyatlari cheklangan edi. San'atimiz, sportimiz, bilimga chanqoq yoshlarimiz erishgan yutuqlari jahon darajasidan ancha orqada qolib ketdi.

Mustaqillik sharofati bilan bu tarixiy xatolarni tuzatish, voqelikka obyektiv qarash vaqti keldi. Ammo mustaqillikka erishganimizdan so'ng, ayniqsa, xalqimiz ongida paydo bo'lgan g'oyaviy bo'shliq sababli ko'pchilik yoshlarimiz "yo'l"dan adashib, har xil qo'poruvchilik, buzg'unchilikni o'ziga maqsad qilib olgan guruhlariga kirib ketish holatlari paydo bo'ldi. Bu ham Mustaqilligimizni mustahkamlash, vatanimizni rivojlantirishga to'sqinlik qiladigan jiddiy xavf ekanligini e'tibordan chetda qoldirmasligimiz kerak. Shu sababli, yoshlarimizga chuqur bilim berish, ularning ongini, fikrini, dunyoqarashini va tafakkurini o'stirish muhim vazifamiz ekanligi hammamizga ayon.

Ta'lim sohasida o'quvchi-yoshlar tafakkurini shakllantirish va uni rivojlantirish masalasi, ayniqsa, hozirgi davrga kelib yanada muhim va dolzarb vazifaga aylandi. Insonda bilish jarayonining faoliyati uning ong salohiyati sifatini shakllantirishning muhim psixologik mexanizmi bo'lib e'tirof etiladi. Tafakkur yordamida esa, inson o'zining sezgisi, idroki, hissiy tasavvurlari orqali anglay olmagan narsa va hodisalarni, ularning xususiyatlarini, eng muhim ichki bog'lanishlarini o'zaro munosabat va xossalarini bilib oladi. Inson barcha kashfiyotlarini o'z tafakkuri yordamida amalga oshiradi.

Inson sezgilari alohida-alohida suratda tuzilgan. Ularning bunday tuzilganligi olamni to'liq bilish imkoniyatini bera olmaydi. Olamni to'liq bilish uchun sezgilar bilan birga tafakkur faoliyati ham qo'shilishi lozim.

Tafakkurning yana bir bilish jarayonidagi qudrati shundaki, sezgilarimiz juda katta miqdordagi, inson tasavvur qilolmaydigan, masalan, o'ta katta tezlik, o'ta katta hajm, o'ta katta masofa yoki og'irlikni sezgilari orqali bila olmay, balki o'z tafakkuri orqali bilib olishi mumkin. Tafakkur – ijtimoiy-sababiy, nutq bilan chambarchas bog'liq muhim bir yangilik qidirish va u sari fikran olib chiqishdan iborat psixik jarayondir, boshqacha qilib aytganda, inson o'z tafakkuri orqali voqelikni analiz va sintez qilishda obyekttni bevosita va umumlashtirib, o'z ongida aks ettirish jarayoni tushuniladi. Tafakkur amaliy faoliyat

asosida inson hissiy bilish jarayonlarida paydo bo'ladi va shu bilan birga inson hissiy bilish chegarasidan ancha tashqariga ham chiqib ketadi. Mazkur mulohazalardan kelib chiqib, inson tafakkurining ta'limdagi o'rni va ahamiyati muhim ekanligini ko'rishimiz mumkin. Demak, inson tevarak atrofdagi voqelikni bilishi uchun fikr yuritish jarayonlari va tafakkur shakllari yaxshi rivojlangan bo'lishi lozim. Ma'lumki, o'qitishning barcha usullari o'quvchilardan mustaqillik, faollik, tezkorlik va ijodiy yondashishni talab qiladi. Inson aqlining bu muhim xususiyatlarini tafakkur rivojisiz tarkib toptirib bo'lmaydi. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish va taraqqiy ettirish muhim vazifa hisoblanadi.

Mazkur masalalar yuzasidan buyuk mutafakkir olimlar va donishmand faylasuflar inson hayotida, uning komil inson bo'lib yetishishida fikr va tafakkurning muhim o'rni haqida hikmatlar yozib qoldirgan. Jumladan, mashhur faylasuf T.Edison, "Sivilizasiyaning buyuk vazifasi – odamni fikrlashga o'rgatishdir", deb e'tirof etgan bo'lsa, rus shoiri A.S.Pushkin esa, "Fikr! Buyuk narsa! Insonning ulug'vorligi ham fikrdan bo'lmay nimadan?", degan edi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida barcha amalga oshirilayotgan ishlarning qanchalik darajada samarali amalga oshirilishi, avvalambor, o'qituvchi va tarbiyachining kasbiy layoqati va tayyorgarligiga bog'liqdir. O'qituvchi o'quvchilarga singdirmoqchi bo'layotgan tushuncha yoki bilimni, uni muvaffaqiyatli amalga oshirish usul va metodlarini, avvalo, o'zi puxta egallagan bo'lishi hamda yuqori darajadagi fikr va tafakkur sifatlariga ega bo'lishi lozim. Bu xislatlar, albatta, muvaffaqiyatlarga erishish garovi bo'ladi. Shuning uchun ham, o'qituvchining hal qiluvchilik salohiyatiga baho berib, "Har qanday ta'lim va tarbiyada eng asosiy omil – muallim, uning tafakkur dunyosidir", degan edi mashhur pedagoglardan biri D.Disterveg. Shu o'rinda donishmandlardan yana biri J.Fabrning, "Fanda eng ishonchli ko'makchi o'z aqling, tafakkuringdir", degan hikmatli so'zini bugungi kunda ham, o'qituvchining eng ishonchli ko'makchisi, uning aqli va tafakkuridir, degan ma'noda qabul qilish maqsadga muvofiq.

O'quvchilarda tafakkurni shakllantirish vazifasi barcha fanlar asosida amalga oshiriladi. Jumladan, tarix fani ham o'quvchilarning tarixiy bilimlarga bo'lgan tafakkurini shakllantirishda keng imkoniyatlarga ega. Binobarin, psixolog olim E.G'.G'oziyev o'z ilmiy ishlarida o'quvchilarning tarixiy bilimlarga bo'lgan tafakkurini shakllantirishni qarama-qarshi fikrli so'zlar ishlatish orqali hamda mustaqil fikr qilish bilan birga ularning tafakkurini faollashtirish ham mumkin ekanligi to'g'risida fikr yuritadi. Xususan, qarama-qarshi fikrli so'zlar o'quvchilarda quyidagi xususiyatlarni shakllantirish bilan birga ular o'z faoliyatlarida mazkur usullardan muvaffaqiyatli foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

- "Qarama-qarshi obrazlar" usuli (o'quvchidan mustaqillik va faollikni talab qiladi);
- topshiriq yechimini "tezlashtiruvchi" usul ("savol-javob" metodiga o'xshash);
- chuqur tahlil qilish usuli (obyekt har tomonlama chuqur tahlil qilinadi);
- "ijodiy" mulohaza usuli (muammoli vaziyatni hal etishda xizmat qiladi);
- "ixchamlashgan" fikr yuritish usuli (shakllangan ko'nikma va malakalarga asoslanadi);
- Umumlashgan usul (mantiqiy fikr yuritish usuli).

Psixolog olimlar tomonidan ta'lim jarayonida "qarama-qarshi obrazlar" usulidan foydalanishning afzallik tomonlari yetarli darajada ochib berilgan. Ularning e'tirof

etishlaricha, mazkur usul qo'llanilganda o'quvchilar topshiriqlarni bajarishlari osonlashadi yoki yengillashadi. Shuning uchun ham bu singari o'quv ishi usulini dars jarayonida qo'llashda bolaning ayrim psixologik holatlariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. "Qarama-qarshi obrazlar"ni qo'llash va o'quvchilar ongiga yetkazishda quyidagi jarayonlarga alohida e'tibor qaratish lozim: o'quvchi vazifaning mohiyatini anglab yetishi, topshiriqning yechimini mustaqil o'zi topishi, topshiriqning muammoli holati o'qituvchi tomonidan to'liq tashkil etilishiga amal qilishi kerak. O'qituvchi bu jarayonda bevosita ishtirok etsa-da, o'quvchilarga yo'naltiruvchi savollar berishni maqsad qilib qo'ymaydi, ammo o'qituvchi ba'zi hollarda muhokama qilina-yotgan narsa va hodisalarning qarama-qarshi obrazlarini, ya'ni mazkur narsalarning aniq obrazlarini emas, balki qarama-qarshi obrazlarni namoyish qiladi. Masalan, E.G'.G'oziyev o'z tajribalaridan kelib chiqib, qarama-qarshi obrazlar usulini tarix darslarida ba'zi mashg'ulotlarda quyidagicha qo'llash mumkinligini tavsiya etadi: o'qituvchi qul va quldor obrazini o'quvchiga tushuntirib, alohida tavsif berib o'tishini iltimos qiladi.

O'qituvchi: Qul deb kimni aytamiz?

O'quvchi: Qul deb rangi-ro'yi sarg'aygan, majoli qurigan kambag'al insonni aytamiz. Quldorga qaram bo'lganligi sababli u yarim yalang'och hayot kechiradi. Azob-uqubatda yashagani uchun o'z yoshidan ancha katta ko'rinadi.

O'qituvchi: Mana bu rasmga razm solib ko'r-chi? (Yuzlari qip-qizil, muskullari o'ynab turgan qullar qo'zg'oloni boshlig'i rasmini ko'rsatadi). Bu odamni kim deb atasak bo'ladi?

O'quvchi: Bu kishi ham qulga o'xshaydi. Chunki unda kiyinish va bezanish degan narsadan asar ham yo'q, biroq jismonan baquvvat, tetik.

O'qituvchi: Mana bunisi-chi? (Bola rasmini ko'rsatadi).

O'quvchi: Bu qul bola.

O'qituvchi: Endi qulga to'liqroq ta'rif berchi?

O'quvchi: Qul barcha haq-huquqlardan mahrum qilingan, turli yoshdagi, turli jismoniy tuzilishdagi inson hisoblanib, quldorlar uchun eng arzon ishchi kuchi sanaluvchi shaxsdir.

O'quvchilar boy va quldorga ham xuddi mana shunday analogik ta'rif berib o'tadilar. Demak, bu singari dars o'tish jarayonida o'quvchining ongida tiklanishi lozim bo'lgan obraz qarama-qarshi obraz yordamida vujudga keladi. Vazifani bajarish jarayonida o'quvchilar faoliyati faol va mustaqil faoliyat hisoblanadi. Bu jarayonda o'qituvchi ishtiroki deyarli sezilmaydi. Ammo o'quvchilarda ma'lum so'z va iboralarga nisbatan to'liq va ishonarli darajada bilimlar paydo bo'ladi.

Insonda tarixiy xotira bilimga ega bo'lish – o'tmishdagi avlodlarning umumbaxti uchun kurashning boy ijobiy tajribalarini o'zlashtirish, bu tajribalarni hayot taraqqiyotiga xizmat qildirish, insondagi insoniylik qadriy sifatlarni shakllantirishni qurol qilib olish demakdir.

O'quvchilarda tarixiy tafakkurni shakllantirish, tarix fanini o'qitishning muhim shartlaridan biri darsning zamon talablariga mos ravishda tashkil etilishidir. Bunda, asosan, o'quvchilarni passiv tinglovchilar darajasidan, darsning faol ishtirokchisi, subyekti darajasiga ko'tarish ko'zda tutiladi. Darsning samaradorligi ko'p hollarda o'quvchilar qay darajada faol qatnashuviga bog'liqdir. O'quvchilarda fanga qiziqish, tanqidiy qarash,

qolipsiz fikrlash kabi hislatlar shakllansagina darslar jonli, hayotiy va zamon talabiga mos bo'lishini ko'rishimiz mumkin.

O'smirlik davriga kelib, o'qish jarayonida bolalarda o'rganilishi zarur bo'lgan ma'lumotlarni analiz va sintez qilish, ya'ni analitik-sintetik faoliyati va abstrakt tafakkur jarayonlari jadal sur'atlar bilan taraqqiy eta boshlaydi. O'smir o'quvchida ba'zi narsa va hodisalar to'g'risida fikrlash, biror xulosaga kelish jarayonlari sodir bo'ladi. Shu tariqa ularda ma'noga ega tushunchalar paydo bo'ladi. Shuning uchun ham tarix darslarida o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini o'stirish, yakka tartibdagi tushunchalarni umumlashtirish, umumlashgan xulosa (hukm)lardan yana umumlashgan (to'planma) tushuncha (xulosa)lar chiqarishga o'rgatadigan mustaqil ishlarni tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, 6-sinf tarix darsida mehnat qurollari haqidagi tasavvurlarni o'quvchilar ongida shakllantirishda quyidagi topshiriqni bajarishni taklif qilish mumkin:

Topshiriq: quyida berilgan jadvalni qo'yilgan talab asosida bajaring.

1-jadval

Mehnat qurollari to'g'risidagi bilimlarni yakka tushunchalardan yakuniy xulosaga keltirish

Mehnat qurollari to'g'risida yakka tushuncha	Umumiy tushuncha	To'planma tushuncha	Yakuniy xulosa
Cho'kich Bigiz Motiga Belkurak Bolta Shoxa Panshaxa Omoch Nayza Kamon O'q Yoy	Ish qurollari. Ov qurollari	Mehnat qurollari	Har xil davrlarda, kishilarning yashash uchun bo'lgan ehtiyojlaridan paydo bo'lgan. Ular yog'och, suyak, tosh va ma'danlardan tayyorlangan. Ularning barchasi inson mehnatining mahsuli.

Eslatma: jadval 6-sinf "Tarix" darsligi (Toshkent, "O'zbekiston", 2006-yil) ma'lumotlariga asoslanib mualliflar tomonidan tuzilgan

Ushbu topshiriqni o'quvchilarga mustaqil ravishda bajarish tavsiya etiladi. Topshiriqni bajarish uchun vaqt o'qituvchi tomonidan belgilanadi. O'quvchilar javoblari tinglanadi, to'ldiriladi va xulosa qilinadi. O'qituvchi eng ko'p ball to'plagan o'quvchilarni baholaydi.

Shu darsning o'zida o'quvchilar mazkur topshiriqni bajarishda teskari vazifani bajarishlari tavsiya etiladi. Ya'ni endi o'quvchilarga umumiy tushuncha (xulosa)lardan yakka tushuncha (xulosa)larga kelish vazifasi qo'yiladi. Bu topshiriqda ham yuqoridagi shartlar asos qilib olinadi.

Mehnat qurollari to'g'risidagi bilimlarni to'planma tushunchalardan yakka tushunchaga keltirish

To'planma tushuncha	Yakuniy xulosa	Umumiy tushuncha	Yakka tushuncha
Mehnat qurollari	Mehnat qurollari har xil zamonda, kishilarning yashash ehtiyojlaridan kelib chiqib yaratilgan, ular yog'och, suyak, tosh va ma'danlardan yasalgan, insonning mehnat mahsulidir	Ish qurollari, ov qurollari	Cho'kich Bigiz Motiga Belkurak Bolta Shoxa Panshaxa Omoch Nayza Kamon O'q Yoy

Eslatma: jadval 6-sinf “Tarix” darsligi (Toshkent, “O‘zbekiston”, 2006-yil) ma’lumotlariga asoslanib mualliflar tomonidan tuzilgan.

8-sinf tarix darslarida davlatlarning siyosiy ahvoli yomonlashuviga sabab bo'ladigan omillarni tahlil qilish ham o'quvchilarning fikr, dunyoqarash va tafakkurlarini o'stirishda muhim o'rin tutadi. Bu jarayon quyidagi tartibda amalga oshirilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Topshiriqni bajarish uchun quyidagi savollarni o'quvchilarga havola etish mumkin: “Xalq harakatlari qanday ko'rinishlarda mavjud bo'ladi”?, “Xalq harakatlarining kuchayishiga qanday omillar sabab bo'ladi”?, “Ushbu harakatlar mamlakat hayotiga qanday ta'sir ko'rsatadi?”

Xalq harakatlari to'g'risidagi umumiy tushunchalarni yakuniy xulosaga keltirish

Harakatlar qanday ko'rinishda bo'ladi?	Xalq noroziligi harakatlariga sabab bo'ladigan omillar	Natija	Yakuniy xulosa
Ishyon G'alayon Ish tashlash Namoyish Miting Qo'zg'olon, Inqilob Fuqarolar urushi	Siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy ahvolning yomonlashuvi, ijtimoiy adolatsizlik, tengsizlik	Mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy ahvolining yomonlashuvi	Har qanday ijtimoiy adolatsizlik xalq norozichiligiga sabab bo'ladi, mamlakatning siyosiy hayotini izdan chiqaradi

Eslatma: jadval 8-sinf “O‘zbekiston tarixi” darsligi (Toshkent, “O‘zbekiston”, 2006-yil) ma’lumotlariga asoslanib mualliflar tomonidan tuzilgan.

O'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lib, topshiriq bajarilsa, ishning natijasi yanada samaraliroq bo'ladi. Bolalar guruhlarda har bir savolni muhokama qilishadi, eng

asosiysi, o'quvchi mazkur jarayonda faol ishtirok etadi. O'qituvchi xulosa jarayonida davlatimizning hozirgi davrda huquqiy demokratik jamiyat qurish borasida ilgari surayotgan g'oyalari bilan tushunchalarni bog'lasa, darsning samarasi yanada oshadi.

Xuddi shunga o'xshash topshiriqlarni o'quvchilar quyidagi usulda bajarishlari mumkin: O'rta Osiyo davlatlaridagi soliq tizimiga qiyosiy ta'rif bering. Bu muammoli topshiriqni hal qilishda o'quvchilar quyidagi usuldan foydalanishlarida ancha qulaylik tug'diradi.

4-jadval

Buxoro amirligida yig'ilgan soliq turlari



Eslatma: jadval 9-sinf "O'zbekiston tarixi" (Toshkent, "O'zbekiston", 2006-yil) ma'lumotlariga asosanib mualliflar tomonidan tuzilgan.

5-jadval

Xiva xonligida yig'ilgan soliq turlari



Eslatma: jadval 9-sinf "O'zbekiston tarixi" (Toshkent, "O'zbekiston", 2006-yil) ma'lumotlariga asosanib mualliflar tomonidan tuzilgan.

Qo‘qon xonligida yig‘ilgan soliq turlari



Eslatma: jadval 9-sinf “O‘zbekiston tarixi” (Toshkent, “O‘zbekiston”, 2006-yil) ma’lumotlariga asoslanib mualliflar tomonidan tuzilgan.

Bu usulning muhim va qulaylik tomoni shundaki, o‘quvchilar 3 ta davlatdagi soliq tizimi haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishlari bilan birga, osongina taqqoslash hamda xulosa chiqarish imkoniga ham ega bo‘ladilar. O‘quvchilar chizmaning har birining ichiga soliqlarning turlarini nomma-nom yozadilar va har bir soliqning muhimligi, uning qanday ahamiyat kasb etishi hamda uning xususiyati va xarakteriga baho beradilar.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘quvchilarga tarix darslarida ularning tarixiy bilimlarga bo‘lgan tafakkur tushunchalarini o‘stirishda yakka tushunchalarni umumlashtirib xulosalash, umumlashma tushunchalardan yakka tushunchaga keltirib xulosalar chiqarishda mazkur ta‘lim usullaridan keng va o‘rinli foydalanish ularning tafakkurini shakllantirishda juda yaxshi samara beradi. Chunki tarixiy ma’lumotlarni taqqoslab o‘rganish ularda mantiqiy fikrlash, tarixiy voqealarning mohiyatini tushunish, o‘sha davr ijtimoiy-siyosiy hayotining obyektiv-subyektiv sabablarini aniqlash ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish hamda ularning tarixiy tafakkurlarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”. – T., 1997.
2. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – T.: “Ma’naviyat”, 2008. – 5-bet.
3. Barkamol avlod orzusi. “Sharq” nashriyot-manbaa konserni bosh tahririyati. – T., 1999. – 43-bet.
4. E.G. G‘oziyev. Tafakkur psixologiyasi. – T.: “O‘qituvchi”, 1990. – 36-37-betlar.
5. Pedagogik izlanish. –T.: “O‘qituvchi”. 1990. – 310-336-betlar.
6. O‘quvchi ma’naviyatini shakllantirish. –T.: “Sharq”, 2000. – 90-93-betlar.
7. 8-sinf “O‘zbekiston tarixi” darsligi. –T.: “O‘zbekiston”, 2006.

Muqaddas RAXMANOVA,
O'zMU katta ilmiy xodim izlanuvchisi

KASBIY TA'LIM YO'NALISHIDAGI TALABALARNI IJTIMOIY MOSLASHTIRISH OMILLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada talabalarning oliy ta'lim tizimiga kirib kelishi, ularda moslashuv xulq-atvor shakllarini tarkib to'pishi to'g'risida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif talabalarni ijtimoiy faoliyatga moslashtirish modulini ishlab chiqqan.

Kalit so'zlar. Moslashuv, ijtimoiy moslashuv omillari, model, faoliyat, ta'lim, o'quvchi, pedagog, o'zlashtirish.

В статье раскрываются факторы и этапы социальной адаптации студентов первокурсников высших учебных заведений. Автором разработана модель, направленная на адаптацию к социальной деятельности студентов высших учебных заведений.

Ключевые слова. Адаптация, факторы, социальная адаптация, модель, деятельность, образование, обучающийся, педагог, усвоение.

The article reveals the factors and stages of social adaptation of first year students of higher educational institutions. Author designed model, directed to social adaptation students of higher educational institutions.

Key words. Adaptation, factors and stages of social adaptation, model, activity, pupil, teacher.

Mustaqil mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-ma'naviy jihatdan mustahkamlash va rivojlantirish kelajakda buyuk davlatga aylantirishning muhim omili bo'lib, uning hozirgi bosqichdagi maqsad va vazifalari "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" hamda bir qator hukumatimiz qarorlarida, ayniqsa, Prezidentimiz asarlarida har tomonlama teran belgilab berilgan. Shu ma'noda ta'lim tizimining barcha bosqichlari, jumladan, oliy o'quv yurtlarida, o'rta maxsus kasb-hunar kollejlarda o'quvchi-yoshlarni yuksak ma'naviyatli, axloqli va ma'rifatli qilib tarbiyalashga alohida ahamiyat berilmoqda. Ya'ni mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi bilan ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish hamda uni barcha fuqarolarga, eng avvalo, yoshlarga singdirish davlatimiz siyosatida ustuvor yo'nalish qilib belgilangan. Ijtimoiy hayotimizning barcha sohalaridagi singari ta'lim tizimining barcha bosqichlarida, jumladan, oliy o'quv yurtlarida, kasb-hunar kollejlarda ham ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, uning milliy va umumbashariy zaminini mustahkamlash asosida o'quvchi-yoshlarga zamon talablari va jahon andozalari asosida bilim va ma'lumot berish bilan birga, ularda yuksak ma'naviy madaniyat, axloq va ma'rifat fazilatlarini singdirish va tarbiyalash eng muhim vazifalar sirasiga kiradi. O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi milliy madaniyatimiz tarixini o'rganishga,

u haqida xolisona fikr bildirishga katta imkoniyatlar yaratib, milliy qadriyatlarimizni tiklashga, tariximizni obyektiv baholashga, hur fikrlilikka sharoit tug'dirdi.

Jamiat taraqqiyotining barcha davrlarida ham rivojlanishning mohiyati, uning sur'ati insonlarning ma'naviy kamoloti darajasiga bog'liq bo'lgan.

Davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri ma'naviy jihatdan barkamol insonni tarbiyalash, ta'lim tizimini takomillashtirish, milliy istiqloq g'oyasi asosida ma'naviy va ruhiy jihatdan yangi avlodni voyaga yetkazishdir. Bunda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol yondashuv asosida ta'lim-tarbiya berish ustuvor vazifa sanaladi.

Shuning uchun milliy ma'naviyatimizni tiklash borasida olib borilgan, davom etayotgan ishlar, ta'limni tubdan isloh qilinyotgani O'zbekistonda ijtimoiy faol, ma'naviyati yetuk shaxslarni tarbiyalash, xalq xo'jaligi, boshqaruv idoralari, fan-texnika va madaniyatning barcha sohaları uchun yetuk mutaxassislar tayyorlash imkoniyatini vujudga keltirdi.

Universal texnologiyalar bilan bog'liq globallashtirish jarayonida yoshlarni yuksak ma'naviy axloqli qilib tarbiyalash shiddatli mafkuraviy kurashlar jarayonida amalga oshirilayotganligi har bir fidoyi fuqaroga mas'uliyat yuklaydi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Hozirgi zamonda eng katta xavf insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo'layotgan kurashlar ko'p narsani hal qiladi". Shu jihatdan olganda mafkuraviy tizimning o'zgarishi, ijtimoiy yangilanish ma'naviy meroslarga yangicha yondashish, qarashni taqozo etmoqda.

Ma'lumki, "ma'naviyat" juda keng tushuncha bo'lib, ma'rifat, madaniyat, axloqiy madaniyat, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, diniy madaniyat tushunchalarini o'z ichiga qamrab oladi.

"Ma'naviyat insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning imon-irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli botiniy kuchdir", deydi Prezidentimiz o'z asarida.

Darhaqiqat, ma'naviyat inson ruhiy olamining yig'indisi sifatida insonga ruhiy ozuqa beradi, qudrat bag'ishlaydi. Inson moddiy ta'minlanish bilan chegaralanib qolmaydi, balki ma'naviyatga intilib yashaydi.

Jamiatimizning hozirgi bosqichida yosh avlodni ma'naviy madaniyatli va yuksak ma'rifatli qilib tarbiyalash muammosi olimlar va tadqiqotchilar e'tiborini jalb qilmoqda. Bu muammoga bag'ishlab faylasuflar, pedagoglar, psixologlar, adabiyotshunos va jamiyatshunos mutaxassislar tadqiqot ishlari olib bormoqdalar.

Oliy ta'limdagi ijtimoiy moslashuvning o'ziga xosligi, ayniqsa, o'qitishning umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'limi hamda oliy ta'limdagi shakl va usullari orasidagi tafovut natijasida vujudga keluvchi didaktik qiyinchilikning mavjudligida yaqqol namoyon bo'ladi. O'n ikki yillik majburiy ta'limdan ixtiyoriy ta'lim sharoitiga moslashish talabadan aniq psixologik va pedagogik yo'nalganlikni talab etadi.

Ma'lumki, oliy ta'lim muassasasi talabaligiga ijtimoiy moslashtirish murakkab, ko'p qirrali jarayon bo'lib, aynan ijtimoiy-kasbiy moslashuv ta'lim olishning uchinchi bosqichida yaqqol namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasasi talabaligiga ijtimoiy moslashtirish o'zida ikkita muhim jihatni aks ettiradi:

1) kasb sohasiga muvaffaqiyatli moslashuv, o'zi tanlagan kasbning mas'uliyatini to'liq anglash, kasb bilan bog'liq nazariy bilim va amaliy ko'nikma hamda malakalarning tarkib topishi;

2) ijtimoiy-psixologik moslashuv, o'z-o'zini anglash, talabaning jamoa a'zolari bilan erkin muloqot qila olishi, shaxslararo integratsiyaning yuzaga kelishi.

Oliy ta'lim muassasasi talabalarining ijtimoiy moslashuviga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni uch guruhga ajratish mumkin: ijtimoiy, psixologik, pedagogik.

Kasb ta'lim muassasasi talabalarining moslashuvi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, o'qitishning oliy ta'lim tizimiga kirib kelishi, talabalik maqomiga ega bo'lishi ular-da moslashuvchan xulq-atvor shakllarini tarkib toptirishni talab qiladi. Mazkur jarayon uzoq muddat davom etish tavsifiga ega bo'lib, bu ta'lim oluvchi shaxsda turli psixologik va fiziologik zo'riqishlarni yuzaga keltirishi mumkin. Natijada talabaning faolligi sustlashadi va talaba nafaqat yangi xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtira olmaydi, balki kundalik o'quv faoliyatini ham muvaffaqiyatli amalga oshira olmay qoladi.

Ijtimoiy omillarga talabaning yoshi, oilaviy sharoiti, uni qurshab turgan atrof-muhit, ta'limning avvalgi bosqichida talaba tahsil olgan ta'lim muassasasidagi ijtimoiy-madaniy shart-sharoitlarni kiritish mumkin. Psixologik omillar o'z ichiga ham individual-psixologik, ham ijtimoiy-psixologik omillarni qamrab oladi: intellekt, yo'nalganlik (orientatsiya), shaxsiy salohiyat, guruhda o'z o'rniga egalik. Ijtimoiy moslashuvga ta'sir ko'rsatuvchi pedagogik omillarga oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilarining pedagogik madaniyati, universitet va fakultetda ijtimoiy-pedagogik faoliyatning muvaffaqiyatli yo'lga qo'yilganligi, fanlar bo'yicha didaktik va metodik ta'minlanganlik kabi-larni kiritish mumkin.

Muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuv uchun professor-o'qituvchi, ham talaba tomonidan maqbul faoliyat yo'nalishi, ya'ni birgalikdagi samarali faoliyat yo'lga ko'yilishi talab etiladi. Talaba u yoki bu ta'limiy maqsadga erishish yo'llarini izlashi va tanlay olishi kerak. Professor-o'qituvchidan mazkur holatda fasilitator (qo'llab-quvvatlovchi) vazifasini bajarish talab etiladi.

Oliy ta'lim bosqichi ijtimoiy moslashuv jarayoni bilan boshlanib, oliy ta'limga nisbatan yangicha munosabat, yangicha yondashuv va yangilangan tafakkurni qaror toptiradi. Ijtimoiy hayot motivatsiyasi asta-sekinlik bilan izchil, barqaror va tizimiy xarakter kasb etadi. Talabaning ijtimoiy faolligi pedagogik va psixologik omillar bilan chambarchas bog'liq holda yuzaga chiqadi. Natijada talaba hayotida o'ziga xos ijtimoiy o'zgarishlar yuzaga keladi. Talabaning ijtimoiy faolligi oliy o'quv yurtida yaratilgan shart-sharoitlar, bozor munosabatlari xos qonuniyatlar, xalqning turmush tarzi, milliy mentalitet va boshqa iqtisodiy-ijtimoiy omillar bilan bog'liq holda amalga oshadi.

Talabaning ijtimoiy faolligida u tomondan egallayotgan pedagogik-psixologik bilimlar, pedagogik va ishlab chiqarish amaliyotlari alohida o'rin tutadi. Chunki talabani bo'lajak mutaxassis sifatida pedagogik va psixologik omillar mohiyatini bilib va amalga tatbiq etib borishi ijtimoiy faollikning mazmun va mohiyatini yanada boyishiga olib keladi.

Bolalar olamiga kirish, bola qalbiga yo'l topish, unda yangi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, talabani egallayotgan kasbiga nisbatan mas'uliyat hissini ortib borishini tobora tushunib yetadi. Shu bilan birga o'quvchi, ya'ni shaxs o'qituvchilik kasbining ijtimoiy rivojlanishidagi o'rnini anglay boshlaydi.

Oila ijtimoiy dunyoqarash manbai sifatida farzandlarda milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Chunki har bir oila ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-axloqiy ishlab chiqarishda qatnashadi. Tarixan mehnat va kasbga oid an'analar farzandlarga berib boriladi. Har bir farzandning ota-onasi, bobo-buvilarini

bilishi orqali xalq va millatning tarixiga oid daxldorlik eshigi ochiladi. Bu jarayon ulg'ayib kelayotgan o'g'il va qizlarning milliy tarbiyasi va dunyoqarashiga yangicha mazmun bag'ishlaydi. Avlodlarga xos vorislik, dunyoqarash, hamfikrlik barkamol avlod tarbiyasida tayanch ustun vazifasini o'taydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalar ijtimoiy moslashuvining eng yuqori darajasini bir paytning o'zida muhitni hamda o'z-o'zini o'zgartirishga qaratilgan strategiyalarni ta'minlaydi. Natijada ijtimoiy moslashuvning me'yoriy sifati ta'lim subyektlarining oliy ta'lim muassasasiga muvaffaqiyatli moslashuvi amalga oshadi.

Talabalar oliy ta'lim muassasasidagi ijtimoiy, didaktik va axloqiy me'yorlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirmasligi natijasida ijtimoiy dezadaptatsiya yuzaga keladi. Oliy ta'lim muassasasi talabalarida ijtimoiy dezadaptatsiya namoyon bo'lishining umumiy ko'rinishini quyidagicha ifodalash mumkin.

Dezadaptatsiya shakli:

- fanlarni o'z vaqtida o'zlashtira olmaslik, o'z-o'zini nazorat qilish va boshqarishda muammoli vaziyatlarning mavjudligi;

- oliy ta'lim muassasasidagi o'qitish suratinin tezligini qabul qila olmaslik (o'z-o'zini erkin tuta olmaslik, o'zini namoyon eta olmaslik, yuqori darajadagi qo'rquv his-siga egalik);

- talabalar jamoasi va professor o'qituvchilar bilan muloqotga kirisha olmaslik, tolerantlikka oid sifatlar (ochiqlik, hamdardlik, hazilkashlik va boshqalar)ning to'liq namoyon bo'lmasligi.

Sabablari:

- o'quv yuklamalarining sezilarli ortishi va yangi fanlarni o'zlashtirishning qiyinligi, oilada va ta'limning avvalgi bosqichlarida kompleks ta'sirlarning jadal amalga oshirilmaganligi, bilimlarni mustaqil o'zlashtirish ko'nikma va malakalarining rivojlanmaganligi;

- o'qitishning izlanishga doir va tadqiqotchilikka doir metodlardan unumli foydalanmaganlik, o'qitishda individual o'ziga xosliklarning hisobga olinmaganligi;

- kursdoshlar bilan muloqotdagi qiyinchiliklar va o'qituvchilar bilan muloqot yangi tizimining shakllanmaganligi.

Korreksion tadbirlar:

- fanlar bo'yicha o'quv adabiyotlarining to'liq ta'minlanganligiga erishish, mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish uchun uslubiy qo'llanma va tavsiyalarni ishlab chiqish, mashg'ulotlarni samarali tashkil etilishiga erishish;

- o'z-o'zini tarbiyalash va qayta tarbiyalash metodlaridan foydalanish, o'zining mavjud imkoniyatlari va qobiliyatlarini namoyon etishga intilishni tarkib toptirish, professor, o'qituvchilarning munosabat uslublarini o'rganish va tahlil etish;

- o'qitish jarayonining talaba individual o'ziga xosliklari bilan uyg'unligiga erishish, talabalarining vaqt byudjetini hisobga olish asosida o'quv topshiriqlarining maqbul variantlarini tanlab olish.

Bugungi kungacha talabalarni oliy ta'lim muassasasiga ijtimoiy moslashtirishga doir yaratilgan qator modellar tahliliga asoslanib, oliy ta'lim muassasasi talabalarini ijtimoiy moslashtirish modelini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

N.M.Egamberdiyeva tomonidan ishlab chiqilgan moslashuv jarayonining bosqichli modeli o'z ichiga quyidagi tarkibiy qismlarni qamrab olgan:

1. Muvozanatlashish individ va muhit o'rtasida o'zaro qadriyatlar tizimi va xulq-atvor me'yorlariga nisbatan hurmat ko'rinishidagi muvozanatning vujudga kelishi;

2. Soxta adaptatsiya – sharoitga tashqi moslashuv va uning me'yorlariga nisbatan salbiy munosabat birligi;

3. Ko'nikish – yangi muhitning qadriyatlarini tan olish va qabul qilish;

4. O'xshatish – individning psixik qayta orientatsiyasi, avvalgi qarashlar, orientatsiya, ustanovkalar transformatsiyasi.

Mazkur model shartli ko'rinishga ega bo'lib, bunda tasvirlangan moslashuv davrlari bir paytda amalga oshishi yoki bir-birining o'rnini to'ldirishi mumkin. B.R.Jo'rayeva birinchi kurs talabasi shaxsi va talaba tahsil oladigan guruhning yangi ijtimoiy madaniy muhitga moslashuv jarayonini quyidagi bosqichlarga bo'ladi;

1. Boshlang'ich davri – individ, guruh mavjud ijtimoiy muhitda o'zlarini qanday tutishlari kerakligini biladi, ammo yangi ijtimoiy muhitning qadriyatlar tizimini tan olishga hali tayyor emas, shuning uchun ular avvalgi qadriyatlar tizimini saqlab qolishga harakat qiladi;

2. Ko'nikish davri – individ, guruh, muhitning yangi qadriyatlar tizimi. Xulq-atvor andozalariga o'zaro sabr va chidam bilan munosabatda bo'lishi sodir bo'ladi;

3. Akkomodatsiya – ya'ni individ tomonidan mavjud muhitga doir qadriyatlar tizimining asosiy elementlarini tan olish va qabul qilish va ayni paytda, guruh, ijtimoiy muhit tomonidan shaxs ayrim qadriyatlarining tan olinishi davridir;

4. Assimilyatsiya – ya'ni individ, guruh hamda muhit qadriyatlar tizimining o'zaro muvofiqligi.

L.M.Luzina esa moslashuvchan xulq-atvorning quyidagi strategiyalarini ishlab chiqqan, bular:

- muhitdagi mavjud qadriyatlar tizimini faol o'zlashtirish;
- o'z-o'zini o'zgartirish;
- muhitdan chiqib ketish va yangisini izlash;
- muhit bilan aloqani uzish va o'z ichki dunyosiga g'arq bo'lish;
- o'zining passiv representatsiyasi;
- muhitning shartlariga sust holda ko'nikish;
- tashqi o'zgarishlarni sust holda kutish;
- ichki o'zgarishlarni sust holda kutish.

N.G. Ismatova kasbiy moslashuv nuqtayi nazaridan moslashuv mazmunini uch nuqtayi nazardan ko'rib chiqishni taklif etadi:

1) fiziologik organlar va tizimlarning funksiyasi; endokrin regulatsiya; nerv regulatsiyasi;

2) ijtimoiy-psixologik moslashuv: yangi psixologik xulq-atvor me'yorlarining shakllanishi; qo'yilgan talab bilan bog'liqlikda shaxsiy sifatlarini korreksiyalash; yangi ijtimoiy muhitni o'zlashtirish;

3) kasbiy mehnatning yangi sharoitlariga; pedagogik kasbiga; bilimlari va pedagogik mahoratini doimiy takomillashtirib borishga odatlanish .

Yuqoridagi modellarni o'rganish va tahlil qilish asosida biz pedagogika, oliy ta'lim muassasasi ijtimoiy moslashuvini quyidagi umumlashgan darajasini aniqladik:

– mutlaq moslashuv. Mazkur moslashuv bosqichi oliy ta'lim muassasasi qadriyat va me'yorlarini, maqsad va vazifalarini to'liq qabul qilish, ta'lim faoliyat qoidalariga bo'ysunishga tayyorlik bilan izohlanadi;

– noto'liq moslashuv. Ta'limning maqsad va vazifalari, asosiy qoidalarini qabul qilmagan holda ikkinchi darajali qoidalarga bo'ysunishi, moslashuvning bunday turi xatar

guruhiga xos, bu guruhga kiruvchilar oliy ta'lim muassasasini tark etishga tayyor turadigan talabalaridir;

– individualizm. Asosiy me'yor va qadriyatlarni qabul qilgan holda ikkinchi darajali qoidalarga bo'ysunmaslik bilan tavsiflanadi.

Oliy ta'lim muassasasi talabalarini ijtimoiy moslashtirish to'rt bosqichli o'zaro ta'sir asosida amalga oshadi:

– shaxslararo ta'sir bosqichi. Talabada bu bosqichdagi moslashuvning muvaffaqiyatli kechishi akademik guruh jamoasidagi an'analar va xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirishi bilan izohlanadi;

– jamoaviy ta'sir bosqichi. Bu bosqichdagi moslashuv fakultet, jamoasidagi mavjud qadriyatlar tizimi, fakultet ma'muriyati, o'qituvchi-professorlar bilan o'zaro muloqot usullarini qabul qilish yoki qilmaslik bilan bog'liq;

– oliy ta'lim muassasasi bilan o'zaro ta'sir bosqichi. Bu bosqichda talaba oliy ta'lim muassasasiga xos qadriyatlar, me'yorlarini o'zlashtiradi. O'zini ta'lim muassasasi bilan identifikatsiyalashtiradi yoki identifikatsiyalashtirmaydi;

– kasbiy-qadriyatli bosqich. Bunda talabaning pedagogik qadriyatlarni o'zlashtirishi va interiorizatsiyalashuvi amalga oshadi.

Oliy ta'lim muassasasi talabalarining ijtimoiy moslashuvi professor-o'qituvchi, talaba bilan birgalikdagi samarali faoliyat natijasidir. Talaba u yoki bu ta'limiy-tarbiyaviy maqsadga erishish yo'llarini izlab va tanlab oladi, subyekting oliy ta'lim muassasasiga muvaffaqiyatli moslashuvi amalga oshadi.

Demak, talaba shaxs sifatida muayyan ijtimoiy guruh va jamoaning a'zosi, o'z oldiga qo'yilgan maqsadi hamda vazifasiga erishish yo'lida, ya'ni kasb faoliyatini egalashga qaratilgan ta'lim-tarbiya oluvchi, jamiyatda o'z o'rnini va mavqega ega bo'lgan inson hisoblanadi.

Bundan kelib chiqib, talaba jamiyat a'zosi sifatida o'z yurti va mamlakatida sodir bo'layotgan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy hamda kasbiy-madaniy jarayonlarda faol ishtirok etadi. Oliy o'quv yurti uni egallayotgan kasbiy faoliyati ijtimoiy hayot rivojiga qaratilgan moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish amaliyotiga tayyorlovchi alohida sahna yoki tajriba-sinov maydoni bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. –T.: "O'zbekiston", 1998. – 480 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan (O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 28-dekabrda qonuniga muvofiq kiritilgan o'zgartirishlar bilan). –T.: "O'zbekiston", 1999. – 34 b.
3. Egamberdiyeva N.M. Ijtimoiy pedagogika. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2009. – 58 b.
4. Джураева Б.Р. Формирование педагогической культуры будущих учителей в процессе профессиональной подготовки при изучении дисциплин педагогического цикла: дисс. ...канд. пед. наук. – Т., 2002. – С. 73.
5. Лузина Л.М. Философско-антропологический подход в современной методологии воспитания: дисс. ...докт. пед. наук в виде научного доклада, – Санкт-Петербург, 1998. – С. 49.

Ziroat XOLMATOVA,

Qo'qon Davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA DIALOGIK MUNOSABATLAR MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA O'QITUVCHI MAVQEINING AHAMIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida dialogik munosabatlar madaniyatini shakllantirishda o'qituvchi mavqeining ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, dialogik munosabatlar madaniyatini shakllantirish usullari, ulardan boshlang'ich ta'lim jarayonida foydalanish imkoniyatlari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar. Dialogik munosabatlar, o'quv mayllari, o'qituvchi, o'quv jarayoni, qadriyatlar, sinf jamoasi, guruhli faoliyat, munozara.

В статье раскрывается значение склонностей к учению и статуса учителя в формировании культуры диалогического общения учащихся начальных классов и гармоничном развитии получателей образования. Определены составные части культуры диалогического взаимодействия, показаны возможности использования различных методов формирования культуры диалогических отношений.

Ключевые слова. Диалогические отношения, склонность к учению, учитель, учебный процесс, ценности, классный коллектив, групповая деятельность, обсуждение.

This article reveals the significance of tendencies to the teaching and status of teachers in forming a culture of a dialogical communication of primary school pupils and education of recipients in harmonious development. Determines the components of culture of a dialogic interaction, shows the possibility of using different methods of creating culture of dialogue relations.

Key words. Dialogical relationship, tendency to teaching, the teacher, the learning process, values, great staff, group work, discussion.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yetakchi jarayon o'quv faoliyat bo'lganligi uchun ham, o'qish mayllari haqida fikr yuritish maqsadga muvofiqdir. O'quv jarayonida o'quv faoliyatiga ehtiyoj sezgan o'quvchigina faol harakatlanadi. Qaysi o'quvchida o'quv mayllari shakllangan bo'lsa, ko'nikmalarni rivojlantirish asosiy maqsad bo'lib, o'quvchilar unga intiladilar. Bizning izlanishlarimiz uchun ahamiyatlisi, bu jarayonda o'qituvchining tutgan mavqeidir. O'qituvchining mavqe o'quvchi mayllarining uyg'un rivojlanishiga ko'maklashib, ularning madaniyatga bo'lgan munosabalarini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratishga xizmat qiladi. Natijada o'quvchilar umuminsoniy qadriyatlar, insonlar, o'zi va olamga nisbatan ijobiy munosabat tajribasini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu tariqa o'qish mayllari o'quvchining maqsadlari, ehtiyojlari, mayllari, ular orasidagi munosabatlar xarakterida mujassamlashadi.

Muloqotga ehtiyojmandlik, hissiy aloqalarni o'rnatishga moyillik, do'stlik va muhabbatni hosil qilish istagi ustunlik qiluvchi mayllarning maqsadlari alohida qiziqish uyg'otmoqda. Bunday mayllar doirasida muloqot, bilish, hamkorlikka kirishish, o'z-o'zini namoyon qilishga bo'lgan intilishlar namoyon bo'ladi. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'quv faoliyati davomida bilish maqsadida muloqotga kirishishga undaydi. Chunki insonlar orasidagi munosabatlar muloqotga ehtiyojmandlik, hissiy aloqalarni o'rnatishga moyillik, do'stlik va muhabbatni hosil qilish istagining ustunligi asosida qurilgan. Ularning yaqqol namoyon bo'ladigan sifatlari o'zaro aloqadorlik xususiyatlariga ega. Muloqot jarayonidagi sheriklar bir qator mayllarga ega bo'ladilar:

a) ular bir-birlariga shaxsiy ehtiyojlarini qondirish obyekti sifatida qaramaydilar;

b) muloqotdoshlar bir-birlari ustidan hukmronlik qilishga urinmaydilar. Ular o'zaro tenglik asosida hamkorlik qilishni nazarda tutadilar. Insonlar orasidagi munosabatlar muloqotga ehtiyojmandlik, hissiy aloqalarni o'rnatishga moyillik, do'stlik va muhabbatni hosil qilish istagining ustunligi natijasida o'zaro ishonchga asoslangan, ochiq xarakterdagi munosabatlar vujudga keladi. Bunday munosabatlar o'zaro hamkorlik, ishonch va hurmatga asoslanadi.

Buni biz o'quvchilarning bir-birlarining ishlarini tekshirish maqsadida daftarlari, uy vazifalarini o'zaro almashinishlari jarayonida kuzatishga muvaffaq bo'ldik. Chunki o'quvchilar o'z sinfdoshlari bo'lgan tengdoshlarining xatolarini kattalarnikidan ko'ra tezroq farqlaydilar. Ular dastlab tengdoshlarining harakatlari, bajargan ishlarini tanqidiy baholaydilar. Keyinchalik esa o'z faoliyatlariga ham xuddi shunday yondashish ko'nikmalarini egallaydilar. Shu tariqa, o'quvchilarning tengdoshlari bilan amalga oshiradigan muloqotlari ularda so'zga, xatti-harakatlarga, fikrlarga nisbatan tanqidiy nuqtayi nazar bilan yondashish ko'nikmasini shakllantiradi. Bu esa ularda boshqalarning nuqtayi nazarlarini ko'ra olish, shaxsiy fikrga ega bo'lish, o'z fikrini boshqalarnikidan farqlay olish va uni himoya qilish ko'nikmasini tarkib toptiradi. Shu asosda mayllarning vazifalari ularning maqsadlari, ehtiyojlari, moyilliklari, ular orasidagi aloqadorlik va munosabatlar mazmunida namoyon bo'ladi. Muloqotga ehtiyojmandlik, hissiy aloqalarni o'rnatishga moyillik, do'stlik va muhabbatni hosil qilish istagining ustunlik qilishi bilan bog'liq mayllarning maqsadi esa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining muloqotga kirishish, bilish, hamkorlik qilish, o'quv faoliyatini amalga oshirishga intilishlarini ta'minlaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining muloqotga kirishish madaniyatining vazifalarini tahlil qilish mazkur hodisaning mazmuni va tarkibini aniqlash imkonini beradi. Ushbu munosabatning fikrni shakllantiruvchilik vazifasi uning mazmunida qadriyatli-fikriy jihatlarning mavjudligini aniqlash imkonini beradi. Bu esa muloqotga asoslangan munosabatlar jarayonida ushbu vazifani amalga oshirishda ko'maklashadi.

Fikr tushunchasining mohiyatini tushunish shaxsning subyektivligini anglashga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarda qadriyatlar, mohiyat, me'yorlar va bilimlarga amal qilish ko'nikmasini shakllantiradi. Bularning barchasi inson ongining faol harakat qilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Fikrlar mustaqil izlanish natijasidagina takomillashadi va egallanadi. Shaxsning madaniy saviyasi va ichki faoliyat natijasidagina uning ma'naviy yuksalishi va faolligi vujudga keladi.

Insonning fikrlari shunchaki o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Har bir shaxs fikrlarini mas'uliyat bilan yondashgan holda izlab topishi kerak. Aks holda inson o'zining shaxslik xususiyatlari, mustaqilligini yo'qotadi va boshqalarning yetaklovida yurishga

o'rganadi, o'zining mustaqil fikri va nuqtayi nazariga ega bo'lmaydi. Bunday insonlarda ma'naviy sifatlari, shaxsiy dunyoqarash shakllanmagan bo'ladi. Ular hayotdagi qiyinchiliklarga bardosh bera olmaydilar, o'zlarining irodasizliklarini har jihatdan namoyon etadilar.

Fikriy-qadriyatli yo'nalishlar shakllangan o'quvchilar o'zining sinfdoshlariga aloqadorligini tushunib, ularning baholariga qarab, o'z faoliyatining yo'nalishlarini belgilaydi hamda sinfdoshlari va o'qituvchisining ko'rsatmalariga amal qiladi. O'zi va sinfdoshlarining xatti-harakatlari, xulq-atvorini kuzatib, qiyoslab, o'zi va tengdoshlarini anglaydilar va baholaydilar. Shu asosda ular hayotga nisbatan o'z yo'nalishlarini belgilash, unda munosib o'rin topish sari intiladilar. O'quv faoliyati bilan bog'liq vaziyatlarda o'quvchilar ba'zan sinfdoshlarining nuqtayi nazarlari bilan kelishadilar va uni qo'llab-quvvatlaydilar. Ular muayyan axborot manbaiga ko'ra nisbatan kam tajribaga ega bo'lishlariga qaramasdan ayrim masalalarda bir qadar aniq fikrga ega bo'ladi. O'qituvchilar va ota-onalar bilan muloqot jarayonida o'quvchilar o'zlari haqida barcha narsalarni bilib oladilar, baholaydilar, qadriyatlarni qabul qiladigan va inkor etadilar, o'z shaxsiy oilalari, tengdoshlari va kattalar haqida muayyan darajada ma'lumotlarga ega bo'ladi.

Shu tariqa, muloqot munosabat madaniyatining qadriyatli-fikriy jihati o'quvchi amaliy faoliyatining barcha ko'rinishlarida vujudga keladi va namoyon bo'ladi. Chunki ijtimoiy-ma'naviy hayotda inson harakatlanadi, o'zini namoyon qiladi va mavjudligini tasdiqlaydi. Xuddi mana shuning uchun ham muloqot munosabatlarning ushbu jihati, shaxsning yaxlitligi va uyg'unligini ta'minlashga imkoniyat yaratadi.

Muloqot munosabatlar madaniyatining kommunikativ vazifasini amalga oshirish, uning jarayonli qismini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu o'quvchilarning muloqotning turli ko'rinishlarida muayyan xatti-harakatlarni bajarishlari, xulq-atvor me'yorlariga amal qilishlarini ta'minlaydi. Muloqotga munosabatlar madaniyatining xuddi mana shu tarkibiy qismi orqali shaxs o'zini ijtimoiy shaxsiy mavjudot sifatida namoyon etadi. Mazkur tarkibiy qism tarkibidagi aniqlovchi, yetakchi hodisa layoqatlar hisoblanadi. Chunki layoqatlar muayyan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishga ko'maklashadigan asosiy sifatdir. Layoqat tufayli bilim, ko'nikma va malakalarni o'quvchilar osongina o'zlashtiradilar.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun kattalar, tengdoshlari, badiiy asar qahramonlaridan to'liqlanish asosiy holat hisoblanadi. Bu sifatlari o'quvchilarga o'qish jarayoniga ko'maklashib, ularning ko'nikma va malakalarini tezkorlik bilan o'zlashtirishlariga imkoniyat yaratadi. Shak-shubhasiz, boshlang'ich sinf o'quvchilarining dialogik munosabatlar madaniyati o'zida natijalarni bashorat qilish va boshqalardan oldinroq sezish layoqatini hosil qiladi. Muammolarga erishish har doim o'zida intellektual maqsadlarga erishish jarayonini taqozo etadi. Bu esa qo'yilgan vazifalarga javobni ifodalaydi.

Jumladan, o'quvchilarga so'zlarni o'qish, bo'g'inlarga ajratish va ular orasiga kerakli tinish belgilarini qo'yish haqida topshiriqlar berildi. Bunday vaziyatda muloqot munosabatlar madaniyatining jarayonli qismi o'quvchilarga aqliy layoqatlarini namoyon etish imkonini berdi. Bu o'rinda o'quvchilarning alohida o'zlariga xos bo'lgan ruhiy funksiyalarining namoyon bo'lishi uchun imkoniyat yaratildi.

Shaxslararo munosabatning fikriy-qadriyatli, jarayonli qismlari muloqot munosabatlar madaniyati tarkibida bir butun yaxlitlikda o'z-o'zini namoyon qilish, o'zining mavjudligini tasdiqlatish vazifasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu o'rinda muloqot munosabatlar madaniyatining qadriyatli-fikriy sohasi o'quvchilarni o'zining

mavjudligini tasdiqlatishga undasa, jarayonli sohasi esa mazkur quvvatlarni amalga oshirishni ta'minlaydi. Bunga biz o'z kuzatishlarimiz davomida aniq ishonch hosil qildik.

Muloqotga munosabatlar madaniyatining moyillikka undash vazifasi hissiy-asabiy holatga tushish funksiyasini ifodalaydi.

Falsafa hamda ijtimoiy axloq muammolariga bag'ishlangan izlanishlarda hissiyotlar yaxlit tarzda axloqiy tarbiyaning unumli hamda hissiy sohalarini birligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu esa inson axloqiy sifatlarining shakllanishida zaruriy tarkibiy qism sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa shaxslararo muloqot hodisasi, jamiyat a'zolarining kayfiyati hamda ishonch, nasihat qilish imkoniyati sifatida yuzaga chiqadi.

Psixologlarning ta'kidlashicha, insonning aqli ham, irodasi ham uning hissiyotlari bilan bog'liq holda o'rgatilishi lozim. Inson faoliyatining barcha sohalarida hissiyotning muayyan ahamiyatga ega ekanligi mutaxassislar tomonidan birday e'tirof etilgan. Hissiyotlarning tavsifi haqiqatning o'ziga xos bahosi hamda u haqida olinadigan axborot sifatida psixologlar va fiziologlar tomonidan tan olingan. Hissiyotlarning baholovchilik vazifasiga egaligi muayyan hodisaning ahamiyati, muhimligi, qimmatligini his etishda namoyon bo'ladi. Ushbu qadriyat shaxsning ehtiyojlarga bo'lgan munosabatini aniqlashga xizmat qiladi. Mutaxassislar shuni ham ta'kidlab ko'rsatadilarki, ehtiyojlarsiz qadriyatlar umuman mavjud bo'lmaydi.

Hissiy-qadriyatli munosabatlarsiz insonning olam bilan ichki aloqadorligi imkonsizdir. Aynan hissiyotlar orqali faoliyatning qadriyatli jihatlari va inson hayoti takomillashtiriladi. Hissiyotlar yordamida o'qituvchi o'quvchilarning fikriy sohalariga kirib boradi.

Shu tariqa, dialogik muloqot madaniyatining hissiy-asabiy jihatlari insonning axloqiy sifatleri shakllanishida unumli hissiy birlikni ta'minlaydi. Biz ta'lim jarayoni subyektlari orasidagi muloqot munosabatlar madaniyatini tahlil qilar ekanmiz, o'quvchi shaxsi barqarorligini ta'minlash vazifasini bajarishini alohida e'tirof etish lozim. Bu, ayniqsa, uning ijtimoiy xulq-atvori va dialogik munosabatlar madaniyati doirasida namoyon bo'ladi.

Kuzatishlarimiz va tajriba-sinov ishlari jarayonida muloqot munosabatlar madaniyatini egallagan o'quvchilarning muloqotga kirishuvchan, harakatchan va ma'lum darajada e'tiborsizligini kuzatdik. Bunday o'quvchilar har qanday topshiriqni bajarishga tayyor, kuch-quvvatga to'lgan bo'lishlari bilan bir qatorda, ular o'zlari tushunmagan narsalarni o'qituvchidan muntazam tarzda so'rab bilishga jur'at etolmaydilar. O'quvchilar uch kishidan iborat guruhlarda ishlash jarayonida e'tiborli, qoidalar va ko'rsatmalarga qat'iy amal qiladigan, topshiriqlarni to'g'ri bajarishga intiladigan, boshqalardan orqaga qolmaslikka harakat qiladigan subyektlar sifatida namoyon bo'ladilar.

Muloqot munosabatlari madaniyatining vazifalarini tahlil qilish asosida uning har bir komponenti bajaradigan vazifalarini aniqlash, uning tarkibida fikriy qadriyatli sohaning yetakchi mavqega egaligiga ishonch hosil qilish mumkin. Uning yetakchilik mavqega egaligida muloqot munosabatlar madaniyatning jarayonli sohasi alohida ahamiyatga ega. Unga xos bo'lgan erkinlik va bashoratchilik imkoniyati tufayli o'quvchi mustaqil tarzda o'z-o'zini boshqarish usullarini o'zlashtirishi va dialogik munosabatlarga kirishishi mumkin.

Yuqorida aytilgan o'quvchining emotsionalligi birinchi navbatda uning qadriyatlari va fikrlari orqali amalga oshiriladi. Chunki dialogik munosabatlar madaniyatining qad-

riyatli fikriy sohasi muloqot munosabatlarda yetakchi, tizimlashtiruvchi xarakter kasb etadi. Barcha faoliyat turlarida bo'lgani kabi dialogik munosabatlar madaniyatida ham maqsad yetakchi ahamiyat kasb etadi.

Shu tariqa muloqot munosabatlar madaniyatini bilish, anglash va shaxsning atrofdagilar bilan faol muloqotga kirishishi jarayonida aniqlanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining muloqot munosabatlari madaniyati doirasida qadriyatli-fikriy, jarayonli hamda hissiy-effektiv sohalar ajratiladi.

Muloqot munosabatlar madaniyatining qadriyatli-fikriy sohasi shaxsning o'z hayotining mazmunini anglashi va uni qabul qilishi bilan tavsiflanadi. Shuning uchun ham, o'quvchilarga o'z-o'zini anglash, baholash va takomillashtirish imkonini beradi. Jarayonli soha esa muloqot munosabatlar madaniyatining xarakterini aniqlashga xizmat qiladi. Shuning uchun ham u o'quvchilarning intellektual layoqatlarini ro'yobga chiqarish bilan bog'liq hodisadir. Dialogik munosabatlar madaniyatining hissiy-effektiv sohasi esa shaxsning barqarorligini ta'minlashga xizmat qilib, umumiy tarzda uning ijtimoiy xulq-atvori, xususiy jihatdan esa dialogik munosabatlarida o'z ifodasini topadi.

Ularning bir butunligi esa muloqot munosabatlar madaniyatining barcha vazifalarini ta'minlash imkonini beradi. Bular kommunikativlik, fikrni shakllantiruvchilik, o'zining mavjudligini tasdiqlatish, barqarorlik va moyillikdan iborat.

Muloqot munosabatlar madaniyati tushunchasi holat sifatida emas, balki o'quvchining dinamik rivojlanish jarayonini ifodalovchi munosabatlar majmui sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Safarova R.G. va boshq. *O'quvchilarda o'zaro do'stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish jarayonini tashkil etish tamoyillari va parametrlari. Monografiya.* –T.: “Fan va texnologiya”, 2013, – 144 b.

2. Safarova R.G. *O'quvchilarni guruhli faoliyat texnologiyasi yordamida rivojlantirish // “Ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish: muammolar va yechimlar” Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.* – Jizzax: 2014, 24-25 aprel, – 149-154 b.

Gulbaxor IZETAYEVA,

Qoraqalpoq davlat universiteti o'qituvchisi

MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada matematika fanlarini o'qitishning metodik tizimi tarkibiy qismi bo'lgan o'qitishning zamonaviy shakllari tasnifi yoritilgan. Shuningdek, ularni ta'lim jarayonida o'z o'rnida qo'llash asosida ta'lim sifatini oshirilishi ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Shakl, jarayon, ta'lim sifati, mustaqil ish, mezon, zamonaviy dars, matematika.

В статье приведена классификация современных форм обучения, которые являются составной частью методической системы преподавания математических дисциплин. Дано обоснование повышению качества обучения путем их применения в процессе преподавания математических дисциплин.

Ключевые слова. Форма, процесс, качество, обучения, самостоятельная работа, критерий, математика.

This article considers the classification of modern forms of learning, which are part of the methodical system of teaching mathematics. Provides a scientific basis for improving the quality of education through the use of a classification of modern forms of training in the process of teaching mathematics.

Key words. Form, process, quality, modern training, teaching mathematical disciplines.

Prezidentimiz ta'kidlab o'tganidek: "Aslida ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotning chegarasi yo'q. Toki hayot davom etar ekan, ta'lim ham, tarbiya ham zamon o'rta qo'yayotgan yangi-yangi talablarga ko'ra mustaqil ravishda o'zgarib-yangilanib boraveradi".

Ta'lim jarayonini pedagogik va modulli o'qitish texnologik tamoyillari hamda zamonaviy dars shakllari asosida tashkil qilish bugunning dolzarb masalalaridan biriga aylandi.

Dars – ta'limning asosiy tashkiliy shakli hisoblanadi, u doimiy o'quvchilar tarkibi bilan qat'iy tartibda uyushtiriladigan va aniq maqsadga yo'naltirilgan didaktik tadbir bo'lib, ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar, laboratoriya, mustaqil ish va mustaqil ta'lim kabi-lardan iborat bo'ladi.

Ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya sohasining boshlang'ich asosi dars bo'lib, hozirgi paytda pedagogikada zamonaviy dars tushunchasi tez-tez tilga olinmoqda. Zamonaviy dars, o'zi qanday dars? degan savol tug'ilishi tabiiy. Pedagogika fanlari doktori, professor J.G'.Yo'ldoshevning fikricha, "Zamonaviy dars shunday darski, unda o'qituvchi o'quvchining mavjud imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalanib, uning aqliy potensialini ishga solib, rivojlanishini ta'minlaydi, o'quvchi esa o'z navbatida bilimlarni chuqur o'zlashtiradi va ma'naviy barkamollik sari odimlaydi".

B.Raximov, A.Mavlyanovlar zamonaviy darsning quyidagi mezonlarini ko'rsatadi:

- dars o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan, pedagog va o'quvchining o'zaro faol munosabatlariga asoslangan bo'ladi;
- dars jarayoni tabaqalashtirish va shaxsiy qobiliyatlariga yondashuv asosida amalga oshiriladi;
- dars o'quvchining yuqori darajadagi qiziqishi, xohishlari, aqliy faolligi, muvaffaqiyatga erishuviga qaratiladi;
- dars o'quv materiali mazmuniga ko'ra turli uslublar, vositalarga suyanadi;
- o'quvchining aqliy faoliyatini faollashtirishga e'tibor qaratiladi;
- o'quvchi shaxsiyatini rivojlantirishga, birinchi navbatda, o'quvchining o'zini-o'zi boshqara olishiga qaratilgan mexanizm to'liq ishga solinib, shu orqali uning bilimga bo'lgan qiziqish va xohishi ortadi;
- sifati va samaradorligini ta'minlovchi nazorat turlaridan foydalaniladi;
- vaqtdan unumli va maqsadli foydalaniladi;
- o'quv materialini osonlik bilan yenga olishga e'tibor qaratiladi;
- nazariya va amaliyot o'zaro bog'lanishda talqin etiladi.

Zamonaviy darsga qo'yilgan bu mezon va talablar barcha ta'lim turlarida ham o'zining ahamiyatini yo'qotmaydi.

Matematika turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitishda ma'ruza o'qitish shakllari orasida asosiylaridan biri hisoblanadi. Ko'p hollarda materialning zaruriy darajadagi tushunib yetilishiga to'sqinlik qiluvchi yozma ravishdagi an'anaviy ma'ruza o'qitish metodikasida, tadqiqot ma'lumotlariga ko'ra, o'quvchilar tushunishning uchdan bir qismini tashkil qilishi ma'lum bo'ldi. Shuning uchun, ma'ruza o'quvchilarning bilish faolligining rivojlanishiga, o'rganilayotgan fanga va o'qitilayotgan o'quv predmetiga nisbatan qiziqishga ko'maklashmog'i zarur. Amaliyotda o'quvchilarning produktiv faoliyatini ham, reproduktiv faoliyatini ham ko'zda tutuvchi turli variantdagi ma'ruzalar zarur bo'ladi. Faol o'qitish usullarini qo'llashda qisman-izlash, tadqiqot va ijodiy faoliyat turlari dominantlik qiluvchi turlar sifatida maydonga chiqadi.

Bunday ma'ruzalarning muhim tomonlari quyidagilar:

- muammoning qo'yilishi;
- uning dolzarbligining asoslanishi;
- undagi yechish uchun zarur bo'lgan tayanch bilimlarni belgilash;
- o'quvchilardagi mavjud bilimlarning noto'liqligidan iborat ziddiyatni yoki qarama-qarshilikni aniqlash;
- o'quvchilarning qisman-izlanish faoliyati muhitini yaratish, o'quvchilarning tadqiqot ishlarini tashkillashtirish;
- tadqiqot natijalarini aniq natijalar bo'yicha taqqoslash;
- o'quvchilar tomonidan o'rganilgan ta'riflar, xulosa va natijalarga tuzatishlar kiritish;
- ta'riflangan tushunchalarni qat'iy shaklda umumlashtirish;
- maxsus vazifalar bo'yicha o'quvchilarning mustaqil ish va mustaqil ta'lim olishlaridan iborat.

Binobarin, ishimizning asosiy mazmun-mohiyati o'quvchilarni modulli o'qitish texnologiyasi asosida o'qitishdan iborat ekan, u holda ma'ruza materialini an'anaviy tarzda shakllantirish usulidan qochish va birinchi o'ringa muammoli ma'ruzaga e'tiborni qaratish lozim. An'anaviy ma'ruzada ko'proq yetkazib berish, tushuntirish, illyustratsiya, ifodalash, misollar keltirishdan foydalanilsa, muammoli ma'ruzada esa – hodisaning har tomonlama tahlil etilishi, haqiqatning ilmiy izlanishi yotadi. Muammoli ma'ruza, savol

va masalalarni qo'yish yoki muammoli vazifa taqdim etish yo'li orqali ketma-ket tarzda modellashirilgan muammoli vaziyatlardagi mantiqqa tayanadi.

Muammoli vaziyat – bu murakkab ziddiyatli sharoit bo'lib, mashg'ulot paytida muammoli masalalarni qo'yish yo'li bilan yaratiladi, bunda mazkur masalani to'g'ri baholash va yechish uchun o'quvchilarning faol bilish amaliyoti talab etiladi. Muammoli masala dialektik ziddiyatni o'z ichiga oladi va ma'lum bo'lgan bilimlarni aytib berishni emas, balki fikrlashni, qiyoslashni, izlashni, yangi bilimlarga ega bo'lish yoki avval olingan bilimlarning qo'llanilishini talab etadi.

Muammolarning murakkablik darajasi, xarakteri o'quvchilarning tayyorgarligiga, o'rganilayotgan mavzuga va boshqa holatlarga bog'liq bo'ladi.

Muammoli masalani yechish va muammoli savollarga javob berishni o'qituvchi amalga oshiradi (ba'zida fikr almashishni uyushtirgan holda o'quvchilarga murojaat etiladi). O'qituvchi nafaqat ziddiyatni hal qilishi zarur, balki murakkab hodisalarni bilishning dialektik usullaridan kelib chiqqan holda aqliy faoliyat usullarini namoyish etishi, uning mantig'ini, metodikasini ham ko'rsatib berishi zarur. Bu, albatta, birmuncha vaqtni talab etadi, shuning uchun o'qituvchidan o'quv materialini tanlab olish va ma'ruza ssenariysini tayyorlash bo'yicha avvaldan tayyorgarlik ko'riluvchi taxminiy ishlarni amalga oshirish talab etiladi.

Umumiy ko'rinishda quyidagi bosqichlar bo'lishi mumkin:

– kursning mantiqiy negizini tashkil etuvchi asosiy tayanch materialni tanlab olish va tahlil qilish;

– asosiy muammolarni tanlab olish va ularni muammoli vaziyatlarga aylantirish;

– har bir muammoli vaziyatni yechish mantig'i va metodikasini o'ylab topish;

– barcha ma'ruza mazmunini bir butun bilimlar tizimiga keltirish va uni metodik jihatdan ta'minlash;

– ma'ruza materialining mazmuniga va bayon etilish metodikasiga tuzatishlar kiritish va so'nggi variantini tayyorlash.

Muammolarni yecha bilish kishining har qanday sohadagi faoliyatida, har kungi turmush hayotida zarur bo'lgan asosiy kompetensiya hisoblanadi. Agarda, o'quvchilar muammolarni yecha olish qobiliyatiga ega bo'lsalar, ularning kelgusida ishlaydigan muassasalarda qadr-qimmatlari oshadi, bundan tashqari, ularning butun hayoti davomida ham foydasi tegadigan kompetensiyaga ega bo'ladi.

Bunday kompetensiyalarning muhimligi ish beruvchilar uchun quyidagi holatlarda ko'rinadi:

– ko'pgina zamonaviy muassasalar o'ziga mas'uliyat va javobgarlikni olishga va o'zi mustaqil tarzda ishlay olishga qodir bo'lgan kadrlarga manfaatdor bo'ladi. Buni amalga oshirish uchun mutaxassis muammoni aniqlashi va uning yechimini taqdim eta olishlari zarur bo'ladi, ya'ni bu muammoni yechishda aynan o'sha zarur bo'lgan qobiliyatning asosi hisoblanadi;

– muammoni yecha olish sifat boshqaruvining asosiy jihati hisoblanadi – uzluksiz takomillashuv konsepsiyasi, birinchi navbatda, odamlarning o'z faoliyati va xatti-harakatlarini tahlil qila olish, muammoni izlash va shunga qarab takomillashish usullarini topa olishga asoslangan.

O'quvchilar muammoni yechishda: muayyan masala bo'yicha o'z bilimlarini, prinsip va ish tartiblarini yoki nazariyani qo'llagan holda muammoni yechishni, ijtimoiy va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Modomiki, muammoli o'qitish metodikasi jamoaviy hisoblanar ekan, u holda bu uning samaradorligini yanada oshiradi.

Materialning yuqori darajada o'zlashtirilishini amaliy mashg'ulotlar ta'minlab beradi. Ular ma'ruzadan farqli ravishda o'quvchilarning ko'proq faol bo'lishlari bilan, ko'proq o'qituvchi tomonidan bevosita rahbarlik qilinishi bilan, o'zaro qayta aloqaning ko'proq jadal-lashuvi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun mutaxassisni samarali va faol shakllantirish jarayoni amaliy mashg'ulotlardagina yuz beradi. An'anaviy shakl esa nazariy va amaliy qismlarning birlashuvini taklif etadi. Bu yerda o'quvchilarning mavzu bo'yicha ko'proq dif-ferentsiallangan o'qitish shakli muhim ahamiyat kasb etadi, bunda o'quvchilar guruhi alo-hida guruhlariga bo'linadi va ular o'z kuchlari doirasida amaliy vazifalarga ega bo'ladi.

Bugungi kunda, o'quvchilarni o'qitishning negizida tizimli, mustaqil o'qish yoki mustaqil ta'lim olishi zarur, chunki aynan u faoliyatning barcha sohalaridagi ilg'or o'zgarishlarga nisbatan moslashuvchan tarzda yo'l topa olishga imkon beradi.

Mustaqil ish. O'quvchining mustaqil ishi o'quv jarayonining muhim tashkil etuv-chilaridan biri hisoblanadi, uning olib borilishida bilim, ko'nikma va malakalar shakl-lanib boradi va kelgusida o'quvchilar bilish faoliyatining usullarini o'zlashtirib borishlari ta'minlanadi, ijodiy ishlarga bo'lgan qiziqishlar va nihoyat texnik, iqtisodiy va ilmiy masa-lalarni yecha olish qobiliyatlari rivojlanadi.

Mustaqil ishning keng qo'llaniladigan quyidagi turlari mavjud bo'lib, bular:

Takrorlash va mashq qilish. Takrorlash va mashq qilishda pedagog dars paytida olgan bilimlarini takrorlaydi, tahlil qilib, umumlashtirib, fikrlab ko'radi, eslab qoladi, amaliy topshiriqlarni bajarish ko'nikmalari va malakalarini shakllantiradi.

Yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirish. Yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirishda o'quv-chi axborot manbalarini izlab topish, ular ustida ishlash, konspektlashtirish, fikrlarni izchil ba-yon qilish bo'yicha ko'nikmalarni egallaydi, mustaqil ta'lim olish usul va uslublarni o'rganadi.

Ijodiy xarakterdagi ishlarni bajarish. Ijodiy xarakterdagi topshiriqlarni bajarish-da o'quvchi muammoli vaziyatlarni aniqlash, tahlil qilish, mustaqil ravishda qaror qa-bul qilish ko'nikmalarini egallaydi, masalani hal qilishga ijodiy yondashishga o'rganadi, ko'rgazmali vositalar tayyorlash, ilmiy tavsifdagi izlanishlarni talab qiladigan topshiriqlar-ni hal qilish yo'llari bilan tanishadi.

Mustaqil ishning quyidagi shakllari keng qo'llanilmoqda:

1. Fan boblari va mavzularini o'rganish. Bu hali mustaqil ish ko'nikmasiga ega bo'lmagan birinchi bosqich o'quvchilari uchun bo'lib, uning natijalari bajarilgan referat, individual topshiriq, seminar kabilar orqali tekshiriladi.

2. Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish. Bunda peda-gog asosiy materialni bayon etishga katta e'tibor qaratadi. Tarqatma material har bir ma'ruza uchun tayyorlanadi. Mustaqil ishning bu shakli umumkasbiy va maxsus fanlarni o'rganuvchi yuqori bosqich o'quvchilari uchun ushbu ishlarning natijalari tegishli nazorat bosqichlarida tekshiriladi.

3. Avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi, nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash. Bu ma'ruza, laboratoriya ishlari yoki amaliyot darslariga tayyorgarlik doirasida olib borilib, barcha bosqich o'quvchilariga taalluqli.

4. Maxsus, ilmiy adabiyotlar bo'yicha fan bo'lim va mavzulari ustida ishlash. Bular hisoblash-grafik topshiriqlar, referat, kurs ishi loyihalari, bitiruv malakaviy ishlarni bajarishda barcha bosqich o'quvchilari uchun ahamiyatli. Uning natijalari tegishli reyting-nazorat bosqichlarida tekshiriladi.

5. Yangi texnika, texnologiyalarni o'rganish. Bular malakaviy amaliyotlar o'tkazish, tadqiqotlarda ishtirok etish, ishlab chiqarish buyurtmalarini bajarishda muhim. Natijalar hisobotlarni qabul qilishda tekshiriladi.

6. O'quvchining ilmiy tekshirish ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limi yoki mavzularini chuqur o'rganish. Bu barcha bosqich o'quvchilari uchun maqsadga muvofiq.

Faol o'qitish uslubidan foydalaniladigan mustaqil ta'lim darslari (interfaol usullar, diskussiya, konferensiya, seminar kabilari) fan, texnika va texnologiyalarning dolzarb muammolari bo'yicha tayyorlanadi.

O'quvchi ishni tashkil etishda muayyan fan xususiyatlari, o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- ayrim nazariy mavzularni qo'shimcha adabiyotlar yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- seminar va amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishlarini bajarishga tayyorgarlik ko'rish;
- hisob-grafik, kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;
- malakaviy bitiruv ishini tayyorlash;
- amaliyotdagi mavjud muammolarning yechimini topish;
- maket, model, namunalar kabilarni yaratish;
- ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tezislari tayyorlash va h. k.

Mustaqil ishning samarali bo'lishi uchun quyidagi bir qator shart-sharoitlarning bajarilishi zarur bo'ladi:

- auditoriya va mustaqil ish hajmlarining to'g'ri birlashtirilishini ta'minlash;
- o'quvchilar ishini auditoriyada hamda auditoriyadan tashqari holda metodik jihatdan to'g'ri tashkillashtirish;
- mustaqil ish jarayonini ijodiy jarayonga aylantirish maqsadida o'quvchini zaruriy metodik materiallar bilan ta'minlash;
- o'quvchining mustaqil ishi va uning sifatli bajarilishini rag'batlantiruvchi tadbirlarning borishini nazorat qilib borish.

Birinchi shart o'quv rejani nafaqat alohida kurslarning ketma-ket tarzda o'zlashtirilib borilishi ma'nosida, balki auditoriya va mustaqil ishning mutanosibli ma'nosida ham to'g'ri tuzilishi zarur. O'quv rejada o'quvchining mustaqil ta'limiga o'quv soatining 42-50 foizi ajratiladi, shundan 22 foiz o'qituvchi rahbarligida olib boriluvchi mustaqil ishga ajratiladi. Shuning uchun asosiy e'tibor o'quvchining mustaqil ish va mustaqil ta'limiga qaratiladi.

Bunda pedagogning vazifasi – o'quvchini yo'naltirish uchun, unga asosiy bilimlarni berishdan iborat bo'ladi. Shunga ko'ra, o'quv vazifalarining o'quv maqsadlariga mos holda to'g'ri tanlab olinishi muhim rol o'ynaydi. Matematika fanlarining har bir bo'limlari bo'yicha masalalarning qismlarini o'qituvchi rahbarligida bajarish tavsiya etiladi, bu fanni o'zlashtirishning asosiy bazaviy darajasini ta'minlaydi. Individual ish uchun vazifa va masalalarni tanlashda quyidagi prinsiplarga tayanish lozim:

- kursning asosiy g'oyalardagi mazmuniga;
- mavzudagi tayanch bo'lgan asosiy masalalarning kasbiy yo'nalganligi;
- reprezentativlik (mavzuga, dasturga, o'quv DTSlariga mosligi). O'quv vazifalari barcha turdagi o'quv faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur va yetarli bo'lgan vositalar tizimining o'zlashtirilishini ta'minlamog'i zarur.

Ikkinchi sharti – bu ishning metodik jihatdan to'g'ri tashkillashtirilishi. Mustaqil ishlarni tashkillashtirishning metodik asosi sifatida o'quvchilarga ikkitadan minimum topshiriqni bajarish tavsiya etiladi. Minimum topshiriq tuzishda shunday narsalarga e'tibor qaratilishi lozimki, bunda u mavzuning o'quv maqsadlariga mos, o'rtacha qobiliyatli o'quvchiga mos bo'lgan vazifa va masalalarini o'z ichiga olishi zarur. Har bir minimum topshiriqning bajarilishi mavzuning o'rganilish vaqtiga mo'ljallangan. Minimum topshiriqdagiga mos keluvchi mashqlar amaliy mashg'ulotlarda qarab chiqiladi. Shunday qilib, o'quvchi har bir amaliy mashg'ulotlarda shu tarzda tizimli ravishda shug'ullanib borishi natijasida, u endi minimum topshiriqdan bir nechta mashqlarni bajara olishga qodir bo'ladi, shu bilan birga mazkur mavzuning o'zlashtirilib borilishida olingan bilimlarini mustahkamlab

boradi. Barcha topshiriqlarning bajarilganidan so'ng o'quvchida butun matematik analiz kursi bo'yicha turli tipdagi masala va vazifalar haqida aniq tasavvurlar hosil bo'ladi, bu esa nazoratga tayyorgarlikni anchagina yengillashtiradi. Har bir topshiriq bajarilganidan keyin o'quvchilar bilimi bo'yicha oraliq nazorat amalga oshiriladi va ularga reyting bali qo'yiladi.

Minimum topshiriqning maqsadlari quyidagilardan iborat:

– o'quvchilarning amaliy va ma'ruza mashg'ulotlarida olingan bilimlarini mustahkamlash;

– matematika fanlari kurslarini o'rganishning umumiy ko'rinishini shakllantirish;

– matematika fani kurslarini o'qitishning mazmuniga tuzatishlar kiritish uchun amaliy va nazariy materialning o'zlashtirilishini nazorat qilish.

Mustaqil ish bo'yicha me'yorlashtirilgan vazifa o'quvchiga mazkur vazifani qachon bajarish vaqtini o'zi belgilashiga imkon beradi, bu esa o'quv mavzusiga nisbatan salbiy holatlar, ya'ni – majburiylik hissi o'z-o'zidan yo'qolishiga olib keladi. Vazifani tez bajarib bo'lish istagi o'quvchida mazkur mavzuni uning o'zi mustaqil tarzda o'rganib chiqishga rag'bat uyg'otadi va o'z navbatida nazariy materialni ma'ruza paytida tushunarliroq tarzda qabul qilib olishga, fanning samarali o'rganilishiga ko'maklashadi.

Uchinchi shart – o'quvchini tegishli metodik adabiyotlar bilan ta'minlash. O'quvchilarga tavsiya etiluvchi adabiyotlar ro'yxati taqdim etiladi.

To'rtinchi sharti – bilimlarning tizimli-doimiy tarzda nazorat qilib borilishi – oraliq nazorat. Nazorat natijalari balli tizimda baholanadi. Semestr yakunida o'quvchilar yakuniy nazorat topshiradi, so'ng uning natijalariga ham balli tizimda baho qo'yiladi. Yakuniy nazorat topshirib bo'lingandan so'ng ma'ruzachi barcha reyting ballarining summasi sifatida har bir o'quvchining reytingini hisoblab chiqadi, so'ngra bu ballarni 5 ballik tizim bo'yicha o'rtacha ballga aylantiradi va o'quvchining reyting bo'yicha o'rnini belgilab oladi. Shundan so'ng, har bir o'quvchining o'rnini, reytingi va o'rtacha bali guruhning joriy o'zlashtirish ro'yxatiga kiritiladi.

Bunday tarzda nazoratning olib borilishi o'quvchini nazariy materiallar bilan tizimli-doimiy tarzda ish olib borishga undaydi, vaqtini elementar vazifalarni bajarishga sarflamaslikka imkon beradi.

Reyting nazorat o'quv fanining barcha bo'limlari va mavzularini diqqat bilan nazoratdan o'tkazilishini ta'minlaydi; kurs ustida tizimli-doimiy tarzda ishlab borilishi hisobiga bilimlar mustahkamligi oshiriladi; fan bo'yicha yakuniy baholanishning obyektivligi oshiriladi; o'zini-o'zi nazorat qilish jarayonida har bir o'quv bosqichida o'rganilayotgan materialning o'quvchi tomonidan obyektiv baholanishi uchun qulay sharoit yaratiladi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, matematika fanlarini o'qitishning metodik tizimli tarkibiy qismi sanalgan o'qitishning zamonaviy shakllari ta'lim jarayonida to'g'ri qo'llanilsa, ta'lim sifatini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. A. *O'zbekiston buyuk kelajak sari*. –T.: "O'zbekiston", 1998 y. – 62 b.
2. Yo'ldoshev J.G'., Usmanov S.A. *Pedagogik texnologiya asoslari. Qo'llanma*. –T.: "O'qituvchi", 2004.
3. Tojiyev M., Ziyomammedov B. *Pedagogik texnologiyani ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbig'i va uning barkamol avlod fazilatlarini shakllantirishdagi o'rnini. Monografiya*. –T.: "MUM-TOZ SO'Z", 2010. – 214 b.
4. Raximov B.H., Mavlyanov A., Choriyev V., Abdalova S., Temirova N.S. *Pedagogik texnologiyalar sxemalarda/O'quv qo'llanma*. – T.: OO'MKHTRM, 2009. – 124 b.

Rustam ASTANOV,

Buxoro viloyati XTXQTMOI o'qituvchisi

HAMKORLIKDAGI TA'LIM – O'QUVCHI O'ZLASHTIRISHINI MUHIM OMILI SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy maktab ta'limida innovativ pedagogik va axborot texnologiyalarni tatbiq etish orqali o'quvchilarga berilayotgan ta'lim sifatini oshirish borasida hamkorlikdagi ta'limni amalga oshirish kerakligi to'g'risida aytib o'tilgan. Shuningdek, muallif o'quvchining o'zlashtirish va rivojlanishda uchraydigan omillarning mantiqiy xulosalarini keltirib, mustaqil fikrlarni bayon etgan.

Kalit so'zlar. Hamkorlik ta'limi, pedagogik texnologiya, interfaol ta'lim, innovatsiya, ta'lim sifati, intellekt, mustaqil fiklash, sog'lom muhit.

Данная статья посвящена проблеме внедрения инновационных педагогических и информационных технологий в образовательный процесс в современной школе и повышения эффективности обучения на основе сотрудничества педагога и учащихся. Сотрудничество определено автором как важный фактор усвоения учебного материала и развития учащихся.

Ключевые слова. Совместное обучение, педагогическая технология, интерактивное обучение, инновация, качество обучения, интеллект, самостоятельное мышление, здоровая среда.

This article is devoted to the problem of education of a modern school, in particular made special conclusions about the effectiveness of the implementation of innovative teaching and information technologies to improve the quality of a school education, especially in the organization of the joint training.

Key words. Cooperative teaching, pedagogical technology, interactive teaching, quality teaching, intellectual, independence thinking, healthy environment.

Zamonaviy maktab ta'limida innovativ pedagogik va axborot texnologiyalarni tatbiq etish orqali o'quvchilarga berilayotgan ta'lim sifatini oshirish, oila, maktab va jamoatchilik hamkorligiga asoslangan va boshqaruvning jamoatchilik shakli tashkil qilingan ochiq ta'lim muhitini amalga oshirish hamda bolalarning huquqlari himoyasini, ularning sha'ni, g'ururi mustaqilligini ta'minlash uchun do'stona hamkorlikdagi muhitni yaratish muhim vazifalar sirasiga kiradi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarining barkamol bo'lib shakllanishi uchun ularning uzluksiz bilim olish ehtiyojlarini ta'minlab borish, hayotiy va mustaqil ijodiy, tanqidiy fikrlash, o'zini-o'zi intellektual, ma'naviy, axloqiy boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Bu o'quvchida yuqori darajadagi intellektual-ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashda muhim ro'l o'ynaydi. Ayni chog'da Prezidentimizning "Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar" degan fikrlari bejiz emas.

Har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashda yuqori kasbiy malakalarga va axloqiy sifatlarga ega bo'lgan pedagoglar tayyorlash bugungi kunning talabidir. Bunday jamoani tashkil etishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- hamkorlikdagi rejalashtirilgan darslarni tashkil etish, faoliyatning barcha qirralaridan keng va samarali foydalanish, "O'quvchi-o'qituvchi-o'quvchi" sxemasiga rioya qilish;

- o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalaridagi "bo'shliq"larni to'ldirishda pedagogik-psixologik shart-sharoitlarni oqilona tashkil etish;

- uzluksiz ravishda fan va texnika yutuqlaridan nafaqat xabardor bo'lish, balki o'qitish va ta'lim berishda ulardan samarali foydalanish;

- o'zaro bir-biri bilan nimani va qanday o'qitayotganini hamda o'zining o'qitish natijalari bilan erkin o'rtoqlashish;

- hamkasblarini ma'nan qo'llab-quvvatlash, muvaffaqiyatlaridan xursandligini namoyon etish, unga hasad emas, havas qilish, ularga o'xshashga harakat qilish;

- muammolarni hamjihat bo'lib aniqlash, o'rganish va tahlil qilish hamda ularni bartaraf etish yo'llarining tartibini belgilash;

- yordamga muhtoj, shuningdek, yordam beruvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash (ilmiy, metodik, pedagogik, psixologik);

- metodik qo'llanmalar, tavsiyalar, namunali dars ishlanmalari, test savollari va boshqa nazorat topshiriqlar to'plami kabi metodik ishlarni tayyorlashda har bir pedagog hamda jamoaning javobgarligini oshirish va hokazo.

Yana bir jihat, jamoaning faoliyatini yaxshilash, ijodkorlik va sog'lom muhitni tashkil etishda zamonaviy hamkorlikdagi ta'limga e'tiborni kuchaytirish zarur. Hamkorlikdagi ta'lim bu ishchi guruhlarda ishlashdir, ammo har qanday guruhlardagi ish hamkorlikdagi ta'lim bo'la olmaydi.

Hamkorlikdagi ta'limning quyidagi asosiy elementlari mavjud. Bular:

1. O'zaro ijodiy bog'liqlik.
2. O'zaro erkin, mustaqil muloqot, muomala.
3. Shaxsiy mas'uliyat.
4. Kompetentlik.
5. "Yuzma-yuz" erkin munosabatlar.
6. Ijtimoiy malaka.
7. Individual ijtimoiy-psixologik sifatlari.
8. Boshqaruvning zamonaviy psixotexnika va psixotexnologiyalarini egallaganlik.
9. Baholash.

Aytish joizki, hamkorlikdagi ta'limda guruhdagi o'quvchilar passiv tinglovchi emas, balki muzokaralarning faol ishtirokchisi, o'zining fikrini qisqa, lo'nda va aniq bayon etuvchi guruh a'zosiga aylanadi. Guruhlardagi ochiqlik, o'zaro hurmat va yordam o'quvchilarni o'ziga jalb etadi. Bu esa ichki ijobiy hissiy qoniqish hosil qilishi bois, o'quvchilarning davomatini yaxshilaydi, tirishqoqligini kuchaytiradi, o'zaro hamkorlikda fanlarni o'zlashtirish, hodisa va voqelikning mazmun-mohiyatini oson tushunish, ularning fanga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi. O'quvchilar fanga e'tibor bilan qaraydigan bo'ladi va uni chuqurroq, mukammal o'rganishga harakat qiladilar.

Hamkorlikdagi ta'limning muhim jihatlaridan yana biri o'quvchilarning bir-biri tushunishlari, savol-javoblarga faol ishtiroklari ularning o'gzaki nutqini, muloqot ko'nikmalarini hosil qiladi. Shuningdek, nutq, so'zlashuv, savol berish va javob berish madaniyatini shakllantiradi va rivojlantiradi. Bunday ta'lim turi o'quvchilarni faollikka,

darsga qiziquvchanlikka va izlanuvchan bo'lishga undaydi. O'zaro ijodiy munosabat, fikrlar almashinuvi, turli ma'lumotlar, qarorlar qabul qilish va o'rtoqlashish kabi fazilatlarni hamda sinfda ijodiy faollikni kuchaytiradi. Bu esa sinfda guruh bo'lib ishlash, muammo va masalalarni jamoa bo'lib hal etish, o'ziga hamda sinfdoshlariga nisbatan mas'uliyatli bo'lish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu o'z navbatida nafaqat o'quvchilardan, balki o'qituvchidan ham darsga puxta tayyorlanib kelishini talab etadi.

Hamkorlikdagi ta'lim tabiatan o'quvchining faoliyatini tashkillashtiradi. Darsga puxta tayyorlanib kelish, uyga berilgan vazifalarni to'liq bajarish, o'rtoqlashishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni aniq, lo'nda gapirib berish kabi malakalarni hosil qilishga zamin yaratadi. Bunday ta'limda sinfdagi “a'lochi” va “past o'zlashtiruvchi” o'quvchilarga ajratilmaydi. Aksincha, o'quvchilarni bir-biriga yaqinlashtiradi, do'stlashtiradi, bir-biriga hamkor va qo'llab-quvvatlovchi yaqin insonga aylantiradi. Uncha muhim bo'lmagan ma'lumot yoki tushuncha ham guruh muhokamasida aniq, mukammal, turli asoslarga ega va chuqur ma'noli taklif yoki xulosaga aylanishi mumkin. O'quvchilar bir-birlarini tanqid qilishdan voz kechib, g'oyalarini tanqid qiladilar, qo'shimcha takliflar kiritadilar, umumlashtirib, ijobiy xulosalar chiqarishni o'rganadilar. Bunday ta'lim darsdagi o'quvchilarning intizomini yaxshilaydi, ko'proq bilim olishga bo'lgan ishtiyoqlarini kuchaytiradi. O'qituvchilarning, qolaversa, ma'muriyatning o'quvchilarga bo'lgan munosabatlarini ijobiy tomonga o'zgartiradi.

Muxtasar qilib aytganda, hamkorlikdagi ta'limning ustuvor tomonlari sifatida quyidagilarni e'tiborga olish lozim:

- o'zaro ijodiy munosabat shakllanadi va rivojlanadi;
- har bir kishining o'zi uchun va guruhning boshqa a'zolari uchun javobgarlik his-sini kuchaytiradi;
- guruhlarda aynan bir o'quvchi emas, balki aralash guruhlar shakllanadi;
- shakllanayotgan guruhlarda ishonch, javobgarlik, jipslilik rag'batlantiriladi;
- guruhda doimiy “faol” o'quvchi emas, balki har bir guruh a'zosi rahbarlik rolini bajaradi;
- muloqot ko'nikmalari shakllanadi, qo'llaniladi va rag'batlantiriladi;
- o'qituvchi doimiy ravishda guruh faoliyatini kuzatib boradi, baholaydi va zarurat bo'lganda ularning ishiga aralashadi;

“Har bir odam go'yoki alifbodagi harfga o'xshaydi, so'z yasash uchun o'zaro biriki-shi kerak” deb yozgan edi O. Mandelshtam. Hamkorlikdagi ta'lim esa bugungi kunning talabi.

Bugungi globallashuv jarayonida voqea-hodisalarni o'rganish, ularning kelib chiqish sabablarini tahlil etish har bir o'quvchi uchun juda muhim. Har tomonlama rivojlangan barkamol shaxsni tarbiyalashda tabiiy fanlarning o'zni beqiyos. Bu esa tabiiy fanlar o'qituvchilari oldiga yangi, muhim maqsadlarni qo'yadi, bular:

- har bir bolaning atrof-muhitga bo'lgan tug'ma qiziquvchanligini rivojlantirish;
- har bir bolaning so'z boyligini, shuningdek, olam haqidagi bilimlarini oshirish;
- bolalarda “ilmiy fikrlash”ni hosil qilish. Bu aniq va puxta kuzatuvlar olib borishni, aniq, zarur ma'lumotlarni to'plash, savollarni shakllantirish, bu savollarga javob olish usullari va imkoniyatlarini topishni nazarda tutadi. Olingan bilimlarni turli vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish;

• o'quvchilarning ta'lim jarayonida faol bo'la olishini rag'batlantirish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, materiallarni yangicha qo'llash, shuningdek, o'z fikrlash imkoniyatlarini kengaytirish;

- o'quvchilarni to'gridan-to'gri ta'lim jarayoniga jalb etib, yuqori sifatli, mazmunli dars berishni ta'minlash;

- o'quvchilarda kelajakda o'qish, bilim olish strategiyasini ishlab chiqishga amaliy yordam beradi.

Bunda asosiy e'tiborni quyidagilarga yo'naltirish lozim:

- hamkorlikdagi ta'limni yo'lga qo'yish;
- o'quvchi shaxsini ijodiy rivojlantirish;
- ta'limning interfaol metodlarini amaliyotga tatbiq etish;
- o'quvchilarning kompyuter savodxonligini oshirish;
- o'quvchilarda bag'rikenglik va tolerantlikni shakllantirish;
- maktabdan tashqari ta'limning yangi mazmunini shakllantirish;
- ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish;
- maktab bitiruvchilariga kasbini o'zi tanlashiga ko'maklashish;
- bolaning xatolariga urg'u berishdan saqlanish;
- bolaga nisbatan mehr-muhabbat va hurmatni ko'rsata bilish va ko'rsatish istagi-

ning bo'lishi,

- katta topshiriqlarni kichikroq topshiriqlarga bo'lib bajarishiga yordam bera olish;
- bola muvaffaqiyatlariga e'tiborli bo'lish;
- bola bilan o'zaro muloqotda hazil-mutoyibani ishlatish;
- bolaning topshiriqlarini bajarishi davomidagi barcha urinishlaridan xabardor

bo'lish;

- imkoni bor joyda bolaning o'ziga muammolarni hal etish uchun izn bera bilish;
- intizomiy jazolardan qochish;
- unga nisbatan ishonch va mehr ko'rsatish.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida axborot texnologiyalaridan foydalanib, o'quvchilarga berilayotgan ta'lim sifatini oshirish maqsadida pedagog bilan hamkorlikda bilim olish muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.* –T.: "Ma'naviyat", 2008 .
2. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: "Sharq", 1997.
3. Тинзмэнн М.В., Джонс Б.Ф. *Что такое класс совместного обучения?* БГРЕЛ, ОАК Брукс, 1990.
4. *Влияние методов совместного обучения на успеваемость.* [хтт://счоолар.либ.вт.эжжурналс / ЗВТЕ](http://счоолар.либ.вт.эжжурналс / ЗВТЕ).

Arman ALLANIYOZOV,

Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

O'QUVCHILARDA QADRIYATLI MUNOSABAT TAJRIBASINI SHAKLLANTIRISHNING AYRIM MASALALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada qadriyatlar, ularning turlari hamda har bir turning o'ziga xos tavsifi yoritilgan. Shuningdek, muallif qadriyatlarning shaxs va jamiyat madaniyati bilan aloqadorligi, falsafiy ijtimoiy jihatlarini hamda qadriyatlarga oid yondashuvlarni tahlil qilib o'tgan.

Kalit so'zlar. Qadriyat, o'quvchi, ijtimoiy munosabat, falsafa, sotsiologiya, ijtimoiy ong, madaniy qadriyat, obyekt, subyekt, ijtimoiy tajriba.

В данной статье раскрыта сущность ценностей, их виды, охарактеризованы особенности каждого вида. Показана взаимосвязь личностных ценностей и культуры общества, проанализированы философские, социальные аспекты ценностей и подходы к их усвоению, обозначены ожидаемые результаты.

Ключевые слова. Ценности, учащийся, социальные отношения, философия, социология, общественное сознание, культурные ценности, объект, субъект, социальный опыт.

This article reveals the essence of values, characterized by their species, the relationship of personal values and culture of the society, analyzed the philosophical and social aspects of values and approaches to their assimilation, the expected results are indicated.

Key words. Values, student, social relations, philosophy, sociology, social consciousness and cultural values, object, subject, social experience.

Insonga qadriyat sifatida munosabatda bo'lish tushunchasining mohiyatini ochish bugungi kunda mutaxassislarning diqqat markazida turibdi. Bu o'rinda insonga qadriyat sifatida yondashish, uni qadriyat sifatida baholash tushunchalarining mohiyatini ochish talab etiladi.

“Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar, masalan, erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik, go'zallik, moddiy va ma'naviy boyliklar, an'ana, urf-odat va boshqalar hisoblanadi”.

Shu ma'noda “Qadriyat – inson va jamiyat ma'naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha, Qadriyatshunoslik “(aksiologiya)”ning eng asosiy kategoriyasi. Bu kategoriya o'zida qadriyat asosining nafaqat qimmatini, balki ijtimoiy ahamiyati, falsafiy-aksiologik mazmuni, jamiyat va inson uchun qadrini ham ifodalaydi. Aksiologlar undan insonning ijtimoiy qadrini, ahamiyatini ifodalaydigan umumiy va

universal kategoriya sifatida foydalanadilar. Qadriyat turli sohalarda xilma-xil ma'noda qo'llaniladi. Qadriyat so'zining turfa xil ma'noda ishlatilishi unga berilgan ta'riflarning turlicha bo'lishiga sabab bo'lgan. Ijtimoiy fanlarning qaysi sohasida qadriyatga doir tadqiqot olib borilgan bo'lsa, bu tushunchaga shu jihatdan ta'rif berishga intilish odat tusiga aylangan".

Nazariy manbalarga murojaat qilish natijasida shu narsaga ishonch hosil qildikki, mazkur hodisaga pedagogik jihatdan yondashish uchun mualliflarning qarashlarini yagona tizimga jamlash talab etilmoqda. Mutaxassislar mazkur tushunchaga turlicha yondashganlari uchun ham qadriyatlarning yagona ta'rifini yaratish talab etilmoqda.

Qadriyat tushunchasi falsafa hamda sotsiologiyaga oid manbalarda keng qo'llaniladi. Bunda obyektiv borliqning inson, uning ijtimoiy-madaniy mohiyatini baholashga e'tibor qaratiladi. U o'zida obyektiv borliqdagi hodisalar va narsalarning aniq mohiyatini aks ettiradi. Bunday mohiyat hodisalarning jamiyat, ijtimoiy guruhlar va shaxs manfaatlarini aks ettirishi yoki aks ettirmasligi nuqtayi nazar orqali baholanadi. Qadriyat insoniyat madaniyatida vujudga kelgan va ijtimoiy ong shakli bo'lgan axloqiy, estetik talablarni ifodalaydi.

Falsafada qadriyat tushunchasi dastlab XIX asrning ikkinchi yarmida taniqli faylasuf R.G.Lottse tomonidan qo'llanilgan. U tajribaga bog'liq bo'lmagan, mustaqil va tabiiy bilish mezonlariga muvofiq keladi. Mutaxassislarning ta'biricha, insonda qoniqish hosil qiladigan barcha narsalar uning uchun qadri hisoblanadi.

Transsendentalizm tarafdorlari I.Kant, V.Vindelband va G.Rikkertlar hodisalarni tajriba bilan emas, balki aql-idrok bilan tasavvur qilish mumkin, aql-idrok tajribadan ilgari mavjud bo'lgan, tajriba uchun sharoit yaratadi, deb tushunadi. Falsafiy yo'nalish vakillari esa bu sohada qarama-qarshi mavqega ega ekanliklarini bayon qilganlar. Axloq kategoriyasi mazkur olamning qonuniyatlari va ehtiyojlariga asoslanmaydi. Faqatgina boshqa olamda inson mustaqil u o'z xatti-harakatlarini tanlaydi va unga nisbatan mas'uliyat bilan yondasha oladi. Bu insonning ichki olamidir.

Mutaxassislar o'zlarining ta'limotlarida qadriyatlarni mustaqil hodisalar tizimi sifatida baholaydilar. Qadriyatlar obyekt va subyektning ideal mavjudligini ifodalaydi. Bunda qadriyatlar insoniy ehtiyojlar va tajribalar bilan bog'liq bo'lmagan holda qaraladi.

Qadriyatlarining mavjudligini G.Rikkert ahamiyatlilik tushunchasi bilan ifodalaydi. Uning ta'biricha, qadriyatlarining mavjudligi ularning dalillanganligida emas, balki ahamiyatida o'z ifodasini topadi. Qadriyatlar obyektiv fikrlar orqali moddiy olamda namoyon bo'ladi. Ahamiyatlilik tushunchasi bilan bir qatorda mutaxassislar burchlilik tushunchasidan ham foydalanadilar.

Naturalistik yondashuv tarafdorlari R.B.Perri, G.Bekker, R.Linton, K.Klaxxon, T.Parsons, S.Pepperlar qadriyat tushunchasi ostida inson tabiatining samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan barcha narsalarni tushunadilar. Jumladan, shaxsning biopsixik rivojlanishi, qiziqishlarining qondirilishi, potensial iste'dod nishonalarining taraqqiy etishi va hokazo.

R.B.Perrining ta'biricha, qadriyatlar nazariyasi yordamida inson o'ziga qadriyat sifatida qarashi natijasida o'z-o'zini anglash imkoniyatiga ega bo'ladi. Tabiat qonunlariga nisbatan o'zining chuqur maqsadlari, intilishlari va unga oid bilimlari inson uchun faqatgina o'z erkinligini ta'minlovchi bilimlar hisoblanadi.

Ijtimoiy ongni boshqaruvchi mexanizm sifatida qadriyatlar alohida ahamiyatga ega ekanligini T.Parsons ham ta'kidlab ko'rsatgan edi. Uning fikricha, qadriyatlar yuqori darajadagi prinsiplar hisoblanib, unga tayangan holda alohida guruhlar va jamiyatda

kelishuvga erishiladi. Boyitilgan shaklda qadriyatlar ijtimoiy tizimning muayyan tipi haqidagi tasavvurlardan iborat. Bu tasavvurlar muayyan tarixiy zamonga xos bo'ladi.

Zamonaviy falsafiy qarashlar uchun xos bo'lgan yondashuvlar buyumlar, narsalar, voqea-hodisalar va moddiy borliqning inson uchun ahamiyatliligidir. Shu bilan bir qatorda mazkur qadriyatlar insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga ham xizmat qiladi.

Mazkur vaziyatda qadriyatlar o'zining hissiy-aniiq ma'lumotlari bilan namoyon bo'lib, inson uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Qadriyatlarni bu tarzda tushunchadagi asosiy kamchilik uning mohiyatan foydali, ijobiy ahamiyatga egaligidadir. Qadriyatning o'zi uni tashuvchi obyekt va mohiyati bilan teng keladi.

Shu bilan bir qatorda qadriyat tushunchasining mazmun-mohiyatini aniqlashda boshqacha yondashuv ham mavjud. Jumladan, I.S.Narskiyning ishida qadriyatning ijtimoiy ideal bilan muvofiq kelishi tavsiflangan. Xuddi mana shu nuqtayi nazardan o'rganilayotgan qadriyatlar vosita emas, balki talab etilgan maqsad hisoblanadi. Insonning ehtiyojlari, qadriyatlari va ideallari faqat genetik jihatdan aloqadordir.

Qadriyatlar tushunchasi ahamiyatlilik va ideal sifatida ayni bir vaqtning o'zida muayyan darajada yuqorida ko'rsatib o'tilgan tavsiflarni uyg'unlashtiradi. O.G.Drobnitskiyning fikricha, qadriyatlar narsalarni jonlantiruvchi, ularga hayot baxsh etuvchi, inson hayotida faoliyat sifatida ishtirok etuvchi hodisadir. U qadriyatlar insonning obyektga nisbatan muayyan darajadagi munosabatini ifodalashini ta'kidlaydi. Shu bilan bir qatorda me'yoriy-baholovchi tasavvurlar insonni ijtimoiy va tabiiy olam sari yo'naltirish imkoniyatiga ega. Chunki qadriyatlar o'zida katta miqdordagi tarixiy tajribani mujassamlashtirgan bo'ladi. Uning ta'biricha, qadriyat insonning ijtimoiy turmush tarziga singib, amaliy faoliyatini boshqarishda muhim o'rin egallaydi.

Qadriyatlar tizimini o'rganar ekan A.S.Bogomolov, inson faoliyati va ijtimoiy munosabatlarini mujassamlashtiradi. Shu bilan bir qatorda insonning muayyan ijtimoiy hayoti, turmush tarzida ham qadriyatlar yaqqol namoyon bo'ladi.

Bu jarayonda qadriyatlar ijtimoiy institutlar doirasida shaxslararo munosabatlar shaklida ifodalanadi. Qadriyatlarning narsalar va ularning xususiyatlari, insonning g'oyalari, xohishlari bilan tenglashtirilishini V.P.Tugarinovning konsepsiyasida ko'rish mumkin. Mutaxassis qadriyatlarning tabiatini obyektiv borliq hodisalari, narsa hamda buyumlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda aniqlashga harakat qiladi. Shu tariqa qadriyatlar tushunchasi falsafiy nuqtayi nazardan turli tushunchalar yordamida tavsiflanadi. Bunday tushunchalar sirasiga foydalilik, ahamiyatlilik, muhimlik, muqarrarlik, me'yorlanganlik kabilarni kiritish mumkin.

Predmetlararo tushuncha hisoblangan qadriyatlarni tizimlashtirishga bo'lgan intilish D.A.Leontyevning ta'biricha, o'zining ko'plab qirralari, yo'nalishlari, shakllariga ega. D.A.Leontyev qadriyat tushunchasini uning imkoniyatlari va mavjud tavsiflari doirasida tahlil qiladi. Bunda u V.Frankl tomonidan taklif qilingan usulni qo'llaydi. Natijada u qadriyat tushunchasi mavjudligining uchta shaklini aniqlashga muvaffaq bo'ldi. Shuningdek, ular orasidagi o'zaro munosabatlar va bir-biriga o'tish imkoniyatlarini ham muayyan darajada ochib berishga erishdi. Ular ijtimoiy ideallar, qadriyatlarning narsa va buyumlar bilan qamrab olinishi hamda shaxsiyat bilan bog'liq qadriyatlardir.

V.Frankl esa qadriyat va fikr orasidagi o'zaro munosabatlarni o'rgangan. Qadriyat butun tarix davomida insonlar orasida taqsimlangan fikrdir. Shuning uchun ham qadriyat umumlashgan fikr sifatida namoyon bo'ladi, u insonning o'z shaxsiy fikrini izlash jarayonini osonlashtiradi.

Insoniyatga xos bo'lgan ko'plab fikrlar orasida faqat qadriyatlarga tizimlarni tashkil etish imkoniyatiga ega. Shuning uchun ham u kishilarning hayotiy faoliyatini boshqarishga xizmat qiladi.

Qadriyatlarning muayyan fikriy umumlashmalar sifatida taqdim etilishi tipik vaziyatlarda ularning aniq shakllarga ega bo'lishini ta'minlaydi. Bu turli darajadagi subyektlar orasidagi munosabatlarda o'z ifodasini topadi. Shaxsdan jamiyatgacha bo'lgan yaxlit tizim orasidagi munosabatlar tahlili G.P.Vjlesovning ishida o'z ifodasini topgan. Bunda qadriyatlarning ma'naviyatga xoslik xarakteri, uning vaziyatdan ustunligi namoyon bo'ladi.

Qadriyatlar mustaqil fikrni ifodalash xarakteriga ega. Shuning uchun ham ular madaniy meroslarning asosiy qismini tashkil qiladi va dunyoqarashning o'ziga xos jihatlari ifodalaydi.

Falsafa, sotsiologiya hamda psixologiyaga oid manbalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, qadriyatlar o'z asosiga ko'ra natijalar, me'yorlar va ideallarga olib kelmaydi. U o'zida nafaqat zarur, muhim, balki istalgan maqsadni ham ifodalaydi. Qadriyatlar subyektlararo munosabatlar doirasida ideal hisoblanib, me'yoriy-boshqaruvchi ta'sirga ham ega bo'ladi. Qadriyatlar orqali ijtimoiy tajribaga ham muayyan ta'sir ko'rsatiladi.

Jamiyat integratsiyasi uchun qadriyatlarning muhim ahamiyatga egaligi, shaxsning jamiyat hayotiga integratsiyalashuvining mohiyati M.Veber tomonidan ochib berilgan. Mutaxassis qadriyatlarning ijtimoiy ongning muhim tarkibiy qismi ekanligini e'tirof etadi. Uning fikricha, qadriyatlarda uyg'unlashgan tarzda madaniyatning mohiyati ifodalanadi. Qadriyatlar tizimi madaniyatning "qon tomiri"ni belgilaydi, shaxslarning qiziqishlari, ehtiyojlari, ma'naviy mohiyati va ijtimoiy umumiylikni o'zida mujassamlashtiradi.

Xuddi shu fikrga hamohang tarzda M.S.Kagan, L.N.Stolovich ham qadriyatlar konsentratsiyalashgan tarzda madaniyatda o'z ifodasini topishini ta'kidlaydi. Madaniyatning barcha sohaları inson tomonidan egallanganda u qadriyatlarni tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

P.A.Florenskayaning fikricha, madaniyat insonni boyituvchi, rivojlantiruvchi vositadir. Madaniyat inson hayotining me'yorini aniqlaydi. Madaniyatga ega bo'lgan kishilar mazkur me'yorni ham doim aniq belgilaydilar. Chunki ular faraz qilingan asosiy qadriyatlarni muhokama etmaydilar. Mazkur qadriyatlar madaniy qadriyatlar va inson hayotining mazmuni bilan uyg'unlashadi. Ushbu qadriyatlar insonlarning ongi va faoliyatida saqlanib, avloddan-avlodga uzatiladi. Xuddi shu xususiyatlarga ko'ra, o'quvchilarda qadriyatli munosabatlar tajribasini shakllantirish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Chunki insonning o'zi oliy qadriyat sifatida umummadaniy boyliklarni o'zlashtirish huquqiga ega.

Har bir shaxs o'ziga qadriyat sifatida yondashishi natijasida o'z-o'zini anglash imkoniyatiga egadir. Shundagina u tabiat qonunlariga nisbatan o'zining chuqur maqsadlari, intilishlari va unga oid bilimlari yordamida shaxsiy erkinligini ta'minlay oladi. Qadriyatlar inson hayotining sifatini ta'minlovchi yuqori darajadagi prinsiplar bo'lganligi uchun ham unga tayangan holda shaxslararo munosabatlar doirasida kelishuvga erishiladi. Shuning uchun ham qadriyatlar insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Qadriyatlar ijtimoiy voqelikni jonlantiruvchi, insonlarga hayotbaxsh etuvchi, hayotida faoliyat sifatida ishtirok etuvchi hodisadir. Shuning uchun ham qadriyatlar o'zida insoniyatning katta miqdordagi tarixiy tajribasini mujassamlashtirgan bo'ladi. Shu

ma'noda qadriyatlar insonlarning ijtimoiy turmush tarziga singib, ularning o'z amaliy faoliyatlarini boshqarishlarida muhim o'rin egallaydi.

Qadriyatlar shaxsning mustaqil fikrini ifodalash xarakteriga ega. Shuning uchun ham qadriyatlar madaniy meroslarning asosiy qismini tashkil etadi hamda milliy dunyoqarashning o'ziga xos jihatlarini ifodalaydi. Shaxsning jamiyat hayotiga integratsiyalashuvida qadriyatlarning mohiyati beqiyosdir. Chunki qadriyatlar o'zaro uyg'unlashgan tarzda o'zbek xalqi milliy madaniyatida o'z ifodasini topgan. Zero, madaniyat shaxs ongi- ni boyituvchi, rivojlantiruvchi vositadir. U inson hayotining me'yorini aniqlashga xizmat qiladi. Shuning uchun ham o'quvchilarga insonni oliy qadriyat sifatida idrok etish ko'nikmasini hosil qilish ularni madaniyat sari yetaklash, jamiyat hayotiga integratsiyalash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati*. – T.: "G'.G'ulom" nashriyoti, 2010. – 760 b.
2. *O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 10-jild. Sharq-Qizilqum*. – T.: "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" nashriyoti, 2005. – 656 b.
3. Богомолов А.С. *Опредмечивание, ценности и социологическое познание* // *Социологические исследования*. 1975. №2. – С.53-61.
4. Вебер М. *Избранные произведения* / Сост., общ. ред. и послесл. П.П. Гайденко. – М.: Прогресс, 1990. – С.804.
5. Выжлецов Г.П. *Духовные ценности и судьба России* // *Социально-политический журнал*. 1994. №3. – С.16-32.

Farxod RO'ZIYEV,
O'zPFITI katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

TA'LIM SAMARADORLIGINI TA'MINLOVCHI MEZONLAR

Annotatsiya

Maqolada ta'lim jarayonining sifat va samaradorligini oshirishda, ta'lim jarayonini modernizatsiyalash sharoitida ta'lim mazmuni, o'qituvchi va o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faoliyati haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif ta'limda o'quvchilarning o'zlashtirish darajalarining ta'lim sifat va samaradorligini ta'minlashdagi ahamiyatini ochib bergan.

Kalit so'zlar. Ta'lim sifati, ta'lim samaradorligi, ta'limni modernizatsiyalash, ta'lim mazmuni, o'quv elementlari, o'zlashtirish darajasi, ta'lim taraqqiyoti, uzluksiz ta'lim.

В статье освещены вопросы повышения качества и эффективности учебного процесса в условиях модернизации содержания образования, раскрыты значение обеспечения уровня усвоения знаний учащимися в личностно-ориентированном обучении, особенности деятельности учителя и учащихся в данном процессе.


Ключевые слова. Качество образования, модернизации образования, содержание образования, эффективность учебные элементы, степень усвоения, развитие образования, непрерывное образование.

This article highlights the content of education in the period of educational modernization in order to improve the efficiency of education and its quality, the content of information, the activity of a teacher and a student and the importance of providing efficiency and quality of student's adoption level.

Key words. Quality of education, modernization of efficiency of education, content of education, books, educational elements. level of adoption, educational result, educational development, continual education.

Jamiyatning ma'naviy-madaniy, iqtisodiy hayoti va mehnat bozorining zamon talablariga mos ravishda rivojlanib borishi taraqqiyotning jadallashuvi, axborot muhitining globallashuvi va kadrlarga bo'lgan talabni murakkablashtirib boraveradi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni hamda "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da komil inson va yetuk malakali mutaxassislarni tayyorlash nazarda tutilgan. Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimi (Milliy model)ning hayotga tatbiq qilinishi natijasida Davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi. DTSning joriy etilishi esa ta'lim mazmunining o'zgarishiga olib keldi. Ta'lim mazmunining o'zgarishi esa, ta'limni modernizatsiyalash orqali amalga oshadi. Ta'limni modernizatsiyalash esa, o'z navbatida sifatni oshiradi. Natijada ta'limning sifatli amalga oshirilishining samaradorligi uchun asos bo'ladi, chunki samaradorlik har doim individual xarakterga ega bo'lib, shaxsning intellektual-ma'naviy darajasini belgilaydi.

1-chizma




“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning joriy etilishi o‘z navbatida uzluksiz ta‘lim tizimi oldiga qo‘yilgan ijtimoiy talab, ya‘ni jamiyatning siyosiy, ijtimoiy, moddiy, madaniy, iqtisodiy va fan-texnikaning rivojlanish darajasiga qarab qo‘yildi.

DTS – davlatning ta‘lim darajasiga qo‘ygan me‘yori sifatida qabul qilinadigan asosiy parametrlar tizimidan iborat bo‘lib, muayyan shaxsning ta‘lim tizimidagi mavjud imkoniyatlari va ularni ideal darajaga yetkazishga erishishni nazarda tutadi. Eng asosiysi, ta‘lim oluvchilar shaxsi, ularning intilishlari, ehtiyojlari, iqtidorlari, qobiliyat va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqadi.

Ta‘lim mazmuni – yoshlarga ta‘lim berish intellektual-ma‘naviy darajasini taraqqiy ettirish va tarbiyalash maqsadida DTSdan tanlanib, ta‘lim jarayoniga olib kirilgan bilim, ko‘nikma, malaka va ijodiy faoliyat usullari hamda tabiat, jamiyat va tafakkur hodisalarni emotsional baholashga doir munosabatlardir. Ta‘lim mazmuni uning maqsadiga muvofiq belgilaniladi, ta‘lim mazmunining asosini o‘quv reja, o‘quv dasturlari, darslik va o‘quv qo‘llanmalar bilan yoritiladi.

2-chizma.



3. Ta'lim mazmunini modernizatsiyalash:

- a) DTSlarini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot talablari asosida takomillashtirish;
- b) o'quv jarayonini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tashkil etish;
- d) o'qitishning zamonaviy usullarini qo'llagan holda ta'lim jarayonini tashkil etish;
- e) o'quv jarayonini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim parametrlari asosida tashkil etish;
- f) o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malaka bilan birga ularda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish;
- g) o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish.

Ta'lim mazmunini modernizatsiyalash ta'lim sifatini ta'minlaydi. Ta'lim sifatini quyidagicha izohlaymiz. O'zbek tilining izohli lug'atida sifatga shunday ta'rif beriladi:

"Mahsulot yoki ishning yaroqlilik darajasi, qo'yilgan talablarga qanchalik javob bera olishini belgilovchi xususiyat".

Demak, ta'lim sifati – DTSlarini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot talablari asosida o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalar bilan birga ularda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun o'qituvchining o'quv jarayoni zamonaviy axborot texnologiyalari asosida va o'qitishning zamonaviy usullarini qo'llagan holda tashkil etishi, o'quv jarayonini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim parametrlari asosida olib borishi, o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malaka bilan birga ularda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishi va o'zining kasbiy kompetensiyalarni doimiy ravishda rivojlantirib, takomillashtirib borishi zarur.

O'qituvchi ta'lim jarayonida ta'lim sifatini ta'minlovchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Bugungi kunga kelib o'qituvchilar diqqat e'tiborlarini o'quvchilarning bilish faolliklarini ta'minlashning innovatsion usullariga qaratishi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ta'limning an'anaviy modelidan shaxsga yo'naltirilgan yangi ta'lim modeliga o'tish va bunda o'qituvchi-o'quvchi hamda zamonaviy axborot texnologiyalari faoliyati aloqadorligini ta'minlash va ta'limning zamonaviy o'qitish usullarini qo'llash talabi bilan bevosita bog'liq bo'lib, alohida didaktik xususiyatga ega.

Dasturlashtirilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning aqliy faolliklarini ta'minlab, bilish faoliyatlarini jadallashtirish imkonini beradi. O'quv jarayonini avtomatlashtirishda o'qituvchi faoliyati an'anaviy o'quv-biluv faoliyati tarkibini takrorlashi lozim. Chunki hech qanday mashina o'qituvchining jonli faoliyati o'rnini bosa olmaydi. O'qituvchi o'z faoliyatining muayyan qisminigina texnik vositalar xizmatidan foydalanish bilan almashtirish mumkin. Uning axborot manbai sifatidagi mavqeining o'zgarishi va zamonaviy axborot texnologiyasi bilan almashishi subyekt-subyekt doirasini kengaytiradi. Bu jarayonda o'qituvchi o'quvchilar faoliyatini boshqaruvchi, muvofiqlashtiruvchi va ularga maslahat beruvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchilarga aqliy faoliyat usullarini o'quvchilar tomonidan to'g'ri o'zlashtirilishini ta'minlash imkonini beradi. Bunda o'qituvchi nafaqat o'quv jarayoni natijalarini nazorat qilish, balki tuzatishlar kiritish imkoniyatiga ham ega bo'ladi.

Demak, ta'limning sifatlil amalga oshirilishi o'qituvchi va ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasiga bog'liq ekanligini inobatga olgan holda ta'lim samadorligiga to'xtalib o'tamiz.

O'zbek tilining izohli lug'atida samaradorlikka shunday ta'rif berilgan.

"Foyda keltiradigan, sermahsul, yaxshi natija beradigan ma'nosini bildiradi".

Demak, ta'lim samaradorligi ta'lim sifati bilan bog'liq jarayon bo'lib, ta'lim natijasi bilan xarakterlanadi. Ta'lim samaradorligi har doim ta'lim natijasi bilan o'lchanadi.

Shunday ekan, qachonki ta'lim sifatli amalga oshirilsa, ta'limning samaradorligi yuqori bo'ladi. Ta'lim samaradorligi ta'lim natijasiga bog'liq ekan, o'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirganlik darajalarini baholash orqali amalga oshiriladi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirish darajalarini baholash individual xarakterga ega ekanligini inobatga olsak, ta'limning samaradorligi ham individual ahamiyat kasb etadi. Ta'lim sifatli amalga oshirilganda ham uning samaradorligi individualligicha qolaveradi. Natijada ta'limning samaradorligini oshirish dolzarb muammoga aylanadi.

Ta'lim samaradorligini ta'minlash uchun o'qituvchi quyidagi bir qator didaktik chora-tadbirlarni ta'lim jarayonida amalda qo'llash lozim:

- uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida har bir o'quv predmetini o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion usullar va texnologiyalarning samaradorlik darajasini tahlil qilishi va ularning o'quvchilarni intellektual-ma'naviy darajasining o'sishiga xizmat qilishini ta'minlash;

- ta'lim jarayoni subyektlari bu jarayonda ta'lim samaradorligiga erishishdan manfaatdor bo'lishlari hamda o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikda ijodiy faoliyat ko'rsatishga erishishlari uchun mazkur jarayonga modulli o'qitish texnologiyalarini joriy etish;

- shaxsga yo'naltirilgan o'quv-tarbiya jarayonini tatbiq etish va o'qituvchining kasbiy kompetensiyalarini ushbu maqsadni amalga oshirishga qaratilgan holda rivojlantirish;

- o'quvchi shaxsining intellektual-ma'naviy rivojlanish darajasining munosib baholanilishiga erishish;

- o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalari bilan birga hayotiy kompetensiyalarning shakllanganligini va intellektual-ma'naviy rivojlanish darajalarini baholashda ilg'or metod va yondashuvlarning qo'llanilishi;

- o'qituvchilarning o'quvchilar o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalari hamda intellektual-ma'naviy rivojlanish darajalarini haqqoniy, demokratik va insonparvarlik tamoyillari asosida nazorat qilishlari va baholashlariga erishish.

Xulosa qilib aytganda, ta'limning sifat va samaradorligini oshirishda o'qituvchi o'quvchilarga materiallarni to'liq o'zlashtirishlariga yordam berishi kerak. Bu esa, o'quvchilarni mehnat bozori va taraqqiyot talablariga tayyor holda barkamol shaxs sifatida shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Barkamol avlod orzusi*. –T.: "Sharq", 1999.
2. Safarova R.G'. va boshqalar. *Umumiy o'rta ta'lim mazmunini modernizatsiyalashning didaktik parametrlari*. –T.: "Fan" nashriyoti, 2008.
3. Roziqov O. va boshqalar. *Didaktika*. –T.: "Fan" nashriyoti, 1997.
4. *O'zbek tilining izohli lug'ati*. –T.: "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.
5. *O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi*. "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, –T., 2004.
6. *Pedagogika Ensiklopediya*. "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, –T., 2015.

G'ayratjon TAJIBAYEV,

Namangan Davlat universiteti katta o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING INGLIZ TILI BO'YICHA BILIM, MALAKA VA KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA RO'LLI O'YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada o'yinlar va ularning nutq rivojlanishidagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, muallif boshlang'ich sinf o'quvchilariga chet tili o'itishda kommunikativ ro'lli o'yinlardan foydalanish ta'lim sifatini oshirishi mumkinligini nazariy va amaliy asoslab bergan.

Kalit so'zlar. Nutq rivojlanish bosqichlari, chet tilni egallash, nutq namunasi, standart nutq bo'laklari, nutq vaziyati, muloqot kompetentligi, ro'lli o'yin texnologiyasi,

В статье раскрыто значение игр для развития речи учащихся начальных классов. Автором определены теоретические и практические аспекты повышения качества обучения иностранным языкам за счет усиления коммуникативной направленности обучения.

Ключевые слова. Этапы речевого развития, овладение иностранным языком, речевые образы, речевая ситуация, речевая компетенция, роль игровой технологии.

The article proposes some ideas about games and their significance in language acquisition. The author advocates theoretical and practical approaches of communicative role play technologies in teaching English in elementary schools.

Key words. Language acquisition stages, foreign language acquisition, speech patterns, formulaic chunks, speech environment, communicative competence, role play technology.

Davlat Ta'lim Standartida boshlang'ich sinf o'quvchilari (4-sinf bitiruvchilari) chet tilni umumyevropa xalqaro standarti CEFR (Common European Framework of Reference)ning boshlang'ich A-1 darajasida bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishlari dasturiy talablar sifatida belgilab qo'yilgan. Ushbu darajani egallagan o'quvchilar sodda juft nutq (dialog)larda ishtirok eta olishadi, o'zlari va yaqin insonlariga taalluqli (yoshi, yashash manzili, kasbi, yoqtirgan narsalari) shaxsiy xarakterdagi savollarga javob bera olishadi. O'zlariga tanish va qiziqarli bo'lgan mavzulardagi sodda suhbatlarda ishtirok eta olishib, nutq mavzulari doirasida o'zlashtirilgan juda kam miqdordagi til materiali (leksik, grammatik, talaffuz) yordamida o'z ehtiyojlari va qiziqishlariga mos tushadigan mavzularda kommunikativ topshiriqlarni bajara oladigan bo'lishadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan dasturiy talablarda belgilangan darajadagi bilim, malaka va ko'nikmalarni egallanishiga erishish uchun, avvalo, ularning chet tildagi muloqot kompetentligini rivojlantirish talab etiladi. Kommunikativ kompetentlik

o'quvchilar tomonidan kundalik muloqotda tez-tez takrorlanadigan standart nutq namunalarini o'zlashtirilishi zahirida rivojlanadi. Rod Ellisning fikricha, o'quvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish uchun ularning nutq madaniyatini boyitish zarur. Buning uchun optimal nutq vaziyatini yaratish, ya'ni mashg'ulotlarda kundalik muloqotda ko'p ishlatiladigan tayyor jumlar va nutq bo'laklarini mashq qilishga undaydigan, o'quvchilar motivatsiyasini oshiradigan nutq vaziyatlarini yaratish tavsiya etiladi. Sinfxona sharoitida sun'iy nutq vaziyatlarini yaratish kommunikativ ro'li o'yinlarni tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Horijiy adabiyotlarda nutq namunalari "formulaic expressions" (formulaic – formula yoki shaklga solingan, forma, rasmiy; expresson – ifoda), yani shaklga solingan avvaldan tayyor bo'lgan nutqiy ifodalar tushuniladi. Masalan: How do you do? How are you? Nice to see you. Thank you. You are welcome.

Nutq rivojlanishida o'yin faoliyati turining ahamiyati

Ona tilida nutqning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari haqidagi dastlabki tadqiqot ingliz psixologi J. Boulbi tomonidan olib borilgan. Tadqiqotchi va uning izdoshlaridan fransiyalik Rene Spitz, avstriyalik Anna Freyd va boshqa yevro'palik psixologlarning ta'kidlashlaricha, ota-onalar o'z farzandlari bilan yetarlicha muloqot qilmasdan ularning hayotini xavf ostiga qo'yar ekanlar. Nutqning paydo bo'lishida kattalarning bolalar bilan muloqoti beqiyos ahamiyat kasb etadi. Nutqning rivojlanishida esa bolaning atrofdagilar bilan turli o'yinlar asnosida muloqotga kirishishi ahamiyatlidir. Xulosa qilish mumkinki, muloqot orqali nutq paydo bo'lsa, o'yinlar orqali nutq rivojlanadi.

Nemov o'yinlarni individual, guruhli, qoidali va ro'li turlarga bo'lib, ularning chet tilni egallanishdagi ahamiyatiga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha, o'yin faoliyat turi nafaqat ona tilida nutq rivojlanishi, balki chet tilni o'zlashtirish jarayonini ham tezlashtiradi va samaradorlikni oshiradi.

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilari tomonidan o'ynaladigan guruh o'yinlarni ikki toifaga, ya'ni jismoniy harakatli o'yinlar va kommunikativ ro'li o'yinlarga ajratish mumkin. Berkinmachoq, quvlashmachoq, sakrashmachoq kabi o'yinlar asosan bolalarning jismoniy chiniqishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday o'yinlarda belgilangan qoidaga amal qilinishi va avvaldan tayyorlangan nutq namunalaridan foydalanish talab etiladi. "Oq terak-mi ko'k terak", "G'ozlarim g'ozlarim", "Boylandi", "Quyoning-quyoning" kabi o'yinlarda esa, ham harakat, ham muloqot sodir bo'ladi. Faqat bunday muloqotlar manfaatli maqsadga erishish uchun emas, balki o'yin tartibi shunday bo'lganligi uchun olib boriladi. Bunday o'yinlarda oldindan tayyorlangan replikalar ishlatiladi va ular o'quvchining mexanik xotirasini mustahkamlash bilan chegaralanadi. Shunday bo'lsa-da tayyorlangan nutq namunalarining yod olinishi va ulardan o'yinlarda keng foydalanilishi o'quvchilarning talaffuzi yaxshilanishiga va so'z boyligi kengayishiga olib keladi. Masalan, "Boylandi" o'yini ishtirokchilari o'rtasida sodir bo'ladigan dialog nutqqa e'tibor qaratamiz:

- Oysa hola!
- Labbay.
- Echkingiz qayerda?
- Ola tog'da.
- Nima yeydi?
- Beda yeydi.
- Suti qalay?
- Sutligina.
- Yog'i qalay?
- Yog'ligina.

- Do‘mbarasi-mi, vatatasi-mi?
- Do‘mbarasi.
- Do‘m, do‘m, do‘m, do‘m. Boylandi-yu, boylandi, boyning qizi boylandi.

Ko‘rinib turibdiki, dialog nutqqa hos bo‘lgan savol-javob replikalari asosida muloqot ishtirokchilari axborot almashishyapti. Bu holatda ham muloqot sodir bo‘ladi, axborot almashiladi. Lekin bu muloqot ishtirokchilari kommunikant emas, balki avvaldan tayyorlangan nutq namunalari mexanik ravishda avtomatik tarzda takrorlashadi. Bu kabi o‘yinlar 1-2-sinf o‘quvchilari uchun foydali. Sababi bunday o‘yinlarda takrorlangan nutq namunalari o‘quvchilarga chet tilda so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatib, ularni chet tilda gap tuzilishining o‘ziga xos jihatlari bilan tanishtiradi.

“Doktor-doktor”, “mehmon-mehmon”, “maktab-maktab” kabi o‘yinlarda standart nutq namunalari juda ko‘p ishlatiladiki, bunday o‘yinlar bolalarda nutq rivojlanishini tezlashtiradi. Bundan tashqari o‘yin ishtirokchilarida kattalardan eshitgan nutq namunalari takrorlash va ularni nutq vaziyatlarida qo‘llash imkoniyati ko‘p bo‘ladi. Ma‘lumki, bolalarda taqlid qilishga moyillik yuqori bo‘lib, ular shifokor qabulida yoki onasi bilan xaridga borganida tinglagan nutq namunalari kommunikativ ro‘lli o‘yinlarda bema'lol foydalanishadi. Kommunikativ ro‘lli o‘yinlar bolalarning harakatlanishlarini cheklab qo‘ymaydi va bolalar o‘zlarini erkin his qilishadi. Bundan tashqari turli predmetlar bilan manipulatsiya qilish imkoniyati kommunikativ ro‘lli o‘yinlarda keng bo‘ladi. Kommunikativ ro‘lli o‘yinlar turli predmetlar bilan tashkil qilinsa, natija yanada yuqori bo‘lishi mumkin. Lisinaning tadqiqotlarida ma‘lum ish harakatini bevosita predmetlar bilan bajarish orqali bolalar buyumlarni aniq idrok etishi va ularning nomini xotirada mustahkam saqlashi bayon etilgan. Tajribadan ma‘lumki, bolalar ma‘nosiz so‘zlardan ko‘ra ma‘nodor tushunchalarni birmuncha tez va mustahkam eslab qolish xususiyatiga ega. Boshlang‘ich sinflarda bilish faolligi yetarlicha rivojlanmagan va passiv, lekin intellektual jihatdan me‘yorda rivojlangan bolalar uchrashlari mumkin. Psixolog L.S.Slavinaning fikricha, bunday bolalar o‘z imkoniyatlarini o‘yin va amaliy faoliyatlarda namoyon qiladilar. Bolalar turli buyumlar bilan jismoniy harakatlarni bajarish orqali buyumlarning nomlarini oson eslab qoladilar. Soha mutaxassislarining fikricha, chet tilni egallashda barcha sezgi a‘zolari to‘liq ishga solinishi kerak. Buning uchun o‘quvchilarni syujetli kommunikativ ro‘lli o‘yinlarga ko‘proq jalb qilinishi va bu o‘yinlarda standart vaziyatlarda ishlatiladigan nutq namunalari va predmetlar ishtiroki imkon qadar ko‘p ta‘minlanishi zarur. Predmetli o‘yinlarda o‘quvchilar narsalarning nomlarini va ular bilan bajariladigan ish harakatlarini oson o‘zlashtiradilar. Sababi til materialini o‘zlashtirilishida ko‘z, quloq, og‘iz, qo‘l va burun kabi nutq analizatorlari faol ishtirok etadi. Pazandachilik, hamshiralik, chevarchilik, sataroshlik, quruvchilik anjomlari jamlamalarini oyinchoq do‘konlaridan topish mumkin. Har bir mashg‘ulot uchun anjomlarning maxsus jamlamasini to‘plash tavsiya etiladi. Masalan, “doktor-doktor” o‘yini uchun maktab hamshirasidan ayrim narsalarni olib turish mumkin. Kommunikativ ro‘lli o‘yin texnologiyalari amaliyotda qo‘llanilganida chet tilni muloqot vositasi sifatida amaliy egallash uchun optimal sharoit yaratiladi.

Shunday o‘yin texnologiyalardan biri quyidagicha:

“Police-police” kommunikativ ro‘lli o‘yin texnologiyasi

Maqsad: yo‘qolgan uy hayvonlari haqida ma‘lumot (rangi, yoshi, ismi) berishni o‘rganish, yashash manzil va telefon raqamni aytishni o‘rganish, tinglab tushunish malakasini rivojlantirish, hamkorlikda faoliyat olib borish ko‘nikmasini hosil qilish.

Til material: How can I help you? Excuse me. My dog (cat) is missing. Tell me about your dog (cat). What is your telephone number? What is your home address? Here you are. Thank you. Not at all.

Ta'lim vositalari: "Police" yozuvi tushirilgan peshtaxta, telefon, it, mushuk, buzoq, qo'zichoq, uloqcha, bo'taloq kabi yorlig'iga ismi va yoshi yozilgan oyinchoq yoki flesh kartalar, murojaatlarni qayd qilish blankalari, harbiy nishon (harbiy forma imkoni bo'lsa).

Tashkiliy qism.

Pre-game stage (O'yinni boshlashdan avvalgi bosqich).

Bu bosqichda o'qituvchi o'quvchilarga qanday o'yin o'ynalmoqchi ekanligini batafsil tushutiradi. O'qituvchi o'zini ichki ishlar boshqarmasi xodimi deb tanishtiradi va o'ziga ikkita (yoki to'rtta) yordamchi pochtagi (postman) tanlaydi. O'qituvchi oquvchilarga o'yinchoqlarni tarqatadi va ularning rangi, ismi va yoshini eslab qolishlari zarurligini tushuntiradi. Barcha o'quvchilar o'yinchoqlarni eslab qolganlaridan keyin uni o'qituvchiga qaytarib berishlari kerak. O'quvchilar navbati bilan o'z o'yinchoqlari haqida gap tuzishadi (e.g., This is my dog. He is black. He is 2 years old.) va topilmalar qutisiga solib qo'yishadi.

O'quvchilarga nutq namunalari tanishtiriladi va ular nutq namunalarini o'qituvchidan keyin takrorlashadi. Excuse me. My dog is missing. He is black. He is two years old. His name is Black boy. My telephone number is My address is street district, region.

Barcha o'quvchilar o'z ismlarini, telefon raqamlarini va yashash manzillarini avvaldan tayyorlab qo'yilgan (uchburchak yoki to'rtburchak) shaklidagi qog'ozga o'qituvchi ko'magida yozishadi va yozuv ko'rinib turgan tomonini o'qituvchiga burib qo'yishadi.

Name: _____

address: street ,
 village,
 district,
 region.

telephone number: _____

Barcha o'quvchilar o'zlari haqidagi ma'lumotlarni yozib bo'lishganlaridan keyin o'qituvchi o'yinni boshlashi mumkin.

While game activity:

O'quvchilar navbati bilan ichki ishlar boshqarmasiga telefon qilishadi va quyidagi tartibda suhbatlashishadi.

Policeman	Pupil
Good morning, this is	Hello, this is
What can I do for you?	My dog is missing.
Tell me about your dog.	His name is He is (color). He is years old.
What is your address?	 street district, region.
What is your telephone number?	My telephone number is
OK, do not worry we will find your dog very soon.	Thank you, ser.

O'qituvchi o'quvchilar bilan suhbatlashish jarayonida ular haqidagi ma'lumotlarni avvaldan tayyorlab qo'yilgan jadvalga kiritib boradi.

	Name	Eshboyeva	Saodat	
	Missing property	Dog	Black	2 years old
	Address	Chambil street 26, Toshkin village	Norin district	Namangan region
	Telephone number	+98 998	000 00 00	

O'qituvchi barcha o'quvchilar bilan suhbatlashib bo'lganidan keyin, ular haqidagi ma'lumotlar yozilgan varaqlarni yordamchilariga beradi. Ular esa varaqlarga qarab, yo'qolgan uy hayvonlari kimga tegishli ekanligini aniqlashadi.

O'quvchilar o'yinchoqlarni o'z egalariga eltib berishadi va quyidagi tartibda dialog tuziladi.

Postman: Good morning.

Pupil: Good morning.

Postman: Is this your dog?

Pupil: Yes it is my dog.

Postman: Here you are.

Pupil: Thank you.

Postman: Not at all.

Tavsiyalar: Bu o'yinni uchinchi sinf o'quvchilari bilan o'tkazish tavsiya etiladi. Oqituvchi mashg'ulotga kreativ yondashishi va mashg'ulot mobaynida imprvizatsiya qilishi mumkin. O'yinlarni muvaffaqiyatini ta'minlash uchun o'qituvchilardan turli mavzularga moslab o'quv qurollari jamlamalarini to'plash talab etiladi. Bunday jamlamalar autentik til materiali vazifasini bajarib, o'zlashtirish samaradorligini ta'minlaydi. O'yinlarga o'zgartirish kiritish ham mumkin. Masalan, uy hayvonlari emas, balki hasharotlar, transport vositalari yoki o'quv qurollari kabi mavzularini ham tanlash mumkin. O'yin jarayonida ishlatiladigan nutq namunalari mustahkam o'zlashtirib olinganidan keyin, ilg'or o'quvchilarni bosh ro'lga taklif qilish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A., *Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. "Sharq". –T., 1998.*
2. Karimov I.A., *Barkamol avlod orzusi. "Sharq". –T., 1998.*
3. Jalolov. J.J., *Chet til o'qitish metodikasi. "O'qituvchi", –T., 2012.*
4. *Общеевропейские компетенции владения иностранным языком: Изучение, обучение, оценка Департамент по языковой политике, Страсбург 2001; Московский государственный лингвистический университет (русская версия), 2005.*
5. Немов Р.С., *Общие основы психологии. Москва Владос-2003/154.*
6. Лисина М.И., *Формирование личности ребенка в общении. Питер; СПб.; 2009.*
7. Rod Ellis *Principles of instructed language teaching Asian EFL Journal www.asian-efl-journal.com.*

Sobitxon TURG'UNOV,
pedagogika fanlari doktori, professor
Nasibaxon AHMEDOVA,
O'zPFITI tadqiqotchi-izlanuvchisi,

UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARINI BOSHQARISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktabi ichki tartib-qoidalari, mazkur qoidalar jamoadagi huquqiy munosabatlar masalalarini tartibga soladigan asosiy me'yoriy hujjat hisoblanishi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, maktab rahbarining boshqaruv faoliyati samaradorligi, jamoada zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, o'quvchilar va pedagog xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ta'lim muassasasi bilan mahalla va ota-onalar hamkorligini ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Umumiy o'rta ta'lim maktabi, umumiy o'rta ta'lim maktabi reglamenti, umumiy o'rta ta'lim maktabi ichki tartib-qoidalari, funksional vazifalar, rahbarlar, o'qituvchilar, pedagog xodimlar, mutaxassislar, ijrochilar, jamoatchilik tashkilotlari, jamoaviy boshqaruv organlari.

В статье изложено содержание основных нормативных документов, касающихся правил внутреннего распорядка общеобразовательной средней школы и правовых отношений в коллективе. Освещены также вопросы эффективности управленческой деятельности руководителей школ по созданию необходимых условий для коллектива, координации деятельности учащихся и педагогических работников, обеспечения сотрудничества образовательного учреждения, махалли и родителей.

Ключевые слова. Общеобразовательная средняя школа, регламент общеобразовательной школы, правила внутреннего распорядка, функциональные задачи, руководитель, педагогические работники, специалист, исполнители, общественные организации, органы коллективного управления.

The article also revealed issues of creating necessary conditions for effective performance of school administration, to coordinate the activities of students and teachers, the teaching staff to ensure cooperation with the community and parents. The author points out there is a necessity for interrelation and consistency among all the components in administration body.

Key words. General secondary school, middle schools, secondary regulation rules in the internal regulations of the school, operational requirements, supervisors, teachers, educational workers, professionals, artists, community organizing, collective management bodies.

Umumiy o'rta ta'lim maktabi (UO'TM) rahbarlari, jamoatchilik tashkilotlari, jamoaviy boshqaruv organlari, pedagoglar va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar tomonidan bajarilishi zarur bo'lgan funksional vazifalar asosida mehnat taqsimotini amalga oshirishda hamda uni samarali bajarilishini ta'minlashda UO'TM reglamenti strukturasiga asosan maktabning Ichki tartib-qoidalari ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish o'ziga xos amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim muassasalari oldida turgan maqsadlarga erishish UO'TM pedagogik xodimlari va boshqa texnik xodimlarning hamkorlikdagi samarali faoliyatini nazarda tutadi. Bu jarayon ta'lim muassasalarida faoliyatni muvofiqlashtirishni, muayyan ichki tartib-qoidalar o'rnatilishini talab qiladi.

Tadqiqotlarda asosiy maqsad ta'lim muassasasi jamoasida sog'lom muhitni yaratishga, ya'ni kishilar o'rtasidagi ijtimoiy-psixologik munosabatlarga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan bo'lib, bir necha usullarni o'z ichiga oluvchi ijtimoiy-psixologik metodlarning ijtimoiy me'yorlash yo'llaridan biri sifatida Ichki tartib-qoidalar keltiriladi.

Maktabning Ichki tartib-qoidalar rahbarlar va xodimlar bilan mehnat shartnomasini tuzish, o'zgartirish va bekor qilish, ish vaqti va dam olish vaqtidan foydalanish, ish jarayonini tashkil etish, xodimlarni ishga qabul qilish, ishdan chetlashtirish, homiladorlik va tug'ish hamda bola parvarishlash ta'tillaridan foydalanish, mehnat intizomi, ish beruvchi bilan xodim o'rtasida yuzaga keladigan boshqa huquqiy munosabatlar majmuini tartibga soladigan asosiy me'yoriy hujjat hisoblanadi.

Demak, maktabning ichki tartib-qoidalar O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining normativ-huquqiy hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan UO'TM to'g'risidagi Nizomga hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan "Korxona, muassasa, tashkilot ichki mehnat tartibining namunaviy qoidalariga"ga muvofiq ishlab chiqilishi zarur.

Ichki tartib-qoidalar maktab rahbarlari, o'qituvchi-tarbiyachilar, pedagog xodimlar va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar kasaba uyushma qo'mitasi bilan kelishib, direktor tomonidan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi va maktabda qo'llaniladi.

Ichki tartib-qoidalar rioya qilish ish beruvchi, pedagog xodim hamda xizmat ko'rsatuvchi personal uchun majburiy hisoblanadi, uni bajarmaslik qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.


Demak, maktab rahbarlari va xodimlar o'rtasida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar majmuini tartibga soladigan asosiy me'yoriy hujjat hisoblangan Ichki tartib-qoidalar ishlab chiqishda maktab rahbarlari, mutaxassislar va ijrochilar tomonidan bajarilishi zarur bo'lgan funksional vazifalarni amalga oshirish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish zarur.

Shunday ekan, maktabning Ichki tartib-qoidalarini biz taklif etayotgan quyidagi strukturaga (1-rasm) mos ravishda ishlab chiqish va har bir bo'limni yoritishda unda keltiriladigan me'yor va qoidalar, albatta, yuqorida keltirilgan maktab faoliyati huquqiy asoslariga muvofiq bo'lishi shart.

Maktab rahbarlarining funksional vazifalarini amalga oshirish jarayoni ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va takomillashtirish, uning natijaviyligini ta'minlash, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash uchun jamoada zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, o'quvchilar va pedagog xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ta'lim muassasasi bilan mahalla va ota-onalar hamkorligini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lib, mazkur jarayonlar o'zaro bog'liq va aloqador bo'lgan holda har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Ya'ni maktab rahbarlari o'z funksional vazifalarini doimo xodimlar va o'quvchilarning ota-onalari (insonlar) bilan bo'ladigan huquqiy munosabatlar jarayonlarida amalga oshiradi. Maktab rahbarlari bunday jarayonda bo'ysunuvchilar yoki o'quvchilarning

ota-onalari bilan o'zaro munosabatlarni bevosita yoki bilvosita (buyruqlar, yo'l-yo'riq ko'rsatish, ko'rsatmalar shaklida) amalga oshirishi mumkin. Demak, mazkur jarayonlar tashkiliy shakliga ko'ra, bir-biridan farqli ravishda turli xil xususiyatlarga ega bo'ladi va ularni biz rahbar faoliyati jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari deb ataymiz.



1-rasm. Maktabning ichki tartib-qoidalarini tuzilmasi

UO'TM rahbarlari tomonidan mutaxassislar va ijrochilarning faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirishda, ularda mas'uliyat hissini shakllantirish jarayoni ma'lum bir xususiyatlarga ega bo'lsa, innovatsion jarayonlarning ijobiy natijalariga ijrochilarda qiziqish uyg'otish jarayoni boshqa bir xususiyatlarga ega bo'ladi. Maktabda mutaxassislar va ijrochilarning faoliyati unumdorligini ta'minlashda ularning o'z mehnat faoliyatlari natijalaridan teng manfaatdor bo'lishlari uchun shart-sharoitlar yaratish jarayonlari ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Maktab faoliyatini takomillashtirish yo'nalishida qarorlar qabul qilishda xodimlarning fikrini o'rganish va takliflarini inobatga olish turli xildagi muammoli vaziyatlarning vujudga kelishini oldini oladi, bu esa qarorlar qabul qilish jarayonining ham o'ziga xosligini ifodalaydi.

Maktab faoliyatini tashkil etishda rahbarlar tomonidan bajarilishi zarur bo'lgan funksional vazifalarni amalga oshirish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, boshqaruv faoliyatida muhim ahamiyat kasb etuvchi axborot-tahlil, maqsadli-motivlashtirish, oldindan ko'rish-rejalashtirish, tashkiliy-ijrochilik, nazorat-tashxis va tartibga solish-muvofiqlashtirish funksiyalarining amalga oshirilishi kuzatiladi.

Mazkur funksiyalarni amalga oshirishda maktab rahbarlari tomonidan pedagog xodimlar, ota-onalar va o'quvchilar o'rtasidagi bevosita o'zaro ta'sir jarayoni kuzatiladi. Maktab faoliyatini muvofiqlashtirish uchun zarur va qulay bo'lgan ruhiy muhitni, barcha uchun ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi tarbiyaviy munosabatlarni shakllantirish va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari vujudga keladi. Maktabda dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni davlat ta'lim standartlariga mos ravishda, ilmiy asosda tashkil etish va nazorat qilish mexanizmlari shakllanadi. Maktabdagi mavjud huquqiy munosabatlarni, o'quvchilarning ruhiy va fiziologik rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rganiladi, tahlil qilinadi va obyektiv baholash uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratiladi. O'qituvchilar bilan o'quvchilar, ota-onalar bilan ta'lim muassasasi hamda mahalla o'rtasidagi do'stona munosabatlarga asoslangan aloqalar barqarorlashadi. Maktabda mavjud ziddiyatlarni hamda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni o'zgarish, tahlil qilish va kelib chiqish sabablarini aniqlashga korporativ yondashuv tatbiq etiladi. Kadrlar tanlash va joy-joyiga qo'yish jarayonlarida obyektivlik, oshkoralik va kollegiyalik ta'minlanadi. O'quvchilarning imkoniyatlari va qobiliyati, bilim olishga hamda hunar o'rganishga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish, ulardagi ijobiy va salbiy hislatlarni keltirib chiqaruvchi omillarni o'rganish hamda ularga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi motivlarni aniqlash, shuningdek, motivlashtirish jarayonlarini muvofiqlashtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Maktabda va maktabdan hamda sinfdan tashqari tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning holati to'g'risida ishonchli axborotlar to'plash, qayta ishlash va obyektiv baholash asosida maktabning rivojlanishga moyilligi va dinamikasi aniqlanadi hamda uning faoliyati takomillashtirib boriladi. Maktabda innovatsion jarayonlarni tashkil etish va uning natijaviyligini ta'minlashga ishtirokchilarning qiziqishlari rivojlanadi.

Demak, maktab faoliyatini takomillashtirish asosida pedagogik jarayonlarda ko'zlangan natijalarga erishish uchun maktab rahbarlari, pedagog xodimlar va boshqa xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning hamkorlikdagi faoliyatini ma'lum bir izchillikda muvofiqlashtirish zarur bo'lib, mazkur zaruriyat UO'TM reglamentini va unga mos ravishda maktab Ichki tartib-qoidalarini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etishni talab qiladi.

Zero, UO'TM reglamentini va uning asosida Ichki tartib-qoidalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish natijasida:

– maktabda moddiy va ijtimoiy-psixologik rag'batlantirish tizimi yaratiladi;

- samarali mehnat va undan qoniqish hosil qilish asosida tashabbuskorlik va ijodiy munosabat shakllanadi;
- maqsadga erishishda jamoa va shaxs ehtiyojlarini hisobga olish an'anasi hamda dam olish vaqtidan unumli foydalanish imkoniyatlari yaratiladi;
- jamoada sog'lom ijtimoiy-psixologik muhit, shaxslararo va guruhlararo eng maqbul aloqalar, ongli intizom, turli yo'nalishlardagi barcha uchun teng huquqiy munosabatlar vujudga keladi;
- o'qituvchi va tarbiyachilar, pedagog xodimlar va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning batartib va intizomli mehnat qilishi, har bir shaxsning aqliy va axloqiy salohiyatini erkin namoyon etishi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratiladi;
- rahbarlar, o'qituvchi-tarbiyachilar, pedagog xodimlar, mutaxassislar va boshqa xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning birgalikda amalga oshiradigan mehnat natijalaridan ularning teng darajada qoniqish hosil qilishlariga erishiladi;
- xodimlarni ishga qabul qilish va bo'shatish, rag'batlantirish va jazolash, mukofotlash va yuqori lavozimlarga tavsiya etishda qonuniy obyektivlik ta'minlanadi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar UO'TM rahbarlari boshqaruv faoliyati jarayonlari o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu o'z navbatida, UO'TM reglamenti va uning asosida maktab Ichki tartib-qoidalarini ishlab chiqish va ular asosida funksional vazifalarni belgilash hamda jamoatchilik asosidagi mehnat taqsimotlarini amalga oshirishda UO'TM rahbarlari boshqaruv faoliyati jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va ularni inobatga olish zaruriyatini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekistonning yangi qonunlari. – T.: "Adolat", 1998.
2. Djurayev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti: O'quv qo'llanma. – T.: "Vorix", 2006. – 264 b.
3. Turg'unov S.T. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlari boshqaruv faoliyatining nazariy asoslari: Ped.f.d. ...diss. – T., 2007. – 363 b.

Matluba DAVURBAYEVA,
O'zDJTI katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

JISMONIY TARBIYA DARSLARINI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ASOSIY TAMOYILLARI

Annotatsiya

Maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarining jismoniy tarbiya darslarini modernizatsiyalangan texnologiyalar asosida olib borish mumkinligi xususida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif o'quvchilarda tanlash erkinligi tamoyilini maksimal darajada amalga o'shish kerak ekanligini aytib o'tgan.

Kalit so'zlar. Jismoniy tarbiya, chidamlilik, tezkorlik, rivojlantirish, moyillik, mashg'ulotlar, yo'nalish.

В статье освещены возможности организации уроков физического воспитания учащихся общеобразовательных средних школ на основе модернизированных программ и технологий.

Ключевые слова. Физическое воспитание, выносливость, развитие скорости, склонность, занятия, направление.

The article approves the applicableness of modernized technologies in physical training lessons in secondary public education schools. Moreover, the author advocates the principle of a wide range of choice for learners to choose.

Key words. Physical training, endurances, quickness, advancing, inclination, activities, direction.

Maktab o'quvchilarining jismoniy tarbiya masalalarini hal etish bilan shug'ullanadigan yetakchi olimlar va amaliyotchilarning ishlarini tahlil qilish hamda umumlashtirish asnosida shu narsa aniqlandiki, mazkur masalalar modernizatsiyalangan jismoniy tarbiyaning shakllantiruvchi yo'nalishidagi texnologiyalari asosida muvaffaqiyatli yechilishi mumkin.

Tanlash erkinligi tamoyili yuqorida ko'rsatilgan innovatsion texnologiyalarni amalga oshirishning asosiy tashkiliy-usuliy tamoyillaridan biri hisoblanadi. U bolaning tegishli o'quv mashq guruhida shug'ullanish uchun o'z ota-onasi bilan sport turi yoki sportga yo'naltirilgan jismoniy tarbiyaning boshqa shaklini tanlab olishini nazarda tutadi. Chidamlilik va tezkorlik sifatlarining rivojlanishi hamda namoyon bo'lishi yaqqol ko'rinib turgan bolalar uchun ustuvor harakat sifatini ko'proq rivojlantirishga yo'naltirilgan jismoniy tarbiya-sport harakat faolligi qiziqarliroq ko'inishi tabiiy. Bunday yondashuv insonning kinezologik imkoniyatlarini rag'batlantirib, rivojlantirishning asosiy qonuniyatlari mos keladi, chunki bu holatda jismoniy yuklama shug'ullanuvchilarining tug'ma qobiliyatlariga muvofiq bo'ladi va eng yaxshi rivojlangan o'ziga xos fiziologik funksiyalarga ta'sir ko'rsatadi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchilari bilan, jumladan, malaka oshirish kurslarida ishlash tajribasi shuni ko'rsatadiki, ularining aksariyat ko'pchiligi ta'lim muassasalari o'quvchilari jismoniy tarbiyasiga ko'rsatilgan yo'nalishini qabul qilishga tayyor emaslar. Ularda ustuvor harakat sifatlarini ko'proq rivojlantirishga yo'naltirilgan jismoniy tarbiya jarayoni o'quvchilarni jismoniy tayyorgarlik bo'yicha me'yoriy talablarni muvaffaqiyatli bajarishga tayyorlash imkonini bermaydi, degan ishonch shakllanib qolgan. Qaror topgan talablarga muvofiq maktab o'quvchilari jismoniy tayyorgarligini baholash beshta asosiy harakat sifatini baholovchi standart testlar bo'yicha amalga oshiriladi. Jismoniy tarbiya o'qituvchilari uchun rivojlanishda ortda qolayotgan harakat sifatlarini belgilangan darajaga maqsadli ravishda yetkazib olish pedagogik faoliyatning majburiy sharti sanaladi, bunday yo'nalishdagi mashg'ulotlar natijasida imkon qadar ko'proq o'quvchilar test me'yorlariga muvofiq ko'rsatkichlarni namoyish eta oladilar. Biroq rivojlanishda ortda qolayotgan harakat sifatiga maqsadli ta'sir ko'rsatish vaqtida o'ziga xos sust rivojlanayotgan fiziologik funksiyalarga yo'naltirilgan jismoniy yuklamalar qo'llanadi, bu shug'ullanuvchilar uchun qiyinchiliklar tug'diradi, demak, jismoniy tarbiyada asosiy yuklamalar sifatida e'tiborni kamroq tortadi, tanlab olinishi ham kam hollarda kuzatiladi. Bu vaziyatda o'quvchilarda qadriyatlar to'g'risidagi shaxsiy tushunchalar hamda jismoniy tarbiyaga qiziqishning mavjudligi hisobga olinmaydi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchilari pedagogik faoliyatidagi ko'rsatilgan yo'nalish bir qator sabablar bilan belgilanadi, ammo ularning asosiysi an'anaviy maktabdagi jismoniy tarbiya tizimi amal qilishning tashkiliy-usuliy shart-sharoitlari tufayli mutaxassislarda shakllanib qolgan bir qoliqli fikrlash hamda o'quvchilar jismoniy tarbiyasi masalalarini hal qilishning eng muhim sharti "ortda qolayotgan" jismoniy sifatlarni tarbiyalashdagi tahlillovchi yo'nalish deb ko'rsatilgan ayrim ilmiy ishlar hisoblanadi.

Pedagogning "ortda qolgan" harakat sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyati modernizatsiyalangan jismoniy tarbiyaning salomatlikni shakllantiruvchi yo'nalishni tanlab olish erkinligi tamoyiliga zid bo'lishga qaramay, u ko'plab jismoniy tarbiya o'qituvchilari uchun yetakchi bo'lib qoldi. Bunday sharoitda mutaxassislar ongidagi qoliqlarni o'zgartirish muhim ish bo'lib, u amaliyotda yuzaga kelgan yondashuvlarning asossizligiga jismoniy tarbiya o'qituvchilarini ishontirish imkonini beruvchi qo'shimcha dalillarni talab qiladi.

Tadqiqotning maqsadi – jismoniy rivojlanishi eng orqada bo'lgan jismoniy sifatga mashg'ulotlar ko'rsatadigan maqsadli ta'sirning sog'lomlashtiruvchi, rivojlantiruvchi samaradorligi hamda ustuvor harakat sifatlarini o'stirishga pedagogik ta'sirlarni kuchaytirgan holda jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishning sog'lomlashlashtiruvchi, rivojlantiruvchi samaradorligini o'zaro taqqoslash va tahlil qilish.

Tadqiqotni tashkil qilish. Umumiy o'rta ta'lim maktabining sport to'garaklarida ixtisoslashtirilgan mashg'ulotlarda qatnashish staji bo'lmagan 8 – 9 yoshli o'quvchilardan ikkita tajriba guruhi (TG) tuzildi.

Bu yosh davri deyarli barcha jismoniy sifatlar va koordinatsion qobiliyatlarni o'stirishga kirishish uchun eng qulay payt sanaladi.

Tezlik sifatleri yaqqol namoyon bo'lgan va rivojlangan, ammo umumiy chidamliligi darajasi past bolalardan iborat birinchi TG har biri o'nta o'quvchini o'z tarkibiga olgan ikkita teng guruhga taqsimlandi. 1a – guruhi o'quv yili davomida chidamlilikni ustuvor tarzda rivojlantirishga qaratilgan o'quv-mashq dasturi bo'yicha shug'ullandi.

1b – guruhi esa tezlik sifatlarini ustuvor rivojlantiruvchi o'quv-mashq dasturi asosida shug'ullandi.

Umumiy chidamliligi yaqqol namoyon bo'lgan va rivojlangan, ammo tezlik sifat-lari past o'quvchilardan iborat ikkinchi TG ham ikkita teng guruhga bo'lindi: muvofiq ravishda 2a – hamda 2b – guruhlari. Bu guruhlarining har birida 10 nafardan o'quvchi bo'lib, 2a – guruhi o'quv yili mobaynida chidamlilikni ustuvor rivojlantiruvchi o'quv-mashq dasturi bo'yicha shug'illandi. 2b guruh esa tezlik sifatlarini ustuvor rivojlanti-rishga mo'ljallangan dastur bo'yicha ish olib bordi.

Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish jarayoni shunday tashkil etilish lozimki, unda o'yin, yugurish mashqlariga ustunlik berilib, bunday mashqlar shug'ullanuvchilar jismoniy faolligining 65 foizni egallaydi. Umumiy jismoniy tayyorgarlik guruhlaridagi mashg'ulotlar o'quv mashq guruhlari tarkibida haftasiga uch martadan o'tkaziladi. Bir mashg'ulot 1,5 soat davom etadi.

Ko'rsatilgan harakat sifatlarining yaqqol namoyon bo'lish darajasi quyidagilar aso-sida aniqlanadi:

1) Pedagogik testlash natijasiga ko'ra (yuqori startdan 30 m yugurish, 1000 m yu-gurish);

2) Pedagogning muayyan shug'ullanuvchilarni kuzatishga asoslangan hamda maktab o'quvchisining chidamlilik va tezkorlikni rivojlantirishga moyilligini yetarlicha aniqlik bilan bilib olishga imkon beruvchi shaxsiy tajribasiga tayangan holda, har xil yo'nalishdagi jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish sog'lomlashtiruvchi, rivojlantiruv-chi kumulyativ samarasi o'quvchilarda umumiy chidamlilik va tezlik sifatlarini baholov-chi test sinovlari natijalaridan foydalanildi.

Aytib o'tilgan usul yurak elektrokardiogrammasidagi izdan chiqishlarning katta spektrini qayd etish imkonini beradi. Pedagogik tajriba o'quv yili davomida olib boriladi.

Tadqiqotning asosiy natijalari va ularning muhokamasi. Mashg'ulotlar ta'si-rining turli yo'nalishlari jismoniy tayyorgarlikka o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi. Chidamlilikni rivojlantirish va namoyon qilishga yaqqol moyilligi bo'lgan, ammo tezlik sifat-lari past rivojlangan o'quvchilar guruhidagi test sinovlari natijalarining tahlilidan ma'lum bo'ldiki, 1000 m yugurish natijasidagi o'sish dinamikasi to'liq sifatlariga qaraganda chidamliligi ustunroq rivojlanganlar mashg'ulotlarida ancha yuqori bo'ladi. 30 m yugurish nati-jalarining o'sish dinamikasi taxminan bir xil bo'ldi. (1-jadval).

Tezlik sifatlarini rivojlantirish va namoyon etishga aniq moyilligi bo'lgan, ammo chidamliligining rivojlanish darajasi past guruhlarda test sinovlari natijalarini tahlil qilish asosida ma'lum bo'ldiki, 30 m yugurishning mashg'ulot samarasi tezkorlik sifatlarini ustuvor rivojlantirishga qaratilgan dastur bo'yicha o'tkazilgan mashg'ulotlarga nisbatan ancha yuqori .

Tadqiqot natijasidan kelib chiqib, chidamliligi yaqqol namoyon bo'ladigan, ammo tezkorlik sifat-lari pastroq bolalar umumiy chidamlilikni rivojlantiruvchi jismoniy yukla-malarga ancha ta'sirchandirlar; tezkorlikni aniq namoyon qila oladigan, lekin umumiy chidamliligi sust rivojlangan bolalar esa tezlik sifatlarini rivojlantiruvchi jismoniy yukla-malar ta'sirini yaxshiroq qabul qiladi, deb hisoblash mumkin.

Chidamlilik va tezkorlikni rivojlantirish hamda namoyon etishga moyillik turlicha bo'lgan o'quvchilarda test sinovlari natijalarida aniqlangan dinamika fiziologik asosga ega.

Har xil yoʻnalishdagi test natijalarining va mashgʻulot taʼsirining tajriba boshi va oxiridagi koʻrsatkichlari

Testlar	Guruh	Pedagogik eksperimentning boshlanishida	Pedagogik tajribaning oxirida			
			Umumiy chidamlilikni rivojlantirishda mashgʻulotning taʼsiri	Tezkorlik sifatini rivojlantirishda mashgʻulotning taʼsiri.	t	p
30 m yugurish	1a	6,19+0,1	5,99+0,09		2,15	0,05
	1b	6,11+0,09		5,68+0,08		
1000 m yugurish	1a	410,1+4,0	391,4+3,9		0,38	0,05
	1b	328,2+4,0		285+4,1		
30m yugurish	2a	7,18+0,1	6,94+0,1		0,14	0,05
	2b	7,21+0,11		6,92+0,1		
1000 m ga yugurish	2a	325,6+4,0	304,5+3,9		2,17	0,05
	2b	406,8+3,9		393,5+3,8		

Agar tezkorlik yoki chidamlilikni namoyon etish va rivojlantirishga yaqqol moyilligi boʻlgan bola ustuvor sifatni koʻproq rivojlantirishga yoʻnaltirilgan oʻquv mashq dasturi boʻyicha shugʻullansa, bu holda taʼsir oʻziga xos tarzda eng koʻp rivojlangan fiziologik funksiyalarga yoʻnaltiriladi. Mazkur holatda fiziologik moslashuv (adaptatsiya) mexanizmi jismoniy yuklamaning yuqori darajasini belgilab, ancha jiddiy rivojlantiruvchi samaraga ega boʻlish imkoniyatini yaratuvchi global spetsifik mexanizm boʻladi. Har xil yoʻnalishdagi mashgʻulotlar taʼsiriga javoban rivojlanishda “ortda qolayotgan” jismoniy sifatlarni baholovchi test sinovlarida natijalarning oʻsish dinamikasining bir xil boʻlishi faktiga alohida izoh berish lozim. Ustuvor sifatning rivojlanishini ragʻbatlantiradigan jismoniy yuklamalar rivoji eng koʻp orqada qolayotgan jismoniy sifatni koʻproq rivojlantirishga yoʻnaltirilgan jismoniy yuklamalarni qoʻllash holati kabi “ortda qolayotgan” harakat sifatini rivojlantirish oʻz samarasini berdi.

Qoʻlga kiritilgan faktga jismoniy sifatlarni ijobiy “koʻchirish” mexanizmidan izoh topish mumkin. V.D.Sonkinning taʼkidlashicha, barcha harakat sifatlari u yoki bu darajada umumiy biologik tabiatga ega. 7– 9 yosh oraligʻida deyarli barcha sifatlar oʻzaro ijobiy bogʻlangan: chidamlilikni rivojlantirar ekanmiz, biz kuch va tezkorlikni oshiramiz, buning natijasida chidamlilikni orttiramiz. Jismoniy mashqlar bilan shiddatli mashgʻulotlar oʻtkazish organizmning barcha tizimlarida oʻz tabiatiga koʻra qarama-qarshi boʻlgan jismoniy sifatlarni rivojlantirishda ijobiy koʻchishni taqozo etuvchi fiziologik mexanizmning asosini tashkil etadigan nihoyatda kuchli reaksiyani hosil qiladi. Shuning uchun ham ustuvor harakat sifatlarini (chidamlilik yoki tezkorlik) koʻproq rivojlantirishga yoʻnaltirilgan mashgʻulotlar taʼsiri, mashgʻulot yuklamasining yuqori darajasi talab qilib qolmasdan, “ortda qolayotgan” jismoniy sifatlarni rivojlantirishda ijobiy koʻchishga olib keladi.

Salomatlikni miqdoriy baholashning koʻpgina zamonaviy usullari integrativ koʻrsatkich kattaligining yurak-tomir tizimi holatiga bogʻliqligi bilan tavsiflanadi. Bu tizimning funksional holatini nazorat qilish uchun xoltercha EKG-monitorlash oʻtkaziladi. Ustuvor sifatning koʻproq rivojlanishini ragʻbatlantiruvchi mashgʻulotlar taʼsiri dastlabki

kattaliklarga oid xoltercha EKG-monitorlash parchalardagi og'ishlar miqdorini kamaytirdi. "Ortda qolayotgan" jismoniy sifatga maqsadli ta'sir ko'rsatish funksional og'ishlar miqdorining miqdori dastlabki kattaliklarga qaraganda 12-18 foizga oshdi.

O'quvchilarning chidamlilik va tezkorlikni rivojlantirish va namoyish etish moyilligiga qarab sport turi yoki sportga yo'naltirilgan jismoniy tarbiyaning boshqa shaklini alohida holda tanlab olish salomatlikni shakllantiruvchi yo'nalishdagi modernizatsiyalangan jismoniy tarbiyani ro'yobga chiqarishning asosiy tashkiliy-uslubiy shartlaridan biri hisoblanadi. Bu holatda pedagogik ta'sirlar insonda neyrodinamik jarayonining tashkil etilishiga moslanadi, eng rivojlangan fiziologik funksiyalarga yo'naltiriladi, bu ularning bolalar uchun qiziqarliligini ta'minlaydi, mashg'ulot yuklamasining yuksak darajada bo'lishini talab qiladi va shug'ullanuvchilar jismoniy imkoniyatlarini oshirishning aniq rag'batlantiruvchi samarasini qo'lga kiritish uchun sharoit yaratadi.

O'quvchilarning harakat faolligini tashkil etishga bunday yondashish, fiziologik moslashuv mexanizmi ustuvor harakat sifatining jiddiy shug'illaniruvchi samarasiga erishish imkonini beribgina qolmay, "ortda qolayotgan" jismoniy sifatlarning rivojlanishi keng ijobiy ko'chish sodir bo'lishiga olib keladi. O'z ta'sir yo'nalishiga ko'ra, o'quvchilarning chidamlilik va tezkorlikni namoyish etish va rivojlantirish moyilligiga moslashtirilgan jismoniy yuklamalar yurak-qon tomir tizimi faoliyatidagi funksional og'ishlar miqdorini oshirib yuborish hamda shu tariqa moslashuv imkoniyatlarini, qon aylanish tizimini vegetativ boshqarish mexanizmlari funksional zaxiralarini toraytirib qo'yishi mumkin.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisi jismoniy tarbiya jarayonini tashkil etar ekan, pedagogik ta'sir ko'rsatuvchi vositalar insondagi neyrodinamik javoblar shaklini o'zgartira olmasligini tushunishi kerak, negaki, bu nihoyatda konservativ mexanizmlar bo'lib, ularni jiddiy o'zgartirishga urinishlar noxush oqibatlariga olib keladi. Shuning uchun ham o'quvchilar tomonidan mashg'ulotlar samarasining tabiiyligini ta'minlovchi sportga yo'naltirilgan jismoniy tarbiya shaklini tanlash erkinligi tamoyilini maksimal darajada amalga oshirish zarur. Bu esa maktab jismoniy tarbiya tizimi salomatlikni shakllantiruvchi yo'nalishni ro'yobga chiqarishning asosiy shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Ахметов.И. *Использование ДНК-технологии для реализации концепции спортивно – ориентированного физического воспитания учащихся школ г.Набережны Челны* /А.И.Ахметов, И.В.Астратенкова, А.И.Комкова и др.//Физическая культура:воспитание,образование, тренировка. 2006. N 1.– С.5-8.

2. Бальсевич.В.К. *Концепция информационно-образовательной компании по развертыванию национальной системы спортивно – ориентированного физического воспитания обучающихся в общеобразовательных школах Российской Федерации*/ В.К.Бальсевич, Л.И.Плубышева// Физическая культура: воспитание, образование, тренировка. 2003. N1.– С.11-17.

3.Бальсевич,В.К.*Здоровьеформирующая функция образования в Российской Федерации*//Материалы к разработке национального проекта оздоровления подрастающего поколения России в период 2006-2026гг. /В.К.Бальсевич// Физическая культура: воспитание, образование, тренировка. 2006. N5.– С.2-6.

4. Волжин.А.И. *Болезнь и здоровье: две стороны приспособления*/ А.И.Волжин, Ю.К.Субботин. – М.: "Медицина",1998.– С. 479.

A'zam ALIMOV,

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi kadrlarining
malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash instituti
katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

O'QITUVCHILARNING INNOVATSION FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada uzluksiz ta'lim tizimi o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash, innovatsion faoliyatning mazmuni, mohiyati va bosqichlari keltirilgan. Shuningdek, innovatsion faoliyatni shakllantirishning tuzilmasi va bu faoliyatning pedagogik tizimdagi o'rni va bu bora-dagi muammolarni hal etish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar. Pedagogik innovatsiya, ta'lim-tarbiya, innovatsion faoliyat, yangilik, innovat-sion ta'lim.

В статье рассмотрены вопросы подготовки учителей системы непрерывного об-разования к инновационной деятельности. Также освещены структура и роль форми-рования инновационной деятельности в образовании, представлены рекомендации по решению данной проблемы.

Ключевые слова. Педагогическая инновация, обучение и воспитание, иннова-ционная деятельность, инновационное образование.

The article views training teachers to innovational work in continuous education system. Moreover, the author gives definitions of "innovation" and "educational innovation", offers pro-posals on structure formation of innovational work, its role in pedagogical system and recom-mendations to solve problems of the issue.

Key words. Pedagogical innovation, the process of training and education, innovational work, innovative education.

Respublikamizda 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" va "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda belgilab qo'yilgan milliy modelimizning maqsad va vazifalarini amalga oshirish borasida, bugungi kun talablariga javob bera oladigan, mustaqil fikrlay oladigan va zamonaviy texnologi-yalardan erkin foydalana oladigan malakali pedagog kadrlarga qo'yilgan talab-tobora ortib bormoqda. Chunki o'quvchi yoshlarimizning komil inson bo'lib yetishishi va ta'lim-tarbiyani qanchalik chuqur egallashi o'qituvchining zamonaviy innovatsion texnologi-yalarni yaratish va ularni amalda qo'llash qobiliyatiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Aynan ushbu shaxsiy qobiliyatlarni rivojlantirish va takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Hozirgi vaqtda "Innovatsiya" va "Innovatsion texnologiyalar" kabi tushunchalar tez-tez qo'llanilmoqda hamda bu borada ta'lim tizimida innovatsion loyihalar va ilmiy tadq-iqot ishlari amalga oshirilmoqda. Innovatsion texnologiyalarni yaratish va ularni ta'lim

jarayoniga joriy qilish ommalashmoqda ekan, shu o'rinda, bu atamalarining pedagogik mazmuni va mohiyatini kengroq ochib berish maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim jarayoniga "Innovatsiya" va "Innovatsion pedagogika" kabi atamalar 1960-yillarda G'arbiy Yevropa va AQShdan kirib keldi. Innovatsiya (*inglizcha "Innovation" so'zidan olingan bo'lib, kiritilgan yangilik, ixtiro degan ma'nolarni anglatadi*) – bu oldin mavjud bo'lmagan predmet, tuzilma, qadriyat va faoliyat metodlari (texnologiyalari)ni yaratish, paydo bo'lgan yangiliklarni belgi, obraz va simvollarda ifodalash, ijtimoiy o'zlashtirish hamda tarqatish orqali jamiyat va inson hayotining barcha sohalariga tadbiq qilish jarayoni hisoblanadi.

Ko'pchilik "Innovatsiya" atamasi bilan yangilikni bir xil tushuncha kabi qabul qiladi, vaholanki, yangilik – bu aynan vosita (*yangi metod, metodika, texnologiya, dastur va boshqalar*) bo'lib, "Innovatsiya"da muayyan jarayon ko'zda tutilib, quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1-bosqich. Yangi g'oyalar yoki yangilikning yo'nalishlari paydo bo'lishi;

2-bosqich. Ixtiro qilish, ya'ni yangilikda namuna tayyorlash;

3-bosqich. Yangilikni tatbiq etish, bunda qilingan yangilik amaliyotda tadqiq qilinadi va kamchiliklar to'ldiriladi;

4-bosqich. Yangilikni tarqatish, keng qamrovli miqyosda amaliyotga tatbiq etish.

Pedagogik innovatsiya deganda, pedagogik faoliyatga uning samaradorligini oshirish maqsadida yangiliklarning kiritilishi, ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni va pedagogik texnologiyalaridagi o'zgarishlar, ta'lim faoliyatida o'quvchi shaxsini rivojlantirish jarayoniga oid ma'naviy-madaniy an'analarga asoslanib, ta'lim jarayoniga yangicha qarash va yondashuvlar e'tiborga olinmog'i lozim.

Pedagogning innovatsion faoliyati deganda, uning ish uslubini butunlay o'zgartirilishi emas, balki uning qisman yangilanishi tushuniladi. Har bir pedagog o'zida bor shaxsiy va pedagogik qobiliyatini rivojlantirishi, unga o'zgartirishlar kiritishi hamda turli pedagogik vositalar bilan boyitib turishi davr talabidir.

O.G.Xomeriki o'quv-tarbiya jarayonining u yoki bu tarkibiy qismi bilan bog'liqlikda innovatsiyalarni quyidagi turlarga ajratib ko'rsatadi:

1) ta'lim mazmuniga doir innovatsiyalar;

2) o'quv-tarbiya jarayoni metodlari, metodikasi va texnologiyasiga doir innovatsiyalar;

3) o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishga doir innovatsiyalar;

4) ta'lim tizimini boshqarishga doir innovatsiyalar.

M.M.Potashnik va V.S.Lazarevlar ta'limda qo'llanilish ko'lamiga ko'ra innovatsiyalarni quyidagi turlarga ajratib ko'rsatishadi:

1) lokal, alohida, o'zaro bog'lanmagan xususiy innovatsiyalar;

2) o'zaro bog'langan, xususiy innovatsiyalar majmuini ifoda etuvchi modulli innovatsiyalar;

3) butun ta'lim muassasasini qamrab oluvchi tizimli innovatsiyalar.

Quyidagi shaklda o'qituvchilarning innovatsion faoliyatini shakllantirish tuzilmasi keltirilgan.

Ta'lim jarayoniga kiritilgan yangilikning ahamiyatiga qarab innovatsion faoliyatni besh bosqichga bo'lish mumkin:

1. Yangilanish;

2. To'ldirish;

3. Dasturlash;

4. Rivojlantirish;

5. Mukammallashtirish;

Har bir bosqich keyingisi bilan uzviy aloqada bo'lib, bir-birini to'ldirib, faoliyat shakllanadi, ya'ni "To'ldirish" bosqichida "Yangilanish" o'z o'rnida qoldirilib, o'zgarishlar bilan to'ldiriladi. Oxirgi bosqich "Mukammallashtirish"da esa, ustamonlik oshadi va ushbu ustamonlik faoliyatning eng yorqin namunasi sifatida paydo bo'ladi.

Innovatsion faoliyatning asosiy bosqichi dasturlash yoki modellashtirish hisoblanadi. Bunda muayyan muammo bo'yicha dolzarb axborotlar yig'iladi va bu o'qituvchining qiyin vaziyatdan chiqa olishiga yordam beradi. Tanlangan variant amalga oshiriladigan g'oya bo'lib xizmat qiladi. U innovatsion faoliyatning asosini tashkil qiladi, ya'ni bunda pedagogik faoliyat shakllari, mazmuni, uslublari yoki yaxlit pedagogik texnologiyalar tushuniladi.

Bizning fikrimizcha, uzluksiz ta'lim tizimi o'qituvchilarining innovatsion faoliyatini shakllantirishda ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishiga katta e'tibor berish lozim. Ijodiy qobiliyat har doim tashqaridan beriladigan yordamga muhtoj bo'lib qolmasligi kerak. Bu pedagogik ahamiyatga xos xususiyat hisoblanib, muntazam izlanishlar bilan rivojlantirish mumkin.

Pedagogik jarayonda innovatsion faoliyatni shakllantirishning yana bir jihati, "muammo" va "ziddiyat" kabi tushunchalarning mohiyatini anglash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki innovatsion faoliyat ta'lim-tarbiya jarayonidagi mavjud kamchilik va muammolardan kelib chiqadi. Bundan ko'rinadiki, uning asosini muammoli vaziyat tashkil etadi.


An'anaviy ta'lim bilan innovatsion ta'limning farqi shundaki, an'anaviy ta'limni tashkil etishda ta'lim vazifalari va shart-sharoitlari bir-birini to'ldirib, ishonchli manbalarga asoslanib tashkil qilinsa, innovatsion ta'limda, aksincha, ta'limning vazifa va shart-sharoitlari bir-birini rad qilib, ishonchsiz va ba'zida keragidan ortiqcha yoki yetarli bo'lmagan ma'lumot asosida shakllantiriladi. Bunda dars jarayonida pedagogik muammolarni yuzaga keltirish va ularni hal qilish yechimlarini topish ehtimolligini oshirishdan iborat va natijada innovatsion g'oya va fikrlar yuzaga keladi. Masalan, o'quvchilarning o'qishga qiziqishlarining pasayishi natijasida pedagoglar ana shu innovatsion uslublarni o'z darslarida qo'llashlariga to'g'ri keladi.

Innovatsion g'oyalarni yaratish, ishlab chiqish va ta'lim jarayoniga joriy qilish innovatorlarning maqsadli yo'naltirilgan faoliyatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy innovatorlar "Kim o'z muammosi ustida ishlamasa, unda yangi fikr tug'ilmaydi" deyishadi. Sababi, pedagog o'zining eski ish uslubini yangi uslublar bilan almashtirishi kerak. Agar biz o'z fanimiz bo'yicha qancha ko'p o'qisak va izlansak, o'zimiz ko'rmagan narsalarni ko'rib, bilmaganimizni bilib olamiz. Innovator N.R.Yusufbekova ta'lim tizimidagi innovatsion jarayonlarni quyidagi 3 ta blokka bo'lib o'rganadi:

1-blok. Pedagogikada yangi blokni yaratish. Bunda pedagogikadagi yangiliklar, ularning shart-sharoitlari, mezonlari, tayyorlik darajasi va o'zlashtirish me'yorlari, yangilikning yaratilish bosqichlari kategoriyalari ishlab chiqiladi. Bu tushunchalarni pedagogik neologiya o'rganadi.

2-blok. Qabul qilinishi yoki singib ketishi bo'lib, unda yangilikni pedagogik jamoaning o'zlashtirishi va baholashi nazarda tutiladi. Bu tushunchalarni pedagogik aksiologiya o'rganadi.

3-blok. Yangilikdan foydalanish va qo'llanishi. Bu blokda qabul qilishning qonuniyligi va ko'rinishlari nazarda tutiladi hamda uni pedagogik praksiologiya o'rganadi.



Shu asnoda aytish joizki, zamonaviy pedagog olimlarning fikriga ko'ra, innovatsion g'oya qachonki zamonaviy talablardan kelib chiqib, amaliyotga joriy qilinsa va uzluksiz ta'lim tizimida o'z qiziquvchilarini topsa hamda o'quvchilar tomonidan ijobiy qabul qilinsagina, bu pedagogik yondashuvni innovatsion texnologiya deb atasa bo'ladi yoki aksincha bo'lsa, u g'oyaligicha qolaveradi.

Innovatsion yutuqlar ba'zan pedagogdan uning natijalariga kamroq kuch sarflab faoliyat ko'rsatishini va innovatsiyaning har bir turi uning mustahkamlanishini talab etadi. Innovatsion faoliyatning rivojlanishida turli jarayonlar yoki harakatlar yordam beradi, ya'ni jamoada hamkasblari tomonidan ko'rsatilgan kamchiliklar va ularni tuzatish uchun rahbar xodimlar tomonidan berilgan maslahatlar hamda ularni jamoa yig'ilishida ko'rib chiqilishi o'z ta'sirini ko'rsatadi. O'qituvchining psixologik mexanizmlari hisobga olinmasa, innovatsion jarayon buzilishi mumkin. Shuning uchun ham, pedagog faoliyatida pedagogik jamoa muhim rol o'ynaydi. Chunki pedagog o'z jamoasidan qo'llab-quvvatlanishini kutadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilib aytish mumkinki, zamonaviy o'qituvchi innovatsion texnologiyalarni yaratish va ularni amaliyotga tatbiq qilish jarayonini quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirsa, maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Ta'lim-tarbiyaning mualliflik g'oyasini yaratish;
2. Dastur va rejalarni innovatsion pedagogik faoliyatga mos ishlab chiqish;
3. Dastlabki tajriba-sinovdan o'tkazish;
4. Tajriba natijalari va ijodiy izlanishlar asosida mualliflik g'oyalarini amalga oshirish;
5. Pedagogik innovatsiyaning yaxlitligini rasmiylashtirish;
6. Innovatsiyani keng qamrovli miqyosda amaliyotga joriy qilishga tayyorgarlik ko'rish.

Uzluksiz ta'lim tizimi o'qituvchilarining innovatsion faoliyatini rivojlantirishda dars mashg'ulotlarining zamonaviy ta'limiy, ijodiy-amaliy, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy funksiyalarini aniq belgilab olishlari hamda ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi asosida innovatsion faoliyatini takomillashtirib, zamon talabi darajasidagi yetuk mutaxassislarining bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi". 1997.
2. Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. *Tarbiyada innovatsion texnologiyalar*. – T., 2010.
3. Golish L.V. *"Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish"*. – T., 2001.
4. Сластелин В.А., Подымосова Л.С. *Педагогика: Инновационная деятельность*. – М.: "Магистр", 1997.
5. Юсуфбекова Н.Р. *Общие основы педагогической инноватики: Опыт разработки теории инновационных процессов в образовании*, – М., 1991.

Sunatulla ABDIRASILOV,
Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti, p.f.n.
Nilufar YO'LDOSHEVA,
Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING SAN'ATSHUNOSLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada umumta'lim maktablari tasviriy san'at o'qituvchilarining san'atshunoslik madaniyatini rivojlantirish masalalari haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, muallif badiiy atamalar lug'atining to'liq tahlilini keltirib o'tgan.

Kalit so'zlar. Tasviriy san'at, san'atshunoslik, madaniyat, badiiy, atamalar lug'ati, tahlil.

В статье рассматривается вопрос о развитии искусствоведческой культуры учителей изобразительного искусства общеобразовательной школы. Также автором даётся полный анализ словаря художественных терминов.

Ключевые слова. Изобразительное искусство, искусствоведение, культура, словарь художественных терминов, анализ.

The article is about the issues of enhancing art culture of the teachers of fine art of general education schools. Moreover, the author makes thorough analyses of the words of art lexicology.

Key words. Art, a comprehensive school, culture, dictionary of art terms, the analysis.

O'quvchilarning badiiy ta'lim va estetik tarbiya muammolari uzviy ravishda o'qituvchilarning san'atshunoslik madaniyati bilan bog'liq. Tasviriy san'at o'qituvchilarining ijodiy mustaqil tayyorlanishi, o'z ustida ko'proq shug'ullanishida ularning san'atshunoslik bilimlari doirasi kengayishiga alohida e'tibor qaratish lozim. Tasviriy san'at ham boshqa fanlar kabi o'zining maxsus atamalariga ega. Ammo tasviriy san'at atamalarining mukammal izohli lug'ati hanuz yaratilmagan. Bu esa, oliy o'quv yurtlari va kasb-hunar kollejlari o'qituvchilariga tasviriy san'at sirlarini o'quvchilarga o'rgatishda ayrim qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Darhaqiqat, hozirgi vaqtda izohli lug'atlarga bo'lgan ehtiyoj juda ortib bormoqda. O'quvchilar tasviriy san'at sirlarini o'rganish jarayonida juda ko'p tushunchalar va atamalarga duch keladi. Bunday atamalarning lug'aviy ma'nosini adabiyotlardan topish biroz qiyin.

Hozirda darslik, qo'llanma, risolalar va ilmiy maqolalarda tasviriy san'atga oid iboralar har xil shaklda yozilib, turli ma'nolarda qo'llanilayotir. Bunday qiyinchiliklarga barham berish maqsadida ba'zi bir ilmiy izlanishlar olib bordik.

Biz tasviriy san'atga oid atamalar va tushunchalarni rus tilidan tarjima qilingan adabiyotlar hamda turli metodik jurnal va ro'znomalardan olishga harakat qilamiz. So'nggi yillarda nashr qilingan metodik tavsianomalar, qo'llanmalar va adabiyotlarda qo'llanilgan atamalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilidagi tasviriy san'at atamalarining qo'llanishida har xillik mavjud. Bu esa atama ma'nosini tushunishda anglashilmovchilikka olib keladi hamda o'quv jarayonining sifatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Kundalik tajribada tasviriy san'at so'zining o'rniga "rasm" degan atama tez-tez qo'llanadi. Lekin atamashunoslik qo'mitasi "рисунк" atamasi o'rniga "rasm" so'zini qo'llashni tavsiya etgan. Ayni paytda "репродукция", "иллюстрация", "графика", "картина" atamalarini ham "rasm yoki rasm san'ati" kabi atashadi. Atamalardagi har xillik sabablaridan biri atamalarning haqiqiy ma'nosini yaxshi bilmaslikdir.

Tasviriy san'at dars turlaridan biri "рисование с натуры" deyiladi. Shu atama "narsani o'ziga qarab rasm chizish" kabi so'zlar orqali tarjima qilingan. Mana shu atama kitoblarda turli xilda tarjima qilinib qo'llanilmoqda. Bizning fikrimizcha, **"narsaning o'ziga qarab tasvirlash"** iborasini asos sifatida qabul qilinsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Shu kabi "декоративный" so'zi "bezakli", "декоратив" deb tarjima qilinadi, "декоратив амалий сан'ат" atamaisi o'zbek tilida "bezakli" tarzida to'g'ri va o'rinli qo'llanilgan.

"Изображение" va "образ" iboralarini o'zbek tilida qo'llanishida mazmuniga ko'proq ahamiyat berilmaydi. Masalan, Navoiy tasviri "Navoiy obrazi" va h.k. "Изображение" deyilganda, asli qog'oz tekislik yuzasidagi ko'rinish tushuniladi. "Образ" atamasi esa ma'lum bir insonning badiiy tasvirini anglatadi. Xulosa qilib aytganda, tasviriy san'atning o'zbek tilidagi atamashunosligi jiddiy ishlab chiqilishi zarur.

Umumiy atamalar deyilganda ma'lum bir ma'noni anglatadigan so'zlar tushuniladi.

O'zbek tili juda ham boy tildir. Bir so'zning bir necha ma'nosi bo'lishi mumkin. Lekin bu ma'nolarning hammasi ham ma'lum bir xil tushunchalarni anglata olmaydi. Shuning uchun ham bir xulosaga kelib, mazmun jihatdan to'g'ri va mos keladiganini tanlab olish kerak.

Masalan, narsalar guruhini qog'ozga to'g'ri joylashtirish "компановка" deyiladi. Lekin dars jarayonida bu atamani qo'llaganimizda, o'quvchilar hamma vaqt ham o'zlashtira olmaydilar. Shu bois bu tushunchani **"joylashtirish"** deb qabul qilsak maqsadga muvofiq. Shu kabi "построение" iborasi ham amalda tez-tez qo'llaniladi. Bu ibora narsaning ko'rinishini qog'oz yuzasida yaqqol tasvirlash, qurilish tushunchasini anglatadi. Shuning uchun **"qurilish"** so'zi o'rinlidir.

O'zbek tilidagi tasviriy san'atga oid adabiyotlarda ayrim iboralar ikki tilda ham bir vaqtning o'zida qo'llaniladi: avval o'zbek tilidagi nomi, so'ngra qavs ichida rus tilidagi nomi yoki aksincha. Masalan, rangtasvir (живопись) yoki живопись (rangtasvir), me'morlik (arxitektura) yoki arxitektura (me'morlik) va boshqalar.

"Графика" xalqaro atama bo'lib, grekcha "grafo" yozaman, rasm chizaman degan ma'noni anglatadi, shu qatorda "акварель" ham xalqaro atama, lotincha "agua" (suv), ya'ni suvbo'yoq deganidir. "Композиция" so'zi ham lotin tilidan olingan bo'lib, "compositio" – yaratish, tuzish bir-biriga ma'lum tartibda joylashtirish, solishtirish va birlashtirishni anglatadi. Arab tilida esa tarkib ma'nosini beradi. Shu qatorda "натюрморт", "перспектива", "портрет" kabi atamalar ham lotin, fransuz tillaridan olingan bo'lib, xalqaro atamalar hisoblanadi.

Shuning uchun har bir atamani ham tarjima qilib bo'lmaydi. Bulardan tashqari o'zbek tiliga tarjima qilingan atamalar ham bor. Masalan, рисунок, живопись so'zlari

qalamtasvir va rangtasvir kabi sinonim soʻzlar bilan tarjima qilingan holda ishlatilmoqda. “Воздушная перспектива” “havoiiy perspektiva” deb tarjima qilingan.

Dars jarayonida ayrim atamalar rus va oʻzbek tillarida qoʻllaniladi. Masalan, gorizontal chizigʻi yoki ufq chizigʻi, chizma geometriya darslarida gorizontal chizigʻi soʻzi ishlatiladi, tasviriy sanʼat darslarida ufq chizigʻi degan atama toʻgʻri keladi.

Oʻqituvchilar dars jarayonida asarlarni tahlil qilishda turli xil tasviriy sanʼat atamalaridan bevosita foydalanadilar. Ayrim oʻqituvchilar esa rus tilidagi “передний план”, “средний план”, “дальний план” kabi atamalarni birinchi plan, ikkinchi plan, uchinchi plan deyishadi. Bu soʻzlar maʼnoni toʻla yoritib bermoqchi. Plan oʻzbek tilida reja degan maʼnoni bildiradi. Agarda toʻgʻridan-toʻgʻri tarjima qilib ishlatilsa – birinchi reja, ikkinchi reja, uchinchi reja deyiladi. Shuning uchun tasviriy sanʼat asarlarini tahlil qilishda oʻquvchilarga tushunarli boʻlishi uchun atamalarni mazmuniga mos tarjima qilish maqsadga muvofiqdir. Tajribali tasviriy sanʼat oʻqituvchilari bu atamalarni – “old koʻrinish”, “oʻrta koʻrinish”, “uzoq (olis)dagi koʻrinish” yoki “orqa koʻrinish” deb qoʻllashadi.

“Tabiat koʻrinishi”, “пейзаж” (manzara) atamaları bir-biriga yaqin, ammo ikkalasi ham ikki xil maʼnoli atama. Tabiat koʻrinishi – biz koʻrish va sezgi qobiliyatimiz orqali qabul qiladigan real voqelik boʻlsa, manzara shu koʻrinishning badiiiy tasviridir.

Tasviriy sanʼatni oʻrganish jarayonida oʻquvchilar ayrim qiyinchiliklarga duch keladi.

Bular quyidagi sabablar bilan bogʻliqdir:

- umumtaʼlim maktablar tasviriy sanʼat darsliklari bilan toʻliq taʼminlanmagan;
- hozirgi kunda maktab oʻquvchilari dars jarayonida atamalar mazmunini chuqur anglamaydi;
- tasviriy sanʼatni oʻrgatish boʻyicha metodik qoʻllanma va tavsiyalar juda ham kam;
- pedagogika kollejlari, oliy taʼlimning oʻquv jarayonlarida atamalardan unumli foydalanilmaydi;
- rassom-oʻqituvchilarni tayyorlaydigan oliy oʻquv yurtlarining oʻqituvchilari har biri oʻz holicha atamalar tuzishadi. Bu esa betartiblikka va noaniqlikka olib boradi.

Oʻzbek tiliga oʻgirilgan tasviriy sanʼat atamalarining har xilligiga quyidagi sabablarni keltirish mumkin:

1. Mutaxassis tarjimon boʻlmaganligi atamalarining shakl va mazmuni buzilishiga olib keladi.
2. Hozirgi tasviriy sanʼatning oʻzbek tilidagi atamashunosligi bir tushunchaga nisbatan bir necha nomligi qoʻllaniladi.
3. Atamalarining har xilligi tasviriy sanʼatning oʻzbek tilidagi izohli lugʻati mavjud emasligiga bogʻliqdir.

Tasviriy sanʼatning oʻzbek tilidagi atamashunosligini tartibga keltirish va izoh berish borasida oʻzbek tilining oʻziga xos xususiyatlari bilan atamashunosligining umumiy jarayonlaridan quyidagilarni qoʻllash zarur:

1. Rus tiliga tarjimasiz oʻtkazilgan baynalminal atamalarni oʻzbek tiliga ham tarjimasiz oʻtkazish zarur. Masalan, akvarel, asimmetriya, vitraj, galereya, gravyura, mozaika, ofort, panno, pastel, simmetriya, statuya, faktura, fon, estamp, eksteryer, etyud va boshqalar.

2. Baʼzan rus tilidagi atamaning oʻrnini bosuvchi atama topilmasa, shu atamani tarjima qilmasdan aslini, oʻzini qoldirish oʻrinlidir. Masalan, palitra, axromatik, xromatik, applikasiya, janr, illyustratsiya, xolst va boshqalar.

3. O'zbek tilidagi tasviriy san'at atamalarini tuzishda tilimizning ichki imkoniyatlari-dan to'liq foydalanish zarur. Ba'zan rus tilidagi bir so'zlik ibora ma'nosini o'zbek tilidagi bir so'z bilan yetkazib berish qiyin. Shuning uchun ikki so'zni chiziqli bilan yozish shart. Masalan, контраст – qarama-qarshilik, светотень – yorug'-soya, блеск – yaltiroq-dog', бюст – gavda-haykal va h.k.

4. Atamalarni rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda iloji boricha ichki shaklni saqlash zarur. Masalan, rus tilidagi “орнамент” atamasi faqatgina “gul” ma'nosini bildiradi. O'zbek tilida esa bu ma'no “naqsh” iborasida qo'llanilayapti. To'g'rirog'i, “орнамент” atamasini “o'yma naqsh” yoki “o'ymagul” tarzida tarjima qilish zarur. “Живопись” atamaisining ma'nosi “tirik, jonli” va “yozish” tushunchalarini bildiradi. Tahlil qilib qarasak, jonli yozish bilan rangli tasvirlash iboralari orasida uzoqlik borligi ma'lum bo'lib turibdi. Shu kabi ikki shakl mazmunini qoldirgan holda tarjima qilib “rang-tasvir” iborasi qo'llanilmoqda.

5. Atamalar bilan birgalikda tasviriy san'at asarlari nomlarini ham to'g'ridan to'g'ri emas, balki mazmuniga ko'ra tarjima qilish zarurdir. Masalan, рельеф – bo'rtma yuz, барельеф – past bo'rtma, горельеф – baland bo'rtma. Yuqorida qayd qilingan qoidalar tasviriy san'at atamalarini izohlashda qo'llanildi.

Tasviriy san'at atamalarining izohli lug'atini tuzishda atamalarni tarjima qilish, atamalarni tuzish qoidalari qator lingvistik tahlillarga asoslaniladi.

O'quvchilarning tasviriy san'atga oid bilim savodxonligini o'zlashtirishda san'at tushunchalarini o'rgatishning ahamiyati katta. Tasviriy san'at iboralarini o'quvchilarga o'rgatish uchun atamalarni spetsifik xususiyatlariga ko'ra bir necha guruhga ajratamiz.

Rangtasvirga oid atamalar: akvarel, grizayl, axromatik, blik (shu'la), garmoniya, kontrast, nusxa, refleks, panno, palitra, manzara, yorug'-soya, tus, tempera, faktura, kolorit, fon, freska, yorug', eskiz, ranglavha (etyud), xolst, monumental, rangtasvir, mozaika, vitraj.

Grafikaga oid atamalar: avtogravyura, kitob grafikasi, titul, frontispis, shmustitul, forzats, shtrix, kontur, sharj, ksilografiya, linogravyura, sgraffito, ottisk, rasm, plakat, siluet, estamp, emblema, ekslibris.

Haykaltaroshlikka oid atamalar: baland bo'rtma, bo'rtma, past bo'rtma, keramika, monumental haykal, obelisk, byust, yodgorlik, profil, simmetriya, haykaltaroshlik, haykal, statuya, sfinks.

Bezakli amaliy san'atga oid atamalar: asimmetriya, afisha, glazur, gobelen, bezakli san'at, bezatuvchi, sahna bezagi, naqsh, ganchkorlik, o'ymakorlik, simvol (nishon), faktura, eskiz, eksteryer, interyer, transporant, trafaret, simmetriya, keramika, fayans, kashtachilik.

Kompozitsiyaga oid atamalar: garmoniya, kontrast, kontur, nusxa, xomaki rasm, o'lcham, format, proportsiya (nisbat), simvol, simmetriya, joylashtirish, ritm, perspektiva, chiziqli, nuqta, dog', ufq, old ko'rinishi, o'rta ko'rinishi, orqa ko'rinishi, ko'rish markazi, dinamik kompozitsiya, stilistik kompozitsiya.

San'at tarixiga oid atamalar: antik san'at, qadimgi dunyo san'ati, arka-da, vandalizm, uyg'onish davri san'ati, rus san'ati, o'zbek tasviriy san'ati, bezakli amaliy san'at, badiiy san'at, kapitel, klassik, statuya, sfinks, freska, abstraksionizm, modernizm, avangard san'ati, fovizm, kubizm, futurizm, syurrealizm, pop-art, op-art.

Yorug'-soya va ranglarga oid atamalar: rangtasvir, yorug'lik, soya, tus, yaltiroq, dog', shaxsiy soya, tushuvchi soya, yarim soya, tus munosabati, ranglar nisbati, kontrast (qarama-qarshilik), kolorit.

Tasvirlash vositalariga oid atamalar: trafaret, mo'yqalam, tempera, akvarel bo'yoq, moybo'yoq, xolst, plakat perosi, tush, guash, pastel, flomaster, format, vatman, stek, mastixin, etyudnik, palitra va h.k.

O'quv mashg'ulotlariga oid atamalar: narsaning o'ziga qarab tasvirlash, mavzu asosida rasm ishlash, bezakli rasm ishlash, haykaltaroshlik, badiiy qurish-yasash, rangtasvir, kompozitsiya, rangshunoslik, tasviriy san'at haqida suhbat, borliqni va san'atni idrok etish.

Tasviriy san'at turlari va janrlariga oid atamalar: rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, bezakli amaliy san'at, me'morlik, animalistik janr, manzara, natyurmort, maishiy janr, batal janri, tarixiy janr.

Rassomlarga oid atamalar: animalist, akvarelchi, batalist, grafik, rangtasvirchi, bezakchi, marinist, ganchkor, naqqosh, portretchi, haykaltarosh, sahna bezovchi, san'atshunos, dizayner, kulol, moderyer, modellashuvchi.

Bunday tartibda atamalarni guruhlash o'quvchilar uchun yengillik tug'diradi. Ayrim atamalar bog'liqlikda qo'llaniladi, ayrimlari esa barcha turlarida foydalaniladi: misol, kompozitsiyaga oid: "kompozitsiya", "joylashtirish", simmetriya, ritm, proportsiya h.k. tez-tez qo'llanadigan atamalardir.

Dars jarayonida yangi iboralarini tushuntirish bilan bir qatorda yangi atamalarni rasm daftariga yozdirib borish maqsadga muvofiqdir. Ta'lim berish jarayoni natijasida o'quvchilarning so'z boyligi rivojlanib, tasviriy san'atning qisqacha izohli iboralarini yig'iladi. Bu esa hozirgi maktab o'quvchilari uchun juda ham foydali. Sababi, tajriba shuni ko'rsatadiki, rasmni ko'ngildagiday chizadigan o'quvchilar ko'plab atamalar izohini bilishmaydi. Masalan, reproduksiya, illyustratsiya kabi atamalarni farqlay olmaydi. Shu borada o'z fikrlarini tushuntirishga so'z boyligi yetishmaydi. Bular, ayniqsa, tasviriy san'at asarlari bilan tanishtiradigan suhbat darslarida tez-tez kuzatiladi.

O'quvchilar so'z boyligini kengaytirish, g'oyaviy, badiiy-estetik dunyoqarashini shakllantirish, tasviriy san'at iboralarini o'zlashtirish masalalarini yechishda izohli lug'atlarning foydasi juda katta. Lekin hozirgi kunda maktablar uchun tasviriy san'atga oid izohli lug'at yaratilmagan. Bu kabi masalalarni hal qilish mutaxassislar oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. O'ylaymizki, mazkur maqola shu borada qo'yilgan dastlabki qadam bo'ladi.

Tasviriy san'atni o'rgatish jarayonida boshqa tillardan o'zlashgan atamalarni o'quvchilarga tushuntirish muhim o'rin tutadi. Tasviriy san'at atamalarining asosiy ma'nosini izohlash ta'limotini etimologiya deb atashadi. Tasviriy san'atdagi ko'pchilik atamalar chet tillardan olingan. Shuning uchun atamalarining ma'nosini o'quvchilar mustaqil ravishda o'zlashtira olmaydi. Shu sababli dars jarayonida atamalarining ma'nosini tahlil qilish zarurdir.

O'qituvchilar tasviriy san'atga oid atamalarni qaysi tillardan kirib kelganini chuqur o'zlashtirsa, san'at asarlarini mustaqil tahlil qilib, o'z tushunchalarini ifodalashda qiynalmaydilar.

Har bir atama biron-bir tushunchani anglatadi. Uning etimologik tahlili san'atni va borliqni idrok etish jarayonida san'at tushunchalarini o'zlashtirishda yordam beradi.

Etimologiya so'zi grekcha "etimon" to'g'ri, so'zning asosiy ma'nosi va "logos" ta'limot degan so'zlardan tuzilgan.

Atamalarni etimologik tahlil qilish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- a) atamaning ma'nosini izohlab berish;
- b) so'zning tarixiy paydo bo'lishi to'g'risida ma'lumot;

d) atamaning xorijiy va o'zbek tilidagi ma'nosini ochib berish.

Tasviriy san'at atamalarining tahlili quyidagicha bo'lgani maqsadga muvofiq. Akvarel lotincha "adia" ("suv" so'zidan olingan, suv bilan suyultirib ishlatiladigan bo'yoqlar ma'nosini anglatadi va shu bo'yoq bilan tasvirlangan asarlarni "akvarel" deyiladi.

Animalist – hayvon va qushlarning rasmini tasvirlash bilan shug'ullanadigan rassom. Bu atama lotincha "animal" (hayvonot) so'zidan olingan.

Vitraj – turli rangdagi shisha oyna bilan derazalarga naqsh yoki tasvir ishlash. Fransuzcha "vitre" so'zidan olingan bo'lib, "deraza shishasi" ma'nosini anglatadi.

Gravyura – fransuzcha "graver" so'zidan olingan. Biron-bir buyumni o'yish, naqsh berish ma'nosini bildiradi.

Grafika – oddiy qora qalamda, tushda biron-bir buyumning qog'oz yuziga tushirilgan tasviri. Lotincha "gafo" so'zidan olingan bo'lib, "yozaman", "rasm chizaman" degan ma'noni anglatadi.

Interyer – uyning ichki ko'rinishi. Fransuzcha "ichki" degan ma'noni bildiradi. Kompozitsiya deganda badiiy asardagi obrazlar va badiiy vositalarning muayyan g'oyaviy maqsadga xizmat qiladigan tartibda joylashishi va ularning muvofiqligini tushunamiz.

Kompozitsiya lotincha "kompositio" so'zidan olingan bo'lib, "tuzilish", "qurilish" degan ma'noni bildiradi.

Marinist – dengiz ko'rinishlarini tasvirlovchi rassom. Bu marinus (dengiz) degan so'zdan olingan.

Naturmort – kundalik turmushdagi turli buyumlar, sabzavot va mevalar, gullar, hayvon va qushlar tasvirlangan asarlardir. "Naturmort" fransuzcha so'z bo'lib, "jonsiz tabiat" degan ma'noni anglatadi.

Proportsiya – buyumlarning o'zaro nisbati o'lchamlarini (munosabatini) bildiradi. U lotincha "proportio" bo'lib, "nisbat" degan ma'noni anglatadi.

Siluet – biron bir narsaga yorug'lik tushish orqali paydo bo'lgan soya ko'rinishidagi tasviri. Fransuz Eten de Siluet degan insonning ismidan olingan.

Freska – suvoq qilingan devor ustiga to'g'ridan-to'g'ri ezilgan bo'yoqlar bilan ishlangan tasvir. U Italyan xalqining "fresko" so'zi bo'lib, "yangi ishlangan" degan ma'noni bildiradi.

O'qituvchi dars berish jarayonida qo'llanadigan atamalar ma'nosini yorituvchi ko'rgazmali qurollarni sinf taxtasiga osib qo'yadi. Tushunish murakkab bo'lgan ayrim atamalar, masalan, "perspektiva" kabi tushunchani sinf taxtasida qo'shimcha rasmlarni bo'r bilan chizib ko'rsatish talab qilinadi.

Tahlil qilish jarayonida tarixiy ma'lumotlardan foydalanish ham samara beradi. Masalan, impressionistlar to'g'risida fikr yuritganda, XIX asrning ikkinchi yarmida Fransiya o'z tasvirlash uslubiga ega bo'lgan rassomlar oqimi paydo bo'ldi, ular odatdagi rasmlarni ustaxonada emas, balki tabiat qo'ynida, olgan his-tuyg'u va taassurotlarini bevosita aks ettirishga harakat qilishdi. Xuddi shu rassomlar asarlarining Parijdagi ilk ko'rgazmasida ularga "impressionist"lar degan nom berishdi. Fransuzcha "impression" so'zi – "his-tuyg'u, taassurot" degan ma'noni bildiradi. Atamalarining paydo bo'lishiga o'qituvchining mazmunli suhbat o'quvchilarda badiiy bilim tushunchalari shakllanishiga yordam beradi.

"Siluet" tushunchasining izohi. "Siluet" atamasi odam ismi bilan bog'liq holda paydo bo'lgan. Eten de Siluet ismli kishi XVIII asrda Fransiya moliya vaziri bo'lgan. O'sha davrdagi bir rassom vazirning rasmini chizadi. Rasmda odam tasviri odatdagidek emas, balki soya sifatida qora bo'yoq bilan chizilgan. Shu vaqtdan boshlab

rasm chizishning ana shu uslubini “siluet”, ya’ni vazirning ismi bilan nomlashgan.

Avangardizm – (fransuzcha “avantgardisme” bo’lib, “avant” – yetakchi, va “garde” – otryad so’zidan kelib chiqqan) tajribali oqimlarning, maktab konsepsiyasi, g’oyalar, XX asrdagi alohida rassomlar ijodi, umuman, yangi san’atning keyingi maqsadini yaratish, ularning hammasini umumlashtirilgan nomlanishiga aytiladi. Avangardizm – bu tarixiy an’analardan voz kechib, san’atda yangi usuldagi shakllar va yo’llarni izlab topib, sinab ko’rish. Akademizmga qarama-qarshilik tushunchasidir. Lekin avangardizm ham o’zining tarixiga ega bo’lib, modern davri san’atdan kelib chiqqan. Bu tushunchaning etimologiyasini kengroq olsak “yetakchi otryad, maqsadiga erishish uchun o’z-o’ziga jabr qilishga ham tayyor” deganidir.

Mana shunday atamalarni tahlil qilish borasida kerakli suhbatlar o’quvchilarning qiziqishini o’stirib, dunyoqarashini kengaytiradi.

Tasviriy san’at darslarida o’qituvchilar amaliy ish bilan bir qatorda nazariy bilimlarni ham o’zlashtirishi lozimdir. Tasviriy san’atning nazariy asosi bo’lgan o’ziga xos tushuncha va atamalar majmuasi mavjud. Hozirgi kundagi asosiy vazifalardan biri, bu mavjud atamalarni to’g’ri o’qitishdan iborat.

O’tkazilayotgan tajribalar shuni ko’rsatadiki, rasmlarni haqqoniy tasvirlay oladigan o’quvchilar ko’pgina atamalarning izohini chuqur bilmaydilar. Masalan: “репродукция”, “иллюстрация” kabin atamalar farqini to’g’ri izohlab berolmaydilar. Buning uchun u mustaqil tinmay o’qishi, o’rganishi va ishlashi lozim. Bu kabi atamalar-tasviriy san’atning suhbat darslarida tez-tez uchrab turadi. O’qituvchining o’zi ham dars jarayonida bu kabi atamalarni puxta tahlil etishi maqsadga muvofiqdir.

Ayrim maktablarda pedagogik amaliyot o’tkazish jarayonida tasviriy san’at mashg’ulotlarida uchraydigan atamalarni qo’llash va ularni chuqur o’zlashtirish yuzasidan ayrim tajribalar o’tkazildi. Masalan, “kitob grafikasi va illyustratsiyasi” mavzusida suhbat o’tkazilganda o’quvchilar kitob haqida keng fikrga ega bo’ladilar. O’qituvchi 5-sinf uchun “Rasmlarda Vatan tarixi” (A.Mahkamov, H.Sodiqov), T. Mahmudovning “Abdulhaq Abdullayev” nomli kitoblaridan samarali foydalanib, o’quvchilarni tanishtirdi. Qadimda kitob muqovasi teri va temirdan ishlanganligi o’quvchilarga tushuntirildi. Qattiq muqovani ustki qismi qog’ozdan tayyorlangan bezakli ust muqova bilan qoplangan, buni “supermuqova” deyiladi. Ustmuqova bezakli bo’lib, o’z mazmuniga mos tasvirlar chiziladi, muallifning ismi sharifi va kitobning nomi ham yoziladi. Masalan: T. Mahmudovning “Abdulhaq Abdullaev” nomli kitobining supermuqovasi shu tarzda bezatilgan. O’quvchilarga kitobning supermuqovasini ko’rsatib, uning chapki bet tomoni ichki beti bo’lishi, kitobning ichki o’ng tomoni esa birinchi betlardan hisoblanishi tushuntiriladi. Bu betni “forzas” deyiladi. Forzas kitobning so’nggida ham bo’ladi. Ayrim paytlarda op-poq qog’oz turida yoki turli rangda bo’lishi ham mumkin. Kitoblardagi forzas betlarida mazmuniga mos rasmlar ham tasvirlangan bo’ladi.

Kitobni varaqlaymiz. Chap tomonidagi varaqda naqshlangan bezaklar tasvirlanadi va u “frontispis” deyiladi. “Frontispis” – kitobdagi eng mazmunli g’oyaning illyustratsiyasi yoki reproduksiyasi. Illyustratsiya bu ma’lum bir mavzuga ishlangan oq qora tuslardagi grafikaviy-badiiy asar. Ular ko’pincha tush bilan bajariladi. Reproduksiya esa – ma’lum tasviriy san’at asarlaridan chop etilgan nusxasi. Masalan, T. Mahmudovning “Abdulhaq Abdullayev” nomli kitobini frontispis betida san’at asarining reproduksiyasi berilgan. Shu kitob betida rassomning portreti tasvirlangan. Titul varag’ida esa kitobning nomi, muallifning ismi sharifi, pastki qismida nashriyoti, shahri, chop etilgan yili yoziladi.

Agarda kitob bir necha bo'limlardan iborat bo'lsa, har bir bo'limlar oldida uning sarlavhasi raqami hamda rasmi tasvirlangan varaq bo'ladi. Bunday varaq betini – “shmustitul” deyiladi. Kitob matni boshlanishi yoki har bo'limning oldidan qo'yiladigan naqshli yoki syujetli rasmni “zastavka” – **bosh bezak** deyiladi, shu bo'limning so'nggida qo'llaniladigan badiiy bezaklar esa “konsovka” – **“so'nggi bezak”** deyiladi.

Kitob illyustratsiyalar bilan bezatiladi. Shu ishlarni bajaradigan badiiy rassomni “rassomchi – illyustrator” deyiladi. Kitobdagi rasmlar ham dastgohli asar kabi ijodiy asarlar qatoriga kiradi. Kitobni badiiy illyustratsiyalashda uning estetik salmog'ini ko'tarish va muallifning fikrini o'quvchilarga yetkazishdir. J.Umarbekovning “Alpomish”, T.Sa'dullayevning “Go'ro'g'li” dostonlariga ishlangan illyustratsiyalar bunga misol bo'la oladi.

Kitob grafikasi to'g'risida tushuncha berilgandan keyin, o'quvchilarga o'zlari sevib o'qigan badiiy adabiyotlarning muqovasini tasavvurdan chizdiriladi. Bu ish jarayonini bir necha bosqichlarga bo'lib o'tkaziladi.

Birinchi bosqichda kitob eskizlarining bir necha variantlari ishlab chiqiladi. O'quvchilarga qog'oz yuzasida har bir tasvirni to'g'ri joylashtirishda yordam beriladi, yozuv shriftlarining turlari yodlariga tushiriladi.

Ikkinchi bosqichda tanlangan variant asosida ko'rinishlarni rasm qog'ozlariga kattaroq qilib chizdiriladi. Rasmlar va shriftlarni bir-biriga bog'liq bo'lishi o'quvchilarga tushuntiriladi.

Uchinchi bosqichda esa tasvirlar bo'yoq bilan bo'yaladi.

Dars jarayonida yangi iboralar tahlil etiladi va ularni rasm daftarlariga yozdirilib boriladi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning so'z boyligi ham rivojlanib, ularda tasviriy san'atning qisqacha izohli iboralari yigiladi. Bu esa o'quvchilarga juda ham zarur va ular ham nazariy, ham amaliy bilimlarini boyitib boradilar. Chunki tajriba shuni ko'rsatadiki, ko'pgina o'quvchilar bilimini tekshirganda rasmni ko'ngildagidek chizadigan o'quvchilar zarur atamalar izohini bilishmaydi.

Xulosa qilganda, so'nggi yillarda nashr qilingan metodik adabiyotlarda o'zbek tilidagi tasviriy san'at atamalarining qo'llanilishida har xillik mavjud. Bu ahvol esa atama ma'nosini tushunishda anglashilmovchilikka olib keladi.

Foydalanigan adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev I. *O'zbek kitobchilik atamaologiyasi*. –T.: “Fan”, 2004.
2. Abdirasilov S. *Tasviriy san'at atamalari*. –T.: TDPU, 2003.
3. Сокольникова Н.М. *“Краткий словарь художественных терминов”*. Обнинск: 1998.
4. *Энциклопедический словарь юного художника*, Платонова Н.И., Синюков В.Д. – М.: Педагогика. 1993.

Nargiza HASANOVA,

K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA BADIY TA'LIM USLUBIDAN FOYDALANISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada badiiy ta'lim jarayonida hozirgi kunda dolzarblik kasb etayotgan realistik badiiy maktab tushunchasi ilmiy tahlil etilgan. Shuningdek, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar. Badiiy ta'lim, badiiy maktab, tendensiya chizmatasvir, rangtasvir, kompozitsiya, ta'lim metodikasi, ilmiy tahlil, tasviriy san'at.

В статье рассмотрена сущность ставшей в последние годы актуальной в мире реалистической школы художественного образования. Проанализированы с теоретических позиций вопросы подготовки высококвалифицированных специалистов в данной области.

Ключевые слова. Художественное образование, художественная школа, тенденция, оформитель, живопись, композиция, методика обучения, научный анализ, изобразительное искусство.

Conception of realistic art school as an important issue of the day has been scientifically analyzed in the article. Moreover, the author investigates high skilled specialist training.

Key words. Art education, art school, realistic, academic, methodology of art education, theoretical bases, scientific analysis, formation of creative person, high professionalism.

Badiiy oliy ta'lim (K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti va yurtimizdagi pedagogik yo'nalishdagi institut va universitetlar) tizimida badiiy savodxonlikning nazariy asoslari mavjud an'ana doirasida yuzaki amaliy mashg'ulotlar mobaynida qisqagina ma'ruza yoki suhbat tarzida yuritib kelingan. Ushbu ma'ruzalar ko'p hollarda mutaxassislik fanlari o'qituvchilari o'zlari anglagan darajada ta'lim sohalari nazariy jihatlar doirasida olib borilardi. Oqibatda badiiy savodxonlikning nazariy asoslari o'quv kursi yuqorida ko'rsatilganlar bilan cheklanib qolmoqda. Vaholanki, bo'lg'usi rassom badiiy ta'lim mobaynida tasviriy san'atga doir ashyolar, plastik anatomiya, havo va chiziqli perspektiva, kompozitsiya hamda ayrim ixtisosliklarda loyihalashga doir bilimlar egallashi lozimligi belgilangan.

Ta'lim mobaynida talaba akademik badiiy ta'lim qonun-qoidalari va nazariy asoslari, jism va jussalarning konstruktiv tizimi qonuniyatlari, yorug', soyalar, rang-shunoslik, kompozitsiya (loyihalash) qonun va qoidalarini o'ziga singdirgan holda ijodiy faoliyatida foydalanishi va ko'nikmalar tarzida ularni o'zida shakllantirishi

talab etiladi. Naturani badiiy ko'rish va analiz qila bilish ko'nikmasi, o'z o'quv topshirig'ini natura bilan solishtirgan holda tasvirlashi, shu bilan bir qatorda, uzoq va qisqa muddatli ish jarayonini bajarish ko'nikmasini egallashi hamda yaxlitlikdan detallarga, detallardan yaxlitlik tariqasida ish jarayonini yurita bilishi kerak. Bundan tashqari yosh rassomdan badiiy ijodiyotning muhim bir jihati bo'lgan tasvirlanayotgan insonning psixologik holati, hissiyoti, kayfiyati va fikr doirasida, qahramonning psixologik dunyosini ko'rsata bilishi talab etiladi. Badiiy ta'lim metodikasida maqsadlarni asta-sekin murakkablasha borishi va har bir vazifani mukammal ochib berilishi, ya'ni qanday boshlash, so'ngra nima ishlarni bajarish va qanday tugallashni o'rganishning ahamiyati beqiyos. Bunda aytilganlar o'quv jarayonining barcha davrlarida ahamiyat kasb etadi.

Rassom uchun professional mahorat ko'nikmalarini egallashi badiiy ta'lim oldiga qo'yilgan talablarning asosiysi, ammo bu jarayonda, shubhasiz, iqtidorning ahamiyati muhimdir. Badiiy ta'limda professional faoliyat bilan shug'ullanishdagi muvaffaqiyat, avvalo, iqtidorni rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Tasviriy san'atga kirib kelayotgan innovatsiyalarni badiiy ta'limda muvaffaqiyatli joriy etilishi, an'analar, tarixiy tajribasi va tasviriy san'at pedagogikasi asosiy yo'nalishlarining muntazam rivoji va yangilanib borilishi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

– bo'lajak san'atkor badiiy ijodning tasviriy san'atga xos yo'nalishlari, amaliy san'at va dizayn sohalarida ijod qilmasin uning professional darajada realistik tasvir ko'nikmalarini (chizmatasvir, rangtasvir, kompozitsiya asoslari) egallashi, ya'ni dastgohli rangtasvir vositasida ijodiylikni shakllantirishda talab etiladigan sifatlarni o'zlashtirishi zarur.

Amaliy san'at va dizayn sohalarida umumkasbiy hisoblangan chizmatasvir va rangtasvir ta'lim xususiyatlarini inobatga olmaslikning ham iloji yo'q.

Bu haqda K.B. Oqilova: “Xalq amaliy san'ati estetikasining prinsipial darajasi mohiyatini anglamaslik badiiy hunarmandchilik asarlarini yaratish jarayoniga salbiy ta'sir etishi nafaqat badiiy ishlab chiqarish sohalar, balki badiiy ta'limga ham o'z ta'sirini ko'rsatib keldi.

Ular maxsus fanlardagi an'ana, shartlilik, bezaklilik va ularning texnologiyasi singari akademik hisoblangan chizmatasvir, rangtasvirda uch o'lchamlilik doirasida fikrlash zaruriyati, undagi tekis yuza xususiyatlari yosh talabalarga atrof-muhit va soha xususiyatlari borasida ikkilanish keltirib chiqarmoqda. Obrazlilik ifodasining bir ko'rinishidan ikkinchi ko'rinishiga bo'lgan e'tibor yoshlardagi anglash xususiyatlariga og'irlik qilmoqda”, deb yozadi.

Bunday anglashilmovchiliklar hozirgi kunda ham saqlanib qolmoqda. Yuqorida ta'kidlangan fikrlar nafaqat xalq amaliy san'ati, balki dekorativ amaliy san'at va dizayn sohalarida umumkasbiy hisoblangan chizmatasvir va rangtasvirning o'qitish metodikasiga ham taalluqli.

Bu haqida L. Rempel: “Dekorativ san'at o'z qonuniyatiga ega, undagi tasvir elementlari tasviriy bo'lmagan elemenlarga moslashtiriladi. Tekis yuzalar asosidagi san'atlar sintezi sharq o'rta asrlar san'atining yetakchi prinsipi hisoblanadi...” deydi.

Darhaqiqat, amaliy sohalarida K.Oqilova ta'kidlaganidek, chizmatasvir va rangtasvir fanlari dasturlari ushbu soha ta'limi metodik talablari asosidagi xususiyatlarini inobatga olgan holda yangi o'quv dasturlarini tayyorlanishi zaruriyati maqsadga

muvofig ekanligi shubhasiz. Sohalar xususiyatlariga mos tarzda chizmatasvir va rangtasvir fanlari o'quv topshiriqlarining shakl ifodalarida ma'lum darajadagi shartlilik va dekorativlikka xoslik va shunga mos tarzda tasvirlar adekvat bo'lmagan nisbiy shakl hamda nisbiy chuqurlik doirasida shakllantirilishi ta'lim sohaları metodik asoslari darajasini ta'minlagan bo'lar edi. Unda hamdo'stlik mamlakatlarining ushbu fanlarni o'qitishdagi tajribalarini o'rganish ham foydadan xoli emas.

Shu ma'noda rangtasvir tasviriy san'at ixtisosliklari ta'lim standartlari va dasturlari hamda dekorativ amaliy san'at va dizayn sohalar uchun ham uning xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim me'yoriy hujjatlariga asos sifatida xizmat qilgan.

K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti va yurtimizdagi pedagogik yo'nalishdagi institut va universitetlardagi o'quv jarayoni mobaynida talabalar badiiy ta'limning metodikasi va nazariyasini chuqur egallagan ijodkor shaxslar bo'lib yetishishlari talab etiladi. Demak, jamiyat hayotida kechayotgan o'zgarishlar va shunga muvofiq professional ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar badiiy ta'lim metodikasini chetlab o'ta olmaydi. Tasviriy san'atning kontseptual asoslariga qarashlar qamrovi kengligi, ularning san'atkorlar, san'atshunos-pedagoglari tomonidan tahlil etilishidagi turlilik ilmiylikka bo'lgan e'tiborni ko'proq talab etadi. Hozirgi kunda amalda bo'lgan chizmatasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlari nazariy asoslari namunaviy o'quv rejada qayd etilmagan. Mashg'ulotlar amaliy faoliyat doirasida bajariladi. Badiiy ta'limda ta'lim samaradorligini yangi pog'onaga ko'tarishda muhim bo'lgan tasviriy san'atning nazariy asoslarini o'quv rejasiga kiritish va shunga mos tarzda dasturlarini yaratish har bir tematik bloklar doirasida ma'ruzalar vositasida nafaqat badiiy mahorat, balki talabalarning nazariy malakalarini oshirib borishda muhim ahamiyat kasb etgan bo'lar edi.

Uyg'onish davrining buyuk rassomi Leonardo da Vinchi ham bu san'at haqida yanada aniqroq qilib shunday degan edi: "Rangtasvir o'zining ilmga xosligi jihatidan barcha san'atlar ichida unga fan sifatida atalish huquqini beradi...

Shu bilan bir qatorda san'at matematika ham emas. Agar fan (matematika) bu bilim bo'lsa, san'at – amaliy ko'nikma. Fanlar o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi mumkin. Amaliy ko'nikmaga asoslangan rangtasvirni shunday osonlik bilan o'zlashtirish mumkin emas. Kimga tabiatan rangtasvirda iste'dod ato etilmagan bo'lsa, u rangtasvirni egallay olmaydi".

Taniqli rassomning aytganlari akademik ta'limga xosligi jihatidan badiiy maktab asrlar mobaynida shakllangan an'ana, akademik ta'lim dasturi va uslubiyati, metodik yo'nalish va yuzaga chiqayotgan tendensiyalar bois kelajakda akademik ta'lim mavqei yanada oshishidan dalolat beradi. Shu ma'noda "Fanda bilim egallash passiv taqlidiy bo'lsa, san'atlarda izchillik, binobarin, ijodning asosini shaxsiylik belgilaydi. Fan uchun esa, sifat tushunchasi begona", deydi Leonardo da Vinchi.

San'atlar rivoji badiiy maktab singdiradigan bilim, ko'nikma va mahorat darajasi bilan bog'liq. Uning barqarorligi u yoki bu yo'nalishlarga xos bo'lgan san'atkor shakllanadigan badiiy maktab rivoji bilan bog'liq. Yo'nalishlar maqsadlari aniq va tiniqligi badiiy maktab o'zida shakllantirgan zamonga xos ekanligida namoyon bo'ladi. Agar san'at borliqni aks ettirishdagi metod sifatida tahlil etilsa, ma'lum bir rassom shaxsiyatining tarixiy ahamiyati uning o'z davri ruhiyati, g'oyalari va ushbu san'atga xos bo'lgan talablari qanchalik darajada ifoda eta olganligida ko'rinadi.

Shunday qilib mashhur rassom-pedagoglar faoliyatlariga baho berganda rassom ijodi va pedagog ijodi oralaridagi bog'liqlikni his qilish kerak. Ushbu faoliyat birinchi galda san'at asarida ifodasini topsa, ikkinchisida mazkur maktab metodi shakllanishida o'z ifodasini topadi: "U yoki bu yo'nalishdagi Badiiy maktabda ta'limning bir-biri bilan bog'liq tomonlari mavjud.

Birinchi – aniq bir bilimlar majmuasini, boshqacha aytganda, talabaga chizma-tasvir, rangtasvir, kompozitsiya yoki haykaltaroshlik ko'nikmalarini singdirsa, ikkinchi – ushbu maktabga xos san'at metodini singdiradi".

Shu ma'noda badiiy ta'lim dargohi sifatida K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti "akademik tizim" o'quv jarayonining asosi bo'lib keldi, ayni paytda asrga teng shakllangan an'analarni o'zida saqlab qola oldi. Mamlakatimizda oliy badiiy ta'lim akademik ta'lim tizimidan chetga chiqmay o'ziga xos an'analarni shakllantirib, amalga oshirib kelinmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, badiiy maktab tasviriy san'atning nafaqat bugungi taraqqiyoti, balki ertangi kuni, kelajagi uchun ham garovdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Акилова К.Б. Народное декоративно-прикладное искусство Узбекистана. XX век – Алматы.: PRINT-S, 2005. – С.54.
2. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии. – М.: Искусство, 1982. – С.14.
3. Молева Н.М. Выдающиеся русские художники-педагоги. – М.: ИАХ, 1962. – С. 6.

Hilolaxon TOJIBOYEVA,

O'zPFITI ilmiy xodimi,

Go'zal NAZIROVA,

Qo'qon Davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA UZVIYLIK TAMOIYILI ASOSIDA SIFAT VA SAMARADORLIKNI TA'MINLASH MODELI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni sifati va samaradorligini takomillashtirishga zamonaviy yondashuvlar, maktabgacha ta'limning maqsadli funksiyalari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, bolalar erishishi zarur bo'lgan shaxsiy natijalar to'g'risida tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar. Maktabgacha ta'lim, ta'lim jarayoni sifati, samaradorlik, ilmiy prinsiplar, rivojlantiruvchi funksiya, tuzatuvchi funksiya, pedagogik tizim, model, ta'lim sifatini boshqarish, zamonaviy yondashuvlar.

В статье раскрыты современные подходы к повышению качества и эффективности образовательного процесса в детских дошкольных учреждениях, проанализированы целевые установки дошкольного образования. Автором подчеркнуто, что основным результатом качественного дошкольного образования является развитие личности ребенка.

Ключевые слова. Дошкольное образование, качество образовательного процесса, эффективность, научные принципы, развивающая функция, корректирующая функция, модель, управление качеством образования, современные подходы.

This article deals with modern approaches to improve the quality and efficiency of the educational process in pre-school institutions, target functions of pre-school education, principles of quality assurance, as well as existing contradictions in the area. The author emphasized that quality of pre-school education can be ensured by establishing child's identity.

Key words. Pre-school education, the quality of educational process, efficiency, scientific principles, function, developing corrective function to ensure continuity, pedagogical system, model, quality management education, modern approaches.

Bugungi kunda jahonning ilg'or mamlakatlarida ta'lim tizimini isloh etishga katta ahamiyat berilmoqda. Pirovardida inson paydo bo'lishidan to umrining oxirigacha davom etadigan ta'lim-tarbiya jarayonini yaxlit ajralmas tizim deb qarashga va uni amaliyotga tatbiq etishga undalmoqda. Bunda ota-onalar, ijtimoiy muhit va bolaning olamini o'zaro bog'langan va harakatdagi tizimini yaratish e'tiborga molikdir. Ushbu tizimni o'rganadigan fanlar yangi yondashuvlar, tamoyillar, metod va qarashlar bilan yanada boyib bormoqda.

Bunday zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlar, ta'lim tizimining modernizatsiya qilinishi, uni tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta'lim, fan, texnika va texnologiyalarning,

iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta'lim dasturlarini o'zgartirib, yangilab borishni ko'zda tutadi. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunida maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning birinchi bo'g'ini sifatida e'tirof etilib, uning 11-moddasida maktabgacha ta'lim bolalarni jismoniy, ma'naviy, aqliy, axloqiy, estetik, xullas, har jihatdan ta'limning keyingi turida, ya'ni maktabda o'qishga tayyorlashi lozimligi ta'kidlanadi.

Ta'lim muassasalarining bir turi sifatida maktabgacha ta'lim muassasasi, shubhasiz, ularning har qaysisiga xos, bolalarning tarbiyasi, ta'limi, rivojlanishi va salomatligiga yaxshi yo'nalganligi bilan bog'liq umumiy xususiyatlarga ega. Shu asnoda tarbiyalanayotgan bolalarning yosh xususiyatlariga ko'ra, maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyati boshqa ta'lim muassasalarida kechadigan pedagogik jarayonlardan jiddiy farq qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolaning har tomonlama rivojlanishi, unda “komil inson” asoslarining shakllanishi va yuzaga kelish davri – noyob davr deb belgilanganligi tufayli maktabgacha ta'lim, ayniqsa, muhim rol o'ynaydi.

Sifat darajasini e'tirof etish va uni hayotning barcha sohalariga, ayniqsa inson va jamiyat bo'lg'usi hayotiy faoliyatining qiyofasini belgilovchi va shakllantiruvchi ta'lim sohasiga singdirish inson hamjamiyatining zamonaviy taraqqiyotiga xosdir.

Ta'lim sifati va uni nazorat qilish, uzluksiz ta'lim tizimini to'la boshqarish tizimlarini shakllantirish hamda tatbiq qilish – davlat ta'limi siyosati, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va modelining ustuvor yo'nalishlaridan biri, mustaqil yirik ilmiy tadqiqot yo'nalishi va faning dolzarb vazifasidir.

Ta'lim sifati ustuvorligi ta'lim siyosatining yadrosi sifatida maktabgacha ta'lim muassasasidan boshlab, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida boshqaruvning samarali mexanizmlarini yaratish muammosini nihoyatda dolzarb qilib qo'yadi. Maktabgacha ta'lim tizimini uning sifatiga muvofiq takomillashtirishning tahlili quyidagilar o'rtasidagi bir qator ziddiyatlarni namoyon qildi:

- maktabgacha ta'lim muassasalarining ijtimoiy belgilangan maqsadlarga erishish usul va vositalarini tanlash doirasidagi bir talay huquq va vakolatlari hamda ularni amalga oshirishning ilmiy-asoslangan mexanizmi mavjud emasligi;

- maktabgacha ta'lim muassasasida shaxs va jamiyatning sifatli ta'lim olishga ehtiyoji va kutayotgan natijasi, talablarini qondirish uchun sharoit yaratishga qo'yiladigan me'yorlar hamda real amaliyotning haqiqiy holati;

- ta'lim sifati boshqarishga ijodiy yondashuvdan foydalanish zaruriyati hamda maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlarida sifatni boshqarish obyektini tizimli ko'ra bilish mavjud emasligi tufayli ta'lim jarayonining alohida tomonlariga lokal ta'sir amaliyoti;

- maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim sifatining zarur darajasini ta'minlash maqsadida faoliyat va rivojlanish jarayonlarining o'zaro aloqalarini o'rnatish zaruriyati hamda maktabgacha ta'lim pedagogik tizimlarini, asosan, ular ega bo'lgan potensialni qo'llab-quvvatlash va erishilgan natijalarni saqlab qolishga yo'naltirish;

- ta'lim sifati obyektiv baholash zaruriyati hamda tegishli baholash texnologiyalarning yetarlicha ishlab chiqilmaganligi.

Insoniyat o'z taraqqiyoti mobaynida har biri o'z alohida xususiyatlariga ega bo'lgan bir necha davrlarni bosib o'tdi. Sivilizatsiya taraqqiyotining u yoki bu davrining o'ziga xosligini belgilovchi ustuvor belgi sifatida “inson – inson” va “inson – tabiat” tizimlaridagi munosabatlar maydonga chiqadi.

Tadqiqot yo'nalishidagi mamlakatimizda va xorijiy davlatlarda olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari, tajribalar tahlili sifatga yo'naltirilgan maktabgacha ta'limning maqsadli vazifalari quyidagilardan iborat ekanligini e'tirof etish imkonini berdi:

Birinchi – **salomatlikni asrovchi funksiya**, bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanish jarayoni ularning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olib tashkil etilishda va amalga oshirilishda namoyon bo'ladi, shuningdek, bola vujudining aniq ekologik va ijtimoiy muhitda barqaror hayotiyiligini saqlashga yo'naltiriladi;

Ikkinchi – **rivojlantiruvchi funksiya**, ta'lim jarayonining "madaniyatli kishi" asosini shakllantirishga qaratilganligidan iboratdir, bu "...bolaning aqliy, ma'naviy va jismoniy layoqatlarini to'laqonli" ("Bola huquqlari to'g'risida konvensiya", 29-modda) rivojlantirishda barcha bolalarga teng dastlabki shart-sharoitni ta'minlash (BMT konvensiyasi) bilan to'la bog'liqdir;

Uchinchi – **tuzatuvchi funksiya**, bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishidagi kamchiliklarni malakali tuzatishni amalga oshirish bilan bog'liq;

To'rtinchi – bola yoshi rivojlanishning yangi bosqichiga o'tishida **uzviylikni ta'minlash funksiyasi**.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni sifati va samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan prinsiplarga quyidagilar kiradi:

- barcha asosiy yo'llar bo'yicha bolaning to'laqonli rivojlanishini ta'minlash prinsipi;
- bolaning yosh va shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun maktabgacha ta'limning o'zini o'zi qoplashi prinsipi;

- ta'lim jarayonini amaliy tashkil etish prinsipi, u yetakchi va o'ziga xos bolalar faoliyat turlarining o'zaro bog'liqligiga, bola rivojlanishining amaliy asoslarini predmetli boyitishni taqozo qiluvchi zaruratga asoslanadi;

- maktabgacha ta'limning shaxsga qaratilganlik tavsifi;
- bola tomonidan ijtimoiy-madaniy tajribani ijodiy "o'zlashtirishni" ta'minlash prinsipi, u ijodiy faoliyatni shakllantirish vositalarini "ishga solishni" nazarda tutadi;
- ularni amalga oshirish maqsadlari va vositalarining birligi prinsipi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalikning o'z qiymatini saqlash nuqtayi nazaridan ta'lim jarayonini tashkil etishga va amalga oshirishga qaratilgan mazkur prinsiplarni biz sifatga yo'naltirilgan maktabgacha ta'limning me'yoriy asosi sifatida ko'rib chiqamiz.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'lumot olishiga davlat belgilaydigan me'yorlar va talablar sifati ularning jamiyat ijtimoiy-madaniy ehtiyojlariga mosligi, shuningdek, bolani rivojlantirishning to'laqonligi va yaxlitligini ta'minlash bilan birga maktabgacha ta'lim bolalikning o'z mohiyatini saqlashga yo'naltirilganligi bilan aniqlanadi.


Ta'lim jarayonining sifati uning mazmunining, shakl va usullarining sifati, uning ishtirokchilarining o'zaro hamjihatligi bilan ta'minlanadi. Resurs ta'minoti jarayonining sifati kadrlar, moliya-iqtisodiy, dasturiy-uslubiy, ruhiy, sanitariya-gigiyenik va tibbiy sog'lomlashtirish, ijtimoiy-pedagogik resurslar va shart-sharoitlarning sifatidan tarkib topadi. Natijalarning sifati bolalarning salomatligi holati, ularning shaxsiy yutuqlari, pedagoglarning shaxsiy kasbiy yutuqlari, maktabgacha ta'lim muassasasining yutuqlari kabi elementlarni o'z ichiga oladi.

MTMda bolalar faoliyatini tashkil etish jarayoni, tizimli sifatning barcha xususiyatlarini va tavsiflarini umumlashgan holda o'zida tashuvchi maktabgacha ta'lim sifatining tizim hosil qiluvchi birligi hisoblanadi. Bolalar faoliyatining muayyan turlarini shakllantirish jarayonlari sifatining jami bolalarni rivojlantirish jarayonlarining u yoki bu sifatini shakllantiradi (jismoniy, ijtimoiy, bilim olish, badiiy-estetik), ulardan o'z navbatida ham alohida olingan yosh guruhi, ham butun maktabgacha ta'lim muassasasi yaxlit ta'lim jarayonining sifati hosil bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi ta'minlaydigan ta'limning sifat holati doimiy hisoblanmaydi: u yangi xususiyatlarning paydo bo'lishiga qarab o'zgaradi. Tashqi va ichki omillardan kelib chiquvchi tashqi va ichki hamjihatlik ularning paydo bo'lishining manbai

hisoblanadi. Shu sababli maktabgacha ta'lim sifati jarayon va natijaning, haqiqiy va potentsial, ichki va tashqi sifatning birligi sifatida namoyon bo'ladi.

“Sifat” kategoriyasi kontekstida maktabgacha ta'limning metodologik va nazariy asoslarini aniqlab, ular asosida maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim samaradorligini takomillashtirish jarayonining modeli ishlab chiqildi (1-rasm).



1-rasm. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim samaradorligini takomillashtirish jarayonining modeli

Maktabgacha ta'lim muassasasi bolalar ta'limiga davlat va jamiyat talablarini aks ettiruvchi ijtimoiy buyurtma beradigan maqsadlar tizimining markaziy sifat hosil qiluvchi tashqi omili hisoblanadi. Bunday maqsadlar hamisha jamiyat rivojlanishining ma'lum bosqichlariga xos bo'lgan muayyan ijtimoiy andozalar bilan bog'liq bo'ladi. Jamiyat rivojlanishining hozirgi darajasi, malakalilik, mustaqillik, erkinlik va mas'uliyat, tabiat va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib, o'z xatti-harakati va faoliyatini boshqarish mahorati, hayotning yangi sifatini yaratish maqsadida madaniy-tarixiy makonni faol, ijodiy o'zlashtirish layoqati uning o'ziga xos tavsiflari hisoblanadi. Bizningcha, sifatga yo'naltirilgan ijtimoiy buyurtma aynan shunday asosiy tavsiflarga ega shaxsni shakllantirishni nazarda tutishi kerak.

Maktabgacha ta'lim sifati – natija haqida bola shaxsini rivojlantirish nuqtayi nazari-dan bolalar quyidagi shaxsiy natijalarni qanday egallaganiga qarab so'z yuritish mumkin:

– tizimli tabaqalanadigan malakalilik:

– til malakasi bolaning o‘z fikrlarini, istaklarini va niyatlarini nutq vositasida va nutq-siz vositalarda erkin ifodalashni nazarda tutadi;

– ijtimoiy malaka boshqa insonga oliy qadriyat sifatida yondashishni, uning o‘ziga xosliklari va manfaatlarini tushunish mahoratini, uning hissiy holatidagi o‘zgarishlarni payqashni, vaziyatga qarab muloqot usullarini tanlashni o‘z ichiga oladi;

– intellektual malaka, o‘z maqsadiga erishish uchun bolaga yangi xatti-harakatlarini ijro etishga va ularni bajarishga yordam beruvchi umumiy intellektual faoliyatni shakllanganligini nazarda tutadi;

– jismoniy malaka bolaning o‘z yosh darajasiga mos keluvchi turli harakat turlarini egallaganligini ko‘rsatadi;

– ixtiyoriylik, bola tomonidan qoidalar va me‘yorlarga muvofiq o‘z xatti-harakatini boshqarish ko‘nikmasida namoyon bo‘ladi;

– mustaqillik, kundalik hayotda va ishda paydo bo‘ladigan turli vazifalarni bola tomonidan kattalarning yordamisiz mustaqil kun tartibiga qo‘yish va hal qilishni ta‘minlaydi;

– mas‘uliyat, “mumkin” va “mumkin emas”, “yaxshi” va “yomon”, “xohlayman” va “kerak” o‘rtasida tanlov vaziyatida paydo bo‘ladi;

– tashabbuskorlik, bolaning o‘z istaklariga javob beruvchi o‘yinlarni, samarali faoliyat turlarini tashkil etishga urinishda va ularga o‘z tengdoshlarini jalb qilish mahoratida ifodalanadi;

– ijodkorlik, ish jarayonida paydo bo‘ladigan hamda o‘z originalligi va variativligi bilan ajralib turuvchi yangi mahsulot yaratishda namoyon bo‘ladigan turli muammolarni ijodiy hal qilishga bolaning layoqatini ko‘rsatadi;

– xatti-harakat erkinligi, bolaning ijtimoiy qabul qilingan qoidalar va taqiqlarga rioya qilishini taqozo etuvchi harakat va faoliyat yo‘nalishi, ular o‘rtasida quyidagi to‘rttasi eng muhim hisoblanadi: o‘zgaga, o‘zingga, tabiatga, boshqa odamlar yasagan narsalarga ziyon yetkazma;

– xavfsizlik, bolada o‘z xatti-harakatlarining oqibatlarini his qilish va ko‘ra bilish layoqati borligi bilan tavsiflanadi, bu unda me‘yor, ehtiyotkorlik tuyg‘ularining shakllanishi bilan bog‘liq;

– o‘z-o‘zini anglash va o‘zini baholash, bolada o‘z timsolini shakllantirishda, kattalar va tengdoshlar bilan munosabatlarda o‘z o‘rnini anglashda, o‘z imkoniyatlarini baholashda, hali ko‘p o‘qish kerakligini tushunishda namoyon bo‘ladi. Bu shaxsning asosiy tavsiflari tizimi bola – maktab yoshigacha bolaning asosiy rivojlanish dasturi konsepsiyasida taqdim etilgan. Maktabgacha ta‘lim sifatiga ta‘sir qiluvchi tashqi muhit omillariga ijtimoiy buyurtmali maqsadlardan tashqari maktabgacha ta‘limga davlat me‘yorlari (talablari), shuningdek, maktabgacha ta‘lim muassasasida bolalarga ta‘lim berish uchun zarur bo‘lgan tashqi resurslar (kadrlar, axborot, moddiy va hakoza) kiradi.

Maktabgacha ta‘lim sifatini shakllantirishda pedagogik jamoa tomonidan o‘zgartirilishi mumkin bo‘lgan ichki omillarga alohida rol tegishlidir.

Omillar cheksiz ko‘pdir, shu sababli ularning hammasini amalda hisobga olish mumkin emas. Shu holatdan kelib chiqib, ulardan eng muhimlarini ajratib ko‘rsatish zarur. Bizningcha, quyidagilar shunday omillar hisoblanadi:

- pedagoglar va rahbarlarning kasbiy malakasi;
- ta‘lim mazmuni va uni o‘zlashtirish usullari;
- pedagogning bolalar bilan o‘zaro hamkorligining xili;
- bolalar hayot faoliyatini umumiy tashkil etish;
- kadrlar, moddiy, dasturiy-uslubiy, moddiy resurslar;
- sanitariya-gigiyena sharoitlari va ta‘lim jarayonini tibbiy sog‘lomlashtirish choralari;

- ta'lim jarayonini ruhiy qo'llab-quvvatlash;
 - predmetli-rivojlanuvchi muhit;
 - ijtimoiy tuzilmalarning muassasaning pedagogik jamoasi bilan o'zaro aloqasi;
 - bolalarni tarbiyalash, o'qitish va rivojlantirish masalalarida maktabgacha ta'lim muassasasi va oilaning o'zaro kelishilgan harakatlari;
 - maktabgacha ta'lim muassasasini boshqarish.
- Maktabgacha ta'lim sifatini shakllantirishda boshqa omillar bilan bir qatorda shart-sharoitlarda – omillar harakat qiluvchi holat, muhit alohida ahamiyatga egadir.
- Maktabgacha ta'lim sifatini oshirish shart-sharoitlariga biz quyidagilarni kiritamiz:
- "madaniyatli kishi" asoslari shakllanishining nodir davri sifatida maktabgacha bolalikning o'z qadrini saqlashga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish;
 - maktabgacha ta'lim sifatiga jamoaning qat'iy qadriyat tarzidagi munosabati;
 - maktabgacha ta'lim muassasasi sharoitlarida, ham malaka oshirish tizimida pedagoglar va rahbarlarning kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirish;
 - jamoadagi ijobiy va ruhiy muhit;
 - pedagogik jamoa va rahbar faoliyatining ijodiy yo'nalganligi;
 - ta'lim dasturlari va texnologiyalarini savodli tanlash erkinligining mavjudligi;
 - zarur mehnat sharoitlarining mavjudligi;
 - sifatli ishni moddiy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;
 - madaniy tajribani tashuvchi sifatida sifat uchun mas'uliyatni pedagogka berish;
 - maktabgacha ta'limda innovatsion tizimlar bankini yaratish;
 - oilaning ta'lim ehtiyojlariga va talablariga qarab yo'nalish olish;
 - ta'lim jarayonining holatini muntazam jamoada muhokama qilishni tashkil qilish va asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish.

Xulosa qilib aytganda, omillar va shart-sharoitlar o'rtasida o'zaro aloqa mavjud. Sharoitlar omillarning imkoniyatlari paydo bo'lishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli maktabgacha ta'limning sifatini oshirish omillari va sharoitlarining garmonik uyg'unligini ta'minlash o'ta muhimdir.

Boshqaruv obyekti sifatida maktabgacha muassasa sifatining mohiyati va maktabgacha muassasani uni shakllantirishning alohida sohasi haqidagi bilimlarsiz sifatga yo'naltirilgan boshqaruv tizimini yaratish mumkin emas. Shu sababli, eng avvalo, maktabgacha ta'lim jarayoni sifatini tahlil qilish va sifatni ta'minlaydigan ta'lim tashkiloti sifatida maktabgacha ta'lim muassasasining o'ziga xosliklarini o'rganish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori // O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 11-modda. –T.: "O'zbekiston", 1997. – 23 b.*
2. *Qodirova F.R., Qodirova R.M., Vahobova F.N. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim konsepsiyasi. – T.: 2008. – 3 b.*
3. *Fayzullayeva M., Z.Rahimova, M.Rustamova. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o'stirish // (Tayyorlov guruhi uchun mashg'ulotlar ishlanmasi) –T., 2011. – 147 b.*
4. *Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Политиздат, 1975. –С. 304.*
5. *Макаренко А.С. О воспитании. //Золотой фонд педагогики. – М.: Школьная пресса, 2003. – С. 192 .*

Naima ABDULLAYEVA,

O'zbekiston Respublikasi XTB tasarrufidagi Toshkent shahar
tabiiy fanlarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim
maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

O'QUVCHILARNING EKOLOGIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA TARBIYAVIY TADBIRLARDAN FOYDALANISH USULLARI

Annotatsiya

Maqolada darsdan tashqari vaqtlarda o'quvchilarda ekologik tarbiyani amalga oshirish texnologiyasi haqida so'z yuritilgan. Bunda o'qituvchiga ekologik tarbiyani amalga oshirishda ekologik tarbiya bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlarning taxminiy rejasi va boshlang'ich sinflar uchun namunaviy tadbir loyihasi berilgan.

Kalit so'zlar. Tabiat, ekologiya, atrof-muhit, qadriyat, dars, tarbiyaviy tadbir, ta'lim, tarbiya.

В статье описаны технологии экологического воспитания учащихся во внеурочное время. Автором представлен примерный план проведения мероприятий экологического содержания и их разработки для начальных классов.

Ключевые слова. Природа, экология, окружающая среда, ценности, урок, воспитательные мероприятия, обучение, воспитание.

The article illuminates technology of implementing extra-curricula activities to develop learners ecological awareness. The author gets the practitioners acquainted with standard curriculum of the activities to carry out with elementary school pupils.

Key words. Nature, ecology, environment, value, extra-curricular activities, training, education.

Tabiat bilan inson uzviy aloqadadir. U tabiat bilan munosabatda bo'lmasdan turib yashay olmaydi. Inson hayotini tabiatdan, tabiiy boyliklardan ayri-cha tasavvur etish mumkin emas. Prezidentimiz ekologik muammolar xususida fikr yuritib, shunday degan edi: "Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosdagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib, sivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog'liqdir".

Tabiatni e'zozlash, atrof-muhitni muhofaza etish haqidagi yo'l-yo'riqlar ajdodlarmizdan asrlar osha ma'naviy meros sifatida ilhom manbai bo'lib kelgan. Tabiatga mehr inson dunyoga kelgan paytidan, go'daklik chog'idan boshlab uning qalbiga singadi va buning natijasida unda Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat shakllanib, yuksala boshlaydi. Sharqona, o'zbekona ta'lim-tarbiyada tabiatni e'zozlash haqida hikmatlar juda ko'p. Bularni bolalarga singdirishda o'quvchilarni ekologik jihatdan ma'naviyatli yoshlar qilib tarbiyalashimiz lozim.

Ekologik tarbiya o'quvchilarni atrof-muhitga, olam va insonga, hayvonot va o'simlik dunyosiga mehr-muhabbat munosabatlarini shakllantiradi.

“Ekologiya” atamasi yaqin vaqtlargacha faqat mutaxassislariga ma'lum edi.

Endilikda atrof-muhitga, tabiat boyliklariga e'tiborsiz bo'lish butun sayyoraga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlar muammolarini yechish, ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish asosiy vazifalardan biri bo'lib qoldi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni tarkib toptirish, ularga tabiat, atrof-muhit bilan qanday munosabatda bo'lishni o'rgatish va tashkil etish ta'lim tizimining dolzarb masalasi sanaladi.

Yangi asrning barkamol kishisi o'zida ekologik tarbiyani ham namoyon eta olishi kerak. Ekologik madaniyat – bu atrof-muhit to'g'risida chuqur bilimga, tabiatni asrash tuyg'usiga ega bo'lish, o'simliklar hamda hayvonlarga nisbatan g'amxo'rlik ko'rsatish, tabiat zaxiralaridan oqilona foydalanish, ularni ko'paytirish borasida qayg'urishga qaratilgan amaliy faoliyatdir.

Jo'mraklardan ortiqcha suv oqishiga yo'l qo'ymaslik, suv havzalarini ifloslantirmaslik, axlatni duch kelgan joyga to'kmaslik, turarjoylarni ozoda saqlash, ko'chat va gullarni nobud qilmaslik hamda ularni ekish, hayvonlar va qushlarni parvarishlash, xonadon va xiyobonlarni gulzorga aylantirish ekologik madaniyatning eng oddiy ko'rinishlari hisoblanadi.

Ekologik ta'lim va tarbiya – bu insonni tabiatga qadam qo'ygan vaqtdan boshlab, butun hayoti davomida tabiatdan ongli ravishda foydalanishga, psixologik, axloq-odob yuzasidan yosh avlodning tabiatga hurmat va e'tibor bilan qaraydigan urf-odatlarini, udumlarini tarbiyalash, tabiiy boyliklarini ko'paytirish, bog'lar, gulzorlar yaratishga undashdan, uning qalbida yaxshi xislatlar uyg'otishdan iboratdir.

Tabiatni muhofaza qilish hozirgi zamonning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolganligi sababli bu masala o'quvchiga tarbiya berishning ustuvor jihati hisoblanadi. Ekologik tarbiyalash jarayonida yoshlar tabiat boyliklarini tejab-tergashga, tabiatni muhofaza qilishga o'rgatilib boriladi.

Ekologik tarbiyaning asosiy maqsadi jamiyat kishilarini ekologik jihatdan savodxonligini va madaniyatini oshirish, ekologik madaniyatli kishilar ko'magida tabiatni muhofaza qilish, ozoda, toza saqlash, hayvonot, qushlar, o'simliklarga mehr uyg'otish orqali tabiat boyliklarini parvarishlashdir.

Ayni damda boshlang'ich sinflarda dars va darsdan tashqari vaqtlarda ekologik tarbiya muntazam o'tkazilmoqda. Ekologik tarbiya berish maqsadida darsliklar tarkibiga ham bir qancha mavzular kiritilgan, bu esa o'quvchilarning bilim va tarbiyasini oshiradi.

Boshlang'ich sinflarda ekologik tarbiya berish dars va darsdan tashqari vaqtlarda amalga oshiriladi. Darsdan tashqari vaqtlarda o'quvchilarni tabiat qo'yniga, tabiat muzeylariga olib borib, shanbaliklar, suhbatlar, o'tkazish natijasida ekologik tarbiya shakllantiriladi.

Dars jarayonida o'quvchilar ekologik tarbiyani pedagog hikoyasi hamda darsliklarda o'z ifodasini topgan mavzular orqali oladilar.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar o'quvchilarni har tomonlama kamol topishida hamda hayotda faol bo'lishida muhim ahamiyatga ega. Bu ishlar bolalarning qiziqishlariga muvofiq tarzda tashkil qilinadi. O'quvchilar sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda o'zlarini qiziqtiradigan mashg'ulotlarini tanlab olishadi va ularda mustaqil va tashabbuskorona ishtirok etishadi.

Ekologik tarbiya bo'yicha o'tkaziladigan tarbirlarning taxminiy rejasi

№	Bajariladigan ishlar	Vahti	Mas'ul
1	Ekologik mavzuda ochiq tarbiyaviy tadbirlar o'tkazish	O'quv yili davomida	Sinf rahbari, biologiya o'qituvchisi
2	Mahalla hududidagi ekologik muammolarni aniqlash va ularni imkon darajasida bartaraf etishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish	O'quv yili davomida	Maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, "Kamolot" Yo'lh yetakchilari, sinf rahbarlari
3	Atrof-muhitni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirishga qaratilgan xayriya tadbirlari, shanbalik, hasharlar o'tkazish	O'quv yili davomida	Maktab jamoasi
4	"Ekosan" fondiga mablag' ishlab, o'tkazilishini tashkillashtirish	Har yarim yillikda	Maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari
5	Maktabda ekologik burchak tashkil etish	1-yarim yillik	Maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari
6	Ekologik mavzuda maxsus reja asosida tadbirlar, davra suhbatlari o'tkazish	Doimiy ravishda	Jismoniy tarbiya o'qituvchilari
7	"Ekologiya – bolalar nigohida" rasmlar ko'rgazmasini tashkil etish	Aprel	Jismoniy tarbiya o'qituvchilari

Bahs-munorazali dars mavzusi: Tabiat va olam

O'tkazish joyi: Maxsus jihozlangan sinf xona.

Mavzu yuzasidan tayyorlangan savollar.

1. Tabiat haqida qanday tushunchaga egasiz?
2. Tabiat boyliklarini sanang?
3. O'simliklar haqida bilganlaringizni gapiring?
4. Uy va yovvoyi hayvonlar haqida qanday ma'lumotlarni bilasiz?
5. Biz tabiat boyliklaridan qanday foydalanishimiz kerak?
6. Tabiatni muhofaza qilishga o'z hissangizni qanday qo'shmoqdasiz?
7. Tejamkorlik nima? Tabiat boyliklarini qanday tejashimiz zarur?

8. Vatanni asrash uchun tabiatni asrash zarurmi? Bu kabi savollar suhbat davomida o'quvchilarga beriladi. Shu savollar yuzasidan o'quvchilar o'z fikr-mulohazalarini bildiradi.

Dars maqsadi: O'quvchilarda tabiat haqida tushuncha hosil qilish va uni asrashga, mehr uyg'otishga o'rgatish.

1. Dars jihozi: rangli rasmlar ko'rgazmalar, test savollari, tarqatmalar, magnit tasma, ijodiy o'yinlar, xalq og'zaki ijodidan namunalar.

2. Darsni tashkil qilish: dars bosqichlar asosida tashkil qilinadi.

O'quvchining tabiat haqidagi so'zlari bilan boshlanadi. Sinf o'quvchilari ikki – "Zamin" va "Obi hayot" guruhlari bo'linadi.

"Zamin" guruhi sardori:

Zamin – bu yer demakdir,

Ya'ni rizq-ro'z demakdir.

Yer dunyoda yagona

Hamma odamga ona.

*Yedirgan ham ona yer,
Kiydirgan ham ona yer.
Zaminda odam hayot,
Faqat unga kular baxt.
Shu sabab qo'yib ixlos,
Yerni qilaylik e'zoz!*

“Obi hayot” guruhi sardori:

*Obi hayot – suv demak,
Yashash, yosharish demak.
Suv yorug'lik, suv hayot,
Suvdan umr davomi.
Baxsh etib zo'r kayfiyat, tozalaydi havoni.
Suv qadrini bilmaslik,
Inson degan nomga dog'.
Non, suvga bepisandlik
Dunyoda yomon gunoh.*

O'quvchilar: Ona tabiatga rahmat! Ikkala guruhdan o'quvchilar tabiat haqida she'rlar aytishadi.

O'quvchi:

*Istayman havo bo'lsam,
Dardlarga davo bo'lsam.
shamollarga sas bo'lsam,
bir toza nafas bo'lsam.*

O'quvchi:

*Yo shabnam qatra bo'lib,
Olam sehdida to'lib,
Shoda-shoda dur bo'lsam.
Xalqqa mehri zo'r bo'lsam.*

O'quvchilarning bilimini, qobiliyatini, chaqqon va ziyrakligini baholash uchun har bir guruhga to'rttadan test so'rovi tarqatiladi.

O'quvchilar tayyorlangunga qadar “Zangori ekran” orqali Termiz shahrining “Geografik o'rni va iqlimi” haqida ko'rsatuv beriladi.

O'quvchi:

*Termiz osha boshlanadi,
Cho'l va bo'ston havosi.
Yetti iqlim tinglab yotar,
Al – Hakimning navosin...*

Termiz shahri Orol dengiziga qo'yiladigan Amudaryo, Amudaryoga qo'shiladigan Surxondaryo va Kattaqum qumliklari bilan chegaralangan uchburchakda joylashgan.

Test savollari quyidagicha:

1. Jonli tabiat qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

- a) oy, suv, o'simlik
- b) Havo, toshlar, hayvonlar.
- d) Hamma javoblar to'g'ri

2. Tabiat hodisalari qaysilar?

- a) Shovqin, chang
- b) zilzila, dovul

d) yong'in, kurash.

3. G'alla o'simliklarini toping.

a) bug'doy, makkajo'xori.

b) paxta, sholi

d) arpa, paxta

4. Foydali qazilmalarni kimlar izlaydi?

a) Arxeologlar

b) geologlar

d) olimlar.

5. Manzarali daraxtlarni toping.

a) olma, tut, jiyda.

b) xurmo, anjir, yong'oq

v) terak, archa, chinor.

6. Tabiatda suv qanday aylanadi?

a) bug'lanish natijasida

b) shamol ta'sirida

d) bulutlar yordamida

O'quvchilar tomonidan "Amaliy ishlardan namuna" ko'rsatiladi. Har qaysi guruh-dan ikkitadan o'quvchi ishtirok etadi.

1-tajriba: yonib turgan sham ishtirokida issiq va sovuq havoning harakatini ko'rsating.

2-tajriba: Tuproqni suvli stakanga soling, nima sodir bo'ladi?

3-tajriba: Bo'sh xaltachada xonadan havo yig'ing va tushuncha bering.

4-tajriba: Ko'mirning suvdagi va qog'ozdagi holatini ko'rsating.

O'quvchilarga tarqatmalar tarqatiladi va javoblari olinadi.

1-tarqatma: – Tabiatshunoslik nima va u nimani o'rgatadi?

2-tarqatma: – Tuproq tarkibida nimalar bor?

3-tarqatma: – Tabiat jismlari qanday holda bo'ladi, nomlarini ayting?

4-tarqatma: – Madaniy o'simliklarga nimalar kiradi?

5-tarqatma: – O'zbekiston "Qizil kitobi" nima?

6-tarqatma: – Tabiatga nimalar kiradi, sanang?

Dam olish daqiqasi juda qiziqarli cheklama asosida tashkil qilinadi.

O'qituvchi: (quyidagi o'simlikni ko'rsatib) Qiziqing, bu "Zupturum" o'simligi. Zupturum o'ti qimmatli dorivor o'simlik hisoblanadi. Uning barglari yara va kuygan joy-larga qo'yilsa davo bo'ladi.

Bargidan shamollash, oshqozon va ichak kasalliklarini davolash uchun dori oli-nadi. Zupturum o'lkamizning barcha joylarida o'sadi.

Har ikkala guruh o'quvchilari tabiat to'g'risida maqollar aytishadi.

– Ariq qazimasang suv chiqmas;

– Qolgan ishga qor yog'ar;

– Yozgi mehnat – qishki rohat;

– Bahorgi harakat kuzgi barakat.

O'quvchilarning topqirligini baholash uchun 2 guruh a'zolari bir-birlariga tabiat to'g'risida topishmoqlar berishadi.

– Ariqdan oyna oldim (muz).

– Oq tovuq, katagi sovuq (qor).

– Tebranadi joni yo'q (zilzila).

Bolalarning xotirasini charxlash maqsadida ikki guruhdan bittadan o'quvchi chiqib, tez aytish o'yinini o'tkazadi.

– Jo'ja cho'chib go'ja cho'qir.

– Qo'ng'iroq qo'zichoqnikimi, qo'g'irchoqnikimi.

Taxtaga tushurish qiyin bo'lgan so'zlar izohi yoziladi.

Shaxtyor – qazilmalarni qazib oladigan kishi.

Geolog – qazilma boyliklarini izlab topadigan kishi.

Kon – yer osti boyliklari to'plangan joy .

Silos – makkajo'xoridan tayyorlangan ozuqa.

Har ikkala guruhning to'plagan reyting ballari o'qituvchi tomonidan e'lon qilinadi. G'olib bo'lgan guruh rag'batlantiriladi.

3. Darsni mustahkamlash:

O'tilgan mavzu yuzasidan o'quvchilarning fikri tinglanadi.

4. Uyga vazifa: Yangi mavzuga oid hikoya tuzib kelish. Bahs-munozara dars o'quvchilarning yershunoslik kasbi haqidagi she'ni aytish bilan yakunlanadi.

Men yershunos bo'laman,

Tekshiraman yer sharin.

Bir kun aytib beraman,

Uning hamma dardlarin.

Istagim yer qadriga,

Yetmagan zot qolmasin.

Biz uni e'zozlaylik,

Yerimiz hech tolmasin.

Mana dardingga shifo,

Yerjon,

Isitmalab hech qachon,

Og'rib tebranma, deyman.

Mustaqil vatanimizda ijtimoiy-iqtisodiy, taraqqiyot va rivojlanish keng quloch yoyganligini boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'tkazgan tadbirlarimiz orqali tushuntirdik. Ularning ekologik madaniyatini shakllantirib, tabiatga bo'lgan muhabbatni yanada oshirdik, deb o'ylaymiz.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyaviy tadbirlar vositasida ekologik tarbiyalash keng imkoniyatlarga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida" xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T., 1997.

2. A.To'xtayev va A.Xamidov. Ekologiya asoslari va tabiatni muxofaza qilish. – T.: "O'qituvchi", 1994.

3. B.Ziyomuxammedov. Ekologiya va ma'naviyat –T.: "Mehnat", 1997.

4. A.M.Muxammedov, S.D.Ziyayev, B.T.logansi, K.I.Igolkin. Tabiat muhofazasi va ekologiya, –T.: "O'qituvchi", 1986.

5. A.Bahromov. Tabiatshunoslik, 3-sinf uchun darslik, –T.: "Cho'lpon" NMIU, 2010.

Dilobar SAIDOVA,
Nizomiy nomidagi TDPU
katta ilmiy xodim izlanuvchisi

INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA MEHRIBONLIK UYLARI TARBIYALANUVCHILARINI IJTIMOIY MOSLASHTIRISH YO'LLARI

Annotatsiya

Maqola mehribonlik uylariga alohida g'amxo'rlik va e'tiborni talab etuvchi bolalarni tarbiyalash, ularning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta'minlash masalalariga bag'ishlangan. Mehribonlik uylarida faoliyat ko'rsatuvchi rahbar xodimlar, o'qituvchi-tarbiyachilar uchun qator tavsiyalar berib o'tgan.

Kalit so'zlar. Innovatsion yondashuv, tarbiya, tarbiya tizimi, moslashuv, ijtimoiy moslashuv, ijtimoiylashtirish, ijtimoiy hayot, axloq, qadriyat, ijtimoiy-pedagogik faoliyat.

В данной статье рассмотрена проблема воспитания детей в домах милосердия, обеспечения их успешной социализации путем проявления к ним особого внимания и заботы. Автором подчеркнута необходимость должной оценки труда руководителей, педагогов и воспитателей.

Ключевые слова. Инновационный подход, система воспитания, адаптация, социальная адаптация, социализация, жизнь в обществе, мораль, ценность, социально - педагогическая деятельность.

The article is dedicated to solve the problem of educating children of orphanage who need extra care and attention, and to promote their successful socializing. The author also proposes guidelines about job specifications, required skills and responsibilities for administrators, educators and caretakers of orphanages.

Key words. Approach, innovative approach, education, education system, adaptation, social life, socializing, behavior, values, social and pedagogical work.

Mehribonlik uylari ijtimoiy institut sifatida alohida g'amxo'rlik va e'tiborni talab etib, bolalarni tarbiyalash, ularning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shuningdek, Mehribonlik uylari ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ham, ma'naviy-ma'rifiy jihatdan ham, ta'lim-tarbiya tizimining yo'nalish va tamoyillari jihatdan ham, xo'jaligining ta'minoti jihatdan ham, tibbiy xizmat ko'rsatish masalalari bo'yicha ham davlat tomonidan ta'minlanadi. Qolaversa, ularning barcha huquqlari maxsus qonunlar orqali kafolatlangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 39-moddasida shunday deyilgan: "Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega". "Boquvchisidan mahrum bo'lganda" so'zlar birikmasiga "Otasi yoxud

onasi vafot qilgan bolalar” ma’nosi yuklatilgan. Ayni chog’da, mazkur so’zlardan ota-onasidan mahrum bo’lib, boquvchisiz qolgan yetim bolalarni ham tushunish mumkin.

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasida yuqoridagi fikr yanada oydinlashtirilgan: “Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo’lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o’qitishni ta’minlaydi, bolalarga bag’ishlang’an xayriya faoliyatlarni rag’batlantiradi”.

Ayniqsa, mustaqillik yillarida Mehribonlik uylariga mustaqil yuridik shaxs maqomining berilganligi diqqatga sazovor. Boshqa yuridik shaxs(davlat tashkilotlari, korxonalari va muassasalari kabi)larga qanday huquqlar berilgan bo’lsa, Mehribonlik uyi ham shunday huquqlarga egadir. Bu esa, o’z navbatida, Mehribonlik uylari xo’jalik yuritish, o’quv-tarbiya ishlarini olib borish, istagan tashkilot yoxud muassasalar bilan muomala-munosabatda bo’lish jihatdan ham mustaqil ekanliklarini anglatadi.

Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 18-fevraldagi 59-sonli Qarori O’zbekistondagi yetim-yesirlarga mehr-muruvvat, mehr-shafqat, mehr-oqibat, insonparvarlik va bolaparvarlikning yorqin nishonasidir. Mazkur qarorda Mehribonlik uylarini tashkil qilish, mavjudlarini qayta tashkil etish yoki tugatish, ularning mustaqil yuridik shaxs sifatida tan olinishi, ular faoliyatini uyushtirish, guruhlardagi bolalar sonini sanitariya va gigiena normalari asosida belgilash, tarbiyalanuvchilarni har xil yoxud bir xil yoshdagi guruhlarga birlashtirish, Mehribonlik uylarida faoliyat ko’rsatuvchi rahbar xodimlar, o’qituvchi-tarbiyachilar va texnik xizmatchilarning mehnatini qadrlash va ayni chog’da, ularning mas’uliyatini oshirish va shu kabilar o’z ifodasini topgan. Bu hujjatda Mehribonlik uylarining joylashish o’rni, mazkur joyning ekologik jihatdan qulay bo’lishi ham nazarda tutilgan.

Mehribonlik uylari tarbiyaviy ishlar tizimida tarbiyalanuvchilarni ijtimoiy moslashtirish masalasi alohida o’rin tutadi.

Moslashuv (adaptatsiya) tushunchasi ilmiy muomalaga dastlab nemis fiziologi X.Aubert tomonidan XIX asrning ikkinchi yarmida (1865-yil) a’zolarning tashqi muhit o’zgarishlariga moslashishini tavsiflash uchun qo’llanilgan. Fiziologiyada keng qo’llanilgach moslashuv xususiy ilmiy tushuncha sifatida qolsa-da, biologiyaning boshqa sohalarida ham qo’llangan. XX asrning o’rtalaridagina moslashuv atamasi tibbiyot, kibernetika, psixologiya va boshqa fanlarda qo’llandi va hozirda umumilmiy tavsifga egadir. Moslashuv tushunchasining ko’plab ta’riflari mavjud. Masalan, “Falsafa: ensiklopedik lug’at”da moslashuv (adaptatsiya) – jonli sistemalarning tashqi muhit bilan munosabatida sodir bo’ladigan moslashuv jarayoni – adaptogenezning ma’lum natijasi, deb ta’riflansa, “Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug’ati”da moslashuv – tabiat yoki jamiyat hayotida, insonning ma’naviy-ruhiy olamida kechadigan o’ziga xos jarayon bo’lib, biron-bir muhit yoki sharoitga, yangilikka moslashuvni anglatadi.

“Pedagogik ensiklopedik lug’at”da moslashuv keng qamrovli tushuncha sifatida talqin etilib, unga quyidagicha ta’rif berilgan: “Moslashuv – organizmning mavjud sharoitlarga muvaffaqiyatli javob qaytara olishidir. Moslashuvning biologik, fiziologik va ijtimoiy-psixologik turlari mavjud. Biologik moslashuv deganda hayvonot va o’simlik turlarining tashqi muhitning aniq mavjud sharoitlariga morfofiziologik ko’nikishi tushuniladi. Fiziologik moslashuv esa o’zida asosida organizmning atrof-muhit o’zgarishlariga moslashishga qodirligi turadigan fiziologik reaksiyalar yig’indisidir.

Ijtimoiy-psixologik moslashuv shaxsning ijtimoiy muhitda o'z o'rnini topa olishiga qodirligidir".

Shuningdek, "moslashuv" tushunchasiga respublikamiz va xorijlik olimlar tomonidan ham qator ta'riflar berilgan: "Moslashuv tushunchasi ostida odam va muhitning o'zaro ta'siri jarayoni tushuniladi, uning natijasida insonda shu muhit sharoitlariga nisbatan adekvat o'zgaradigan xulq-atvor modellari va strategiyalari hosil bo'ladi (L.M.Luzina)"; moslashuv – bu organizmning tashqi muhit bilan adekvat aloqalarining shakllanish xususiyati. Shuningdek, moslashuv bu organizm faoliyatini tashqi muhit ehtiyojlariga qarab o'zgartirish qobiliyati hamdir (N.M.Egamberdieva); moslashuv – ijtimoiy-psixologik jarayon bo'lib, ichki va tashqi nizolarga qarama-qarshi o'laroq, insonning o'z faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshira olishi, o'z faoliyati natijalaridan qoniqish hosil qilishi (D.V.Ryazanova); moslashuv – muhit va uning o'zgarishlarini faol o'zlashtirish hamda muvaffaqiyatli faoliyat uchun zaruriy shart-sharoitni yaratishga qodir reaksiyalar yig'indisi (T.Shibutani); moslashuv – bu insonning tabiiy va ijtimoiy muhit bilan o'zaro birgalikdagi harakatini tavsiflovchi yaxlit, tizimli jarayon (N.Ismatova).

Ijtimoiy moslashuv – individning ijtimoiy muhit shart-sharoitlarini faol o'zlashtirish jarayoni bo'lib, uning muhim jihati individning ijtimoiy maqomga ega bo'lishidir. Ana shu nuqtai nazardan ijtimoiy moslashuv, o'z navbatida, shaxs ijtimoiylashuvining asosiy mezonidir. Pedagogika fanlari doktori N.M.Egamberdieva ta'kidlab o'tganidek, shaxsning ijtimoiylashuvi – ta'lim-tarbiya ta'sirida inson psixologik funksiyalarining takomillashuvi, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, xulq-atvor me'yor va qoidalarining o'zlashtirilishi, dunyoqarashining boyish jarayoni va natijasi. Xulosa qilib aytganda, moslashuv, shu jumladan, ijtimoiy moslashuvga aniq maqsadga qaratilgan pedagogik ta'sir ko'rsatish natijasi sifatida qarash maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, ba'zi olimlar "ijtimoiylashuv" va "ijtimoiy moslashuv" tushunchasini alohida-alohida talqin qilishga harakat qilishsa, ba'zilar ularni bir tushuncha sifatida baholashadi.

Birinchi guruh nazariyasi tarafdorlarining fikricha, ijtimoiylashuv ijtimoiy me'yor, xulq-atvor tamoyillari va qadriyatlarni uzatish va uni inson tomonidan egallanishiga qaratilgan murakkab jarayon bo'lib, u alohida shaxsga ma'lum bir jamiyat fuqarosi sifatida o'zini namoyon etish imkoniyatini beradi. Ijtimoiy moslashuv esa, shaxsga jamiyat tomonidan berilgan mazkur imkoniyatlarni amalga oshirish jarayonini o'zida ifoda etadi. Ijtimoiy moslashuv jarayonida alohida shaxsning xulq-atvor me'yorlari va qadriyatlarining u mansub bo'lgan ijtimoiy guruh qadriyatlari bilan o'zaro mos bo'lishi ta'minlanadi.

Ikkinchi guruh olimlarning fikricha, insonning aniq bir jamiyat sharoitlariga moslashuvi yoki undan ajralib chiqishi (individuallashuvi) ijtimoiylashuv jarayonining mazmunini tashkil qiladi. Moslashish subyekt va ijtimoiy muhitning o'zaro faol yaqinlashuv jarayoni va natijasidir. Individuallashuv insonning obyektiv ehtiyojlar bilan bog'liq holda jamiyatda ma'lum darajada alohidalikka intilishi bo'lib, uning yoshligidan o'z-o'zini namoyon qilishga bo'lgan harakatlarida paydo bo'ladi.

Bizningcha, "ijtimoiylashuv" va "ijtimoiy moslashuv" tushunchalariga bunday tarzda yondashish o'rinli emas. Chunki aynan ijtimoiy moslashuv ijtimoiylashuv jarayonining tezlashuvi yoki sekinlashuviga o'zining aniq ta'sirini ko'rsatadi. Shaxs-

ning yangi jamoaga qo'shilishida nizolarsiz moslashuvi uning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini tezlashuviga imkon beradi.

Yu.I.Krivov ta'kidlab o'tganidek, "ijtimoiylashuv" va "ijtimoiy moslashuv" jarayoni o'rtasidagi mustahkam aloqadorlikni ta'minlaydigan integrallashgan obyekt – ta'lim oluvchi (pedagogika oliy ta'lim muassasasi talabasi – ta'kid bizniki) shaxsi. Olimning fikricha, ijtimoiy moslashuv shaxsning ijtimoiy xulq-atvorini shakllantirishning murakkab mexanizmi sifatida sodir bo'ladi va ijtimoiylashuvning sifat tavsifi sifatida namoyon bo'ladi.

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy moslashtirish yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy muhofaza qilishning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Chunki ijtimoiy moslashuv tarbiyalanuvchilarni ijtimoiy munosabatlar tizimini muvaffaqiyatli o'zlashtirishga imkon berib, mazkur jarayon ularda uy xo'jaligi, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish, mehnat ko'nikma va malakalarini shakllantirish orqali amalga oshadi.

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy moslashtirish jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga qamrab oladi:

Birinchi bosqich – tarbiyalanuvchining individual xususiyatlarini tashxis etish va uni jamoa a'zosi sifatida qabul qilinishiga bo'lgan davr bilan tavsiflanadi.

Ikkinchi bosqich – tarbiyalanuvchini muassasadagi real shart-sharoitlarni qabul qilishiga ko'maklashish.

Uchinchi bosqich – yangi ijtimoiy tajriba, bilim va ko'nikmalarni egallash va tarbiyalanuvchini xilma-xil faoliyatga jalb etish orqali ahamiyatli ijtimoiy maqomni o'zlashtirishini ta'minlash.

To'rtinchi bosqich – ijtimoiy muhit sharoitida yuzaga keluvchi istalgan muammoli vaziyatlarni hal etishga qobiliyatlilik bilan tavsiflanuvchi barqaror ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlik.

Mehribonlik uylari – ma'lum bir darajada bola oilasi o'rnini bosishga xizmat qiladigan davlat qaramog'idagi muassasalardir. Ana shu sababli Mehribonlik uylari bola uchun oila sifatida xizmat qiladigan ijtimoiy institut sifatida qanday ijtimoiy funksiyalarni bajarishi lozimligini aniqlab olish juda muhim.

Sotsiolog A.G.Xarchyov oilaning quyidagi ijtimoiy funksiyalarini ajratib ko'rsatadi:

1) reproduktiv – (jamiyatning biologik uzluksizligini ta'minlash, bolalarni dunyoga keltirish) funksiyasining asosiy mohiyati inson turini davom ettirish;

2) tarbiyaviy – oilaning muhim ijtimoiy funksiyasi fuqaro, vatanparvar, bo'lg'usi oila boshlig'i, jamiyatning qonunga rioya qiluvchisini tarbiyalashda aks etadi;

3) maishiy-xo'jalik – jamiyat a'zolarining jismoniy salomatligini qo'llab-quvvatlash, oiladagi bolalar va keksalarni parvarishlash;

4) iqtisodiy – oilaning voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz a'zolarini qo'llab-quvvatlash;

5) ijtimoiy nazorat – er-xotin, ota-ona va bolalarning o'zaro munosabatlaridagi mas'uliyat va majburiyat;

6) ma'naviy – oila a'zolarining ma'naviy madaniyatini yuksaltirish, ma'naviy o'zaro uyg'unlik;

7) emotsional – psixologik muhofazalanganlik, emotsional qo'llab-quvvatlash.

Agar oilaning mazkur ijtimoiy funksiyalarini Mehribonlik uylari faoliyatiga tatbiq etiladigan bo'lsa, shubhasiz mazkur muassasalar tarbiyalanuvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlash vazifasini uddalangan bo'ladi. Chunki Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilar uchun ma'lum belgilangan muddatga qadar xizmat qiladi, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qishni tugatishgandan so'ng ular mustaqil hayotga yo'naltiriladi. Ana shu sababli Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchilar qanchalik mustaqil hayotga samarali tayyorlansa, ularning keyingi umr yo'li ham muvaffaqiyatli davom etadi.

Mehribonlik uylarida olib borilgan tajriba-sinov ishlari mavjud tarbiya tizimi tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy muhit sharoitida muvaffaqiyatli moslashuvi hamda har bir bolaning hayotiy qiyinchiliklarni yengib o'tishga psixologik tayyorlashga hamma vaqt ham to'liq imkon bermayotganligi haqidagi xulosaga kelindi. Ana shu sababli tadqiqot jarayonida innovatsion tarbiya tizimlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratildi.

Respublikamizda Mehribonlik uylari o'rniga bosqichma-bosqich Vazirlar Mahkamasining 2008–yil 22-maydagi 104-sonli Qaroriga asosan “Bolalar shaharchasi” tashkil etilmoqda. Ana shunday zamonaviy tarzda bunyod etilgan “Bolalar shaharchasi” Andijon, Farg'ona, Namangan, Sirdaryo va Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahrida faoliyat yuritmoqda.

“Bolalar shaharchasi” faoliyatini o'rganish natijasida ularning tarbiyalanuvchilarni ijtimoiy moslashuvini ta'minlashga doir quyidagi o'ziga xosliklarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1) tarbiyalanuvchilar oilasi shakllantiriladi va har bir oila tarbiyachi-onaga biriktiriladi. Bu esa, ularning yaxlit oila a'zolari sifatida o'zlarini his etishlari va oilaviy muhit sharoitida yashashlariga imkon yaratadi;

2) tarbiyalanuvchilarda borliqqa, aniq hayotiy vaziyatlarga, o'z xulq-atvori va atrofdagilarga adekvat munosabatni shakllantirishga barqaror yo'nalganlikni qaror toptirish. Mazkur funktsiyaning samarali amalga oshishi o'zaro harakatlanuvchi subyektlar haqidagi ma'lumotlarning umumiylashuvi uchun asos bo'lib xizmat qiladi;

3) moslashuvga doir funktsiya birgalikdagi faoliyatni yo'lga qo'yish orqali tarbiyalanuvchilarda o'z faoliyati, hamkorlikdagi faoliyat obyekt va subyektlariga, ijobiy, emotsional, barqaror munosabatlarni tarkib toptirishga imkon beradi;

4) tarbiyalanuvchilarda o'zi haqidagi tasavvurlarni shakllantirish, dunyoqarashini va hayotiy tajribasini rivojlantirish (da'vat etuvchi funktsiya);

5) tarbiyalanuvchilarning ma'naviy-axloqiy jihatdan o'z-o'zini rivojlantirishi, muhoqot va hamkorlik jarayonidagi o'z o'rnini aniq belgilay olishiga erishish (integratsion funktsiya);

6) jamiyat tomonidan qo'yilgan talablar bilan bog'liqlikda tarbiyalanuvchilarning qadriyatga yo'naltirilgan uyg'unlik asosida atrof-muhit bilan o'zaro birgalikdagi harakatlanishini ta'minlash (baholovchi-prognostik funktsiya).

Shuningdek, “Bolalar shaharchasi”da tarbiyaviy ishlarni tashkil etish jarayonida tarbiyalanuvchilarda quyidagi psixologik-axloqiy yo'nalganlik tarkib toptirilishiga alohida ahamiyat beriladi:

1) insoniylik – shaxslararo munosabatlarni insoniylashtirish, insonning ichki olamiga e'tibor qaratish;

2) refleksivlik – shaxsiy o'ziga xos xususiyatlari, yutuq va kamchiliklarini anglash, ularni tolerant xulq-atvor bilan bog'liqlikda yo'lga qo'yish;

3) javobgarlik – qarorlar qabul qilish vaziyatida ichki kuchlarning namoyon bo'lishiga asoslanuvchi shaxsiy talablar tizimiga egalik;

4) himoyalanganlik – boshqa kishilar bilan birgalikda faoliyat yuritishning qo'llab-quvvatlanishi, xavfsizligi va imkoniyati borligining kafolatlanishi;

5) moslashuvchanlik – vaziyat, sharoit bilan bog'liqlikda to'g'ri qarorlar qabul qila olish;

6) o'z-o'ziga ishonch – o'zining kuch va imkoniyatlarini adekvat baholay olish;

7) o'z-o'zini boshqara olish – o'zining his-tuyg'ularini boshqara olish, o'z xulqini nazorat qila olish;

8) xilma-xillik – bir-biriga o'xshash murakkab vaziyatlarda qarorlar qabul qila olish, voqelikni baholashda xilma-xil yondashuvlarga tayanish;

9) persepsiya – kishilardagi turli xil xususiyatlarni seza olish va aniqlay olish, ularning ichki dunyosini anglash ko'nikmasi;

10) empatiya – boshqa kishilarning muammolariga hamdard bo'lish, voqelikni emotsional baholay olish;

11) hazilkashlik – ayrim holatlar, noqulay vaziyatlardan kulgi yo'li bilan chiqib keta olish.

Xulosa qilib aytganda, “Bolalar shaharchalari”dagi tarbiya tizimini Mehribonlik uylariga ham tatbiq etish, ilg'or ish tajribalarini o'zlashtirish, pedagoglarga tarbiyalanuvchilarda mus'uliyat hissini shakllantirish, ularni mustaqil hayotga tayyorlashda katta imkoniyat yaratadi. Shuningdek, Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlashga doir ijtimoiy-pedagogik faoliyatni oqilona tashkil etish tarbiyachidan mazkur jarayonni amalga oshirishga doir aniq bilim, ko'nikma va malakalarni, tarbiyalanuvchi bilan muloqot vaqtida kognitiv (tarbiyalanuvchi haqidagi ma'lumotlar doirasini kengaytirish, mazkur ma'lumotlarning ahamiyatini anglash), emotsional (tarbiyalanuvchiga qiziqish bilan qarash, u bilan o'zaro birgalikda harakatlanishga intilish va bundan zavq ola bilish) va amaliy (tarbiyachining tarbiyalanuvchiga ta'sir ko'rsatishga doir o'zining real imkoniyatlarining anglab yetilganligi) kompetentlikka ega bo'lishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: “O'zbekiston”, 2009.
2. Asqarova O'M. Mehribonlik uylari o'smirlarida milliy g'ururni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari: Pedagogika fanlari nomzodi. ...diss. Avtoref. – T., 2001.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: “O'zbekiston”, 2009.

Feruza QO'CHQAROVA,
Andijon Davlat universiteti o'qituvchisi

DARSLIKLARDA O'QUV MA'LUMOTLARINI TARKIBIY QISMLARGA AJRATISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada darsliklarning tuzilmasi, unda taqdim etiladigan o'quv materiallari haqidagi nazariy yondashuvlar tahlil qilingan. Shuningdek, o'quvchilarning yosh xususiyatlari, real bilish imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o'quv materiallari va ta'limiy topshiriqlarni taqdim etish imkoniyatlari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar. Bilim, ko'nikma, malaka, didaktik birliklar, loyiha, ma'lumot mazmuni, o'quv axborotlari, mahorat, o'quv jarayoni, darslik, axborotli modul.

В данной статье изложены теоретические подходы к анализу структуры учебников и представленных в них учебных материалов. Раскрыты особенности и содержание первичных и вторичных дидактических эталонов, охарактеризовано содержание учебника и его структурных частей. Показаны возможности представления учебного материала и обучающих заданий с учётом возраста учащихся и их реальных познавательных возможностей.

Ключевые слова. Знание, умение, навык, дидактические единства, содержательная информация, учебная информация, информационный модуль.

The article summarizes theoretical approaches to analyze text book structure and content of teaching materials. Moreover, the author makes proposals on presenting teaching materials and adopting textbooks due to learners' age factors and intellectual ability.

Key words. Knowledge, skill, experience, didactic unit, primary project, secondary project, substantive information, training information, training materials, educational process, didactic process, text book, information module.

Zamonaviy didaktikada o'quv materiali mohiyatini ochishga xizmat qiladigan bir qator yondashuvlar mavjud. Ular: a) o'quv materialiga bo'lgan dastlabki ilmiy yondashuv; b) bir guruh olimlar uni o'quv predmeti, darslik tarkibidagi birlik deb hisoblaydilar. Bunday yondashuv L.YA.Zorina, V.S.Setlin izlanishlariga mansubdir.

Darhaqiqat, muayyan o'quv predmeti bo'yicha yaratilgan darslikda bayon qilingan mashq, masala va topshiriqlar o'quv materialidir. Jumladan, professor M.H.Mahmudov o'quv materiali haqida quyidagilarni bayon qiladi: Zamonaviy adabiyotlarda o'quv materiali o'quv predmetining tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Bunday yondashuvga ko'ra, o'quv predmetini o'quv materiallari yig'indisi shaklida tushunishga to'g'ri keladi. Bu, o'z navbatida, darsliklarning kengayib ketishiga sabab bo'ladi. Shu bois, hatto boshlang'ich sinflar uchun katta hajmli darsliklar tuziladi.

"Darslik o'quv materialidan iborat" yoki "o'quv materiali darslikning birligi" kabi tezislar asosida ish ko'radigan darslik mualliflari o'zlari tuzadigan loyihaga o'quv materiallarini ko'proq kiritishga harakat qiladilar"; d) "o'quv materiali" tushunchasiga V.V.Krayevskiyning o'quv materiali ta'lim mazmunining shakli, ta'lim mazmuniga darslik muallifining bergan eng so'nggi ishlovidir. Bunday yondashuvga asoslangan holda o'quv materialini ta'lim mazmunining shakli sifatida tan olishga imkoniyat tug'iladi; e) R.Safarova o'z asarlarida o'quv materiali muammosiga alohida e'tibor qaratib, uni o'quv jarayonining asosiy vositasi, axborotli modeli sifatida talqin qiladi. Bunday yondashuv "o'quv materiali" haqidagi ilmiy tasavvurlarni kengaytirishga yo'l ochadi.

O'quv materiali to'g'risidagi tasavvurlarni yanada kengaytirish lozimligini hisobga olib, R.Safarova, B.Adizov, M.H.Mahmudov, D.Yuldashevalar ta'lim mazmunini moddiylashtiruvchi vositalarni ikki guruhga ajratganlar:

birlamchi didaktik loyihalar – darslikda berilgan ta'riflar, qoidalar, mashqlar, o'quv topshiriqlari, kursiv bilan ajratilgan dalillar va aniqliklar, umuman, o'zida o'quv predmeti mazmunini mujassamlashtirgan axborotli modellar;

ikkilamchi didaktik loyihalar – sinf jamoasining imkoniyatlarini inobatga olib tuzilgan trening materiallari, dasturlashtirilgan materiallar, mustaqil ishlar, savollar, test topshiriqlari to'plami.

Birlamchi va ikkilamchi didaktik loyihalarni o'zaro farqlash zarurligini alohida uqtirib, M.H.Mahmudov shunday yozadi: "Darslikda beriladigan o'quv materiallarida bolalarning nechanchi sinf o'quvchisi ekanligi, yoshi hisobga olinadi. Ularni birlamchi loyihalar deb qaraymiz. Bolalarning real o'qish imkoniyatlari, individual xususiyatlari asosida tuzilgan loyihalarda hisobga olinadi. Ularni ikkilamchi loyihalar deb belgilaymiz. Ikkilamchi didaktik loyihalarda bolalarning real o'qish imkoniyatlari, har bir o'quvchining shuningdek, sinf jamoasi ichida ajratilgan gamogen guruhlarining tayyorgarlik darajasi hisobga olinadi".

Shunday qilib, mutaxassislar o'quv materialining qator xususiyatlarini ajratishga muvaffaq bo'lganlar: o'quv materiali o'zlashtirish va bilish obyekti. Uning bunday xususiyati o'quvchilarning ularni tushunish va qabul qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, o'quvchilarni yangi axborotlar bilan qurollantiradi. O'qituvchi o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalari, o'zlashtirish imkoniyatlarini hisobga olib, qo'shimcha o'quv materiallarini tanlaydi va ularga ishlov beradi. Shu tariqa ikkilamchi didaktik loyihalar vujudga keladi. Didaktik loyihalarda o'quv materiallarining murakkablik darajasi, o'quvchilar saviyasiga mosligi va darslikdagi o'quv materiallariga aloqadorligiga e'tibor qaratiladi. O.Roziqov, R.Safarova, H.Nazarova, U.Musayevlar o'z ishlarida boshlang'ich sinflar uchun mo'ljallab tuzilgan darsliklarning ham hajm jihatdan kengayib ketganligi, ularda o'quvchining ijtimoiy tajribasiga kirmay qolgan ortiqcha o'quv materiallarining mavjudligini ko'p marotaba ko'rsatib o'tganlar. Ular, shuningdek, ta'lim mazmunini o'quv materiali shaklida ixcham, lo'nda ifodalash zarurligini uqtirganlar. Darsliklarda ta'lim mazmuni o'quv materiallari, ya'ni o'quv modellari, ta'limiy topshiriqlar, mashqlar, illyustratsiyalar, savollar, jadvallar, ko'rgazmali vositalar, multimediyalar shaklida taqdim etiladi.

Chunonchi, O.R.Roziqov o'quv topshirig'i o'quv materialining o'qitish va o'qish ehtiyojiga ko'ra o'zgartirilgan shakli deb ta'riflaydi. M.H.Mahmudov esa, mashq, trening, test va shu kabilarni o'quv topshirig'i shakllari sifatida qaraydi.

O'tgan asrning 80-yillaridan boshlab o'quv materiali mohiyatini tushuntirishga oid ikki xil qarash vujudga keldi: o'quv materialini darslikning asosi deb qarash g'oyasi (V.S.Setlin, L.YA.Zorina). Darhaqiqat, har qanday darslik muayyan paraqraflardan tashkil topgan bo'lib, ularda aniq mavzudagi o'quv materiallari bayon qilinadi. Bu esa, darslik mualliflari imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan bir qatorda, bunday yondashuv natijasida darsliklar hajm jihatdan kattalashdi. Ma'lumki, ta'lim mazmuni o'quv materiallarida o'z ifodasini topadi. Bu esa, darsliklarni hajm jihatdan ixchamlashtirish imkonini beradi. O'quv materiallari ta'lim mazmunining ifodasi, modeli, ta'lim texnologiyasiga oid nazariyaga tegishlidir.

XX asrning 80-yillaridan boshlab, didaktik hodisalarni tarkibiy qismlariga ko'ra tavsiflashga oid yondashuvlar vujudga kela boshladi. Bir guruh olimlar (M.N.Skatkin, I.Ya.Lerner, V.I.Visotskaya va boshqalar) ma'lumot mazmunida to'rtta tarkibiy qismni ajratish lozimligi g'oyasini ilgari surdilar. Ularning ta'kidlashicha, ma'lumot mazmuni o'zaro aloqador to'rt elementdan iborat.

Ular:

- tabiat, jamiyat, tafakkur, texnika, texnologiya, faoliyat usullari to'g'risidagi bilimlar tizimi;
- aqliy va amaliy ko'nikmalar, malakalar;
- ijtimoiy-amaliy faoliyatning tadrijiy rivojlanish yo'li bilan hosil qilingan sifat o'zgarishi asosida paydo bo'lgan ijodiy faoliyat tajribasi;
- tabiat, jamiyat, ong hodisalari, shuningdek, kishilarning o'zaro munosabatlari tizimidan iborat.

So'nggi yillarda ma'lumot mazmunini tarkibiy qismlarga ajratishga oid qarashlar rivojlantirildi. Bunday yondashuv R.Safarova, O.Roziqov, M.Mahmudov, B.Adizov, D.Yuldashevalarning ishlarida o'ziga xos tarzda yangi ta'lim paradigmasi asosida talqin etildi.

Ma'lumot mazmunining dastlabki tarkibiy qismi bilimlardir. "Bilim moddiy borliqning inson ongidagi in'ikosi, tajribada sinalgan aniq natijalardir. Umuminsoniy bilimlar mohiyati jihatidan uch guruhga ajratiladi: tabiatga oid bilimlar; jamiyatga oid bilimlar; tafakkurga oid bilimlar" – deb yozishadi "Didaktika" darsligi mualliflari.

Bilimlar qaysi turga mansub bo'lishidan qat'iy nazar, tushunchalar, dalillar, qonuniyatlar, nazariyalar, faoliyat usullari tarzida namoyon bo'ladi.

Ta'lim mazmunining ikkinchi tarkibiy qismi ko'nikma va malakalardir. O'quv materialini o'zlashtirishning dastlabki darajasida o'quvchi uni qo'llashga oid ko'nikma hosil qilishi, yuqori darajasida esa, mazkur faoliyatni mohirona amalga oshirishi lozim. Ko'nikma va malakalarni psixolog olim K.K.Platonov quyidagicha tavsiflaydi: o'quvchilarda bilimlar yordamida ko'nikma, ko'nikma asosida malaka shakllanadi.

Ko'nikma – o'quvchining o'zlashtirgan bilimlari asosida muayyan amaliy harakatni bajara olish faoliyatidir. O'quvchilarda o'quv ko'nikmalari quyidagi bosqichlarda shakllantiriladi:

1. O'quvchining o'z faoliyati maqsadini anglashi, biroq uni bajarish davomida kamchiliklarga yo'l qo'yishi;

2. O'quvchining o'z xatti-harakatlarini ongli tarzda farqlagan holda bajarishi, biroq ularni qo'llashda qiyinchiliklarga duch kelishi;

3. O'quvchi harakatining avtomatlashib borishi, ularni sifatli bajarishga bo'lgan intilishning tarkib topishi;

4. O'quvchida yuqori darajada avtomatlashgan xatti-harakatning tarkib topishi va ularning aniq, tartibli bajarilishi;

5. O'quvchida o'z xatti-harakatlaridagi noaniqliklarni sezish, ularni bartaraf etishga bo'lgan intilishning paydo bo'lishi kabilar.

Xulosa tariqasida shuni aytish mumkinki, “Malaka – o'quvchilarda muayyan o'quv materiali va kasbni chuqur o'zlashtirish natijasida hosil bo'lgan avtomatlashgan mahoratdir”. Shunga ko'ra, o'quv materiallari tarkibida o'quvchilarga axborotlarni taqdim etuvchi matnlar, ko'nikma va malakalar hosil qiluvchi mashqlar, masalalar, treninglar uyg'un tarzda ifodalanishi kerak. O'quvchilarda o'quv malakalari bir necha bosqichlarda hosil qilinadi:

1. O'rganilgan bilim va hosil qilingan ko'nikmalarga rioya qilib, xatti-harakatlar maqsadi, ularni amalga oshirish usullarini anglash;

2. Faoliyat usullariga oid bilimlarning mavjudligi va hosil qilingan ko'nikmalarni amalda qo'llash;

3. Yuqori darajada rivojlangan malakalarni tor doirada qo'llash;

4. Yuqori darajada rivojlangan keng qamrovli malakalardan foydalana olish;

5. Mahorat darajasiga ko'tarilgan malakalarni amalda qo'llash kabilar.

Buning uchun ularga turli yo'nalishdagi o'quv topshiriqlari taqdim etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov M.H. *Ta'limni didaktik loyihalash*. –T.: A.Qodiriy nomidagi “Xalq merosi” nashriyoti, 2002. – 59 b.

2. Mahmudov M.H. *Ta'limni didaktik loyihalash prinsiplari*. –T.: A.Qodiriy nomidagi “Xalq merosi” nashriyoti, 2002.

3. *Pedagogik atamalar lug'ati*. Tuzuvchilar: R.X.Djurayev, O'.Q.Tolipov va boshqalar – T., 2008. – 58 b.

4. Roziqov O. va boshqalar. *Didaktika*. –T.: “Fan”, 1997. – 95 b.

5. Safarova R.G'. *Milliy tiklanish sharoitida O'zbekiston maktablarida ona tili ta'limi nazariyasi va amaliyoti*. Ped. fan. dok. diss... – T.: 1998. – 255 b.

Sevaraxon OTAXONOVA,
Andijon viloyati XTXQTMOI o'qituvchisi

KICHIK GURUHLARDA ISHLASH USULINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada kichik guruhlarda ishlashning o'ziga xos pedagogik-psixologik xususiyatlari, interfaol usullarning afzalliklari haqida so'z boradi. Shuningdek, muallif ta'lim jarayonida tashkil etilgan yangi pedagogik texnologiyalarning ahamiyati to'g'risida fikr yuritgan.

Kalit so'zlar. Pedagogik texnologiya, kichik guruhlar, ko'p qismli topshiriq, interfaol usullar, mashg'ulot.

В данной статье рассматриваются педагогически-психологические особенности работы в малых группах и преимущества интерактивных методов. Автором раскрыто значение использования новых педагогических технологий в процессе обучения.

Ключевые слова. Педагогические технологии, малые группы, многочастное задание, интерактивные методы, занятие.

The article describes pedagogical-psychological peculiarities of working with small groups and advantages of interactive methods. Moreover, the author shares thoughts on significance of new pedagogical technologies applied in educational process.

Key words. Pedagogical technologies, small groups, multi partial task, interactive methods.

Ta'lim jarayonida yangi innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari-dan foydalanish hamda interfaol usullarni qo'llashga e'tibor va ehtiyojning tobora ortib borishi pedagogik faoliyatda yangicha yondashuvni taqozo etmoqda. Darslarni ham qiziqarli, ham o'quvchilarning to'liq ishtirokini, faolligini ta'minlagan holda tashkil etish o'qituvchidan yuksak mahorat va ijodkorlikni talab etadi. Har bir o'qituvchi darsga kirishdan avval uni qanday tashkil etish, bu mashg'ulotning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadiga erishishda, uning mazmunini barcha o'quvchilarga singdira olishda qanday usul va materiallardan foydalanish mumkinligi to'g'risida fikrlab, darsning texnologik xaritasi va rejasini tuzadi.

Ta'lim jarayoni o'qituvchi va o'quvchilarning teng munosabatlari asosiga quriladi. O'qituvchi esa bu jarayonning to'g'ri tashkil etilishi, ta'lim maqsadlarining to'g'ri amalga oshirilishi va ta'lim natijalari uchun javobgar shaxsdir. Darsning samarali natija berishi nafaqat o'qituvchining qobiliyatiga, balki o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatiga ham bog'liq. Bugungi kunda o'quvchilarni faollashtirish, erkin fikrlash, mustaqil izlanishga o'rgatish, shuningdek, ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda darslarni to'g'ri tashkil etilganligi, innovatsion texnologiyalar va interfaol usullardan o'rinni foydalanilganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, interfaol ta'lim jarayoni o'qituvchi va o'quvchilar hamkorligi hamda o'quvchilarning o'zaro birdamligiga asoslanadi. O'qituvchi dars jarayonida interfaol usullarni qo'llar ekan, u nafaqat o'qituvchi va o'quvchilar birdamligini, balki o'quvchilarning bir-birlari bilan ham hamkorlik qilishlarini ta'minlay olishi lozim. O'qituvchi – o'quvchilar hamkorligi va o'quvchilarning o'zaro birdamligini ta'minlovchi interfaol dars usullariga kichik guruhlarda ishlash metodini misol qilish mumkin.

Guruhlarga bo'lib dars o'tishning o'ziga xos qulaylik va afzallik tomonlari shundaki, ma'ruza darslaridan ko'ra, bu darsda barcha o'quvchilar faol ishtirok etadilar. O'quvchilar o'zaro fikr almashadilar, bir-birlarini tinglashni va o'z fikrlarini, o'z nuqtayi-nazarlarini bildirishni o'rganadilar. Agar sinfda psixologik tarqoqlik, o'zaro uyushmaganlik hukm sursa, bunday tashkil etilgan dars ularning jipslashuviga, uyushishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ko'pchilik oldida o'zini namoyon qilishga yoki gapirishga qo'rqadigan va tortinchoq bolalar kichik guruhlarda o'zini erkin tutadi va o'z fikrlarini bildirishdan cho'chimaydi. Shunday o'quvchilar ham borki, ular o'z iqtidorlarini, qobiliyatlarini barcha o'quvchilar oldida doimiy namoyon etishdan cho'chiydi. Chunki butun sinfning unga nisbatan "ustozning erkatoyi", "o'zini ko'rsatyapti" kabi baho berishini istamaydi. Kichik guruhlarga bo'linib ishlaganda esa bu o'quvchilar o'z qobiliyatlarini namoyon eta olishlari va tushunishga qiynalayotgan o'rtoqlariga tushuncha, ko'rsatma berish orqali yordam ko'rsatishlari mumkin. Psixologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, bolalar o'rtoqlari o'rgatgan ma'lumotlarni qiziqib o'zlashtirishar ekan. Iqtidorli bolalar uchun bu eng yaxshi tajriba orttirish imkonini ham beradi. Zero, o'quvchilar ham, o'qituvchilar ham boshqalarni o'qitish barobarida o'zlari nimanidir o'rganib olar ekanlar.

Dunyo olimlarining psixologik-pedagogik tadqiqotlari natijalariga ko'ra, inson eng ko'p bilimni boshqalarni o'qitish (60%) orqali o'zlashtirar ekan; ma'ruza (5%), o'qish (10%), televideniye (20%) bilimlarni o'zlashtirishda guruhiiy munozara (40%) va mashqlarga (50%) qaraganda kamroq ta'sir kuchiga ega ekan.

Ayrim bolalar noto'g'ri javob berishdan yoki shu javobi uchun sinfning unga munosabatidan, sinf oldida uyalib qolishdan cho'chishadi. Sinf oldida bir marta uyalgan bola savollarga javob berishni istamay qoladi. Kichik guruhda esa, boshqalar uning fikrlarini qadrlashlarini tushunadi va kamroq tavakkal qiladi. Tortinchoq bolalar uchun ham ozchilik oldida javob berish ko'pchilik oldida javob berishdan osonroq. Bunda uning o'ziga ishonchi ortadi. Guruhlarda ishlashning samaradorligi yana shunda ham namoyon bo'ladiki, o'quvchilar tafakkuridagi "biz va ular" tushunchasi "bizlar"ga o'zgaradi. O'quvchilarda boshqalarni hurmat qilish, hamkorlik, guruh va shaxs munosabatlarida tolerantlik, o'zaro tushunish xususiyatlari shakllanadi.

Kichik guruhlarda ishlashning o'ziga xos afzalliklari va qulayliklari bilan bir qatorda uni tashkil etishdagi qiyinchiliklar ham mavjud. Tadqiqotchi Rudi Faltus guruhlar bilan ishlashning qanday tashkil etilishi to'g'risida quyidagilarni ko'rsatib bergan:

- guruhlarda ishlashni qanday boshlash lozim ekanligini aniqlash, guruhlarda ishlash rejasini tayyorlash va bundan manfaatdor biror shaxs (hamkasb)ni topib, u bilan rejalarini muhokama qilish;
- o'quvchilar qanday bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari lozimligini aniq belgilab olish, ish oldiga aniq maqsadlar qo'yish;

- kichik guruhda ishlashni rejalashtirishda vaqt, joy, materiallar, yozma yo'riq-nomalar va guruhlarda ishlay bilishga e'tibor qaratish kerakligi;
- o'quvchilar o'zlarini qanday tutishlari va nimalar qilishi lozimligini belgilash;
- o'quvchilarni guruhlariga qanday ajratish, yakka tartibdagi ishni qanday nazorat qilish, boshqalarga asosli munosabatda bo'lishni o'rgatish uchun yakunlarni chiqarish, guruhlardagi ishni olib borish;
- guruhlar nazoratdan chiqqanda yoki guruh ichida nizo paydo bo'lganda zarur choralarni ko'rish.

Kichik guruhlariga bo'lib ishlashda ko'p qismli topshiriqlarni qo'llash darsning samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bir necha qismlardan tarkib topgan topshiriqlarni berish guruhlardagi xohishsiz ishtirok etadigan va pastroq natijalarga erishuvchi o'quvchilarni faollashtirish va ko'proq bilim egallashga qiziqtirish imkonini beradi. Ko'p qismli topshiriqlar tizimi ta'lim dasturi doirasida tahlil qilish, munozara yuritish, muammolarni hal qilish ko'nikmasini rivojlantirish imkonini beradi.

Ko'p qismli topshiriq nima? Bu mavzuga doir tanlangan o'quvchilar guruhiga topshiriladigan va o'quvchidan aqliy qobiliyatlarini namoyon qilishni talab etadigan topshiriqdir. O'quvchilar topshiriqning turli ko'nikmalarni talab etishini va bilimning ko'pgina tarmoqlariga daxldorligini bilishlari kerak. Topshiriq shunday tuziladiki, guruhning har bir a'zosi mumkin qadar o'z imkoniyatlarini namoyon eta olishi, o'ziga boshqacha nazar bilan qarashi va ulardan tegishlicha foydalana olishi lozim. Yuqori natijalarga erisholmaydigan o'quvchilar guruhning boshqa a'zolari kabi topshiriqni bajarishga kirishib keta olishlariga va shu guruh tomonidan ijobiy baholanishiga ishonch hosil qilishi kerak.

Elizabet Soxen guruhlar bilan ishlash jarayonida ko'p qismli topshiriqlarni qo'llash to'g'risida olib borgan izlanishlari davomida, pedagoglarga ushbu usullardan o'rinli foydalana olishlari uchun bir necha tavsiyalarni ishlab chiqqan:

1. O'quvchilarning munozaradagi muloqotlarida, loyihalar yaratish va tajribalar o'tkazishda yordam beradigan metodlardan foydalanish;
2. Xilma-xil ko'nikmalarni talab qiluvchi topshiriqlarni tanlash;
3. O'quvchilar bir-birlariga yordam berishlari kerak ekanligini tushuntirish;
4. Topshiriqni bajarishda zarur bo'ladigan turli ko'nikmalarni aniqlash va muhokama qilish;
5. O'z imkoniyatlaridan foydalanishning turli usullarini ta'minlash:
 - a) topshiriq turli ko'nikmalardan foydalanishni talab qiladi;
 - b) o'quvchilar ko'rsatilgan aniq rollarga ega bo'ladilar;
 - v) topshiriq ko'p qismlardan iborat va turli ko'nikmalarni talab qiladi.
6. Ayrim o'quvchilar ishlarini tahlil qilish va guruhiy ish samarasini baholash imkonini beradigan baholar tizimini aniqlash.

Ko'p qismli topshiriqlarni qo'llashda o'qituvchi topshiriqning bajarilishi uchun javobgarlik zimmasini o'quvchilarning o'zlariga yuklaydi. Yakuniy xulosalarni ham ularning o'zlari chiqarishi kerak. Chunki ular guruhdagi ish samarasi uchun javobgardirlar. Har bir o'quvchiga rol va topshiriqlarning tashkilotchi tomonidan taqsimlanishi o'qituvchining ishtirokisiz nazorat qilinadigan jarayonga aylanadi. O'quvchilarning qaysi topshiriqni bajarish lozimligini ko'rsatmalarsiz mehnatni o'zlaricha tashkil etishlariga yo'l qo'yish lozim.

Agar guruh ma'lum vaqt o'zi istagancha ishlaydigan hamda xulosani o'quvchilarning o'zlari chiqaradigan bo'lsalar, eng avvalo, ularni tegishli xatti-harakatga o'rgatish lozim. Agar buni bir necha bor mashq qilish imkoniyati bo'lmasa, bunday xatti-harakatni o'zlashtirib olishini ulardan talab qilmaslik kerak. Guruhdagi xatti-harakatning yangi qoidalari nazorat qilish vazifasini o'taydi. Agar topshiriq murakkab bo'lsa va vaqt talab qilsa, oraliq bosqichlarini belgilash lozim. Bu bosqichlarda guruhlar harakati tekshiriladi va keyingi faoliyatni rejalashtirish mumkinligini aytib berish, bolalar foydalanishi mumkin bo'lgan qo'llanmalarni tavsiya etish, savollar berish, agar sinfdagi ayrim guruhlarining faoliyatini muvofiqlashtirish lozim bo'lsa, har bir guruh vakillarining birlashib ishni muvofiqlashtirishga oid topshiriqni muhokama qilishlarini so'rash mumkin. Topshiriq nihoyasiga yetgach, har bir guruh hisobot taqdim etishi kerak. Yakuniy muhokamada guruhning qanday ishlaganligi va topshiriqlarni bajarishda ayrim o'quvchilar ishtiroki qanday bo'lganligi haqida ham ta'kidlab o'tish lozim.

Guruhlardagi ish natijalarini baholashning aniq tizimini tayyorlash kerak. O'quvchilar o'rtoqlarining ishini muhokama qilar ekanlar, asosli tanqid qoidalarini o'rganadilar. Agar biror aniq va oqil mezon bo'lsa, har bir guruh ishini o'qituvchi yoki o'quvchilarning o'zlari baholashlari mumkin. O'quvchilarning yakka tartibdagi ishtirokini emas, balki guruh bilan birgalikda bajargan ishini baholash guruhning uyushqoqligini oshiradi. Guruhlarning dars mazmunini qanday o'zlashtirganligini aniqlash va mavzuni mustahkamlash maqsadida test va savollardan foydalanish mumkin. O'quvchilar test yechganlarida bir-biriga o'zaro yordam berishlariga ruxsat berish foydadan xoli emas. O'quvchilar o'zlari va tashkilotchilarining ishlarini mumkin qadar baholashlari kerak.

Guruhlarda ishlash pedagogdan o'ziga xos mas'uliyat, mahorat va ijodkorlikni talab etuvchi zavqli, ham mashaqqatli usullardan biridir. Bu jarayonda o'qituvchining nafaqat boshqaruvchiligi, mohirligi va ijodkorligi namoyon bo'ladi, balki o'quvchilarning faolligi ortadi, og'zaki nutqi rivojlanadi, mustaqil va erkin fikrlash ko'nikmalari ham shakllanib boradi. Interfaol jarayonning bunday shakli har tomonlama yetuk va barkamol avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eshmuhammedov. R.J. *Ta'lim va tarbiyada innovatsion texnologiyalar.* –T., 2013.
2. Nishonova. Z.T. *Mustaqil ijodiy fikrlashning psixologik asoslari. p.f.d. diss.* –T., 2005. – 391b.
3. Anikeyeva. *Jamoadi ruhiy muhit.* –T., 1992.
4. Yo'ldoshev J.G'. *Ta'lim yangilanish yo'lida.* –T.: "O'qituvchi", 2000.
5. M. Butz, R. Faltus, E. Soxen. *Guruhlardagi ish. Maqolalar to'plami.*

Muxiddin TESHABOYEV,

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Farg'ona filiali o'qituvchisi

GLOBALLASHUV SHAROTIDA AXBOROT XURUJI VA UNING YOSHLAR TARBIYASIGA TA'SIRI

Annotatsiya

Maqolada globallashuv shartida axborot xurujining yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga ta'siri muammolari ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, globallashuv davrida yoshlar ongida internet orqali kirib kelayotgan zararli g'oya va ta'sirlardan samarali va ishonchli himoyalashning ustuvor yo'nalishlari atroflicha yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Globallashuv, axborot xuruji, axborot makoni, ma'naviy-axloqiy tarbiya, mafkuraviy ta'sir, ong.

В данной статье представлен социально-философский анализ проблемы воздействия информационной угрозы в условиях глобализации на духовно-нравственное воспитание молодёжи. Также автором рассматриваются приоритеты защиты сознания молодёжи от вредных идей и воздействий, проникающих через интернет.

Ключевые слова. Глобализация, информационная угроза, информационное пространство, духовно – нравственное воспитание, идеологическое воздействие, сознание.

The article is dedicated to the problem of information threats in globalization context and its impact on spiritual and moral education, and to the social and philosophical analyses. The author also describes effective and confident mechanism to raise the youth's conscious and cultural awareness against unhealthy ideologies spreading through the Internet.

Key words. Globalization, young people, information threat, spiritual education, idea.

“G loballashuv” atamasi dastlab amerikalik olim T.Levittning “Garvard biznes revyu” jurnalining 1983-yilgi sonlaridan birida tilga olingan. Bu atamaga keyinchalik mutaxassislar turlicha ta'rif berdilar. “Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana birov yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamogda”. Lekin shunisi aniqki, zamon murakkablashib bormogda, undagi voqea-hodisalar rivoji keskin tarzda tez-tez o'zgarib, ko'p qutbli dunyoda munosib o'rin egallashga harakat qilayotgan kuchlarni bashariyat foydasi uchun bir bo'lib harakat qilishlariga yo'l ochilmogda, ammo umumbashariy axloqiy muhit mezonlariga zid bo'lgan qarashlarning yoyilishiga to'sqinlik qilishga odamlar ojizlik qilmoqdalar. Bu hodisalar globallashuv jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari sifatida e'tirof etilmogda. Shu o'rinda aytish mumkinki, hozirgi global dunyoda yagona axborot makoni shakllandi. Ushbu makondan munosib o'rin egallash uchun bo'ladigan kurash O'zbekistonni ham chetda qoldirmaydi. Chunki zamonaviy dunyo-

da jurnalistlar geosiyosatchilar kasbiga qiyoslanmoqda. Qanchadan-qancha mablag' axborotni qayta ishlash, axborotlarni belgilangan makonga yetkazish, yetkazganda ham birinchi bo'lishga qaratilayotgani bejiz emas. "Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig'iz, shu qadar tezkorki, endi ilgariidek, ha, bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo'q, deb beparvo qarab bo'lmaydi. Ana shunday kayfiyatga berilgan xalq yoki millat taraqqiyotdan yuz yillar orqada qolib ketishi hech gap emas". Prezidentimiz I.A.Karimovning bunday fikrlari bejiz emas. Zero, dunyoga tarqatilayotgan 80 % axborotni sanoqli axborot agentliklari yetkazib bermoqda. Bu ularning xohlagan axborotni o'z manfaatlaridan kelib chiqqan holda tarqatish imkonini beradi.

Insoniyat XXI asr oxiriga kelib bir qator chegara bilmaydigan muammolarga duch keldi. Urush va yovuzliklar, ekologik falokatlar, ma'naviy qashshoqlik, narkobiznes, terrorizm, odam savdosi kabi muammolar ana shular jumlasidandir. Shu bilan birga, dunyoda globallashuv, axborot oqimining tezlashuvi va intensivlashuvi, universal texnologiyalar tarqalishi bilan bog'liq umumbashariy jarayonlar ham tobora chuqurlashib bormoqda. Ba'zi olimlar buning sababini "xalqaro munosabatlar va ijtimoiy adolatdagi burilish", ya'ni har bir qit'a, mintaq, millat yoki hududning o'z manfaatlarini o'zgalar hisobidan qondirishga urinishlaridan desalar, ba'zilar "alohida hudud yoki strategik muhim mintaqalarni o'z ta'sir doirasida tutib qolish uchun kurash" deb ko'rsatadilar. O'z navbatida, jahon geosiyosatida xalqlarni ma'naviy-mafkuraviy jihatdan tobe etishga intilish, dunyoni bo'lib olishga urinish, inson qalbi va ongini egallash uchun kurash tobora kuchayib bormoqda. Sodir bo'layotgan holatlar globallashuv jarayoni bo'lib, undan chetda turaman deb o'ylagan mamlakatlar uning ta'siriga ko'proq uchrab qolmoqda. O'z ta'sir doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va harakatlar axborotni yetkazib berish darajasi bo'yicha eng mukammal ommaviy axborot vositasi bo'lgan internetdan keng foydalanmoqda. Shunday ekan, ayrim davlatlar o'zlarining g'arazli maqsadlariga yetishishda xalqning turli qatlamlari, xususan, yoshlar ongi va qalbiga mafkuraviy ta'sir ko'rsatish orqali ularning faoliyatiga, manfaatlariga yo'naltirilgan mafkuraviy muhit yaratishni asosiy maqsad qilib qo'yishgan.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bugungi kunda dunyoning mafkuraviy manzarasi hozirda juda murakkablashib ketdi. Unda ta'sir kuchiga ega bo'lishni eng maqbul yo'li sifatida, mablag' qancha ketishidan qat'iy nazar yirik axborot tarqatuvchilik mavqeini egallash ekanligi hozirda sir bo'lmay qoldi. Jahonda informatsion urush ketayotganini hatto oddiy insonlar ham sezishlari mumkin. Misol uchun biron mamlakat hududida ma'lum turmush tarzini, qadriyatlar tizimini ulug'lovchi risolalar, san'at asarlari, kinofilmlar, axborotlar va hokozolar tarqatilmogda. Bunday informatsiyalar jamiyatda ma'lum ijtimoiy fikrning shakllanishiga ta'sir etmay qolmaydi. Psixologlar o'tkazgan tadqiqotlarga ko'ra, aholining 15-25 foizigina axborotni tanqidiy nuqtayi nazardan o'zlashtirishga qodir, qolgan 75 foiz odamlar esa, olingan axborotning ta'siriga shundayligicha berilib ketadi.

Globallashuv sharoitida ba'zi mamlakatlardagi turli xil siyosiy, mafkuraviy va boshqa kuchlar (120 ga yaqin davlat axborot xurujlarini uyushtirish ustida ish olib bormogda) o'zlarining g'arazli manfaatlari yo'lida ommaviy kommunikatsiya vositalaridan, ayniqsa, Internet tarmog'idan foydalanib, axborot erkinligini suiiste'mol qilib, o'sib kelayotgan yosh avlodga axborot tahdidlarini ko'rsatish orqali, hali ongi va ha-

yotiy qarashlari shakllanib ulgurmagan yoshlarni chalg'itish, ularning ongi va qalbini egallash yo'lidagi intilishlari kuchayib borayotgani hech kimga sir emasdir. Shunday ekan, nosog'lom axborot oqimi va ta'siridan yoshlarni himoyalash uchun rivojlangan davlatlarda qanday huquqiy mexanizmlar mavjud, degan o'rinli savol tug'iladi? Ma'lumki, xalqaro amaliyotda "Kiber jinoyatlar to'g'risida" Konventsiya, "Voyaga yetmaganlar uchun xavfsiz Internet va onlayn resurslarni joriy qilish to'g'risida" Yevropa Ittifoqi Parlamenti Assambleyasining tavsiyalari, "Bola huquqlari to'g'risida" BM Konvensiyasini, "Yoshlarni himoyalash to'g'risida" Germaniya, "Voyaga yetmaganlarni ommaviy axborotning salbiy ta'siridan himoyalash to'g'risida" Litva va "Bolalarning sog'ligi va rivojlanishiga ziyon yetkazuvchi axborotdan himoyalash to'g'risida"gi Rossiya Federatsiyasi qonunlari mavjud ekanligini tilga olishimiz mumkin bo'ladi.

Bu yoshlarga kelajagimiz davomchisi sifatida g'amxo'rlik qilishgina emas, balki globallashuv jarayoni aynan yoshlar ishtirokida keng qamrovli ahamiyat kasb etayotgani bilan izohlanadi. Chunki globallashuv tufayli erishilgan yutuqlar va orttirilgan "ommaviy madaniyat" dinamik xarakterda bo'lib, uning tarqatish vositalari – zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, internet tarmoqlari va kompyuter tizimlari tezlikni talab qiladi va bu imkoniyat yoshlarda aks etgan. Qolaversa, ushbu tizimlarning faoliyatiga bo'lgan qiziqish ham yoshlarga xos jarayon. "Bugungi kunda yoshlarimiz nafaqat o'quv dargohlarida, balki radio-televidenie, matbuot, internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot va ma'lumotlarni olmoqda. Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o'rab-chirmab, uni o'qima, buni ko'rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o'rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga ham to'g'ri kelmaydi" deb yozadi Prezidentimiz I.A.Karimov.

Taassufki, bugun yoshlarimizning aksariyati globallashuv tufayli Yevropa va xorijiy ma'naviy-madaniy oqimlar ta'siriga ko'proq ishtiyoqmand bo'lib, milliy ma'naviyatimizning hayotbaxsh, yuksak axloqiy tarbiyaga asoslangan tamoyillarga ixlosmandligi sust kechmoqda. Inson qadri, mas'uliyati, axloqiga bepisandlik ba'zi yoshlarning kiyinishi, fe'l-atvori, yurish-turishida yaqqol ko'zga tashlanib qolmoqda. Bizning nazarimizda inson qadriyati uning axloqiylikka yo'nalgani bilan belgilanishi kerak. Qanchadan-qancha mablag' axborotni qayta ishlash, axborotlarni belgilangan makonga yetkazish, yetkazganda ham birinchi bo'lishga qaratilayotgani bejiz emas. Zero, odamlarda axborotni eng avval bera olgan doimo haq bo'ladi degan qarash mavjud bo'ladi. Prezidentimizning bunday fikrlari bejiz emas. Zero, dunyoga tarqatilayotgan 80 % axborotni sanoqli axborot agentliklari yetkazib bermoqda. Bu ularga xohlagan axborotni o'z manfaatlaridan kelib chiqqan holda tarqatish imkonini beradi. Bundan ko'rinadiki, ommaviy axborot vositalari (OAV) orqali olib borilayotgan ma'naviy xurujlar axloqiy xaos holatini behad kuchaytiradi. Halokatga uchragan kemalar, yongan kasalxonalar, o'rmonlar, qalbni muzlatib yuboradigan yollanma qotilliklar va boshqa jinoyatlar haqidagi axborotlar harqanday kishi ongida kuchli saro-sima keltiradi, chorasizlik, ayanch tuyg'usini chaqiradi. Shu munosabat bilan mamlakatimiz prezidentining "Narkobiznes, noqonuniy qurol-yarog' savdosi, terrorchilik singari tahdidlar" hamda "inson tabiatidagi insoniylikdan ko'ra ko'proq vahshiylikni, yovuzlik, shafqatsizlik hislarini qo'zg'otadigan, yoshlar diydadini qotiradigan, ular qa-

Ibida o'zlariga sezdimagan holda toshbag'irlik, zo'ravonlik, axloqsizlik kabi illatlar joy olishiga olib keladigan jangarilik filmlarining jiddiy zararlari” haqidagi fikrlari yana bir bor o'z dolzarbligini namoyon etadi”. Shuning bilan bir qatorda Markaziy Osiyo davlatlari uchun tayyorlanayotgan axborotlarning aksariyati bu hududda yashayotganlar dunyoqarashiga psixologik ta'sir etishni maqsad qilgan mafkuraviy markazlar tomonidan moliyalashtirilmoqda. Ularning maqsadi, mustaqil davlatlar tanlagan yo'lining noto'g'ri ekanligini singdirishga qaratilgan, ularni oxir-oqibatda ijtimoiy larzalar kutayotganini asoslashga asosiy e'tibor berilganligidan bilishimiz mumkinki, bularning barchasi millat ruhini tushirish, uni tanlagan yo'lidan qaytarish va homiy axtarishga majbur etmoqda. Zamonaviy dunyoda “o'zga hududlarni zabt etish uchun, ularning aholisini qirish shart emas. Zero, ongi va shuuri zabt etilgan, qarash va kayfiyatlari o'zgartirilgan aholi ko'magida har qanday boylik, tabiiy resurslarga egalik qilish mumkin bo'lib bormoqda”. Agar bunda milliy matbuotimiz ojizlik qilsa, axborot maydonidagi iqlimni boshqalar belgilaydigan holga tushadigan bo'lsak, axborot urushida yengilib qolamiz, bu go'yoki “erkinlik”, “demokratiyani olg'a siljitish” qabilidagi safsata bilan yurtimizga ta'sir etishni mo'ljallayotgan kuchlar uchun ayni muddao. Bunga yo'l qo'yib bo'lmasligini barchamiz bilamiz. Shunday ekan, Yurtboshimiz aytganlaridek, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish maqsadga mufoviqdir.

Zamonaviy axborot kommunikatsiya vositalari bizni global axborot makoni bilan bog'lab, axborot olish va tarqatish geografiyasini kengaytirib, dunyo mamlakatlari va xalqlarini yaqinlashtirdi. Bu ijobiy holat, albatta. Biroq axborot makonida tahdidlar bor ekan, milliy axborot makonimizga chegara qo'yib bo'lmasligini nazarda tutib, kelajagimiz vorislarini o'ylab, vayronkorlik va buzg'unchilik mazmunidagi axborot oqimini cheklashimiz, yosh avlodning ma'naviy olamining daxlsizligini asrashimiz kunning dolzarb vazifalaridan biri desak, mubolag'a bo'lmaydi. Chunki aynan postindustrial inqilob, informatizatsiya, globalizatsiya jarayonlari foyda ketidan quvadigan, asosan moddiy manfaat va ehtiyojlarini qondirishga intiladigan, milliy hamda sinfiy qiyofasini yo'qotgan, o'z maqsadlari yo'lida har qanday g'oyani qo'llashga tayyor turgan shaxslarni yaratdi. Bunday salbiy holatlar vatanimizga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Buning uchun kurashish, zarur bo'lsa, barcha imkoniyatlarni ishga solish lozim. Prezidentimiz “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida yozadilarki, “Bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arziyasiz tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin”. Bundan shu narsa anglashiladiki, hozirda har qanday axborot chegara bilmaslik xususiyatiga ega, shunday ekan endigina ongi, dunyoqarashi shakllanayotgan yosh avlodning ma'naviy olami daxlsizligini asrash har bir fuqaroning zimmasidagi vazifa bo'lishi kerak.

Bugungi kunda yurtimizda barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasi o'ta dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga qo'yilayotganligi, ayni shu axborot xurujlariga qarshi yetarli immunitetga ega bo'lgan, sog'lom fikrli insonlarni maydonga chiqarish, zamonaviy o'zbek jamiyatining asosiy vazifa ekanligi mutaxassislar tomonidan asoslab berilmoqda. O'z davrida ma'rifatparvar olim Abrurauf Fitrat “Oila” risolasida axloqodobda namunalı avlodni tarbiyalash nafaqat bir millat yoki xalq uchun, ayni paytda

butun insoniyat uchun g'oyatda muhim ekanligini zikr etib, "Kimki badaxloq bolalarni tarbiya etsa, insoniyatga xizmat emas, balki dushmanlik qilgan bo'ladi" deb yozgan edi. Bunda asosiy e'tibor oiladagi sog'lom ma'naviy-axloqiy muhit hamma zamonlarda ham ma'naviyat qo'rg'oni bo'lib kelganligini, ayniqsa, hozirgi zamonda bu juda dolzarb ekanligini anglatadi. Oiladagi muhit sog'lom bo'lsa, undan, albatta, mustaqil fikrlovchi, ertangi kun uchun qayg'uruvchi insonlar voyaga yetadi. Axboriy kurashda O'zbekiston o'zining maqbul yo'lini tanlab olgan, bu yo'l odamlar fikrini boshqarishni emas, balki ularda milliylikni uyg'otish kerakligiga e'tibor qaratadi va yosh avlodda mustaqil dunyoqarashni shakllantirishni asosiy vazifa deb biladi. Axborot maydonida nafaqat omon qolishni, balki yengib chiqishning asosiy sharti – erkin fikrlaydigan, ijtimoiy mas'ullikni to'g'ri tushunadigan shaxsni tarbiyalash, uning uchun farovon turmush sharoitlarini yaratishdir. Yurtboshimiz aytganlaridek, "O'z mustaqil fikriga ega bo'lgan, o'z kuchiga, o'zi tanlagan yo'lning to'g'riliga ishongan inson doimo kelajakka ishonch bilan qaraydi".

Respublika miqyosida qabul qilingan qonunlar va sohada olib borilgan islohotlar tufayli axborot sohasida 1294 ta ommaviy axborot vositalari, 1036 ta Internet-kafelar, 939 ta Internet provayderlar, 187 ta davlat axborot resurslari, "ZiyoNET" yoshlar axborot portal, 2863 ta axborot-resurs markazlari faoliyat yuritmoqda. Internetdan foydalanuvchilarning soni esa 9 milliondan oshgani va ularning aksariyat yoshlar tashkil etishi, bu faoliyatimizga jiddiy e'tibor berishimizni taqozo etadi. Bugungi kunga qadar aholi va avvalo yoshlar tomonidan axborotni qabul qilish, uni qayta ishlash hamda foydalanish omillariga jiddiy e'tibor berilayotganligi aloqa va axborotlashtirish sohasida salmoqli ishlar amalga oshirilayotganidan dalolat beradi. Buni sohaga yo'naltirilayotgan mablag'lar, xususan, xorijiy sarmoyalar hajmi yildan-yilga oshib borayotganidan ko'rishimiz mumkin. Birgina 2011-yilning o'zida mazkur sohaga 266,7 million dollar miqdorida xorijiy sarmoyalar va kreditlar jalb etish bilan birga, mamlakatimizdagi korxonalarning 72,3 milliard so'm mablag'i ham sarflandi. Ayni chog'da mobil aloqa va interenet tarmog'i ko'lamini tobora kengaytdi. 2011-yilda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 41,6 foizga o'sdi, bu ko'rsatkich, avvalo, mobil aloqa va internet tarmog'i xizmatlaridan foydalanadigan abonentlar sonining o'sishi hisobidan ta'minlangan, 2012-yilda global axborot makoniga kirish xizmatlarini amalga oshiruvchi xo'jalik sub'ektlari soni 945 taga, jamoa foydalanish punktlarining umumiy soni esa 1053 taga yetganligi (2002-yilda ularning soni 88 tani tashkil etar edi), fuqarolar axborot-kommunikatsiya vositalari orqali turli davlat idoralarining 450 turdagi xizmatidan foydalanish imkoniyati yaratilganligini alohida ta'kidlash zarur.

Bugungi kunda mamlakatimizda milliy axborotlashtirish tizimini shakllantirish, shu orqali aholining axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida bir qator ibratli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda yuz berayotgan voqealar haqida ma'lumot olish maqsadida Internetdan foydalanuvchilar global tarmoqning milliy segmenti – "UZ" domen hududiga murojaat qilishadi. 1995-yilning 29-aprelida ro'yxatdan o'tkazilgan "UZ" domenida hozirgi kunda respublikamizda 14,1 mingdan ortiq saytlar ishlab turibdi, ular soni yil boshidagiga nisbatan 700 taga ortgani domenning samarali ishlayotganidan dalolat beradi.

Darhaqiqat, bugungi kunda hayotimizni ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur qilishimiz qiyin. Yoshlarimiz dunyo haqida, asosan ommaviy axborot vositalari

orqali ma'lumotga ega bo'lishadi. Internet ham asosiy axborot bazasi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Ammo g'arb madaniyatiga asoslangan ba'zi ko'rsatuv va saytlar borki, bular axloqqa ziddir. Bu esa yoshlarning axloqiga, dunyoqarashiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Bundan tashqari quyidagi fikrni ilova qilishni o'rinli deb bilaman. Ya'ni televedenie seriallar bilan to'lib toshganligiga ham salbiy fikr bildirish mumkin. Chunki yoshlarning asosiy vaqtlarini televizor ko'rishga sarflashi ta'limning sifatiga ta'sir qiladi. Bu bir tarafi, matbuot gazeta va jurnallarda beriladigan ma'lumotlarning ham sayozligi yoshlarimiz fikrlash doirasiga salbiy ta'sir qiladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, mafkuraviy kuchlarning ta'siri doimiy ravishda sezilib turgan davrda yashayotgan ekanmiz, avvallo, yoshlarimiz ongida mafkuraviy immunitetni rivojlantirish shart. Bunga erishish uchun yoshlarimizni erkin va mustaqil fikr yuritadigan, iymon-e'tiqodli, aql-zakovatli, irodasi mustahkam, bilimli va dono bo'lishi, o'z yurti tarixi, milliy qadriyatlari hamda buyuk ajdodlari qoldirgan ilmiy va ma'naviy me'rosni qalbiga jo'etmog'imiz zarur. Demak, oilaga, ta'limga, tengdoshlarga, om-maviy axborot vositalariga berilayotgan e'tibordan maqsad shuki, nafaqat xalqimizni, balki yoshlarimizning ma'naviy kamolotini yksaltirishdir. Chunki har tomonlama yetuk shaxslar oqni qoradan, yaxshini yomondan, fazilatni illatdan ajrata oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Milliy istiqlol mafkurasi xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir.* –T.: “O'zbekiston”, 2000.
2. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.* –T.: “Ma'naviyat”, 2008. –110 b.
3. Xolbekov A., Matiboyev T. *Ijtimoiy adolat va demokratiya: barqaror taraqqiyot yo'lida.* –T.: “Yangi asr avlodi”, 2004. – 186 b.
4. Jo'rayev T. *Milliy davlatchilik: xavfsizlik va barqarorlik.* –T.: “Akademiya”, 2007. – 252 b.
5. Saidov U. *Globalashuv va madaniyatlar muloqoti.* –T.: “Akademiya”, 2008. –9 b.
6. *Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari barcha sohalarning samarali faoliyati va jadal rivojida muhim ahamiyatga ega // Xalq so'zi.* 2012. – 6-mart.
7. *Telekommunikatsiya rivojining huquqiy kafolati // Xalq so'zi.* 2012. 9-fevral.

Nigora KENJABOYEVA,
Surxondaryo viloyati
XTXQTMOI katta o'qituvchisi

YOSHLAR ONGIDA MAFKURAVIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada yoshlar ongida mafkuraviy tarbiya va sog'lom g'oyalarni shakllantirish zarurligi xususida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif istiqbol g'oyalariga samarali xizmat qilayotgan sharq mutafakkirlari, olim va faylasuflar hamda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish orqali ijobiy natijalar berishligiga alohida to'xtalib o'tgan.

Kalit so'zlar. Mustaqillik, milliy mafkura, vijdon, burch hissi, milliy tarbiya, ma'naviy-ma'rifiy muhit, xalq pedagogikasi.

В данной статье обоснована необходимость идейного воспитания и формирования здоровой идеологии в сознании молодежи. Автор особо подчеркивает значение использования наследия мыслителей, ученых и философов Востока в формировании идей независимости у молодого поколения.

Ключевые слова. Независимость, национальная идеология, совесть, чувство долга, национальное воспитание, духовно – просветительская среда, народная педагогика.

The article deals with the problem of teaching national ideology and the developing youth's cultural awareness. The author points out that using sage advice inherited from oriental scholars and samples from folk tales causes positive results in teaching national independence ideology.

Key words. Independence, national ideology, conscience, duty, national education, ideological-educational process, national pedagogics, educator.

Yoshlarning eng katta yutuqlari va ularga bo'lgan yuksak e'tiborning sababi, bugungi yoshlar mustaqillik mafkurasi bilan o'sib, shu ruhda shakllanayotganligidir. Prezident Islom Karimov "Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir" kitobida quyidagi fikrni bildiradilar: "Yurtimizda tug'ilgan endi 5 yoshga to'lgan bolalar ham "Men – O'zbekiston fuqarosiman!" deb faxrlanib, g'ururlanib gapiradi. Kimki mamlakatimizga kelsa, bu haqiqatning tasdig'ini har qadamda ko'rish mumkin". Shuning uchun bugun asosiy e'tibor yoshlarga, yoshlar tarbiyasiga, tafakkur shakllanishi hamda ular zimmasiga O'zbekistonning buyuk kelajagi quruvchisi bo'lishdek mas'uliyat yuklatilganligiga qaratilgan. Mana, 24 yildirki yoshlar mustaqillik g'oyasi, mafkurasi bilan o'smoqda. Ular eski tuzum g'oyasidan xolidirlar. Shu bois, tashqi axboriy xurujlar, ba'zan sezilmas axborotlar tashviqoti va ta'siridan yoshlarni muhofaza qilish, ogohlantirish, sergak bo'lish davr talabi sanaladi.

XXI asrda yashab, samarali mehnat qilish, O'zbekistonning buyuk kelajagini bunyod etish asosan bugungi yosh avlod zimmasiga tushadi. Ularni bilimli, madaniyatli, mehnatsevar, tashabbuskor, izlanuvchan qilib tarbiyalash keng tajribaga ega, turmushning achchiq-chuchugini ko'rgan, qiyinchiliklardan toblangan yoshi ulug'larimiz, faxriylarimizning, shu bilan birga mazkur ishga da'vat etilgan tarbiyachilar, muallimlar, ustozlarning bosh vazifasidir.

Prezidentimiz Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 24 yillik tantanasida so'zlagan nutqida shunday degandilar: "Men yoshlarni o'z farzandim deb bilaman, ularning kelajakni yuksalishida o'z hissalarini qo'shishlariga ishonaman". Shaxs tarbiyasining yo'nalishi bu g'oyaviy tarbiyadir. G'oyaviy tarbiya insonlarning hayot haqidagi falsafiy, siyosiy, huquqiy, diniy, axloqiy, badiiy, kasbiy qarashlarini shakllantirishni ifodalab, yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish, ongini bilimlar bilan boyitish va jamiyat uchun kerak bo'lgan sifatlarini kamol toptirishga xizmat qiladi.

Mafkuraviy tarbiyaning maqsadi jamiyatning har bir a'zosi va ular timsolida har bir ijtimoiy qatlam, guruhning tarbiyaviy darajasini ta'minlashdir. Zero, har bir inson o'z mafkurasini va ezgu maqsadiga ega bo'lsa, u umri davomida shu mafkura ostida ezgu maqsadi uchun yashaydi va xizmat qiladi.

Sog'lom yangicha dunyoqarash Vatanga sadoqatni, milliy qadriyat va an'analarga muhabbatni, tanlagan yo'li, maslagi va e'tiqodiga sadoqatni bilish, tasavvur va g'oyalar majmuini anglatadi. Sog'lom e'tiqod esa bu o'zidan oilasiga, farzandlariga, insoniyatga nimadir qoldirishni istab yashashni, barkamol bo'lishni, mardlikni, jur'atni, fidoyilikni, irodani, halollikni muayyan qarashi yoki ta'limot asosida qabul qilishda shakllangan fikr va tasavvurlar yig'indisini ifodalaydi. Yoshlar sog'lom g'oyalarga ega bo'lsa, mafkuraviy tarbiyaviylikka ega bo'ladi. Mafkuraviy tarbiyaviylik insonning yuksak e'tiqodida, Vatan va xalq oldidagi mas'uliyatida, iymonida, vatanparvarligida, fidoyiligida namoyon bo'ladi. Yana shuni aytib o'tish lozimki, yoshlik davri sog'lom g'oya va mafkuraviy tarbiyaviylikni shakllantirish uchun muhim bosqich hisoblanadi. Shuning uchun ham mafkuraviy ta'sirlar yoshlarning ongiga, qalbiga qaratiladi.

Yoshlar ongida mafkuraviy tarbiya va sog'lom g'oyalar, milliy mafkurani shakllantirish uchun ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy muhit zarur. Prezidentimiz tomonidan milliy qadriyatlarni tiklash, tarixni xolis o'rganish, ma'naviyatni yuksaltirish ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlariga aylantirildi, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlovchi nodavlat tashkilotlar, ijtimoiy va siyosiy institutlar, jamg'arma va harakatlarning yuzaga kelishi yoshlarning g'oyaviy va ma'naviy tarbiya olishi hamda shakllanishida muhim rol o'ynamoqda.

Prezident Islom Karimov erkin fuqaro, ozod shaxs, komil inson haqida gapirib, quyidagi to'rt jihatga e'tiborni qaratdi, ya'ni har bir fuqaro:

- "O'z haq-huquqini taniydigan bo'lsin, buning uchun kurashsin;
- O'z kuchi va imkoniyatlariga tayangan bo'lsin, imkoniyatlarini ishga solib, samarasini ko'rsin;
- Atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bildira olsin;
- Shaxsiy manfaatini mamlakat va xalq manfaati bilan uyg'un holda ko'rib, faoliyat yurit sin;

Bugungi kunda yoshlarning kelajagi, ularning har tomonlama yuksak ma'naviyatli shaxslar bo'lib voyaga yetishi ularda vijdon va burchni tarbiyalash muammosi bilan bog'liqdir, chunki unda shaxsning ijtimoiy munosabatlari o'z ifodasini topadi".

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Respublikamiz mustaqil davlat sifatida taraqqiyot yo'liga kirib, jahon hamjamiyatida o'z o'rnini topdi. Bunday paytda milliy qadriyatlarning yosh avlod tarbiyasidagi roli beqiyosdir. Zero, milliy qadriyatlar yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasida, ularni komil inson qilib yetishtirishda nazariy asos sifatida xizmat qiladi.

Qadriyatlar endilikda xalqimizning istiqlol g'oyalariga samarali xizmat qilmoqda. Shuning uchun ham Yurtboshimiz "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" nomli asarida mamlakatimizning istiqlol yo'lidagi birinchi qadamlaridanoq, buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berilganligini alohida ta'kidlagan edilar. Bu g'oyalar O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da o'z ifodasini topgan. Mazkur hujjatlarga asoslanib, ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiyaning sifat jihatiga e'tibor kuchaytirilmoqda.

Ma'lumki, Sharq mutafakkirlari, olim va faylasuflari, jahonning ko'plab pedagoglari o'zlarining ilmiy ta'limotlarida hamda adabiy-badiiy, pedagogik asarlarida komil inson tarbiyasiga, ma'naviy meros masalasiga alohida e'tibor berganlar. Ushbu ilmiy g'oyalar asrlar osha hayot sinovidan o'tib, insonparvarligi bilan mumtozlashgan Sharq xalqlari pedagogikasiga o'lmas asos bo'lib qoldi. Shu sababli bu umumpedagogik g'oyalarini o'rganish va targ'ib qilish har bir yangi avlodning burchi hisoblanadi.

Axloq haqidagi masala nazariy-amaliy jihatdan o'tmish mutafakkirlari tadqiqotlarida keng asoslab berilgan. Shu bois axloq haqidagi ta'limotlar o'zbek maktablaridagi axloqiy tarbiya jarayonida ham nazariy, ham amaliy poydevor bo'lib xizmat qiladi. O'sib kelayotgan yosh avlodda, ayniqsa, vijdon va burchni tarbiyalash muammosi axloqiy tarbiyaning o'zak qismi, u shaxsning ma'naviy va ma'rifiy saviyasi bilan bog'liqdir, chunki unda shaxsning ijtimoiy munosabatlari o'z ifodasini topadi. Bu munosabatlar shaxsning mehnatga, jamiyatga, ijtimoiy hayotga, insonlarga, ota-ona, qarindosh-urug', yor-birodarlar va tengdoshlarga nisbatan xulqiy qarashlaridir. Bu munosabatlar orqali insonning ma'naviy dunyosi va ma'naviy saviyasi belgilanadi. Ma'naviy dunyo bu inson faoliyatini, qiziqishlarini, fikr-munosabatlari, qarashlarini, e'tiqod va ishonchini ifodalaydi. Aynan shu xususiyatlar shaxs ijtimoiy faoliyati, boshqa insonlar bilan o'zaro aloqa va ishonchiga doir muloqotlarning mazmunini belgilab beradi.

Insoniyat tarixida qalbida qadim-qadimdanoq o'z e'tiqodiga, o'zining haqligiga, qiyinchiliklarni yenga olish kuchiga ishonch tuyg'ulari mavjudligi aniqlangan. Gap ana shu tuyg'uni mustahkam qaror toptirish, rivojlantirish va to'g'ri tarbiyalashdadir. Bu xildagi fazilatlar kishilarni bir-birlariga yaqinlashtirgan. Ilmiy adabiyotlarda inson his-tuyg'ularini shakllantirish xulqni idora qilishning o'ziga xos shakli deb ta'riflanadi. Chunki bu xususiyat ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, ya'ni mehnatda, maishiy hayotda, siyosatda, oilada va boshqa xil munosabatlarda kishilarning aloqa-aralashuv madaniyatini ifodalaydi. Kishi o'z axloqiy qiyofasini boshqa insonlarga

bo'lgan munosabatida namoyon etadi va bu munosabat uning kechinmalari, amal qiladigan qadriyatlari, fe'l-atvor tushunchalari, tasavvurlari, fikrlashi va so'zlashida yuzaga keladi.

Insonning odobi, munosabatlari, kechinmalari, intilishlari falsafiy jihatdan olib qaraganda yaxshilik va yomonlik kategoriyalari bilan o'lchanadi. Hayotda inson turli vaziyatlarga tushib qolishi mumkin. Masalan, kimdadir yordam qo'lini cho'zishi, uni og'ir vaziyatdan qutqarib qolishga ko'maklashish zarurati tug'ildi deylik. Birov buni o'z odati, axloqining talabi bo'lganligi uchun ongli ravishda bajaradi, boshqa birov esa buni tushunadi-yu, lekin mas'uliyat his etmaydi yoki nomigagina uni bajaradi. Ongli, qalb amriga muvofiq yaxshilik qilish odati yuksak fazilatlar sohibiga xosdir. Bunday axloqiy kamolotga juda yoshlikdan o'rganish, odatlanish natijasida erishiladi.

Xulqiy xatti-harakatlar orasida insonning xatti-harakat faoliyatini emotsional tomoni, ya'ni axloqiy his alohida ajralib turadi. Insoniylik, vatanparvarlik, kishilarga nisbatan mehr-shafqat, do'stlik va burch munosabatlarining shakllanishi inson ongida emotsional his shaklida o'z aksini topishi kerak. Xuddi shuningdek, xulqiy meyor, baho, ideal adolat va adolatsizlik, ezgulik va razillik haqidagi tushunchalar inson tomonidan, avvalo, hissiy yo'l bilan o'zlashtiriladi. Burch, vijdon, mas'uliyat, yaxshilik, qadr-qimmat kabi talablar insonning axloqiy ongini belgilaydi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida, ayniqsa, ta'lim jarayonida bunday axloqiy sifat va his-tuyg'uni yosh avlodda shakllanishida xalq og'zaki ijodi namunalari muhim hisoblanadi. O'zbek xalq ertaklarida asosan xalqimiz mentalitetiga xos bo'lgan mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonlarga mehr-shafqat, do'stlik, o'rtoqlik, umuman olganda, chin inson uchun zarur bo'lgan barcha ijobiy fazilatlar ulug'lanadi. Ularga qarama-qarshi bo'lgan yovuzlik, yolg'onchilik, qo'rqqoqlik, xiyonat, dangasalik kabi salbiy xislatlar qoralanadi va shu sababli ular tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. O'zbek xalq ertaklari kattalarni hurmat qilish, ilmga intilish, kasb egallash, kishilarga mehr-muhabbat bilan muomalada bo'lish, nutq odobiga amal qilish, insoniy huquqlarni himoyalash, qadrlash, jamiyat oldidagi burchni anglash, insonlarga nisbatan samimiy, rostgo'y va halol bo'lish kabi dastlabki xulq odob qoidalari bilan yo'g'rilgan bo'ladi. Bunga "Munavvar tanti", "Baxtiyor", "Uch og'a-ini botirlar", "Qora soch pari", "Ohan-rabo", "Malikai ayyor", "Aka-uka", "Egri va to'g'ri", "To'g'rilik-boylik", "Aqli qiz" kabi ertaklarini dalil qilib ko'rsatish mumkin. Ertaklardagi asosiy g'oya komil insonni voyaga yetkazish bilan bog'liq.

Yaqin o'tmishda milliy tarbiyamiz, ming yillik urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz kamsitilib, dinimiz, tilimiz oyoq osti qilinishi oqibatida insonlar orasidagi mehr-oqibat, vijdon va burch, sharm-hayo, or-nomus, halollik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat susayib ketdi. Bugun biz tarbiyachilar yoshlarda shu bo'shliqlarni to'ldirishimiz lozim. Kishi hech qachon yomon bo'lib tug'ilmaydi, balki bolalar bilan yoshlikdan muntazam shug'ullanmaslik, ularning kundalik yurish-turishi, darsi, atrofidagi do'stlari, xulq-odobi bilan qiziqmaslik, ularni o'z holiga tashlab qo'yish, nazoratsiz qoldirish salbiy oqibatlarga olib keladi. Bunday omillar ta'lim-tarbiya ishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Madaniy, tarixiy, milliy va hududiy an'analar maktabning tarbiyaviy tavsifini, uning ichki tuzilishini, moddiy olam bilan o'zaro munosabatini belgilaydi. Bu an'analar xalq

pedagogikasiga asoslangan bo'lib, xalqning ajralmas mulkiga aylanib boradi. Quriylayotgan binoning mustahkamligi uning poydevoriga, daraxtning baquvvatligi ildiziga bog'liq bo'lgani kabi, kelajakka munosib bunyodkor, bilimdon, axloqan pok avlodlar qoldirish ham tarbiyaning boshlang'ich negiziga, ya'ni bola maktabga ilk bor qadam qo'ygan vaqtda boshlangan ta'lim-tarbiya ishlarining mazmuniga bog'liqdir.

Shundan kelib chiqib, o'quvchilarda vijdon va burchni tarbiyalash jarayoni yuzasidan quyidagi xulosalarni bildirish o'rinlidir.

1. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy jarayonni xalq milliy qadriyatlari, milliy va ma'naviy meros, shuningdek, xalq og'zaki ijodi asosida ilmiy jihatdan tubdan qayta ishlab chiqish dolzarb masaladir.

2. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ko'proq malaka oshirish va qayta tayyorlov dargohlariga jalb qilib, ularga ta'lim-tarbiya ishlarida xalq milliy qadriyatlari, an'analari, urf-odatlarini, xalq og'zaki ijodini aks ettiruvchi "Xalq pedagogikasi" kurslaridan to'laqonli ma'lumotlar berish, ularni davr talabi asosida ilmiy bilimlar bilan qayta qurollantirish zarur.

3. Ayni paytda tarbiyachi murabbiylarni o'z va o'zgarlar axloqiy xatti-harakatlarini baholashga o'rgatib borish va shu asosda o'z xulqidagi mavjud kamchiliklarni tuzatib borishlariga erishish darkor.

4. Bo'lajak murabbiy va tarbiyachilarni xalq sayllari, hasharlari, to'y-marosimlarida ishtirok etishlarini ta'minlash va xalqning o'zaro munosabatlarini baholashga, xulosalar chiqarishga o'rgatish zarur.

O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'kidlanganidek, ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishga hissa qo'shish har bir ongli fuqaroning sharafligi, ayni paytdagi mas'uliyatli burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *O'zbekiston XXI asrga intilmoqda*. "O'zbekiston", 2000. – 232-233 b.

2. Karimov I.A. *"O'zbekiston respublikasi mustaqilligining 24 yilligi"ga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 1-sentyabr 2015-yil "Ma'rifat" gazetasi*.

3. Karimov I.A. *"Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori"* – T., 1997.

4. Karimov I.A. *"Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch"*. – T.: "Ma'naviyat", 2008.

5. Karimov I.A. *"Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir"* – T.: "Ma'naviyat", 2015. – 76 b.

Рисбой ДЖУРАЕВ,
д.п.н проф. УзНИИПН им. Т.Н. Кары Ниязи
Иброхим ИСМАТОВ,
к.п.н.

РАЗВИТИЕ НАУЧНОГО ПОТЕНЦИАЛА У ДЕТЕЙ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Аннотация

Maqola maktab o'quvchisi shaxsining ilmiy potensialini rivojlantirish muammolarini hal etish masalalariga bag'ishlangan. Mualliflar ilmiy potensialni rivojlantirish o'quv kursining ilmiyligi va uning tuzilmasi uchun mazmunni tanlashga taalluqli mezonlar bilan bevosita bog'liqligini aytib o'tgan.

Kalit so'zlar. Ilmiy potensial, ximiya asoslari, didaktik prinsiplar, tanlash mezonlari, o'quv mazmuni.

В статье рассматриваются пути решения проблемы развития научного потенциала личности школьника. Эти пути находятся в русле общих задач развития учащихся. Особенность развития научного потенциала связана с решением проблем научного обоснования учебного курса и критериев отбора содержания для его построения.

Ключевые слова. Научный потенциал, основы химии, дидактические принципы, критерии отбора, учебное содержание.

In this article the ways for resolving problem of formation and development of scientific knowledge of school-children are considered. These ways are in common line with development of pupils. Peculiarity dealing with formation of such knowledge of schoolchildren is related with settlement of the problems related to implementation of didactic principle of scientific character within training and criteria of selection of the content when working out a training course.

Key words. Scientific potential, the basics of chemistry, didactic principles, criteria of selection of the content, the content of education.

Под научным потенциалом мы будем понимать возможности школьника использовать сформированный научный багаж для объяснения и предсказания фактов, находящихся в предметной области теории.

“Понятие личность, – как говорил психолог Артур Ребер, – термин настолько сложный для определения и имеющий настолько широкую область употребления, что мудрый автор использует его как название главы и затем свободно пишет об этом не принимая на себя никакой ответственности за определения, если они и представлены в тексте”. Полагаем, что именно эта ситуация и используется нами.

Мы под понятием “личность” будем понимать человека (ученика) как субъекта отношений и познавательной деятельности.

Таким образом, речь пойдет о формировании у школьников теоретического научного знания и применения его для объяснения и предсказания новых фактов.

С методической точки зрения, формирование знаний представляет собой путь, состоящий из трех основных этапов.

На **первом этапе** формируется образ изучаемого объекта. В школе этим образом нередко и завершается формирование знания. Сам объект при этом служит средством наглядности. Когда изучаемый объект может служить средством обучения, то такую наглядность мы назвали наглядностью первого рода. О такой наглядности говорил еще Я. А. Коменский.

Без сформированного образа получение теоретического знания об объекте или совокупности таких объектов невозможно из-за беспредметности формируемой мысленной конструкции.

Второй этап – формирование понятийного аппарата и теоретического знания о данном объекте. Как известно, понятие – категория логическая. Поэтому формирование понятий есть процедура отделения знания об объекте от самого объекта, сужение изучаемых свойств объекта до важнейших из них. При этом, формируя понятия, мы все более и более абстрагируемся, удаляемся от реальности.

В сознании школьника при этом формируется некое модельное представление об объекте, которое упрощено до модели, которую можно сравнивать с аналогичными моделями других объектов.

Известно, что модели могут быть материальными и знаковыми. Они различаются степенью абстракции, удаленности от реальности. В процессе изучения явления, а также при обучении такие модели часто используются, замещая собой реальный объект. Замещение реального объекта материальной моделью и изучение этой модели на основе знаковой модели мы называем наглядностью второго рода. Нередко так сформированным знанием завершается изучение теоретического материала в 8-9 классах.

Еще в 1947 г. известным методистом химиком Ю. В. Ходаковым был поднят вопрос об изучении теоретического материала в курсе химии. Он предложил переместить изучение теоретического содержания ближе к началу курса, справедливо полагая, что сформированное теоретическое знание обладает рядом особенностей. Главной такой особенностью является его общность; второй особенностью является методическая приспособленность этого знания для восприятия его школьниками данного возраста; третьей особенностью служит возможность применения его для объяснения и предсказания новых знаний.

Таким образом, для формирования научного потенциала школьника прежде всего необходимо специально отобранное содержание учебного предмета, включающее понятия, законы и теории, доступные пониманию школьников данного возраста. При этом наряду с предметными на уроках химии все шире используются знаковые модели. Так, химический символ указывает на атом определенного химического элемента, а значит, его строение, относительную атомную массу и пр. Химическая формула показывает, простое это вещество или сложное, какие атомы входят в состав молекул (качественный состав вещества), сколько атомов входит в состав молекул (количественный состав вещества). На основе знания о составе можно подсчитать относительную молекулярную массу вещества, определить отношения масс атомов химических элементов в веществе. Таким образом, формула отражает ряд свойств вещества, а поэтому является его моделью.

Знаковыми моделями являются и уравнения химических реакций. В них показаны вещества, участвующие в химическом процессе, стехиометрические соотношения между ними. Уравнения отражают закон сохранения массы веществ при химическом взаимодействии, а поэтому могут использоваться для различных расчетов.

С помощью знаковых моделей реализуется условная наглядность, или наглядность третьего рода.

Знак, химическая или математическая формула, уравнение в буквальном смысле не отражают объекты или их свойства. Поэтому использование знаков, символов, формул, уравнений и действия с ними связаны с пониманием того, что эти объекты отражают. Таким образом, модели, химические знаки, формулы веществ, уравнения химических реакций переводят мышление учащихся с вещественного уровня на уровень абстракций. Отсюда часто проистекают большие трудности в усвоении школьниками тех учебных дисциплин, где широко используются знаковые модели.

Современный подход к отбору содержания курса химии базируется на представлении об основах химии.

Под основами химии в настоящее время понимают такое ее содержание, которое позволяет раскрыть развитие инвариантного ядра данной науки на теоретических уровнях, определяемых наиболее общими естественнонаучными теориями.

При разработке критериев отбора содержания необходимо учитывать то, что учебный курс как методическая система должен отвечать дидактическим принципам, важными из которых на этапе отбора и конструирования содержания являются научность, доступность и систематичность.

Рассмотрим, как влияют на отбор содержания курса химии эти дидактические принципы.

Обоснованный в 1950 г. М. Н. Скаткиным принцип научности понимается так, что учащимся на каждом шагу их учения предлагаются для усвоения прочно установленные в науке положения.

Как можно видеть, понимание научности курса как отражения в нем истинного знания малопродуктивно. Если мы преподаем химию, то, естественно, не можем вводить в курс неизвестные науке факты или теории. Поэтому принцип научности в таком понимании не дает четких ориентиров для отбора содержания и конструирования курсов.

К определению научности курса следует подходить с позиции внутренней характеристики научного знания, в частности, его системности. Всякое истинно научное знание (в широком смысле) представляет собой систему, состоящую из фактов, законов, понятий, различного рода теоретических положений и т. п. Причем каждый из этих компонентов находится во взаимосвязи с другими и, в конечном счете, может быть из нее выведен (предсказан). Если учесть это свойство научного знания, то можно заметить различие в научности курсов. Так, курс, включающий самые современные факты, понятия, теории и т. п., может оказаться недостаточно научным, если в нем не раскрыты связи между компонентами содержания. И наоборот, если взаимосвязи между элементами выявлены в достаточной мере, то курс можно признать научным даже в том случае, если в него не включены какие-либо современные научные теории или положения. С этих позиций научность курса определяется числом связей между элементами его содержания. Чем таких связей больше, тем более научен курс. Подобный подход позволяет не только судить

о научности, например, ныне действующих курсов, но и определить направление практических шагов по усилению научности вновь создаваемых курсов.

Содержание учебной дисциплины представляет собой систему, включающую факты, понятия, законы, теории, различного рода примеры приложения теоретического и фактологического знания.

Курс химии в логическом отношении является одним из самых простых курсов. Его содержательная система включает всего три подсистемы понятий. Исследование, проведенное В. Г. Нановым в 1965 г., показало большую перспективность изучения логики развития содержания подсистем химических понятий для совершенствования самого курса химии. Изучение связей между понятиями и понятийными системами позволило выявить логическую структуру курса химии, являющуюся в известном смысле моделью его содержания.

Подготовленное таким образом содержание, особенность которого в том, что каждое последующее понятие опирается своими признаками содержания на признаки содержания уже введенных понятий, является необходимым условием для формирования у школьников научного знания - знания, на основе которого они могут мыслить, а также объяснять и предсказывать факты.

Критериями отбора содержания для курса химии, отвечающего принципам научности и др. могут служить следующие положения:

1. Если определенные факты, понятия, и др. относятся к предметной области, введенной ранее в курс теории, или могут быть выведены из нее путем формальных преобразований, а также содержательной аргументации или могут непротиворечиво присоединяться к этой теории, то они могут быть отобраны для учебного курса.

2. Если факты, явления и др., позволяющие прогнозировать возможный результат эксперимента или наблюдения, можно получить из введенной ранее теории, то они могут быть отобраны для учебного курса.

3. Если эмпирические факты могут быть использованы для обоснования и подтверждения теории (то есть являются базисом теории); могут быть присоединены к теории непротиворечивым образом; иллюстрируют границы теории; позволяют подойти к пониманию новой теории, объясняющей непротиворечивым образом известные и новые эмпирические факты, то они могут быть отобраны для учебного курса.

4. Если правила, представляющие собой определенные инструкции к действию, основываются на введенных ранее теориях, то такие правила могут быть отобраны для учебного курса.

В качестве критериев отбора содержания для курса, отвечающего принципу доступности, могут служить следующие положения:

1. Если общая научная теория определяет этап развития основных понятий и обобщает (генерализует) отдельные факты, то такая теория может быть отобрана для курса.

2. Если факты, находящиеся в предметной области общей теории, определяющей этап развития основных понятий, служат для вывода данной теории или для ее подтверждения, то они могут быть отобраны для курса.

3. Если факты не находятся в предметной области общей теории и могут служить для иллюстрации ограниченности данной теории или для вывода новой общей теории, то они могут быть отобраны для курса.

В основе критериев доступности также лежат связи между элементами содержания - фактами, законами и теориями.

Рассмотрим критерии, которые необходимо учесть для того, чтобы сделать курс систематичным:

1. Если в отбираемом для учебного предмета содержании могут быть выявлены системы различных понятий (глобальные элементы структуры) и уровни их развития, то такое содержание может быть отобрано для курса.

2. Если отбираемые для определенной ступени курса локальные элементы включают содержание, которое опирается на предыдущее, а также дает информацию последующему, то такое содержание может быть отобрано для курса.

Конструктивность данных критериев состоит в том, что для каждого элемента содержания можно определить место в курсе на основе анализа его связей с другими элементами.

Несмотря на то, что построенное содержание соответствует логической структуре курса и он в связи с этим способствует формированию у школьников научного знания, на основе которого школьники могут объяснять, систематизировать, классифицировать факты, а также предсказывать новые факты, научный потенциал школьников будет невелик. Для его развития необходимо усовершенствовать методику преподавания, использовать такие приемы преподавания, с помощью которых можно активизировать мышление школьников.

Теперь, когда мы хоть и кратко показали, какой курс следует преподавать школьникам, чтобы формировать их научный потенциал, рассмотрим **третий этап** формирования научного знания. Он состоит в преобразовании теоретического знания в инструмент познания, в инструмент добывания новых знаний. Результаты этого этапа зависят в значительной мере и от изучаемого содержания, его логической связанности, и от методических решений, используемых в процессе обучения.

Необходимо отметить: если преподавание происходит таким образом, что от учащихся требуют только воспроизведения учебного материала (2-й уровень сформированности, по В. П. Беспалько), то никакого совершенствования научного потенциала учащихся мы не получим. Необходимо как минимум довести знания учащихся до третьего уровня (умения применять знания в знакомой методической ситуации). Для этого прежде всего следует показать сами приемы применения знаний. С этой целью в процессе объяснения обращать внимание на приемы классификации, сравнения, конкретизации и т. п., регулярно предлагать школьникам задания, при выполнении которых учащиеся должны были бы осуществлять какие-либо действия с полученным знанием, объяснять известные и предсказывать еще неизвестные им факты. В этом видится путь развития научного, потенциала школьников.

Хотелось бы отметить, что развитие научного потенциала в буквальном смысле этого слова должно сочетаться с практическими работами, наблюдениями, ручным трудом школьников.

Использованная литература:

1. *Личность* // Ребер А. *Большой толковый психологический словарь* / пер. с англ. Т. 1. – М.: Вече: АСТ, 2000, – С. 411.

2. Минченков Е. Е. *Содержание обучения химии. Общие вопросы* // *Общая методика обучения химии в школе* / Р. Г. Иванова, Н. А. Городилова, Д. Ю. Добротин и др.; под ред. Р. Г. Ивановой. – М.: Дрофа, 2008. – С. 38-92.

3. Беспалько В. П. *Слагаемые педагогических технологий*. – М.: Педагогика, 1989.

Азамат АКБАРОВ,
Международный Университет “Бурч”,
г.Сараево, Босния и Герцеговина

ТРАДИЦИОННЫЕ И СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ: ПРЕИМУЩЕСТВА И НЕДОСТАТКИ

Аннотация

Maqola ingliz tili darslarini zamonaviy innovatsion metodlarda tashkil etish masalalariga bag'ishlangan. Shuningdek, xorijiy mamlakatlarda til o'rgatishda foydalanilayotgan SIOP modeli tahlil qililib, yo'l qo'yilgan kamchiliklar haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar. Innovatsion metod, qobiliyat, metodologiya, maqsad, kognitiv, tizim, SIOP–model, nutq.

В данной статье представлен краткий анализ традиционных и инновационных методов преподавания второго языка, охарактеризована модель SIOP, используемая в зарубежных странах при обучении английскому языку, отмечены преимущества и трудности в использовании традиционных и современных приемов и методов обучения.

Ключевые слова. Инновационные методы, способность, методология, цель, познавательный, система, SIOP – модель, речь.

This article presents a brief analysis of traditional and innovative methods of teaching a second language, a model characterized by SIOP, used in foreign countries for teaching the English language, marked advantages and difficulties in the use of traditional and modern techniques and teaching methods.

Key words. Acquisition, second language, methodology, learning objectives, need, ability.

Чтобы применить какой-либо метод или стратегию обучения, учитель должен учесть важные факторы: интересы, мотивацию и уровень интеллектуальных способностей каждого индивида. Он должен начать обучение с поэтапного понимания, развития и направления своих учеников.

Таксономия образовательных целей Блума (1956) выделяет в когнитивной области иерархию шести категорий:

Когнитивные процессы	Результат
(1) Знание	Припоминание информации, полученной и освоенной учениками
(2) Понимание	
(3) Применение	Дает возможность использования знаний
(4) Анализ	Дают возможность работать над проблемами, которые нас вдохновляют, чтобы изучить и раскрыть свой творческий потенциал каждым учеником
(5) Синтез	
(6) Оценка	

Учителю следует знать потребности и способности своих учеников, как они воспринимают процесс обучения и развиваются в рамках этого процесса, и далее строить стратегии обучения в аудитории в соответствии с этими ключевыми моментами. Согласно теории Гарднера, все люди обладают различным интеллектом в переменных уровнях и индивидуальными проявлениями переменных уровней этих интеллектов, таким образом, каждый человек имеет уникальный "когнитивный профиль" (Гарднер 2006, 8). Учитель может развивать навыки преподавания, будучи осведомленным об этих особенностях множественного интеллекта и действуя в соответствии с этими особенностями, чтобы получить эффективное взаимодействие между собой и учениками.

Структура разума по Гарднеру (2006, 9-14) представляется следующим образом:

- (1) Лингвистико-вербальный интеллект.
- (2) Логико-математический интеллект.
- (3) Пространственно-визуальный интеллект.
- (4) Музыкальный интеллект.
- (5) Телесно-кинестетический интеллект.
- (6) Межличностный интеллект.
- (7) Внутрличностный интеллект.
- (8) Натуралистический интеллект.

Теория множественного интеллекта открывает двери к многообразию методов обучения, которые с легкостью можно применить в языковом классе, и дает учителю возможность расширения современных стратегий преподавания с помощью различных заданий и мероприятий (Армстронг 2009, 51).

Принимая во внимание интеллект учеников, учитель может управлять атмосферой в классе и определиться с ответом на вопрос об использовании традиционных или же современных методов обучения, а также с выбором вспомогательных средств и обучающих стратегий, которые помогут каждому ребенку принять знания по-своему.

Традиционные методы обучения, связанные с преподаванием языка, все еще широко используются во многих школах. Учитель доминирует в процессе обучения и, таким образом, он становится в центре всего процесса. К тому же, обучение проходит следуя строго предписаниям учебника для проявления какой-либо деятельности.

Традиционный способ обучения представляет собой процесс взаимодействия, когда учитель – источник знаний, а учащиеся – пассивные получатели этих знаний (Boutova 2008).

Целью этого метода является запоминание пройденного материала, независимо от того, понимают ли его ученики. Ведущим компонентом данной методики является тестирование. Все студенты проходят тестирование, которое воспринимается педагогом как основной метод оценки знаний, при этом не принимаются во внимание предпосылки знаний, способности и интересы учащихся. Таким образом, в классе недостаточно взаимной связи между учителем-учеником, и условий для практики и развития, особенно в приобретении знаний и навыков иностранного языка и коммуникации.

Существует три основных способа, используемых в традиционном обучении:

- (1) Прямые указания и лекции;

(2) Работа в классе, аудитории;

(3) Обучение студентов через восприятие на слух и наблюдение.

Современные методы обучения. С уверенностью можно сказать, что все педагоги ищут лучшие способы преподавания и использования современных методов и стратегий. В отличие от традиционной методологии, современная методология гораздо более ориентирована на личность учащегося. По словам Джима Скривнера, основная роль учителя заключается в том, чтобы “помочь учебному процессу случиться”, что подразумевает “вовлечение учащихся в то, что происходит, “позволяя им работать в своем темпе, не давая им долгие разъяснения, поощряя их участие и общение. (Scrivener 2005, 18, 19).

Современные классы оснащены различными наглядными средствами. Это магнитно-маркерные доски, образовательные ресурсы, обучающие игрушки, компьютеры, различные поделки, математическое оборудование, книги (как печатные, так и электронные), научное оборудование, головоломки, игры, конструкторы. И велика потребность в учителе, способном включить все это в процесс обучения. В современном учебном процессе учитель необходим не для того, чтобы объяснять, а поддерживать и помогать учащимся исследовать, пытаться претворить задуманное, делая обучение интересным. Вместо приоритета грамматической компетенции, которая закрепилась в традиционной дидактике, приоритетом должна быть установлена коммуникативная компетенция.

Рональдом В. Уайтом сформулировано три принципа современной методологии: преобладание речевой деятельности, акцент на центрированность связанного текста как сердце процесса обучения и абсолютный приоритет оральной методологии в классе. Вместо того, чтобы запоминать грамматические правила и отдельный список слов, современная методология предпочитает “представлять контекстный язык и развивать навыки” (White 1998, 11).

Основные навыки языка: аудирование, речь, чтение и письмо, могут быть распределены по двум группам: рецептивные (аудирование и чтение) и продуктивные (устная и письменная речь). Эти навыки включают в себя поднавыки. К примеру, чтение включает в себя скимминг и сканирование (беглое чтение конкретной информации), интенсивное и экстенсивное чтение.

В настоящее время, мы имеем дело с большим количеством методов, используемых в школах, и большинство из них дают очень хорошие результаты, в особенности при взаимодействии друг с другом. Сегодня широко используются следующие методы:

Прямая инструкция: это наиболее распространенная форма обучения посредством чтения лекций. Тем не менее, это не самый эффективный метод преподавания, чтобы охватить всех учащихся, особенно тех, кто моложе основной возрастной категории, которые часто нуждаются в более интересных формах преподавания для достижения эффективности их обучения.

Обучение посредством исследования: этот метод требует много времени, энергии и планирования, но часто это оправдано его эффективностью. Учащиеся практикуются в решении проблем, развивают навыки критического мышления, чтобы прийти к определенному заключению. Это наиболее лично-ориентированный и лично-направленный метод обучения.

Групповое обучение: группирование учащихся с целью совместной работы. Как правило, распределение происходит независимо от уровня способностей, не-

обходимо, чтобы в группе находились дети с различными уровнями. Таким образом, каждой группе предстоит выполнить определенное задание совместными силами.

Свободная инструкция: как следует из названия, это гораздо менее формальный метод обучения. Опытные учителя знают своих учеников. Если вы преподавали определенной группе учащихся в течение некоторого времени, вы, вероятно, уже знаете немного об их интересах, уровне подготовки и стиле обучения (WisegEEK.org 2014).

Большинство методов группируются в семейства образовательных моделей, поэтому мы можем говорить о семействе моделей обработки информации, семействе социальных моделей, семействе личностных моделей, бихевиористской (поведенческой) системе семейства моделей и конструктивистской модели (интегрированной).

Многие исследователи сегодня отдают предпочтение SIOP-модели, широко распространенной и внедренной в образовательных системах всех пятидесяти штатов США, и имеющей тенденцию занять ведущее место в мире. Она была разработана профессорами Калифорнийского государственного университета Дженной Эшеваррия и Мэри Эллен Вогт, а также Деборой Шорт, консультантом в области профессионального развития и старшим научным сотрудником Центра прикладной лингвистики в Вашингтоне округа Колумбия. Эта модель поддерживается Программой образовательного развития и исследований, Центром исследования образования, разнообразия и передового опыта (CREDE) и многими другими научно-исследовательскими центрами по всему миру (Echevarria, Vogt&Short 2008, 3).

Модель SIOP – научно-исследовательская и утвержденная образовательная модель, которая доказала свою эффективность в решении академических потребностей изучающих английский язык на всей территории Соединенных Штатов. Это всеобъемлющая, четко сформулированная модель обучения для подготовки учителей к работе с изучающими английский язык, но она также применима и к другим образовательным предметам. SIOP включает в себя планирование конкретного урока и осуществление наблюдений учителя. SIOP-модель также помогает подготовить учащихся к жизни после окончания школы и обучения в колледжах к их будущей карьере (Echevarria, Vogt&Short 2008, 4).

Эта модель формировалась на протяжении многих лет, и сегодня предназначена для современного учителя для повседневного использования в обучении. Модель SIOP развивает навыки аудирования, речи, чтения и письма через их составляющие.

SIOP-модель состоит из восьми взаимосвязанных компонентов:

- Подготовка к уроку.
- Построение темы.
- Понятное введение.
- Взаимодействие.
- Практика и применение.
- Постановка урока.
- Обзор и оценка (Echevarria, Vogt&Short, 2008, 16).

Каждая из этих деталей помогает и направляет учителя на планирование и организацию урока с целью получения лучших результатов и обратной связи от учащихся. Результатом использования этого метода является высокое качество, эффективность обучения и улучшение успеваемости учащихся.

Особенностями модели SIOP является следующее: удовлетворение цели, задач изучения языка; понятие содержания; использование дополнительных материалов; адаптирование содержания; обеспечение активной деятельности; использование исходного опыта учащихся; проведение связи между изученной темой и новыми идеями; акцентирование на необходимой лексике; использование в речи, соответствующей теме; использование различной техники с целью сделать содержание более понятным; предоставление возможностей студентам использовать и применять стратегии обучения: метакогнитивные, познавательные, социальные и эмоциональные; последовательное использование вспомогательных методов; использование различных вопросов или задач; предоставление учащимся возможностей для уточнения ключевых понятий в L1 (первом языке); обеспечение раздаточными материалами для усвоения нового содержания в контексте; объединение языковых навыков в область содержания обучения; обеспечение занятости учащихся на 90-100% всего времени.

Преимущества и недостатки традиционных и современных методов

Применяя современные методы обучения, мы имеем возможность использовать в своей работе множество различных вспомогательных устройств и материалов. Дети, безусловно, получают большое удовольствие от уроков, на которых применяются различные визуальные материалы, например, флэшкарты, интерактивные доски, компакт-диски и т.д. Таким образом, они становятся более внимательными и запоминают учебный материал легче, передавая его в долговременную память намного быстрее, чем если бы учитель объяснял тему традиционным способом. Эти средства также “поддерживают факты в эксплицитно-декларативной памяти учащихся” (Ortega 2009, 87).

Большую пользу от использования вспомогательных средств получает и учитель: конечно, гораздо проще показывать процесс произрастания растений в виде слайд-шоу, чем один раз, чем рисовать картинки на доске каждый раз, когда это необходимо. Правильное использование средств, объединенных в обучающем методе, поможет оградить учителя и детей от разочарования в школе и школьной системе.

Есть у современных методов и недостатки, которые, наоборот, говорят в пользу традиционных методов. Как уже было сказано, они позволяют нам использовать современные средства обучения, которые могут привести к определенным препятствиям и неудобствам, которыми могут оказаться отсутствие взаимодействия между учителем и учеником, высокая стоимость оборудования и его техобслуживание, а также необходимость обучения персонала правильному использованию техники.

Традиционные методы обучения использовались в течение длительного периода. Нельзя сказать, что традиционная модель обучения является абсолютно неправильной или неприемлемой в условиях современности. Она также может быть использована и сегодня, но, конечно, вкупе с другими методами. Недостатками традиционных методов обучения является следующее:

- учитель инструктирует учеников, как правило, посредством лекций;
- учитель обычно демонстрирует содержание на доске или через кодоскоп;
- учащийся получает практическую работу, как правило, в рабочих тетрадях или на раздаточном материале;

– учитель оценивает работу студента или тестовые задания группы с помощью карандаша и листов с ответами;

– учитель обеспечивает обратную связь в отношении студента, как правило, в виде оценки его работы и замечания упущенного.

Сложно сказать, какие методы необходимо сегодня использовать в аудитории, особенно молодому учителю. В процессе обучения все должно быть принято во внимание: сама аудитория, количество учащихся, оборудование, которым располагает учебное заведение, базовые знания, способности, социальные условия, мотивации каждого индивида. Учитель может использовать любые педагогические методы, разрешенные системой образования, как традиционные, так и современные, однако включая их широкий спектр, при этом неустанно работая над собой, ежедневно совершенствуя свои навыки преподавания. Он должен стать хорошим примером для своих учеников, не только как представитель своей профессии, но также как интересная личность, которая способна вовлечь в учебный процесс. Быть учителем – большая работа и большая ответственность. Установление личного контакта учителя с учениками проходит долгий путь через определение комфортной зоны в процессе обучения. Если учитель видит в своих учениках, тех, кому нужен учитель, способный помочь им, когда они в этом нуждаются в течение образовательного процесса, если он способен вызывать улыбку, вспышки радости и счастья, горящий огонек в глазах, нам не придется задавать вопросы, касающиеся традиционных или современных методов обучения. Такому учителю под силу все.

Использованная литература:

1. Bloom, B. S. & D. R. Krathwohl. 1956. *Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals: Handbook I, Cognitive Domain*. New York: Longmans, Green.

2. Christison, M. A. 1996. – *Teaching and Learning Language through Multiple-Intelligences*. *TESOL Journal* 6: 10–14.

3. Create Brief – *The SIOP® Model: A Professional Development Framework for a Comprehensive School – Wide Intervention*.

4. <http://www.cal.org/create/publications/briefs/professional-development-framework.html> (accessed January 21, 2013.)

5. Larsen-Freeman, D. 2000. *Techniques and Principles in Language Teaching*. Oxford: Oxford University Press.

6. Masaryk University Faculty of Art. *Traditional vs. Modern Teaching Methods: Advantages and Disadvantages ...* [is.muni.cz/th/86952/ff_m_b1/V Boumova](http://is.muni.cz/th/86952/ff_m_b1/V_Boumova) 2008.

Models of Teaching. Faculty Center for Teaching and Learning. <http://www.fctl.ucf.edu/events/winterconference/2008/content/Monday/Models%20of%20Teaching>.

SIOP: Sheltered Instruction Observation Protocol.

<http://www.siopinstitute.net/>.

Traditional education. http://en.wikipedia.org/wiki/Traditional_education (accessed January 8, 2013).

The SIOP Model. <http://www.msdt.k12.in.us/msd/wp-content/uploads/2011/10/siop-model-and-research-findings> (accessed January 24, 2013).

Фарид КУЧУКБАЕВ,
УзНИИПН, старший научный сотрудник
Муяссар ДИВАНОВА,
УзНИИПН, старший научный сотрудник

ФОРМИРОВАНИЕ У МОЛОДЕЖИ ИНФОРМАЦИОННОЙ И НРАВСТВЕННОЙ КУЛЬТУРЫ В УСЛОВИЯХ ИНТЕНСИВНОГО РАЗВИТИЯ СЕТИ ИНТЕРНЕТ

Аннотация

Maqolada hamkorlikda faoliyat yurituvchi ta'lim muassasalari, ota-onalar va o'quvchilarni Internetdan xavfsiz foydalanishida axborot madaniyati va ko'nikmalarining shakllanishi, ma'naviy va axloqiy rivojlanishi, ularning ruhiy salomatligiga salbiy ta'sir etuvchi axborotlardan saqlashning mazmun va shakllari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar. Internet tarmog'i, axborot madaniyati, axborot xavfi, elektron pochta, suitsid-saytlari, kommunikativ ko'nikma, Internet-resurslar.

В статье освещены возможные пути защиты детей от информации, способной нанести вред их психическому здоровью, духовному и нравственному развитию, определены формы и содержание совместной деятельности образовательного учреждения и родителей по развитию у учащихся информационной культуры и навыков безопасного использования Интернета.

Ключевые слова. Сеть, Интернет, информационная культура, информационные угрозы, электронная почта, коммуникативные навыки, Интернет-ресурсы.

This article highlights the possible ways of protecting children from information that could harm their mental health, spiritual and moral development, determined the shape and content of joint activities of educational institutions and parents in the development of students' information culture and skills of safe use of the Internet.

Key words. Network, Internet, information culture, information threats, e-mail, communication skills, mobile phone, Internet resources.

Современные компьютерные технологии стремительно развиваются и занимают все больше места в системе образования и в жизни каждого человека. Включение информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в учебный процесс позволяет учителю организовать разнообразные формы учебно-познавательной деятельности на уроках, сделать активной и целенаправленной самостоятельную работу учащихся. ИКТ можно рассматривать как средство доступа к учебной информации, обеспечивающее возможности поиска, сбора и работы с источником, в том числе и сети Интернет.

Одним из результатов обучения и воспитания в школе первой ступени должна стать готовность детей к овладению современными компьютерными технологиями и способность актуализировать полученную с их помощью информацию для дальнейшего самообразования и духовно-нравственного самовоспитания.

Умение использовать интернет (в том числе для поиска информации) стало необходимым и было включено в Государственный стандарт общего среднего образования. Учебная программа 7 класса предусматривает изучение основ работы в Интернете. Основные направления программы:

- дать понятия об Интернете;
- ознакомить учащихся с программами, необходимыми для работы в Интернете и их основными возможностями;
- научить пользоваться электронной почтой и способами получения информации из Интернет;
- представить сведения о защите информации и антивирусах.

Для многих школьников Интернет становится информационной средой, без которой они не представляют себе жизнь. Вместе с тем, в интернете содержатся огромные массивы информации, которые являются запрещенной могут нанести вред физическому и психическому здоровью детей, их духовному и нравственному развитию.

В этой связи возникает проблема защиты человеческого сознания, особенно недостаточно сформировавшегося сознания детей и подростков от манипулирования им средствами массовой информации и, в частности через глобальную сеть Интернет, подготовки школьников к жизни в бескрайнем и фактически лишенным позитивного содержания информационном пространстве. Решение данной задачи связано с проблемой формирования устойчивых нравственных свойств личности, способной противостоять информационным угрозам, воспитания информационной культуры у юных пользователей Интернета.

В современных условиях особую опасность для формирования и развития мировоззрения младших школьников и подростков представляют:

- “суицид-сайты”, на которых дети получают информацию о “способах” расстаться с жизнью;
- сайты-форумы потенциальных самоубийц;
- “наркосайты”, которые предлагают различные рецепты и советы по изготовлению и употреблению “зелья”;
- сайты, разжигающие национальную рознь и расовое неприятие: экстремизм, национализм, фашизм;
- сайты порнографической направленности;
- сайты знакомств, виртуальное общение, которые разрушают способность к общению реальному, “убивают” коммуникативные навыки подростков;
- сайты о сектах, отрицательно влияющих на взгляды молодежи на мир.

Через социальные сети подростки могут попасть под влияние радикальных политических групп или различного рода религиозных сект. Серьезная опасность начинается тогда, когда подростки после просмотра реальных сцен насилия и жестокости пытаются подражать “героям” роликов, размещенных на Интернет-ресурсах.

Вовлечение в азартные игры, это еще одна угроза негативного воздействия на ребенка. Даже простые он-лайн игры наносят непоправимый вред психическому и физическому здоровью ребенка, занимая у него подавляющую часть времени, отвлекая от занятий и спокойного отдыха.

Помимо перечисленных рисков и угроз интернет несет опасность, напрямую связанную с личностными изменениями детей и подростков – развитие интернет-зависимости.

Угрозы становятся все более реальными, так как дети не способны иногда правильно оценить степень вредного воздействия информации, которую они воспринимают или передают. Это, в свою очередь, имеет место вследствие того, что темпы информатизации оказались столь быстрыми, что и семья и школа оказались не готовы к угрозам нового типа и методы борьбы с ними еще только разрабатываются.

Для преодоления негативного воздействия сети Интернет на детей в образовательном учреждении должна проводиться целенаправленная воспитательная работа. Научить школьников распознавать и противостоять интернет-угрозам является совместной задачей школы и семьи. При этом именно школа должна инициировать и организовать это сотрудничество, просвещая родителей и обучая своих учеников.

Образовательному учреждению совместно с родителями и детьми необходимо выработать единую стратегию безопасности. Эта стратегия должна предусматривать обучение как педагогических работников, так и родителей и детей.

Обучение педагогических работников может проводиться в форме семинаров, мастер – классов и круглых столов. В рамках этих обучающих мероприятий должны рассматриваться:

- проблемы информационной безопасности в сети Интернет;
- нежелательный для детей контент и меры борьбы с ним;
- виды и формы информационно-психологического воздействия и методы защиты от него;
- правила и нормы сетевого этикета;
- причины возникновения девиантной формы поведения детей и методы работы по их профилактике и устранению.

Работа с детьми должна вестись в зависимости от возрастных особенностей: начальная (2-4 класс) и средняя (5-9 класс) ступени общеобразовательной школы. На каждом этапе необходимы специальные формы и методы обучения.

Формирование навыков информационной безопасности не включены в основную сетку учебных часов предмета “Информатика”, поэтому вопросы безопасного использования Интернета нужно изучать не только на уроках информатики, но и в рамках других предметов. Информационная культура и безопасность может быть интегрирована в учебные предметы:

- Мир вокруг нас;
- Основы государства и права;
- Основы экономических знаний;
- Этика;
- Чувство родины;
- Идея национальной независимости и основы нравственности;
- Изобразительное искусство.

Кроме того формирование навыков информационной безопасности и культуры должно осуществляться во внеурочной деятельности, в рамках воспитательных (классных) часов.

Занятия должны быть направлены на:

1) Формирование информационной культуры учащихся через представление об информации и ее роли в информационном обществе:

- ознакомление с понятием и видами информации;
- формирование представления о способах получения и передачи информации;
- формирование основ информационного мировоззрения в соответствии с национальными культурными ценностями и менталитетом Узбекистана;
- развитие умений работать с информацией и формирование элементарных навыков анализа и оценки информации.

2) Формирование у детей навыков безопасного использования Интернета на основании имеющегося у них опыта:

- повышение уровня осведомленности детей о наиболее актуальных интернет-угрозах (с учетом возраста аудитории, региона, других факторов);
- формирование навыков и осознанных подходов к противодействию интернет-угрозам;
- связь навыков повседневного использования интернета, планшетов и мобильных телефонов с правилами безопасности;
- реальное взаимодействие детей с учителями и родителями, особенно в критических и неприятных ситуациях.

Большое значение для эффективности урока Интернет-безопасности имеет не только содержание, но и форма его проведения.

В начальных классах целесообразно использовать: урок-путешествие, урок-викторину, урок-соревнование (конкурс), урок-игру, беседу.

Возможные формы проведения занятий в 5-9 классах: лекция, деловая игра, урок-презентация проектов, дискуссия, дебаты, встреча со специалистами медиа-сферы и системными администраторами.

Полезно создать в школе “Совет по Интернет – безопасности”, в рамках которого дети будут изучать и создавать проекты по информационной безопасности, проводить доклады и заседания. Это позволит воспитать в школьниках не только культуру общения в сети, но и привить нравственность, ответственность за использование и передачу информации.

Родители, с ранних лет обучая ребенка основам безопасности дома и на улице, не задумываются, что точно так же нужно обучить его основам безопасности в сети, что ребенок абсолютно незащищен перед потоком информации, сваливающейся на него из сети. Поэтому с родителями необходимо вести постоянную разъяснительную работу, т.к. без понимания родителями данной проблемы невозможно ее устранить силами только образовательного учреждения. Для этого необходимо:

- обсудить с родителями проблему о зависимости детей от Интернета;
- познакомить родителей с угрозами, с которыми дети могут столкнуться в Интернете;
- совместно найти пути решения данной проблемы;

-
- познакомить родителей с советами специалистов по общению детей с интернетом;
 - научить некоторым правилам и приемам, облегчающим общение с подростком;
 - расширить объем знаний родителей о нормах и методах решения возникающих проблем с детьми.

Формы работы с родителями могут быть разнообразными:

- круглые столы;
- ориентационные семинары;
- индивидуальные беседы;
- выступления на родительских собраниях;
- информация на сайте школы.

Немаловажным в деле просвещения родителей являются специальные методические рекомендации для родителей по обеспечению информационной безопасности в сети Интернет. В этом случае может быть полезным «Руководство по обеспечению информационной безопасности детей в условиях глобализации телекоммуникационных систем (часть вторая – Интернет)». Пособие содержит классификацию Интернет угроз, рекомендации по обеспечению безопасности ребенка в сети Интернет дома (в зоне ответственности родителей) и перечень безопасных Интернет-ресурсов, рекомендованных детям.

При подготовке материалов классного часа (урока) необходимо использовать следующие дидактические принципы:

- активная включенность;
- доступность;
- мотивация;
- рефлексивность;
- системность;
- открытость содержания.

Принцип активной включенности предполагает учет субъектной позиции ребенка в процессе изучения материала, обращение к личному опыту и развитие этого опыта на основе получения новых знаний или структурирования имеющихся.

Принцип доступности предполагает учет возрастных характеристик участников занятия, их жизненного опыта, уровня знаний, полученных в процессе обучения.

Принцип мотивации предусматривает подачу информации в форме, которая стимулирует ребенка к использованию полученных знаний в повседневной жизни, направляет на поиск новой информации.

Принцип рефлексивности дает ребенку возможность соотнести собственный опыт и полученные знания, корректировать модели собственного поведения с учетом мирового опыта и отдельных отрицательных примеров.

Принцип системности отражается в структурированности информации, рассматриваемой в рамках урока, подаче новых знаний как дополняющих и уточняющих картину единого целого, в том числе в области интернет-безопасности и информационных технологий. При этом информация представляется в форме простых правил и лаконичных формулировок, опирающихся на личный опыт и особенности восприятия детей.

Принцип открытости содержания предполагает свободное использование преподавателем подготовленных материалов, возможность их полного или частичного использования, дополнения более актуальными материалами.

При подготовке к занятию (уроку) преподаватель самостоятельно формирует материал, при этом учитывает возрастные особенности класса, общий уровень развития детей, особенности помещения и обстановки, наличие технических средств обучения, в т.ч. подключение к интернету, уровень собственной подготовки.

Из сказанного выше следует, что основной задачей педагога в современных условиях становится развитие личности обучаемых с помощью и на материале средств массовой коммуникации, формирование культуры общения с медиа, развитие творческих коммуникативных способностей, критического мышления, умений полноценного восприятия, интерпретации, анализа и оценки информации, полученной через глобальную сеть Интернет.

Для этого современному учителю требуются не только глубокое знание своего предмета и методики преподавания, но и общая социально-политическая грамотность, четкое понимание круга интересов школьников, их предпочтений. Учитель должен знать особенности и возможности средств массовой коммуникации и уметь их использовать в дидактических целях, чтобы придать процессу обучения нравственную направленность.

Использованная литература:

1. Учебная программа по курсу “Основы информатики и вычислительной техники” (5-9 классов), Республиканский центр образования МНО Республики Узбекистана, 2010.
2. Фадеева С. В. “Психолого-педагогические аспекты компьютерной зависимости подростков” // Журнал “Воспитание школьников” № 10 2009. – С. 23.
3. Livingstone, S., Haddon, L., & Görzig, A. *Children, risk and safety on the internet: Kids online in comparative perspective*. Bristol: The Policy Press. July 2012.
4. http://www.barnardos.org.uk/what_we_do/barnardos_today/resources_internet_safety.htm
5. <http://www.detionline.ru/>
6. http://www.familylearning.org.uk/internet_safety.html
7. <http://www.microsoft.com/rus/protect/default.aspx#>
8. <https://www.privacyrights.org/content/childrens-safety-internet>
9. <http://www.saferinternet.ru/>.
10. http://www.symantec.com/ru/ru/norton/clubsymantec/library/article.jsp?aid=cs_teach_kids.